

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

Samarqand Iqtisodiyot va Servis Instituti

Iskandarov E., Norboyeva D.

PEDAGOGIKA

(Barcha bakalavriat yo'nalishidagi talabalar uchun
o'quv-uslubiy qo'llanma)

Samarqand 2009

Iskandarov E. , Norboyeva D. “Pedagogika” o’quv uslubiy qo’llanma
Samarqand SamISI nashri 2009 - 130 b.

Taqrizchilar: p. f. d M.M. Mahmudova
p. f. n. S. O’tanazarov

Ushbu o’quv - uslubiy qo’llanma bakalavriat talim standartlariga kiritilgan «Pedagogika» fanini ixtisosligi «Psixologiya» va «Pedagogika» bo’lmagan oliygohlarda o’qitishga mo’ljallangan. Unda har bir mavzu uchun reja, qisqacha uning mazmuni, mavzuga oid tayanch so’zlar, adabiyotlar ro’yxati hamda amaliy mashg’ulotlarning yangi pedagogik texnologiyalar asosidagi ishlanmalari o’rin olgan. O’quv uslubiy qo’llanmadan talabalar pedagogika fanini puxta o’rganishda, pedagogika fani o’qituvchilari esa mashg’ulotlarni zamonaviy ilg’or pedagogik texnologiyalar va interfaol usullar yordamida tashkil etishda foydalanishlari mumkin.

Kirish

Oliy o'quv yurtlarida yuqori malakali pedagogik kadrlar yetishtirishda pedagogika fanining o'рни katta. Zero, zamonaviy iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarni rivojlantirish asosida kadrlar tayyorlashning takomillashgan tizimini yaratish mamlakatimizni taraqqiy ettirishning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Tizimning amal qilishi kadrlarning istiqbolga mo'ljallangan vazifalarini hisobga olish va hal etish qobiliyatiga, yuksak umumiy va kasbiy madaniyatga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda yo'nalish ola bilish mahoratiga ega bo'lgan yangi avlodni shakllantirishni ta'minlaydi.

Insonni har tomonlama tarbiyalash insoniyatning azaliy orzusi bo'lib, ajdodlarimiz ma'rifat va madaniyatni qanday qilib yosh avlodlarga o'rgatish, ularni komillikka yetaklash yo'llari, qonun-qoidalarini izlaganlar. Insonlarni ma'rifatli va ma'naviy komil bo'lishi – pedagogika fanining asosiy maqsadidir.

O'quv-uslubiy qo'llanmani tayyorlashdan maqsad, birinchidan, adabiyotlar yetishmasligining ma'lum darajada oldini olish bo'lsa, ikkinchidan, eng muhimi, nazariy va amaliy pedagogik bilimlar, ko'nikma, malakalarni talabalar tomonidan yangi ilg'or pedagogik texnologiyalar, hamda faol hamkorlik asosida o'zlashtirishlariga erishishga ko'maklashishdir.

O'quv-uslubiy qo'llanmani tayyorlashda N.Xujayev "Ta'lim nazariyasi", N.Xujayev "Pedagogika asoslari", I. P. Podlasiy "Pedagogika", A.A.Radugina "Psixologiya i pedagogika", G.T Ochilova. "Pedagogika", F.Niyazov "Pedagogika" ma'ruza matnlaridan foydalanildi. Shuningdek, ayrim yangi pedagogik texnologiyalarini tadbqiq qilish jarayonlarni yoritishda A. Tolipovning "Yangi pedagogik texnologiyalarni tadbqiqiy asoslari" asaridan va pedagog olimlarning eng yangi tadqiqotlaridan, vaqtli matbuot materialaridan ham foydalanildi. Qo'llanmada amaliy mashg'ulotlarni faol o'rganish usullari, yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishga imkoniyat yaratishga harakat qilindi.

Har bir mavzu uchun reja, qisqacha uning mazmuni, mavzuga oid tayanch so'zlar, adabiyotlar ro'yxati hamda amaliy mashg'ulotlarning yangi pedagogik texnologiyalar asosidagi ishlanmalari va har bir amaliy mashg'ulot ishlanmasidan keyin mustaqil amaliy ishlash uchun topshiriqlar berilgan.

1-Mavzu. Pedagogika fanining predmeti, maqsadi va vazifalari. **Pedagogikaning ilmiy tadqiqot usullari**

Asosiy savollar:

Hozirgi zamon pedagogikasining maqsadi va vazifalari

Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi

Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot usullari.

Aniqlashtirilgan o'quv maqsadlari. Talaba bu mavzuni to'la o'zlashtirgandan so'ng:

-Pedagogikaning paydo bo'lish tarixini biladi;

-Pedagogika fanining maqsadini aytib beradi;

-Pedagogikaning tarmoqlarini sanaydi;

-Har bir tarmoq uchun ta'rif beradi;

-Pedagogika atamasi uchun klaster tuzadi.

Tayanch so'z va iboralar: Tarbiya, ta'lim, ma'lumot, umumiy pedagogika, yoshlar pedagogikasi, o'quv muassasasigacha tarbiya pedagogikasi, oila pedagogikasi, maxsus pedagogika, pedagogika tarixi, kuzatish, Suhbat, eksperiment, o'quv muassasasi xujjatlarini o'rganish, testlar.

1-savol bo'yicha dars maqsadi: Talabalarga pedagogika fani haqida tushuncha berish:

1-savol bayoni: "Pedagogika" atamasi "Payne" - "bola" va "agogein" – "yetaklamok" degan ma'noni bildiruvchi lotincha "daydagogos" so'zlaridan paydo bo'lishi quyidagicha izohlanadi: Eramizdan oldingi III-IV-asrlarda Qadimgi Yunonistonda, quldorning bolasini ovqatlantiradigan, sayrga olib boruvchi, tabiat qo'ynida o'ynatuvchi tarbiyachi qullarni "pedagog" deb atashgan. U bolaning kamolotga yetishishiga mas'ul bo'lgan. Quldorning bolasini maktabga yetaklab olib borgan va olib kelgan. Maktabda ishlovchi o'qituvchilarni "didiskallar" («didayko»-men o'qitaman) deyishgan. Feodalizm jamiyatiga kelib esa har ikki kasbdagi kishilar hamkorligi natijasida ta'lim tarbiya bilan maxsus shug'ullanuvchilar vujudga kelgan. Ularni taniqli chex pedagogi Ya.A.Komenskiy ta'kidlaganidek, "Pedagog" deb nomlanganlar va bu so'z xozir ham ta'lim tarbiya beruvchi o'qituvchilarga nisbatan qo'llaniladi. Shuning uchun ham keyingi paytlarda pedagogikani yosh avlodni va katta yoshdagi odamlarni tarbiyalash va o'qitish, ularga ma'lumot berish qonuniyatlarini o'rganuvchi fan, deb belgilash odatga aylandi.¹

Oldiniga tarbiya jarayoni kattalar tomonidan bevosita mehnat faoliyatida amalga oshirilgan bo'lsa, jamiyat rivojlana borgan sari bunday yo'l talabga javob bermay quydi. Endi tarbiya bilan bilimdon, tajribasi yetarli odamlar shug'ullana boshladi. Mashg'ulotlar tobora tashkiliy shakllarga, ko'rinishlarga ega bo'lib bordi va sekin-asta o'quv muassasalari paydo bo'ldi.

Pedagogika uzoq taraqqiyot yo'lini bosib o'tib, hozirgi vaqtda ilmiy bilimlarning yaxshi shakllangan, katta nazariy va amaliy materiallarni o'z ichiga olgan tarmog'iga aylandi. Bularning barchasi pedagogikaning tabaqalanishi, ya'ni uning alohida tarmoqlarga ajralishiga sabab bo'ldi.

Har bir mustaqil fan o'zining predmeti va usullik asosiga ega bo'lgani kabi pedagogika fani ham fan sifatida shakllanib, o'z predmetiga ega bo'ldi. Barcha ijtimoiy fanlar kabi jamiyatlardagi o'zgarishlar, inqiroz, yuksalishlar pedagogika fanining usulologiyasi, o'qitish jarayoni, g'oyalar rivojiga ham o'z navbatida ta'sirini ko'rsatadi. Lekin insoniyat tarixiga nazar tashlar ekanmiz, hamma davrlarda pedagogik faoliyat, tarbiyaviy jarayon mavjud bo'lgan. Shu sababli ham tarbiya jarayonini ijtimoiy hayotning ajralmas qismi deb qarash, hamda oldin tarbiyaviy ishlarni olib bormasdan turib, insoniyat hayotidagi buyuk o'zgarishlarni, jamiyatni rivojlanishini, farovon turmush tarzini tasavvur qilish qiyin.

Pedagogika fanining ilmiy-tadqiqot ishlar, pedagogik g'oyalar, ilmiylikka asoslangan natijalar jamlanmalari, ilmiy ishlanmalar, tajribalar, tavsiyalar asosida bir qator ilmiy pedagogik qullanmalar, darsliklar chop etilgan.

Muhokama uchun savollar:

1. Pedagogikaning fan sifatida shakllanishi, bu iqtisodiy hayotning talabimi? (aqliy xujum).

2. Hozirgi davrda o'sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasida qanday muammolar mavjud. (munozara).

Savol yakuni: Hozirgi zamon pedagogikasining maqsadi va vazifalari

Hozirgi zamon pedagogika fani jahon pedagogikasining yetakchi bir qismi bo'lib, pedagogika fani tarixi bilan mustahkam bog'liqdir. Pedagogika fanining tarixi esa, pedagogikaning qismlaridan biri, uning maxsus tarmog'i hisoblanadi.

Pedagogikaning bosh masalasi tarbiyadir. Tarbiyadagi keng ma'no ta'lim, rivojlanish, ma'lumot bilan bog'langan holda barkamol insonni voyaga yetkazishdir.

Pedagogika fanining maqsadi:

Respublikamizda komil insonni voyaga yetkazishning bir butun holatdagi muammolarini hal qilish;

Ta'lim-tarbiya samaradorligini tinmay oshirish va dunyo talablari darajasiga olib chiqish masalalariga ijodiy yondashish;

Umuminsoniy qadriyat va milliy madaniyatning asoslarini e'tiborga olib, ta'lim-tarbiya mazmunini, milliy mafkurani shakllantirib borish imkonini yaratish;

Pedagogika-tarbiyashunoslik qoida, qonunlarni ilg'or tajribalar asosida boyitib borish va yangi ish shakllarini izlashga tadbirlar belgilash;

Uzluksiz ta'lim tizimini yanada rivojlashtirish muammolarini hal qilish;

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ni amalga oshirish.

Pedagogika fanining vazifalari:

Sharq va G'arbda xalq yaratgan xalq og'zaki ijodiyoti, pedagogikasi, mutafakkir, ma'rifatparvar, pedagog va olimlarning tarbiyashunoslikka doir ilg'or g'oyalarini o'rganib, tahlil qilib, komil insonni tarbiyalash jarayonini o'rganish;

Komil insonni tarkib toptirishning qonuniyat, qoida va zaruriy sifatlarini aniqlash;

Pedagogikadagi ta'lim-tarbiya nazariyasini hozirgi davr xususiy usulikasi bilan uzviylik muammolarini ishlab chiqish va yangi pedagogik texnologiya qonunlariga amal qilish;

Ta'lim-tarbiya nazariyasidagi qoida, qonun, tamoyil, usul va usullarini maktab amaliy hayoti bilan bog'lab, bo'lajak o'qituvchilarga o'rgatish;

Xalq ta'limini boshqarish va rahbarlik masalalarini chuqur o'rganib bo'lajak o'qituvchilarni qanday tayyorlash muammolarini hal qilish. Pedagogika fanining mazmuni, maqsadi, vazifalari, tamoyil, usul va vositalari umuman, har bir inson uchun zarur bo'lgan tarbiyaviy ta'sirlar yangicha asosga ega bo'lishi kerak.

Demak, pedagogika fanining predmeti, o'qitishning, ta'lim-tarbiyaning zamonaviy qonuniyatlari, mazmuni, usullari, vositalari bilan kishilarni, yoshlarni, mutaxassislarni qurollantiruvchi fan bo'lganligi uchun ham uning metodologik asoslari maqsad va vazifalari dunyoning moddiy-ma'naviy rivojida shaxs kamoloti uyg'unligi qonuniyatlari va davlatning zamonaviy siyosatidan kelib chiqadi.

Tarbiya jamiyatning vazifasi bo'lib, u faqat ishlab chiqarish munosabatlari ta'sirida emas, balki turli tarixiy davrlarda ilgari suriladigan u yoki bu tarbiya nazariyasining g'oyalari ta'sirida aniq shaklga ega bo'ladi, shuning uchun ham ko'p jihatdan ma'rifatchi va pedagoglar faoliyatining natijasini ifodalaydi. Agar tarbiya alohida mustaqil vazifa sifatida kishilik jamiyati paydo bo'lishi bilan birga tarkib topgan bo'lsa, ta'lim nazariyasi fan sifatida bir muncha keyinroq shakllangan.

Tarbiya jamiyat hayotida sezilarli rol o'ynaydi. Jamiyatda tarbiya jarayonida to'plangan tajribani umumlashtirish ehtiyoji tug'ilib, o'sib kelayotgan yosh avlodni hayotga tayyorlash imkonini beradigan maxsus o'quv yurtlarini ochish zaruriyati paydo bo'lishi bilan birga, ta'lim nazariyasi ham fan sifatida rivojlana boshladi.

Ibtidoiy jamoa davrida ham ijobiy tarbiya tajribasini ommalashtirishga o'rin ish kurtaklari bo'lgan. Masalan, kattalar va yoshlar o'rtasidagi munosabatlar bilan, keyinroq turli odat va marosimlar bilan bog'liq o'zini tutishning ba'zi bir ko'rinishlari shakllana boshlagan.

Qadimiy va O'rta Sharq adabiyoti namoyondalari orasida nazariy-pedagogik tusga ega qator ilmiy qarashlar mavjud bo'lgan. Ular orasida Al-Farobiy, Alisher Navoiy va boshqalarning asarlarini misol keltirish mumkin.

Feodalizm davrida tarbiya asosan din ta'sirida bo'lgan. Shuning uchun ham ta'lim nazariyasining asosiy g'oyalari diniy ilm orqali ifodalangan.

Tarbiya nazariyasining g'oyalari ancha oldindan ilgari surilgan bo'lishiga qaramay pedagogik ilmiy bilim-fan sifatida bir oz keyin shakllangan.

Pedagogikaning fan sifatida shakllanishi buyuk chex pedagogi Yan-Amos Komenskiy (1592-1670) nomi bilan bog'liqdir. Komenskiy tomonidan taklif etilgan tamoyillar, ta'lim jarayonining shakl va uslublari «Pedagogika»ning oltin fondiga kirgan. Uning mashxur «Buyuk didaktika» asari pedagogika nazariyasi va amaliyoti sohasida birinchi muhim ilmiy asar hisoblanadi.

O'quv muassasasidagi o'quv jarayonida ta'lim, tarbiya va ma'lumot o'zaro bog'liq ravishda amalga oshiriladi. Har qanday fan o'rgatilishi mobaynida pedagog tarbiyalanuvchilar dunyoqarashini shakllantiradi, madaniy xulq-atvorini tarbiyalaydi.

Nazorat uchun savollar (tarqatma materiallar)

Pedagogika o'zi nima? Berilgan javoblardan to'g'risini aniqlab belgilang.

1. Pedagogika fani bolaning rivojlanish qonuniyatini va tarbiyada tutgan o'rnini belgilaydi.
2. Pedagogika-tarbiya, ta'lim va ma'lumot haqidagi fan.
3. Pedagogika-bu tarbiyalanuvchi dunyoqarashini shakllanishida tarbiyachi tomonidan tutgan o'rnini
4. Pedagogika-o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash haqidagi fan.
5. Pedagogika-umuman insonni tarbiyalash haqidagi fan.

2-savol bo'yicha dars maqsadi: Talabalarga pedagogikaning tarkibiy tuzilishi va asosiy tarmoqlari haqida tushuncha berish.

Pedagogika fanining tarixan shakllanishi, pedagogika fanlari tizimini yuzaga keltirdi. Shu sababli uzluksiz ta'lim, pedagogika fanlari tarkibiga kirgan pedagogikalar o'rtasidagi hamkorlikni taqozo etadi.

Pedagogikada tarbiyalanuvchilarning yoshiga ko'ra maktabgacha yoshdagi, maktab yoshidagi va katta yoshdagilar deb guruhlariga ajratish qabul qilingan. Maktabgacha va maktab yoshidagi bolalar pedagogikasi mazkur guruh bolalari bilan olib boriladigan tarbiyaviy-tashkiliy ishlarning qonuniyligini tadqiq etadi hamda eng avvalo ularni bolalarning maktabgacha muassasalari shart-sharoitlarida amalga oshirish dasturini ishlab chiqadi.

Maktab pedagogikasi ommaviy o'rta maktabda o'quvchilarga ta'lim berish va tarbiyalashning qonuniyatlarini tadqiq etadi.

Kasb-xunar ta'limi pedagogikasi - umumiy maktablarning yuqori guruh o'quvchilari yoshida bo'lgan bolalar, akademik litsey va kasb-xunar kolleji shart-sharoitlaridagi o'quv-tarbiyaviy jarayonning o'ziga xosligini tadqiq etadi.

Ishlab chiqarish pedagogikasi - ishlab chiqarishda ishlaydigan shaxslarga ta'lim va tarbiya berish qonuniyatlarini o'rganadi.

Harbiy pedagogika - milliy armiyamiz uchun mutaxassislar tayyorlaydigan harbiy o'quv yurtlarida yoshlarga ta'lim berish hamda tarbiyalash muammolari bilan shug'ullanadi.

Oliy maktab pedagogikasi - oliy o'quv yurti shart-sharoitlarida yoshlarga ta'lim tarbiya berishning nazariy masalalar va usulikasini ishlab chiqadi.

Usulika - maxsus fanlarning o'qitish hamda ularni tashkil etish qoida va usullarini tadqiq etadi.

Umumta'lim maktablarida emas, balki yordamchi maktablarda shug'ullanishlari mumkin bo'lgan bolalar, ya'ni ko'rish, eshitish, so'zlash a'zolarida kamchiliklari bo'lgan bolalarni mehnat faoliyatiga tayyorlash, tarbiyalash va ta'lim berishning o'ziga xos tomonlarini tadqiq etuvchi fanlar pedagogika fanining maxsus guruhini tashkil etadi. Pedagogikaning bu maxsus tarmoqlari defektologiya yoki maxsus pedagogika degan umumiy nom bilan ataladigan maxsus guruhga birlashtirilgan.

Yosh davrlari pedagogikasi mazkur guruhlar bilan olib boriladigan tarbiyaviy-tashkiliy ishlarning qonuniyligini tadqiq etadi hamda eng avvalo ularni tarbiyalanuvchilarning o'quv muassasalari shart-sharoitlarida amalga oshirish dasturini ishlab chiqadi.

Katta yoshdagilar pedagogikasida oliy o'quv yurti shart-sharoitlarida yoshlarni tarbiyalashning nazariy masalalari va usulikasini ishlab chiqadigan pedagogika tarmog'i sifatida oliy o'quv yurti pedagogikasining shakllanayotganligi, uning aniqlashib borayotganligi ko'zga tashlanadi.

Bulardan tashqari *oila pedagogikasi* bugungi kundagi dolzarb vazifalardan birini tashkil etib, oilalarda, oila markazlarida, mahallalarda, jamoat tashqi lotlarida, oila-nikoh muassasalarida amalga oshirilayotgan tadbirlarda namoyon bo'ladi.

*Umumiy pedagogikada*² tarbiyalanuvchilar orasida mafkuraviy targ'ibot va madaniy ma'rifiy ishlar ham o'ziga xos tarmoqlariga egadir. Bu mehnatkashlarni tarbiyalash ishlariga munosib hissa qo'shadi va belgilangan pedagogik g'oyalarga suyanadi. Pedagogika fanining hamma tarmoqlari o'zining turli rivojlanish, taraqqiyot bosqichlariga egadir: ularning ayrimlari aniq shakllanib bo'lgan va yetarli darajada keng ishlab chiqilgan boshqalari o'zining shakllanish jarayonini boshdan kechirmoqda (masalan, oliy o'quv yurti muassasasi pedagogikasi, ishlab chiqarish pedagogikasi) ba'zi bir tarmoqlar pedagogikasining ajralib chiqishi endigina boshlanmoqda. Umumta'lim o'quv yurtlarida emas, balki yordamchi o'quv yurtlarida shug'ullanishlari mumkin bo'lgan shaxslar ya'ni, ko'rish, eshitish, so'zlash a'zolarida kamchiliklari bo'lgan shaxslarni mehnat faoliyatiga tayyorlash, tarbiyalash va ta'lim berishning o'ziga xos tomonlarini tadqiq etuvchi fanlar pedagogika fanining maxsus guruhini tashkil etadi. Pedagogikaning bu maxsus tarmoqlari defektologiya yoki maxsus guruhga birlashtirilgan.

Defektologiya fanlari o'z navbatida alohida mustaqil bo'lgan tarmoqlarga bo'linadi:

Surdopedagogika - kar va gung tarbiyalanuvchilar ta'lim-tarbiyasi masalalari bilan;

Tiflopedagogika - ko'zi ojiz tarbiyalanuvchilar ta'lim-tarbiyasi bilan;

Oligofrenopedagogika - aqli ojizlar ta'lim- tarbiyasi bilan shug'ullanadi.

Bunday ilmiy ishlar bilan shug'ullanadigan institutlar Respublikamizda turli tavsiyalar berish, usulikani ishlab chiqish bilan bir qatorda ilmiy izlanishlar, tajriba almashinish bilan ham samarali tadbirlarni olib borishadi.

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universitetida maxsus tashkil etilgan Defektologiya fakultetida munosib mutaxassislar tayyorlanayotganligi fikrimizning dalilidir.

Muhokama uchun savollar:

1. Pedagogika va kasbiy ta'lim pedagogikasi fanlarini sharhlang?

2. Klaster usuli yordamida pedagogika tarmoqlarini aniqlang. Ularni aylana atrofiga markazdan uzoqlashtirish tartibida yozing.

3 savol bayoni: Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi.

Pedagogika insonlar orasidagi munosabatlarni va ijtimoiy muhitning insonga ta'sirini tadqiq etuvchi fan sifatida iqtisodiyot, madaniyat rivojlanishining o'ziga xosligi hamda ularning inson shaxsi shakllanishiga ta'sirini o'rganadi. Shu bilan birga, pedagogika o'quv muassasasi tizimining tashkiliy jihatlaridagi ko'pgina

² N.Xujayev va boshqalar. Pedagogika asoslari. Toshkent., 2003, 20bet

masalalarni hal etishga, shaxslarni tarbiyalashda o'quv muassasasi, oila va jamoatchilikning o'zaro hamkorlikda ish olib borishiga yordam beradi.

«Pedagogika» tarbiya jarayonini ijtimoiy xodisa sifatida o'rganar ekan, tabiiy ravishda jamiyatdagi barcha fanlar bilan bog'liqdir. «Falsafa» fan sifatida insoniyat jamiyati, tabiat rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini tashkil etadigan, ya'ni pedagogikaning taraqqiy etib borishiga imkon beradigan ilmiy manbaidir. Shu bilan birga, faylasuflar va pedagogika fanlari vakillari tomonidan ishlab chiqilgan bir qator umumiy masalalar falsafada ham, pedagogikada ham barobar mavjuddir.

Bular jumlasiga tarbiya bilan boshqa ijtimoiy xodisalar orasidagi o'zaro aloqalar; dunyoqarashni, axloqiy, mehnat va estetik tarbiyani shakllantirish masalalari; shaxs va jamoa munosabatlari; ta'lim jarayoni mohiyatini tushunish hamda bilishning dialektik nazariyasini ishlab chiqish bilan bog'liq bo'lgan gneseologik masalalar va boshqa muammolar kiradi.

Pedagogikaning aniq masalalarini ishlab chiqishda falsafaning sosiologiya, etika, estetika kabi tarmoqlari katta ahamiyatga egadir.

Etika falsafaning axloqiy va tarbiya masalalari bilan bevosita bog'liqdir. Ularni hal etishda pedagogika axloqning umuminsoniy qadriyatlariga suyanadi.

Estetika (nafosat tarbiyasi) insonning estetik ideallarini shakllantirish, madaniyatga va voqelikka estetik munosabatlari umumiy qonuniyatlarini o'rganadi va estetik tarbiyani ilmiy jihatdan asoslash uchun xizmat qiladi. Bu asoslarni pedagogika fani ishlab chiqadi, yoshlarni go'zallikni xis qila olish, tushunishga o'rganish vositalari va yo'llari belgilab beradi.

Pedagogikaning falsafa va boshqa ijtimoiy fanlar bilan bog'liqligini, hal etadigan ilmiy masalalarning umumiylikini pedagogikaning ijtimoiy xususiyati, uning mafkuraviy yo'nalishga ega ekanligini ta'kidlab turadi. Tarbiyaning hamma muammolarini boshqa siyosiy, ijtimoiy masalalar bilan bir qatorda hal etish zaruriyatini ko'rsatib beradi.

Jamiyatimiz rivojlanishining xozirgi bosqichida pedagogikaning iqtisodiyot fanlari bilan aloqasi mustahkamlanib bormoqda. Ijtimoiy fanlardagi ma'lumotlarga suyanib, pedagogika jamiyatning tarbiyaga bo'lgan obyektiv ehtiyojini va ularni amalga oshirish shart-sharoitlarini o'rganadi.

Insonning aqliy rivojlanishi qirralarini, jihatlarini o'rganadigan boshqa fanlardan farqli o'laroq, pedagogika inson shaxsi, uning taraqqiyot bosqichlari bilan shug'ullanadi.

Pedagogika psixologiya va fiziologiya bilan ham bevosita va bilvosita bog'liqdir.

Fiziologiya pedagogika hamda psixologiya tabiiy ilmiy bazasi hisoblanadi. Pedagogika fiziologiya oliy asab (nerv) faoliyatining rivojlanishi, asab sistemasining o'ziga xosligi, birinchi va ikkinchi signal sistemalar haqidagi, shuningdek sezgi organlarining, tayanch harakat apparatlarining yurak, qon-tomir hamda nafas olish sistemalarining faoliyati, rivojlanishi haqidagi ma'lumotlarga suyanadi. Psixologik xodisalarning fiziologik asoslarini bilish pedagogika uchun tarbiya va ta'limning ba'zi bir omillarini yaqqol, aniq bilib olish, tushunish imkoniyatini yaratadi hamda ta'lim-tarbiya jarayonini samaradorligini oshirishning ko'pgina muammolarini muvaffaqiyatli hal etishga yordam beradi.

Psixologiya pedagogikaning boshqa fanlar tomonidan aniqlangan bilimlar, o'sib kelayotgan insonning shaxsini shakllantirish, ichki jarayonlarini yuz berish omillari va shart-sharoitlari haqidagi bilimlar bilan qurollantiradi.

Keyingi vaqtlarda pedagogika boshqa yangi rivojlanayotgan fanlar bilan, jumladan, murakkab dinamik tizimlarni rejali boshqarish haqidagi fan bo'lgan kibernetika bilan mustahkam aloqada rivojlanmoqda. Bularning barchasi pedagogika o'zining predmeti va tadqiqot sohasiga ega bo'lib, boshqa bir qator fanlar bilan juda mustahkam bog'liqlikda ekanligini ko'rsatadi.

Hozirgi mustaqillik sharoitida o'sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasida umuminsoniy qadriyatlarni, umuminsoniy ijobiy xislatlarni rivojlantirish O'zbekiston hukumatining qarorlarida mustaqil O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov asarlarida, nutqlarida o'z aksini, tasdig'ini topgan.

O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida tutgan o'z yo'li, tamoyillari tarbiya jarayonida hali avvalgi keksa avlod oldida turmagan yangi masala va muammolarni yechish uchun zarur bo'ladigan xislat va sifatlar shakllantirilishini taqozo etadi.

O'zbekistonda milliy istiqlol mafkurasi asta-sekin shakllanib borayapti. Pedagogika ilmidagi tushunchalar ta'riflar milliy istiqlol mafkurasiga mos umuminsoniylik ruxida tushuntirilmog'i maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Albatta ta'lim va tarbiyada umuminsoniy qadriyatlar bilan birga milliy o'ziga xoslik nisbati, muvozanati alohida ahamiyatga ega. Yana bir tomondan ta'lim nazariyasini, ta'lim - tarbiya mazmunini, shaklini va uslublarining asosiy jihatlari Sharqda ishlab chiqilib, Ovrupo orqali o'zgarib, rivojlanib yana Sharqqa qaytib kelganini va dunyo pedagogik jarayonini bir butunligini hisobga olinsa, quyida keltiriladigan tushunchalarda xususiy milliylikdan ko'ra, umuminsoniylik jihatlarning ko'pligi ko'zga tashlanib turadi.

Muhokama uchun savollar:

1. Pedagogikada psixologiyaning o'rni? (aqliy xujum).
2. Pedagogik usullarni sanab o'ting? (munozara)

Savol yakuni:

4. Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot usullari.

Pedagogika fani o'z mazmunini boyitishda, yangilashda mavjud bo'lgan pedagogik xodisa va jarayonlarni uning maqsadi va vazifalariga muvofiq keladigan usullari bilan o'rganadi. Pedagogika fanining ilmiy tadqiqot usullari qanchalik to'g'ri qo'llansa, ta'lim-tarbiya mazmunini yangilash va takomillashtirish shu darajada yuksaladi. Lekin ilmiy tadqiqot usullarining aniq chegaralangan tizimi hozirgacha fanda yaratilgan emas. Pedagog pedagogik jarayonda o'z auditoriyasi tarbiyalanuvchilari xarakter-xususiyatlaridan kelib chiqqan, ularni psixologiyasini chuqur o'rganib bir qator usullarni qullash mumkin.

Chunki pedagogning asosiy maqsadi dars jarayonini tarbiyaviy ta'sirini oshirish hisoblanadi. Buning uchun quyidagi pedagogik ilmiy tekshirish usullarni keltirib o'tish lozim bo'ladi.

1. Pedagogik kuzatish usuli.
2. Suhbat usuli (yakka tartibda, guruh bilan).
3. Test usuli.

4. Ma'lumotlarni tahlil qilish usuli
5. Talabalar ijodini o'rganish usuli.

Pedagogikada bu kabi usullar qo'llangan holda dars jarayonini tashkil qilganda tarbiyalanuvchilarni yosh xususiyatlarini hisobga olish zarur bo'ladi.

Buning uchun quyida jadval ko'rinishida keltirilgan usullardan foydalanish tavsiya etiladi. Ta'lim usullarini tanlash bilan bir qatorda o'qituvchi darsdagi talabalarni yosh va individual xarakter xususiyatlarini o'rganishi hamda tahlil qilishi shart.

Bu kabi usullardan foydalanib ta'lim va tarbiya ishlarini olib borish faqatgina pedagog uchun emas, iqtisodiyot jabhalarida faoliyat yuritayotgan boshqaruvchi xodimlar, oilada farzand tarbiyasi bilan shugullanuvchi ota-onalar uchun ham, jamoa bilan ishlaydigan ma'suliyatli shaxs uchun ham zaruriy shart bo'lgan usullardan biridir. Zero, inson tarbiyasidek murakkab jarayonga hech qachon e'tiborsiz bo'lmaslik zarur.

Mavzu bo'yicha qisqacha xulosa

Ushbu ma'ruzada pedagogika fanining predmeti, xozirgi zamon pedagogikasining maqsad va vazifalari, pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi, asosiy pedagogik kategoriyalar kabi mavzular yoritilgan va shu bilan birga pedagogika fanining usullari va ularni qullanilishi haqidagi fikrlar ham keltirib o'tilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. N. Xo'jayev va boshqalar. Ta'lim nazariyasi. Toshkent., 2003.
2. N. Xo'jayev va boshqalar. Pedagogika asoslari. Toshkent., 2003.
3. Podlasiy I. P. Pedagogika. Moskva ,1999.
4. Psixologiya i pedagogika. Pod.red. A.A.Radugina. Moskva 2003.
5. «Pedagogika» V.A.Slastenin, I.F.Isayev, A.I.Mixenko, Ye.N.Shiyanov. Moskva. «Shkolnaya pressa». 2004
6. Irmatov U. «Iqtisodchi pedagoglarning kasbiy mahoratlarini oshirish uslubiyoti» Bitiruv malakaviy ishi. 2005 yil.
7. Niyazov F. «Ma'ruza matnlarini tayyorlash va o'qitish uslubiyotini takomillashtirish» Bitiruv malakaviy ishi. 2005 yil 78-bet.
8. I. Mamajonov «Bo'lajak iqtisodchi o'qituvchi kadrlar tayyorlashda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish» T., 2001. Magistrlik dissertasiyasi.
9. www. inter – pedagogika. ru.
10. www. ise. iip.net.

2–Mavzu: Pedagogikada asosiy tushunchalar.

Asosiy savollar:

1. Tarbiya, ta'lim, ma'lumot tushunchalari.
2. Rivojlanish va tarbiyaviy munosabatlar

Aniqlashtirilgan o'quv maqsadlari. Talaba bu mavzuni to'la o'zlashtirgandan so'ng:

Tarbiya va uning mohiyatini biladi;

Ta'lim va uning ahamiyatini tushuntiradi;

Ma'lumot va uning turlarini sanaydi;

Rivojlanish va tarbiyaviy munosabatlar tushunchasiga ta'rif beradi;


Sinkveyn (ma'lumotlarni yig'ish) strategiyasini qo'llaydi.

Tayanch so'z va iboralar

Tarbiya, ta'lim, ma'lumot, rivojlanish, tarbiyaviy munosabatlar, ta'limning maqsadiga ko'ra turlari

1. Tarbiya, ta'lim, ma'lumot tushunchalari.

Pedagogika fan sifatida shakllanar ekan boshqa fanlardan farqli ravishda o'zining asosiy tushunchalariga ega. "Pedagogika" ning asosiy tushunchalari birinchi rasmda ko'rsatilganidek rivojlanishni belgilaydi, bu tushunchalar fiziologiya va psixologiya fanlaridan tanish bo'lsada biz Bularni o'zaro bog'liqligiga to'xtalamiz.



1-rasm. Asosiy pedagogik tushunchalar tizimi.

Tarbiya - insonlar rivojlanishida asosiy rol o'ynaydigan jarayon bo'lib, bir avlodning ijtimoiy tajribasini keyingi avlodlar tomonidan o'zlashtirishlarini va ularning ijtimoiy hayotga qo'shilishlarini ta'minlab beruvchi zaruriy faoliyatdir. Tarbiya-inson tarbiyalanganligining me'zoni sifatida shaxsiy xislatlarning shakllantirish bilan bog'liq holda tarixan shakllanib kelgan pedagogik tushuncha. Uning yordamida insonning rivojlanishiga tashqi muhitni ta'sirini fan va amaliyot isbotlab beradi. Inson butun umri davomida hayotda kimnidir tajribasiga tayanadi hamda unga asosan o'zining ko'nikma va ma'lakalarini shakllantirib boradi. U faqat o'tmish me'rosxo'ri sifatida ijtimoiy hayotga qo'shilib boradi va kelajak uchun tayyorlanadi.

Rivojlanib borayotgan avlodni katta yoshdagilar tajribasini egallab borish jarayoni tarbiyaviy jarayon bo'lib, u insonlar rivojlanishini boshqarish hamda ularni

shaxsiy xislatlarini shakllanishiga zarur sharoitlar yaratib beradi. Ayrim xollarda tarbiya bilan rivojlanish o'rtasida o'zaro bog'liqlik yo'qdek tuyo'ladi, aslida ular o'rtasida bog'liqlik juda murakkab va ahamiyatlidir. Inson shaxsi tarbiya jarayonida rivojlanib boradi, rivojlanish darajasi uning tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi ya'ni o'zgartiradi, shakllantiradi. Yaxshi tashkil etilgan tarbiya shaxsning rivojlanish darajasini tezlashtiradi va yana qayta tarbiyaga ta'sir ko'rsatadi. Shu tarzda insonning butun hayoti davomida bu ta'sir va aks ta'sirlar o'zaro bir-birini to'ldirib, ta'minlab boradi.

«**Tarbiya**» atamasidan ko'pgina pedagogik atamalar kelib chiqqan; tarbiyachi, tarbiyalanuvchi, tarbiyalangan, tarbiyalanganlik, tarbiyaviy va xokazo. Bularning barchasini manbasi va ma'nosi bitta. Tarbiyachi-inson, avlodlar tajribasini egallashlari uchun majburiy yoki zaruriy ta'minotchi. Tarbiyalanuvchi-tajribalarni egallaydigan va o'rganadigan shaxs. Tarbiyalangan (tarbiya ko'rgan) - tajribalarni yaxshi egallagan va unumli foydalanuvchi. Tarbiyalanganlik - shaxsning sifat ko'rsatgichi, tajribalarni yaxshi o'zlashtirganligi, tarbiyaviy-rivojlantirish maqsadida yo'naltirilganlik. Masalan, tarbiyaviy aloqalar, tarbiyaviy jarayon, tarbiyaviy tizim, tarbiyaviy ishlar va tadbirlar.

Hayotda «tarbiya» juda keng qo'llaniladi. Tajriba o'rgatish, tarbiyalash ommaviy axborot vositalar yordamida, san'at orqali, boshqaruv organlari tizimi va tashqi lotlarda siyosiy, manaviyat va ma'rifat ishlarini tashkil etish orqali amalga oshirilishi mumkin. Bularni amalga oshirishda ma'lumot muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumot - ma'lum maqsadga yo'naltirilgan, inson shaxsining rivojlanishini ta'minlovchi, maxsus tashkil etilgan tizim bo'lib, o'qitish jarayoni va uning natijasi hisoblanadi.

Maxsus tashkil etilgan ma'lumot beruvchi tizim - bu ta'lim-tarbiya muassasasi, qayta tayyorlash va malaka oshirish tashqi loti, o'quv-material baza, moliya (finans), kadrlar, ilmiy-usuliy ta'minot. Ularda ma'lum maqsadlarga ko'ra tajribalar o'rgatish va o'rganish maxsus dasturlarga asosan tegishli ma'lumoti, kasb tayyorgarligi bor va yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan shaxslar tomonidan amalga oshiriladi.

Ma'lumot aniq bir yoshdagi shaxslarda bilim, iqtidor va ko'nikmalarning o'zlashtirilganligini, bilish qobiliyati o'sganligini va ular asosida ilmiy dunyoqarash, shaxsiy sifatlar shakllanganligini, ularning ijobiy kuchlari va qobiliyatlarining qay darajada rivojlanganligini anglatadi. Qachonki inson ma'lumoti to'g'risida gapirilganda uning ma'lumotlilik tushiniladi. Ma'lumotlilik - shaxsiy sifat ko'rsatkichi, ya'ni shaxsning rivojlanish darajasi, uning tajribasi, ko'nikma va malakalarni qay darajada o'zlashtirganligi va ulardan foydalanish hamda ular yordamida yangi bilim-ko'nikmalarni egallab, to'ldirib borish qobiliyatlari tushuniladi.

«Ma'lumot» to'g'risida gapirar ekanmiz ma'lumotli bo'lish uchun «Tarbiya» o'zi yetarli emas, bunda ma'lum bir jarayonlar mavjud bo'lib, bu jarayonlarni tashkil etish negizida «Ta'lim» tushunchasi mavjud.

Ta'lim - tajribalar almashinish jarayoni bo'lib, rejali ravishda amalga oshiriladigan «pedagog-talaba-pedagog» muloqoti, uning natijasida ma'lumot, tarbiya va rivojlanish amalga oshadi.

Ma'lumot olish tizimida ta'lim asosiy rol o'ynaydi. Maqsadiga ko'ra u ikkita asosiy qismdan iborat: Tajribalarni o'rgatish (o'qitish) va uni o'rganish (o'qish). O'qitish-milliy qadriyatlarimizni, hayotiy tajribalarni, fan va texnika sohalaridagi yutuqlarimizni yosh avlodlarga o'rgatishni ta'minlaydi. O'qish-milliy qadriyatlarni, fan-texnika sohasidagi yutuqlarni, tajribalarni o'rganishga, tushunishga, tafakkurni rivojlanishiga, mustaqil fikrlashga va ulardan hayotda foydalanish uchun ko'nikma va malakalarni shakllantiradi. O'qitish-pedagogik faoliyat (o'qituvchi, ishlab chiqarish ta'limi ustasi, tarbiyachi faoliyati), o'qish-o'quvchi (o'rganuvchi, tarbiyalanuvchi, ta'lim oluvchi) faoliyati.

«Ta'lim», «Tarbiya» va «Ma'lumot» tushunchalari bir-birini to'ldirishi hamda birini-ikkinchisi, ikkinchisini-uchinchisi ta'minlovchisi, Bular natijasida inson shaxsining rivojlanishi kechadi.

Pedagogikada boshqa tushunchalar ham mavjud, Bular yordamida inson shaxsini rivojlanish jarayoniga ta'rif beriladi. Masalan, «Shakllanish», bu inson rivojlanishida ta'lim va tarbiyani o'zida mujassamlashtirishini, ma'lumotini orttirib borishini, tafakko'rin i, mustaqil fikrlash darajasini belgilaydi.

Hayotda biron bir texnikadan kompyuter yoki stanoklardan foydalanib tabiiy xoldagi mevani tayyorlab (yaratib) bo'lmaganidek, rivojlangan barkamol insonni ham texnika yordamida bir zumda tayyorlab bo'lmaydi. mevani pishib yetilishida bog'bonni mehnatidan tashqari daraxt mustaqil faoliyat ko'rsatadi, ya'ni mevani shakllantiradi. Demak, inson shaxsini rivojlanishida ham pedagog faoliyatidan tashqari o'zini-o'zi shakllantirishda shaxsning ichki tuyg'ulari katta rol o'ynaydi. Ichki tuyg'u insonni rivojlanishida harakatlantiruvchi kuch hisoblanadi va bu inson shaxsida o'z-o'zini tarbiyalashni, mustaqil ma'lumot, mustaqil ta'lim olishni tashkil etadi. Bu tushunchalarni pedagogik tushunchalarga munosabatini 1-rasmda keltirilgan.

O'zini-o'zi tarbiyalash - bu ichki tuyg'ular yordamida milliy qadriyatlarni, fan va texnika yutuqlarini, tajribalarni o'rganish, mustaqil rivojlanish jarayonidir.

Tarbiya, majburiy bo'lmasa, o'zini-o'zi tarbiyalashsiz uni amalga oshirib bo'lmaydi. o'z-o'zini tarbiyalash faqat yosh o'smirlarga tegishli bo'lmay, balki barcha yoshdagi shaxslar uchun ham ta'luqli bo'lib, buni qanchalik yaxshi shakllantirilsa tarbiya jarayonida pedagog faoliyati shunchalik osonlashadi. Pedagogni maqsadi, ma'lumot tarkibini qanchalik aniqliligi insonni mustaqil ma'lumot olishiga ta'sir qiladi.

Mustaqil ma'lumot - bu insonning avlodlar tajribasini, fan va texnika yutuqlarini o'rganish maqsadida, o'z ichki tuyg'ulari asosida mustaqil tashkil etgan, shaxsiy rivojlanish jarayonidir.

Mustaqil ma'lumot inson shaxsini rivojlanishida, tajribalarni egallashida qulayliklar yaratsa, mustaqil ta'lim esa (o'qishning) ta'lim olishni asosi hisoblanadi.

Ma'lumot ta'lim-bu insonni o'zi tanlagan vositalar va adabiyotlar yordamida avlodlar tajribasini, fan-texnika yutuqlarini o'rganishga yo'naltirilgan shaxsiy harakatlar jarayoni. Bunda insonni ichki dunyosi, xis tuyg'ulari, mustaqil fikrlash qobiliyati asosiy rol o'ynaydi. Bu xaqda shunday deyiladi

*«Kimki ololmasa hayotdan ta'lim,
Unga o'rgata olmas hech bir muallim».*

Pedagogika «O'zini-o'zi tarbiyalash», «Mustaqil ma'lumot», «Mustaqil ta'lim» tushunchalari orqali insonning tug'ma talanti, qobiliyati, xis-tuyg'ulari, ichki dunyosini shaxsiy rivojlanishidagi ahamiyatini yoritib beradi. Insonlarning ichki dunyosidagi shunday harakatlantiruvchi kuchlar mavjudki, Bular shaxsni rivojlanishida asosiy rol ni o'ynaydi. Hozirgi kunda bu tushunchani hech qaysi faylasuf, pedagog yoki ruxshunos inkor etmaydi.

Biz nima uchun insonlar to'g'risida gapirayapmiz faqat o'quvchi yoki tarbiyalanuvchi haqida emas, chunki, inson butun umri davomida ta'lim oladi, tarbiyalanadi, o'sishda va rivojlanishda davom etadi.

Tarbiya - o'z-o'zini tarbiya, ma'lumot mustaqil ma'lumot, ta'lim - mustaqil ta'lim o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni «Tarbiyaviy munosabatlar» tushunchasi orqali tushunib olishimiz mumkin.

M.S. Ma'lumot turlarini sanang.

2. Rivojlanish va tarbiyaviy munosabatlar

Rivojlanish - bu obyektiv jarayon bo'lib, tashqi va ichki boshqariluvchi omillar tomonidan miqdor va sifat jihatdan fizik va ma'naviy shakllanish jarayonidir.

Rivojlanish shaxsning fazilatlari, sifatlar va xulqlarning shakllanishi, tushunchalarning chuqurlashishi, kengayishi, osondan qiyinga, oddiydan murakkabga, mavxumdan bilishga, oddiy hayot kechirish shakllaridan oliy faoliyatga o'tish jarayonidir. Shaxsning rivojlanishi avvalo unda shaxsiy xislatlarning shakllanishi bilan belgilanadi. Rivojlanish o'zida shaxsning jismoniy, aqliy, axloqiy va boshqa xislatlarining takomilini namoyon etadigan jarayon hisoblanadi.


Rivojlanish - bu insonning ruxiyati va organizmidagi sifatiy o'zgarishlaridir. Bu o'zgarishlar ijtimoiy muhit, uy-joy sharoitlari, uning qurshab turgan kishilarning ta'siri natijasida yuz beradi. Insonga tug'ma ravishda xatti-harakatlarning hech qanaqa, na ijtimoiy, na noijtimoiy dasturlari berilgan emas. Har bir inson uchun, shaxs sifatida fazilatlarning shakllanish jarayoni amalda noldan boshlanadi. Shuning uchun ham ma'lum maqsadlarga yunaltirilgan ta'lim-tarbiya sharoitlari inson shaxsining shakllantirishning umumiy qonuniyatlarini inkor etmaydi. Insonni rivojlanishida ya'ni uni tarbiyalashda jamiyat tomonidan tashkil etilgan tarbiyalash muassasalarining va tarbiya jarayoniga qatnashayotgan barcha kishilarning faoliyatlari ya'ni tarbiya muhim rol o'ynaydi. Ta'lim, tarbiya, ma'lumotni amalga oshirishda, jamiyatda insonlar o'zaro ma'lum bir belgilangan munosabatda bo'ladilar. Bu munosabatlarni iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy, estetik va boshqa munosabatlardan farqli ravishda tarbiyaviy munosabatlar deb atash qabul qilingan. Tarbiyaviy munosabatlar turli shakllarga ega bo'lgan insonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar bo'lib, ular inson shaxsini rivojlanishida ta'lim, tarbiya va ma'lumot orqali amalga oshiriladi.

Bizning fikrimizcha, tarbiyaviy munosabatlar-insonlar o'rtasidagi doimiy munosabat (aloqalar) bo'lib, ular inson shaxsini rivojlantirishga ya'ni mustaqil ma'lumot, mustaqil ta'lim olishni va o'z-o'zini tarbiyalashni shakllantirishga xizmat qiladi.

Tarbiyaviy munosabatlar - bu insonlarni o'zaro tajriba almashinishi, tajribalarni o'zlashtirishi, qo'llashi bo'lib, bunga texnika, san'at va tabiat bilan bo'lgan munosabatlar ham kiradi. Bularga asosan tarbiyaiy munosabatlarni asosiy

shakllarini ajratib ko'rsatish mumkin: «inson-inson», «inson-kitob-inson», «inson-texnika-inson», «inson-san'at-inson», «inson-tabi'at-inson» va x.k. (3-rasm).

M.S. Rivojlanishni nima belgilaydi?



3-rasm

Mustaqil ta'limga oid topshiriqlar

O'quv maqsadlariga qaysi darajada erishganligingizni sinab ko'ring.
Ta'lim, tarbiya, rivojlanish tushunchalariga sinkveyn tuzing

3-Mavzu: O'zbek xalq pedagogikasi tarixidan. Sharq mutafakkirlari va milliy tarbiya

Asosiy savollar:

1. O'zbekistonda pedagogik tafakkur va ta'lim-tarbiya taraqqiyoti tarixi.
2. Amir Temurning ta'lim-tarbiyaga qo'shgan hissasi.
3. Alisher Navoiyning pedagogik qarashlari.
4. Turkistonda jadidchilik harakati va talim tarbiya.

Tayanch tushuncha va iboralar: Milliy axloq-odob, ta'lim-tarbiya, ma'rifatparvar, markazlashgan davlat, Temuriylar davri. Marifatparvar, jadidchilar, ta'lim - tarbiya, yangi usul maktablari.

1-Savol bo'yicha dars maqsadi: Talabalarga pedagogikaning milliy asosi, ta'lim tarbiya muammolarini, har bir millatning milliy merosi bilan birga umumbashariy, umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'lagan holda tushuncha berish.

Aniqlashtirilgan o'quv maqsadlari:

O'zbekistonda pedagogik tafakkur va ta'lim-tarbiya taraqqiyoti necha davrga bo'lib o'rganiladi?

Zardushtiylar dinidagi ta'lim tarbiyaning ahamiyati.

1 - Savol bayoni: Har bir ijtimoiy tuzum kelajagi, insoniyat istiqbolli, kishilarning hayot va turmush darajasi fan va madaniyat taraqqiyoti bilan bevosita bog'liqdir. Fan va madaniyat rivojlanishi ta'lim-tarbiya ishlarining qay darajada olib borilishidan kelib chiqadi. Bu falsafiy aqida davlat ahamiyatiga ega bo'lgan ijtimoiy qonuniyat hisoblanadi.

Shunday ekan, O'zbekiston mustaqillikka erishganiga endigina 14 yil bo'lishiga qaramay qonun tomonidan ta'lim-tarbiya masalalariga alohida o'rin ajratilgan. (O'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 11 sessiyasida 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 41 moddasida Shunday deyilgan: «Har kim bilim olish xuquqiga ega. Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. O'quv muassasasi ishlari davlat nazoratidadir»)

Mana shu yillar davomida ta'lim-tarbiya sohasida milliy axloq-odobni qayta tiklash borasida milliy urf-odatlar, turli-tuman an'analarni joy-joyiga qo'yish, milliy qadriyatlarni rivojlantirish xususida juda keskin va buyuk burilishlar bo'lmoqda.

O'zbekistonda pedagogik tafakkur va ta'lim-tarbiya taraqqiyoti tarixiga nazar tashlab, shartli ravishda uch davrga bo'lib o'rganish mumkin.

Oktyabr to'ntarishigacha bo'lgan davr (1917 yilgacha)

Sho'rolar tuzumi davri (1917-1991)

Mustaqillik davri (1991 yildan keyin)

1-davrda Zardushtiylik dinining chuqur ildiz otishi va shu dinning muqaddas kitobi «Avesto» ning Markaziy Osiyo va Eron kabi mamlakatlar o'rtasida yoyilishi, islom dinini Markaziy Osiyoga kirib kelishi, tarqalishi va aholini bu dinni qabul qilish bilan boshlanadi. Biror dinga nisbatan e'tiqodni keng xalq ommasiga majburan singdirish qiyin. Targ'ib qilinayotgan din xalq ruxiga mos tushsa, uning o'tmishdagi e'tiqodi, qadriyati va odob-ahloq, tarbiya an'analarga mos bo'lsagina qabul qilinishi mumkin. Bu fikrimiz islom dinining Avestoda o'z ifodasini topgan g'oyalariga yaqinligi, har tomonlama mukammalligi xalqparvarligi, insonparvarligi bilan izohlanadi.

2-Sho'rolar tuzumi davri.

3-O'zbekiston Mustaqillikka erishgandan so'nggi davrdagi fan, madaniyat, ta'lim-tarbiya.

Muxokama uchun savollar:

Qaysi davrdagi ta'lim tarbiya bizga ko'proq meros bo'lib qolgan? (aqliy hujum).

O'zbek milliy ta'lim tarbiya deganda nimani tushunasiz?

Nazorat uchun test savollar (tarqatma materiallar).

O'tmishda ta'lim tarbiyaga qo'shgan katta ahamiyat berishganmi?

a) xa

b) yo'q

v) bilmayman

2. Savol bo'yicha dars maqsadi: Talabalarga Temuriylar davridagi ta'lim tarbiyaning ahamiyati haqida tushuncha berish.

Aniqlashtirilgan o'quv maqsadlari.

Soxibqiron atamasining lug'aviy ma'nosi?

Qaysi asarlarda A.Temur odob axloq, iymon, e'tiqod va ta'lim tarbiya sohasida so'z yuritgan.

2. Savol bayoni:

Amir Temurning ta'lim-tarbiyaga qo'shgan xissasi.

Biz tarixdan bilamizki Amir Temur va dastlabki temuriylar hukmronlik qilgan davr Movarounnaxr tarixida alohida o'rin egallaydi. Chunki bu davrlarda Samarqand, Xirot shaharlarida madaniyat, ilm-fan rivojlanib bordi. Shunday markazlashgan, buyuk davlatga asos solgan Amir Temur Ko'ragon ibn amir Tarag'ay 1336 yilning 9 aprelida o'sha paytdagi Kesh (Shaxrisabz) ga qarashli Xujailg'or qishlog'ida tavallud topdi. Otasi amir Tarag'ay o'ziga to'q, badavlat kishi edi. Onasi Tegina begim buxorolik bo'lgan.

Soxibqiron³ (Bu unvon bo'lg'usi jahongirga u tug'ilmasdan turiboq din ahillari tomonidan bashorat tariqasida berilgan. «Soxibqiron» atamasining lug'aviy ma'nosi «yo'lduz burjlarining baxtli kelishi (Quron) da tug'ilgan farzand demakdir. «Temurnoma» muallifining ta'kidlashicha, «quron» ya'ni yo'lduz burjlarining baxtli kelishi har sakkiz yuz yilda bir marta sodir bo'ladi. Insoniyat tarixida «Avval Iskandar Zulqarnay xazratlari, ikkinchi Muhammad Rasul akrom sallolloxu alayxi vassallom saidimiz, uchinchi Amir Temur xonimiz» shu soniyada dunyoga kelganlar). Amir Temurning yoshligi Keshda kechdi. Yetti yoshga to'lgach, otasi uni o'qishga berdi. Amir Temur yoshlik chog'idanoq maxsus murabbiylar nazorati ostida chavondozlik, ovchilik, kamondan nishonga o'q uzish kabi mashg'ulotlarni puxta egalladi.

Amir Temur odob-axloq, iymon, e'tiqod, ta'lim-tarbiya sohasida o'zi yuksaklikka, mutafakkirlikka erishgan siymolardan biridir. Bunga ishonch hosil qilish uchun bobomizning o'zi tomonidan yaratilgan odob-axloqqa oid dasturlar, o'gitlar, pand-nasixatlarni, shuningdek, Soxibqiron haqidagi tarixiy asarlarni ko'zdan kechirish kifoya. «Tuzuki Temuriy» («Temur tuzuklari»), «Marfuzaota Temuriy» («Temurning aytganlari») va «Vakioti Temuriy» («Temurning boshidan kechirganlari») nomi bilan jahonga mashhur bo'lgan asarlarida Amir Temurning ibratli, hayotiy pand-nasixatlari va purma'no o'gitlarining har biri mazmun va ma'no kengligi, kuchliligi, teranligi, ta'siri, umuminsoniy qadriyatlar asosida qurilgan bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Bu asarlarni qadrlı xazina odob-axloqqa oid dasturlar deya olamiz.

Bu asarlar Soxibqironning juda mashaqqatli va sertashvish: goh muvaffaqiyatli, goho quvonchli, goho sertashvish umrining ijodiy mevasidir. Asarlardagi barcha o'gitlar xalqlarni bir maqsad sari birlashtirgan, jipslashtirgan, muvaffaqiyatlarga erishtirgan, sehrli tarbiyaviy kuchga ega bo'lgan durdona-pedagogikadir. Bu pedagogika buyuk Soxibqironning davlatni boshqarish va uni idora qilish, g'olibona harbiy yurishlar qilish, mamlakatda osoyishtalik o'rnatish, fan va madaniyatni rivojlantirish, xalqlar o'rtasidagi buzilmas do'stlik, mehr-shafqat,

³ O.Musurmonova, Z.Baubekova. «O'zbek xalq pedagogikasi». A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. Toshkent-2000 yil. □

odamiylik va axloq-odobni tarbiyalash kabi muammolarni hal qilishga bag'ishlangandir.

Amir Temur barpo etgan (Temur va temuriylar davlati) Movarounnaxr va Xurosonda xukmronlik qilgan A. Temur va uning avlodlari quyidagi tartibda yildan-yilga ilm va ma'rifatni qo'shganliklarni quyidagi sxema orqali ko'rish mumkin.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, «Amir Temur» nomi yodlashtirildi. Ko'plab shaharlar va qishloqlardagi shox ko'chalar, maydonlar, o'quv muassasalari uni nomi bilan atala boshlandi. Prezidentimiz I.A. Karimov tashabbusi va rahnomaligida Toshkent, Samarqand, Shaxrisabz kabi shaharlarning markaziy maydonlarida, Amir Temur xiyobonida 1996 yilda «Temuriylar davri» muzeyi barpo etildi, 1996 yilda «Amir Temur» ordeni ta'sis etildi. («Amir Temur» ordeni-O'zbekiston Respublikasining davlat mukofotlaridan biri. Bu orden bilan davlatchilikni mustahkamlashdagi ulkan xizmatlari, me'morchilikni, ilm-fan, adabiyot va san'atni, harbiy mahoratni rivojlantirishga qo'shgan ulkan xissalari uchun O'zbekiston Respublikasi fuqarolari mukofotlanadilar. Ushbu orden bilan davlatlararo hamkorlikni, tinchlikni, hamda xalqlar o'rtasidagi do'stlikni mustahkamlashga alohida xissa qo'shganlik uchun O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmagan shaxslar ham mukofatlanishi mumkin. 1996 yil 26 aprelda ta'sis etildi. Orden tilla qoplangan 925 darajali kumush qotishmadan tayyorlanib, 8 qirrali buyurma yo'lduz ko'rinishida bo'lib, Amir Temurning ulug'vor qiyofasi kumush rangda tasvirlangan. Muallifi-O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Islom Karimov.

1996 yilda Toshkent, Samarqand va xorijiy mamlakatlarda YUNESKO rahbarligida hazrat Soxibqironning tavalludining 660 yilligi keng nishonlandi).

4. O'zbek adabiyotining asoschisi, shoir, olim, ma'rifatparvar, faylasuf, musiqasho'nos davlat arbobi Nizomiddin Alisher Navoiy Xirotda tug'ilib, shu yerda yashab, ijod etgan edi. U o'zining «Hamsa», «Maxbub ul-qulub» kabi yirik ta'limiy-ahloqiy asarlarida, shuningdek, «Munojot», «Vakfiya», «Majolis un nafois», «Muxokamat ul-lug'atayn» asarlarida hamda Abduraxmon Jomiyning «Arba'iyin» nomli asari tarjimasini «Chixil xadis» («qirq xadis») kabilarda tarbiyaga oid o'z qarashlarini ifoda etadi. Alisher Navoiy badiiy asarlarida komil inson obrazlarini yaratib, ta'lim-tarbiya to'g'risidagi fikrlarini ifodalagan bo'lsa, ta'limiy-axloqiy asarlarida esa komil insonni shakllantirishning mazmuni, yo'llari, usullarini bayon etadi.

Alisher Navoiy inson tafakkuri, aqli, bilimini va ilmiy bilimlarini yuksak qadrlagan. U «Bilim va donishmandlik insonning bezagidir» deb yozadi. A. Navoiy farzand tarbiyasiga va uni shaxs sifatida shakllantirishga katta ahamiyat berib, tarbiyalanuvchini «hayot chirog'i» deb ta'riflaydi. Farzand oilaga baxt va saodat keltiruvchi ziyodir. Uning fikricha, shaxsga kichik yoshligidanoq bilim, ma'lumot va tarbiya berishlikni ko'rsatib, o'g'il-qizlarni 6 yoshdan tarbiyachiga, muallimga berish lozim deb hisoblaydi.

Shuningdek, Navoiy hayotda o'z ilmiga amal qilish, o'rganganlarini hayotga tadbiq etish masalasiga alohida e'tibor beradi. Masalan, u «Maxbub ul-qulub» asarida ilm o'qib uni ishlatmagan kishi, shudgor qilib dehqonchilik qilmagan yoki urug' sohib hosildan bahra olmagan o'xshaydi, deydi.

Muxokama uchun savollar:

A.Navoiyning asarlaridagi insoniylik g'oyalarining ifodalanishi va pedagogik asoslari.

Savol yakuni: Alisher Navoiy bilim olishda barcha fanlarni o'rganishni targ'ib etadi. Bunda u olimu fozillarni yig'ib, ular orqali ilm-fanni taraqqiy ettirishga e'tibor beradi.

Alisher Navoiyning fikricha, bilimlarni tinmay uzluksiz o'rganish zarur, Bunda har qanday qiyinchiliklarni yengib o'tish muhimligini, qunt bilan ishlash, tirishqoqlik bilan harakat qilish, izchillik bilan ko'rash, uni oxirigacha yetkazish, chidam va sabot bilan o'rganishni ta'kidlaydi. Demak, buyuk alloma ilm olish tamoyillarini o'z davrida to'g'ri ifodalab, hatto ta'lim tizimini belgilab beradi: ya'ni Alisher Navoiy ta'lim tizimini o'z davrida o'quv muassasasi, madrasalarda o'qish, olim, hunarmand, san'atkorlarga shogird tushib yoki mustaqil holda ilm olish imkoniyatlaridan foydalanishni tavsiya etadi.

Alisher Navoiy yoshlarga chuqur bilim berishda muallimning, mudarrislar, hamda ustoz murabbiylarning o'zlari ham bilimli va tarbiyali bo'lishi zarurligini uqtiradi. U nodon, mutaassib, johil domlarni tanqid qiladi va pedagog ma'lumotli, o'qitish yo'llarini biladigan muallim bo'lishi zarur deydi. Bunday muallimlar shogirdlarni yonida yuzlari yorug' bo'lib, doimo izzatda, hurmatda bo'ladilar deb ta'kidlaydi.

***Haq yo'lida kim senga bir harf o'qitmish ranj ila
Aylamak bo'lmas ado oning haqin yuz ganj ila.***

Shunday qilib biz Alisher Navoiyni pedagog-mudarris deb atashimiz mumkin. Chunki ta'lim-tarbiya masalalariga a'lohida e'tibor berib, tarbiya jarayonlarini, vositalarini, talablarini ko'rsatib o'tadi. U ta'limda ilmiylik, asoslanganlik, tarixiylik kabi talablarni asos qilib olgan buyuk pedagogdir.

Mana Shunday mutafakkirlarning ijodini o'rganish uchun birga Mustaqillikka erishganimizdan keyin ancha yo'llar ochildi. Endilikda uning ijodini aslicha, mohiyatini tushunib o'rganish imkoniyatlari yuzaga keladi. 1991 yilda Alisher Navoiy tavalludining 550 yilligi tantanali nishonlandi. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti ta'sis etildi. Respublika Prezidenti Islom Karimovning tashabbusi va rahbarligida Toshkentda Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy bog'i barpo etildi va bu bog' o'rtasida shoirning haykali o'rnatildi. Shu bilan birga kitobxonlarga shoirning 20 jildli mukammal asarlar to'plami nashr etila boshlandi. Har yili A. Navoiy tug'ilgan kun 9 fevralda ilmiy-an'anaviy konferensiya o'tkazilib, Alisher Navoiy merosini o'rganish sohasida qilingan yillik ishlarga yakun yasaladi.

Talabalarga jadidchilik harakati haqida tushuncha berish.

Aniqlashtirilgan o'quv maqsadlari:

Sharq mutafakkirlari asarlarida iqtisodiy tafakkur tushunchasini yoritib, tushuntirib berish.

Talabalar jadidchilik harakatining a'zolarini sanab beradi.

1-Savol bayoni: 1.XIX-asrning boshlarida Buxorodagi marifatparvar musulmon ruxoniylari va ziyolilari orasida madrasa va o'quv muassasalari

tizimiga hamda islom diniga kirib qolgan bid'atlarini isloh qilish fikri paydo bo'la boshladi. Shunday isloxot tarafdorlarini jadidlar, yani yangilik tarafdorlari deb atay boshlaydilar.

XIX asr oxiri - XX asrning boshlarida Turkistonda chor mustamlakachiligining kuchayishi natijasida Markaziy Osiyoning ko'p joylarida jadidchilik harakati kuchayib ketdi. Bu harakat mavjud jamiyatning ijtimoiy - madaniy asoslarini qayta qurishga qaratilgani sababli eski tuzum, eski turmush, eski o'quv muassasasi, tarafdorlarining kuchli qarshiligiga duch keldi. Shu tarzda jadidchilik harakati yuzaga keldi va bu harakat o'zbek tuprog'ining barcha go'shalariga tarqala boshladi.

Jadidchilik jamiyatni to'ntarish yo'li bilan emas, isloxotlar yo'li bilan rivojlantirishni o'zining asosiy vazifasi deb belgiladi. U o'zining bu vazifasini ado etishda, faqat bir guruhga - proletariatgagina tayanmadi. Umuman, jadidchilik insoniyatni guruhlariga bo'lib tashlash tarafdori emas edi.

Jadidlar 1906 yildayok "Taraqqiy" deb nomlangan gazeta nashr ettirib, o'z g'oyalarini tarqata boshladilar, oradan ko'p o'tmay, «Xurshid», «Shuxrat» singari yangi gazetalar dunyo yuzini ko'rdi. Markaziy Osiyoning turli shaharlarida jadid maktablari ochilib, ularda diniy ilmlar bilan birgalikda dunyoviy bilimlar ham keng targ'ib qilindi.

Agar lunda qilib aytsak, jadidlarning harakat dasturi quyidagi masalalarni hal qilishga qaratilgan edi:

1. Diniy taassuf va fanatizmga qarshi - ko'rash.

2. Diniy aqidalarga asoslangan o'rta asr o'quv muassasalari o'rniga Ovrupocha dunyoviy ilmlarni ona tilida o'qitishga moslangan yangi usuldagi o'quv muassasalarni tashkil etish, feodal davri maorif tizimini isloh qilish;

3. Jadidchilik g'oyalarini keng xalq ommasiga yetkazish niyatida yangi o'zbek adabiy tilini ishlab chiqarish, matbuot xurligi uchun, xalq ommasiga tushunarli adabiyot va teatrni yaratish;

4. Xotin - qizlarni paranjidan chiqarish va jadid o'quv muassasalariga qatnashishlarini ta'minlash;

5. Mahalliy boylar va savdogarlarning siyosiy va iqtisodiy jihatdan rus burjuaziyasi bilan bir xuquqda bo'lishi, mahalliy amaldorlarning chor xukmdorlari tomonidan siquvga olishga qarshi ko'rash;

Asosiy talablari ana shundan iborat bo'lgan jadidlar uchun ilm va marifat yagona qurol bo'lib, ular shu qurol yordami bilan o'lkada ijtimoiy - iqtisodiy va madaniy taraqqiyot uchun ko'rashmoqchi bo'ldilar.

O'zlarini ko'zlagan maqsadlarini amalga oshirish uchun yoshlarni savodli qilish niyatida o'quv muassasasi, maorif sohalarida juda katta targ'ibot ishlarini olib bordilar. Tashkil etilgan yangi usul o'quv muassasalarida quyidagilarga etibor qaratilgan edi:

1. Guruhda tarbiyalanuvchilar soni o'ttiztadan oshmasligi;

2. Tarbiyalanuvchilar faqat yoz va qish boshlarida o'quv muassasasiga qabul qilinishi;

3. Har bir muallimda ko'pi bilan 3-4 guruh bo'lishi;

4. 7-9 yoshlardagi tarbiyalanuvchi 7-8 soat uzluksiz o'qiy olmasligini hisobga olib, faqat 5 soatlik o'qishni joriy etish;

5. Juma va bayram kunlari dam olinishi;

6. Yozning issiq kunlarida ta'til berilishi;

7. Har bir darsdan so'ng 10 daqiqali tanaffus berish;

8. Talabalarni har olti oyda imtixon qilish, yil oxirida guruhdan - guruhga o'tkazish, o'zlashtirmaganlarni guruhga qoldirish;

Shu bilan birga, yangi usul o'quv muassasalarida diniy bilim bilan birgalikda xandasa (matematika), jug'rofiya (geografiya) tarix, tibbiyot kabi fanlarni o'qitish uchun darsliklar yaratildi.

Turkistonda shu borada A. Avloniy, M.Bexbudiy, A. Fitrat, Munavvar qori Abdurashidov, X.X. Niyoziy kabi o'nlab ziyolilar juda katta ishlar olib borganlar.

2. Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitratlarning marifiy - pedagogik qarashlari.

Taniqli o'zbek pedagogi va olimi Abdulla Avloniy jadidlarning yetuk vakillaridan biri bo'lib hisoblanadi.

U yoshligidanoq ilm olishga, o'qishga, she'rlar yozishga mashq qilishga intildi. U o'zining dastlabki she'rlarida va "Xijron" degan maqolasida xalqni yangi usul o'quv muassasalarida o'qib - o'rganishga targ'ib qiladi.

Abdulla Avloniy 1907 yilda Toshkentning Mirobod mahallasida, keyinchalik Direz mahallasida yangi usuldagi o'quv maktablari ochdi. O'quv maktablardagi o'quv - asbob jihozlarini o'zgartirdi, o'z qo'li bilan parta va doskalar yasadi. O'quv muassasasiga qabul qilingan tarbiyalanuvchilarning asosiy qismi kambag'al kishilarning farzandlari bo'lgani uchun ularni kiyim - kechak, oziq - ovqat, daftar - qalam bilan ta'minlash maqsadida, do'stlarining ko'magida "Jamiyati xayriya" tashkil etadi va bu jamiyatga o'zi raislik qiladi. Avloniyning o'quv muassasasini o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalariga ko'ra mashg'ulotlarni guruh - dars tizimi asosida o'z ona tilida olib borilishi bilan eski usul o'quv maktablaridan farq qiladi. U o'z o'quv muassasasida bolalarga geografiya, tarix, adabiyot, til, hisob, xandasa, xikmat kabi fanlardan muayyan ma'lumotlar beradi.

A. Avloniy «Usuli jadid» o'quv muassasasilari uchun to'rt qismdan iborat «Adabiyot yoxud milliy she'rlar» hamda «Birinchi muallim» (1912 yil), «Turkiy guliston yoxud axloq» (1913 yil), «Ikkinchi muallim» (1915 yil), «Maktab gulistoni» (1917 yil) kabi darslik va o'qish kitoblari yaratdi. Bu asarlarida hamda publisistik maqolalarida dunyo xalqlari madaniyatini, ilm- fanni, o'quv muassasasi va maorifni ulug'lab, o'z xalqini ilmi, madaniyatli bo'lishga chaqiradi.

Asrimizning boshlarida yangi o'quv muassasalari uchun yozilgan alifbelar anchagina edi. Shular orasida Avloniyning «Birinchi muallim» asari ham o'ziga xos o'ringa ega. «Ikkinchi muallim» kitobi esa «Birinchi muallim» kitobining uzviy davomidir. Birinchi kitobni shartli ravishda, «Alifbe» deb, ikkinchi kitobni «xrestomatiya» deb atash mumkin. Abdulla Avloniyning pedagogikaga oid asarlari «Turkiy guliston yoxud axloq» asari XX asr boshlaridagi pedagogik fikrlar taraqqiyotini o'rganish sohasida katta ahamiyatga molikdir. Bu asar ahloqiy va ta'limiy tarbiyaviy asardir. Asarda insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlardan qaytaruvchi bir ilm - ahloq haqida fikr yuritiladi.

O'zbek pedagogikasi tarixida A. Avloniy birinchi marta pedagogikaga «Pedagogiya», ya'ni shaxs tarbiyasining fani demakdir, deb tarif berdi. Tabiiy, Bunday tarif Avloniyning pedagogika fanini yaxshi bilganligidan dalolat beradi.

Xulosa qilib aytganda, Abdulla Avloniy o'zining butun pedagogik faoliyati va marifatparvarlik faoliyatida o'z xalqining baxt - saodati yo'liga bag'ishladi. Xalqi, Vatani oldidagi farzandlik burchini sharaf bilan bajardi. O'zbek pedagogikasi rivojiga salmoqli hissa qo'shdi. Mana shu ma'noda Avloniy siymosi, faoliyati biz uchun g'oyat qadrlidir.

Muhokama uchun savollar:

Avloniy asarlarida ilm-fan va ma'rifat masalalari haqida nima bilasiz? (aqliy xujum)

Jadidchilarni yutug'i va kamchiligi nimada? (munozara)

Savol yakuni: Ma'naviyatimizning ilk namoyandalaridan biri Abdurauf Fitrat garchand qatag'on qurboni bo'lib, jismonan oramizda bo'lmasa ham u hamisha tirik. Qismati og'ir bo'lgan ulug' siymolar qatori Fitrat butun kuch - qudratini xalqqa bag'ishladi .

Yurtboshimiz I.A. Karimovning ta'kidlashicha:

“Jaxonga mashhur bo'lgan Aburayhon Beruniy, al- Xorazmiy, Abu ali Ibn Sino, Imom al - Buxoriy, at-Termiziy, Ulug'bek, Navoiy va boshqa ko'pgina allomalar ma'naviyati keng va ayni vaqtda qismati og'ir bo'lgan siymolar” dan biri - Abdurauf Fitratdir .

Fitrat ham barcha jadidlar qatori xalqni ilmiy qilib, hayotni, jamiyatni yangilashga intildi. U ham ilmiy va badiiy ijod sohasidagi dastlabki qadamlarini ma'rifat izlash va hammani ma'rifatga da'vat etishdan boshladi .

A. Fitrat ma'rifatparvar adib sifatida «Munozara » da Buxoro amirligi idorasida muayyan isloxot - o'zgarish kiritish g'oyasini ilgari surgan bo'lsa, «Hind sayyoxi qissasi»da yangicha g'oyani - muayyan darajada Buxoro amirligiga nisbatan o'z e'tiroznomasini bayon etadi. U isloxot g'oyalaridan voz kechmaydi, biroq Buxoro davlatining madaniyati, tabobati, sanoati va hatto yer osti boyliklaridan xalq manfaati yo'lida foydalanish to'g'risida qayg'uradi .

Fitrat o'zbek tilida yaratgan «Oila», «Qiyomat», «Munozara », «Oq mozor» va boshqa maqola hamda asarlarida xalq orasida madaniyat tarqatish va ma'rifatparvarlik g'oyalarini ilgari suradi. Shuning uchun Fitratning barcha asalarida ta'lim - tarbiya masalalariga alohida e'tibor beriladi . Shu bilan birga, Buxoro amirligidagi o'quv va o'qituv ishlarining ahvoli va bu sohadagi asriy qoloqlik ko'rsatiladi, o'rta va oliy o'quv yurtlari tubdan isloh qilishga chaqiriladi. Madrasalarda o'quv muddatining uzoq ligi va o'quv usullarining eskirganligi, mudarrislarning e'tiborsizligi, dasturlarning hayotdan uzoqliligi, savod chiqarish usullarining qiyinligi tanqid qilinadi.

O'quv dargohlarini va o'qitish usullarini tubdan o'zgartirish tadbirlari bayon qilinadi.

A. Fitratning «Rahbari najot» asari ham to'la ravishda talim - tarbiya masalalariga bag'ishlanadi. Ayniqsa, asarning uchinchi bobi oila, tarbiyalanuvchi tarbiyasi axloq - odob mavzulariga bag'ishlangan bo'lib, bu masalalar xozirgi davrda ham marifiy ahamiyatga egadir.

Fitrat ota – onaning vazifasi o'z farzandlarini yetuk kishilar qilib tarbiyalashlari zarurligini, Bunda ayniqsa, uch tarbiyaga:

1. Jismoniy tarbiya - salomatlik;
2. Aqliy tarbiya - sog'lom fikrlilik;
3. Axloqiy tarbiya - axloqiy poklikka etibor berish kerakligini ta'kidlaydi.

Ko'rinib turibdiki, A.Fitrat yoshlarni ilimli, aqlli, sog'lom, Vatan ravnaqi uchun fidoiy bo'lib yetishishlari yo'lida tinmay mehnat qiladi. Uning vatanparvarlik, xalqparvarlik, ilm-fan taraqqiyoti haqidagi g'oyalari xozirgi davr uchun ham qimmatlidir.

Savol va topshiriqlar.

1. O'zbekistonda pedagogik tafakkur va ta'lim-tarbiya taraqqiyoti necha davrga bo'lib o'rganiladi?
2. Zardushtiylar dinini muqaddas kitobi «Avesto»ning Markaziy Osiyoda tutgan o'rni nimada?
3. A. Temurning ta'lim-tarbiyaga oid o'g'itlari haqida nimalar bilasiz?
4. Alisher Navoiyni biz nimaga asoslanib mudarris-pedagog deb atashimiz mumkin?
5. Mustaqillikka erishgandan so'ng A. Temur va A. Navoiyning nomlarini abadiylashtirish uchun qanday ishlar olib borildi?
6. Navoiy asarlaridagi insoniylik g'oyalarining ifodalanishini pedagogik asoslarini tushuntirib bering?
7. Sharq mutafakkirlari asarlarida iqtisodiy tafakkur tushunchasini yoritilishini tushuntirib bering?
8. Turkistonga jadidchilik harakati qachon kirib kela boshladi?
9. Avloniy asarlarida ilm- fan va ma'rifat masalalarining ifodalanishi haqida tushuntirib bering?
10. "Turkiy guliston yoxud axloq" asaridagi axloqiy munosabatlarni tarbiyaviy ahamiyati nimalardan iborat?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi"
Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent. 2000 yèè. 1-tom.
2. "Pedagogika tarixi". K.Xoshimov va boshqalar taxriri ostida. O'zbekiston Respublikasi "Fan" nashriyoti. Toshkent 2001y.
3. O'zbek pedagogikasi tarixi (qullanma) A.Zununov taxriri ostida.
4. "Pedagogika tarixi" A.Zununov va boshqalar taxriri ostida."Sharq" nashriyot-matbaa konserni Bosh taxririya. Toshkent 2000 y.
5. Abdulla Avloniy "Turkiy guliston yoxud axloq". "Pedagog" 1992y.
6. Ye.N. Pronina, V.V.Lukashevich. "Psixologiya i pedagogika". Uchebnik dlya studentov VUZov. Izdatelstvo «Elit», Moskva 2004.
7. Pedagogika professionalnogo obrazovaniya. Pod. red. V.A.Slastenina. Moskva «Akademiya».
8. Psixologiya i pedagogika. Pod.red. A.A.Radugina. Moskva 2003.
9. «Pedagogika» V.A.Slastenin, I.F.Isayev, A.I.Mixenko, Ye.N.Shiyanov. Moskva. «Shkolnaya pressa». 2004
10. Mirjalilova Yu. " Milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida talaba shaxsini ahloqiy jixatdan tarbiyalash" Bitiruv malakaviy ishi. 2004 yil
11. www.ppf.uni.udm.ru
12. www.talant.spb.ru/wald.html
13. www.school.edu.ru.
14. www.inter-pedagogika.ru.

4-Mavzu. Tarbiya va uning turlari.

Asosiy savollar:

Tarbiya jarayoni haqida tushuncha.

Tarbiya jarayonining tamoyillari, usullari va ularning turlari.

Shaxsning rivojlanish jarayoni.

Faoliyat - shaxs shakllanishining asosiy omili sifatida.

Shaxs rivojlanishida yosh va individual xususiyatlar.

Tayanch tushuncha va iboralar: Tarbiya jarayoni, tarbiya qonuniyatlari, tarbiya tamoyillari, tarbiya usullari. Rivojlanish, irsiyat, muhit, tarbiya, shaxs faoliyati, yosh va individual xususiyatlar. Ilmiy dunyoqarash, yaxlit o'quv-tarbiya jarayoni, vatanparvarlik, estetik, axloqiy, jismoniy, iqtisodiy, mehnat tarbiyasi.

1- Savol bo'yicha dars maqsadi: Talabalarga tarbiyaning mohiyatini, ahamiyatini tushuntirib berish.

Aniqlashtirilgan o'quv maqsadlar:

1. Tarbiya jarayonining murakkabligi.

2. Estetik, jismoniy, mehnat, iqtisodiy va ekologik tarbiyalarning vazifalari.

1 - Savol bayoni: Tarbiya jarayoni haqida tushuncha

Tarbiya jarayonining mohiyati nimadan iborat? Bu oddiy savol bo'libgina qolmay, pedagogika rivojlanishi shu vaqtga qadar ushbu muammoni yechish yuzasidan ko'pgina qiyinchiliklarni yuzaga keltirdi. Avvalo shu narsani bilib olish lozimki, tarbiya tushunchasi har xil mavzuda qo'llanishi lozim. Masalan, tarbiya deganda, yosh avlodning kelajak hayotga tayyorlash deb tushuniladi. Lekin, bu tayyorlash maxsus tashkil qilingan tarbiya faoliyatlari bilan amalga oshirilishi mumkin.

Tarbiya shaxsni maqsadga muvofiq shakllashtirish uchun uyushtirilgan pedagogik jarayon bo'lib, tarbiyalanuvchining shaxsiga muntazam va sistemali ta'sir etish imkoniyatini beradi. Tarbiya jarayoni o'zaro bog'liq bo'lgan ikki yoqlama faoliyatni pedagog va talaba faoliyatini o'z ichiga oladi. Tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchining ongi shakllanadi, his-tuyg'ulari rivojlanadi, ijtimoiy hayot uchun zarur bo'lgan va ijtimoiy aloqalarga xizmat qiladigan xulqiy odatlari xosil qilinadi.

Tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchilarning hayoti va faoliyatini pedagogik jixatdan to'g'ri uyushtirish g'oyat muximdir.

Psixologik va pedagogik tadqiqotlarga qaraganda shaxsga tashqi omillar ta'siri u xoh ijobiy, xoh salbiy ta'sir ko'rsatsin, tarbiyalanuvchi tarbiyasida ular ta'sir ko'rsatadi.⁴ Tarbiyalanuvchining shaxsiy tajribasi va extiyojlari tashqi ta'sirga munosabatni belgilab beradi va uning xulqiga ta'sir etadi. Shuning uchun tarbiyalanuvchi faoliyatini uyushtirishning o'zigina kifoya qilmaydi. To'g'ri tarbiyalash uchun tarbiyalanuvchining bu faoliyatga nisbatan qalbidan paydo bo'ladigan munosabatni, turli xil kechinmalarni qanday anglashni, xis qilishni hamda ulardan o'zi uchun nimalarni maqsad qilib olganligini bilish zarur.

⁴ I.P. Podlasiy. Kitob 1.M: "Vlados" 2001.129 bet.

Tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchining ongigina emas, balki, his tuyg'ularini ham o'stira borish, unda jamiyatning shaxsga qo'yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va odatlarni hosil qilish lozim. Bunga erishish uchun talabaning ongiga (ta'lim jarayoni asosida) hissiyotiga (darsda va turli guruhdan tashqari ishlarda) va irodasiga (faoliyatni uyushtirish, xulqini idora qilish jarayonida) sistemali va muntazam ta'sir etib boriladi. Talabani tarbiyalashda Bularning birontasi (ongi, hissiyoti, irodasi) e'tibordan chetda qolsa maqsadga erishish qiyinlashadi. Shuning uchun tarbiya jarayoni ko'p qirrali va murakkab jarayon deb yuritiladi.

Muxokama uchun savollar:

Bola tarbiyani ko'proq qayerdan oladi? (aqliy xujum)

Likurgning tarbiyasi nimaga asoslangan (munozara)

Nazorat uchun savollar (tarqatma materiallar).

1. Sparta davlatining axloqiy va aqliy tarbiyadagi yutug'i va kamchiligi.

2. Afina davlatining ta'lim tarbiyasi.

2-savol bo'yicha dars maqsadi: Talabalarga tarbiyaning tamoyillarini, usullari va turlarini tushuntirib berish.

Aniqlashtirilgan o'quv maqsadlari:

1. Tarbiyaning tamoyillarini sanab berish.

2. Tarbiyaning usullari va turlarini sanab berish.

2. Savol bayoni: Tarbiya jarayonining tamoyillari, usullari va ularning turlari.

Tarbiya jarayoni to'xtovsiz va sistemali davom etadigan jarayon bo'lib, unga pedagog, tarbiyachi raxnomalik qiladi va tarbiyaning ayni vaqt uchun zarur bo'lgan maqsadini, shu maqsadni hal etishga xizmat etadigan faoliyatni belgilaydi. Tarbiyalanuvchilarning ushbu faoliyatga aktiv ishtirok etishini ta'minlab, ular o'rtasida ijtimoiy, jamoa, o'rtoqlik aloqalari va munosabatlari uchun sharoit yaratadi.

Tarbiyani yaxshi yo'lga qo'yish uchun uning harakatlantiruvchi kuchini, tarbiya jarayoni manbaini yaxshi bilish va hisobga olish muhimdir. Bu tarbiya jarayonidagi ichki va tashqi qarama-qarshiliklardan iboratdir. Masalan, tarbiyalanuvchining odobliligi, yetukligi bilan unga qo'yiladigan talab o'rtasidagi farq tarbiyachi va jamoa ta'siriga shaxsning o'z pozitsiyasi, ya'ni munosabati tarbiya jarayonining ichki qarama-qarshiligi bo'lsa, tarbiyachining talablari bilan shaxs mikro muhit ta'siri o'rtasidagi uzilish tashqi qarama-qarshilikdir. Yana shuni e'tiborga olish kerakki, tarbiyada tarbiyalanuvchining tarbiyalanganlik darajasini ham e'tirof etish lozim. Bordi-yu, bu masala unutilib qo'yilsa, tarbiya jarayonida yana qarama-qarshiliklar vujudga keladi. Masalan, tarbiyalanuvchilarning faoliyatida faol ishtirok etishlarini ta'minlash uchun shu faoliyat nima uchun, qaysi maqsadda, qancha muddatda bajarilishini ularning ongiga yetkazish, bajarish usuli va natijasini hisobga olishda esa o'zlariga havola qilish ma'qulroqdir. Bordi-yu, yaxshi faoliyat to'g'ri tavsiya qilinganda ularning onglilik va ishni bajarishga tayyorgarlik darajasi hisobga olinmasa, uni bajarish istagi uyg'otilmasa, tarbiyachining urinishlari befoyda bo'ladi, talabalar passiv, bexafsala bo'lib qolaveradilar.

Tarbiya usullarida har tomonlama shaxsni shakllantirish maqsadida shaxs ongi, xis tuyg'ulari, irodasi va munosabatlar sistemasiga ta'sir ko'rsatish usulini tushunish kerak.

Tarbiya usullari ham ma'lum bir elementlarga bo'linib tarbiya usullari deb yuritiladi. Masalan, pedagog tarbiyalanuvchiga biror bir vazifani topshirdi. O'z navbatida bu vazifani bajarish uchun ko'rsatmalar beradi. Bu ko'rsatmalar va tushuntirish maxsus holda usulik usul sifatida namoyon bo'ladi. Tarbiya usullari va vositalari o'zaro mustahkam bog'liqdir. Tarbiya usullari shaxsga ta'sir ko'rsatishdan iborat emas. Tarbiya ikki tomonlama jarayon bo'lib pedagog tarbiyachi faoliyati bilan talaba faoliyatini birlashtiradi.

Talabalarning tarbiyaviy ta'sirga faol tayyor bo'lishiga erishish uchun buni muayyan sharoitga qo'yish, uning faol faoliyatini tashkil etish lozim. U yoki bu tarbiyaviy vazifalarni hal etishning muvofiq tashkil etilgan usulik yo'llari tarbiya vositalari deb yuritiladi. Talabalar bilan tarbiyaviy ishda foydalaniladigan vositalar Bunda televideniye, radio, kitoblar shaxslar jalb qilinadigan faoliyat turlari tarbiya vositalari bo'la oladi.

Pedagogning jonli nutqi, shaxslarning o'yin lari, jamoatchilik, xavaskorlik to'garaklari tarbiya vositasi vazifasini bajaradi. Ammo tegishli tarbiyaviy vazifalarni hal etish uchun ularni albatta murabbiy pedagog ishining muayyan sistemasiga kiritish kerak. Tarbiya natijasining samarali bo'lishi tarbiyaviy jarayonni tashkil etish usullari, vositalari va shakllaridan moxirona foydalanishga va ularni qo'shib olib borishga bog'liq.

Tarbiya usulini tadbqiq etish muayyan yoshdagi shaxs faoliyatiga mos kelsa muvaffaqiyatli bo'ladi. Tarbiyaning umumiy usullari asosan 4 gruppaga bo'linadi.

Ijtimoiy ongni shakllantirish usuli.

Ijtimoiy axloqni shakllantirish usuli.

Rag'batlantirish usuli.

O'z-o'zini tarbiyalash.

Ijtimoiy ongni shakllantirish usullari - talabalarning ongli, xis tuyg'usi va irodasiga har tomonlama ta'sir ko'rsatish usullarini umuman shaxs ongiga ta'sir ko'rsatishni o'z ichiga oladi.

Ijtimoiy ongni shakllantirish usullari tushuntirish, suhbat va o'rnak ko'rsatish qismlardan iboratdir.

Tushuntirish - talabalarda e'tiqod xosil qilishning eng keng yoyilgan usulidir. Tushuntirish usulidan ko'zlangan maqsad shaxsga xatti-harakatlar, voqealar va xodisalarga u yoki bu talablarning ma'naviy, estetik, mazmunini ochib berish, unga hulq atvorga va insoniy munosabatlarga to'g'ri baho berishni shakllantirishda ko'maklashishdan iboratdir.

Hikoya va Suhbat pedagogning jonli so'zi asosida shaxsni g'oyaviy va ma'naviy shakllantirishning ta'sirchan usuli hisoblanadi. Hikoya qilinadigan mavzu talabalar uchun dolzarb, shaxslarni ma'naviy ishonch, ijobiy xis tuyg'ular vujudga keltirishga olib kelishi kerak. Masalan, pedagog boshqa guruh jamoasi metallalom yig'ishda yordam berganligini maroq bilan gapirib bersa, buning samaradorligi talabalarning qanday quloq solishiga qarab tekshirish mumkin. Agar talabalar "Biz ham metallalom terishda yordam beramiz"-degan umumiy istak bildirsa, demak, pedagogning xikoyasi shaxslar ongiga yetib borgan va bunga javoban biron maqsad yo'lida faoliyat ko'rsatishga tayyorgarlik tuyg'usini keltirib chiqaradi.

Suhbat xilma-xil mavzularda olib boriladi, masalan etika- estetika mavzusida ya'ni insonni yurish-turishi, atrofdagi voqealar, xulq atvor, go'zalligi, davlatning ichki va tashqi siyosati, bilim olishi, talabalarni bilim doirasini kengaytirish va boshqa mavzularda olib boriladi. Suhbat vaqtida talabalar passiv tinglovchilar emas, balki muxokama qilayotgan faol ishtirokchilarga aylanadi. Suhbat vaqtida pedagog, tarbiyachilar tarbiyalanuvlarni tajribasiga, ularning bilimiga tayanishi lozim. O'tkazilayotgan suhbat talaba uchun ahamiyatlilikini xisobga olish zarurdir. Yangi materiallarni tanlash, tarbiyalanuvchini o'ylashga, mazkur masala bo'yicha o'z bilimlarini orttirishga yordam beradi. Pedagogning o'zi qanchalik kam gapirsa, talabalar dunyosiga shunchalik yaxshiroq kirib borishi, ular bilan ajablanishi, quvonishi lozim, shunda suhbat muvaffaqiyatli olib boriladi.

Suhbat natijasida qabul qilingan axloqiy me'yor keyinchalik talabalar xulq atvori va faoliyatida amalga oshirilishi lozim va keyingi davrga mo'ljallangan o'z xulq atvorini kuzatishlar bilan bog'liq bo'lgan topshiriqlar berish imkoniyati tug'iladi.

Tarbiyalanuvchi hayotiy faoliyatga intilar ekan, kattalar xurmat qiladigan kishilarni o'ziga namuna qilib oladi, ularga taqlid qiladi. Taqlid qilishga moyillik ko'p sabablar bilan izohlanadi. Chunonchi, tarbiyalanuvchilarning hayotiy tajribasi hali kam, barqaror xulq atvor ko'nikmasi yo'g'ligidadir. Tarbiyalanuvchilarning aktivligi taqlid xarakteriga ega. Talaba kattalar tarjibasini o'zlashtira borar ekan, ko'pincha o'zi xurmat qiladigan, o'ziga yoqtiradigan kishilarning xulq atvori obrazlarida foydalanadi, ulardan nusxa ko'chiradi. Taqlid ularda bir muncha tanlash xarakteriga ega. Ularni boshqa kishilarning xarakteridagi ma'lum xislatlar jalb qiladi.

Yoshlikdagi taqlid va ishtiyoq doirasi namunalar yordamida kengayib boradi. Taqlid qilish uchun ijobiy namunalar tanlashda axloqiy, g'oyaviy, siyosiy omillarning ahamiyati kattadir. Tarbiyalanuvchilar va o'smirlarning taqlid qilishga moyilligi ko'pincha salbiy odatlarni ham o'zlashtirish imkoniyatini beradi. Ba'zan tarbiyalanuvchilarni o'quv muassasasi tartibini buzuvchilar, ularning qo'pollixi soxta jasurligi jalb qiladi. Ota - onalar va pedagoglar farzandiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan o'rtoqlari bilan aloqa qilishini ta'qiqlasa bu aksincha tarbiyalanuvchining haligi tarbiyalanuvchi bilan birga bo'lish istagini yanada kuchaytiradi. Eng muhimi yomon ta'sirga ijobiy namunani qarama-qarshi qo'yish, oilada va o'quv muassasasida faoliyatni shunday tashkil etish kerakki, toki bu faoliyat unga zerikarli, mazmunsiz, majburiy bir narsa bo'lib tuyo'lmasin.

Tarbiyalanuvchi bo'ladigan muhitga ham imkoni boricha ijobiy ta'sir ko'rsatmog'i zarur. Tarbiyada taqlid qilish va nusxa ko'chirish bilan cheklanib qolmasligi lozim. Har bir shaxsning o'ziga xos tarzda alohida takrorlanmaydigan shaxs bo'lib uyg'onishiga erishmoq kerak. Namuna onglilikni, ijobiy faollik va Mustaqillikni rag'batlantirib turgandagina bunga erishsa bo'ladi. Kichik yoshdagi tarbiyalanuvchilar uchun oilada ota-ona, aka-uka, sevimli pedagog namuna bo'la olishi mumkin.

Rag'batlantirish uslubi biron-bir omilning tarbiyalanuvchiga ta'sirini kuchaytirish hamda tarbiyalanuvchining shaxsini, xatti-harakatlarini aktivlashtirish maqsadida qo'llaniladi.

Rag'batlantirish harakat qilishga ilxomlantirishdan iboratdir. Tarbiyaviy ishlarning formasi har qaysi tarbiyalanuvchining xususiyatiga qarab o'zgaradi. Istiqbolga doir talablar tarbiyalanuvchi faoliyatini aktivlashtiradi. Istiqbolni qo'yish har xil insonning ulg'ayishi uchun ham, jamoa uchun ham muhimdir. Rag'batlantirish usullari orasida musobaqa katta o'rin tutadi. O'quv muassasasi hayotida musobaqa ishlarini ommaviylashtirish muhimdir. Musobaqaning mohiyati qoloqlarni ilg'orlar darajasida yetkazish ishning umumiy yuksalishiga erishishdir. Musobaqa har bir talabaning imkoniyatlarini ko'ra olish va baholashda olga harakat qilishda, kuch yetadigan istiqbolni belgilashda iroda va xarakterni tarbiyalashda yordam beradi.

Rag'batlantirish talabaga shunday ta'sir ko'rsatsinki, bunda tarbiyachi alohida bir talabaning xatti-harakatiga, xulq-atvoriga ijobiy baho bera olsun. Jamoa talablarining bajarilishini rag'batlantirishi uchun asos deb xisoblash kerak. Rag'batlantirish insonga yashayotgan va ishlayotgan jamoaning undan mamnunligini ko'rsatadi.

Jamoa to'g'ri xulq-atvor ko'nikmalarini mustahkamlash va salbiy ko'nikmalariga barham berishi mumkin. Rag'batlantirish tarbiyalanuvchining takomillashuviga, xulq atvor va xatti-harakat bobida qanday yo'l tutish kerakligini anglab olishga imkon beradi. Talabani qanday va nima bilan rag'batlantirishni pedagog bilmog'i lozim.

Masalan, o'quv yili oxirida yakun yasaladi va baholash nimaga asoslanishi kerak, o'qish natijasigami, yoki talabaning o'quv mehnatiga, munosabatigami?

Istiqbolni tasvirlash talaba faoliyatini rag'batlantiradi, bu narsa quvonch bilan kutish qayfiyatini oshirib, qo'ygan maqsadga erishish uchun butun kuchini sarflashga beradi.

Istiqbolni tasvirlash har bir tarbiyalanuvchining rivojlanishi uchun ham, jamoa uchun ham zarur.

Maqtov rag'batlantirish usulidir. Maqtov tarbiyachining alohida olingan shaxs xususiyatlariga ijobiy baho berishidir. Talaba tarbiyalanishida maqtovning o'zni muhimdir. Maqtov shaxsni ijobiy xislatlarini tarkib topishga yordam beradi. Lekin maqtov ham talaba xislotlari rivojlanishi tezlashtirib yuboradi, unda manmanlik, xotirjamlik tuyg'ularini keltirib chiqaradi.

Jazolash usuli. Jamoa talabaning axloqidan uning ishga munosabatidan, muomalasidan mamnun bo'lmasa, shaxsning o'z xulqini tuzatib olishda yordam ko'rsatish uchun jazo usullaridan foydalanadi. Maqtov singari jazo ham talabaning o'zini noqulay sezishga, uyalishga majbur qiladi.

Tarbiyalanuvchilarni yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda jazolash ham me'yor darajasida bo'lishi shart. Chunki buning natijasida tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning bir qator usullarini ishlab chiqilishi lozim.

O'z-o'zini tarbiyalash usullari.

Tarbiya jarayonida talaba o'z-o'zini tarbiyalashi, ya'ni o'z ustida ishlash, aktiv ish olib borsagina tarbiyani samarali deb aytish mumkin.

Talaba o'z-o'zini tarbiyalash borasida istiqbolini yaratishga intilishi, hayotda ma'lum mustaqillikka intilishda namoyon bo'ladi. O'z-o'zini tarbiyalash oilada va o'quv muassasasidagi tarbiyaviy ishlarning ta'siri ostida ro'y beradi. O'z-o'zini

tarbiyalash jamoadagi shaxslarda faolroq amalga oshishi mumkinligi ularda iroda, tirishqoqlik intizomni tarbiyalaydi. O'z-o'zini tarbiyalash shaxslarning o'z oldida muayyan vazifa qo'ya olishini, uni bajarishida ichki ishtiyoq bilan bajarish jarayonida shu vazifani bajarishi mumkinligini anglashni, nima qilganligi haqida xisobot berilishini nazorat qilishni va to'plangan vazifalarning aniq natijalariga baho berishni o'z ichiga oladi. O'z-o'zini tarbiyalash shaxsiy majburiyat, o'z ishi haqida xisobotlarni tahlil qilish, o'z-o'zini nazorat qilish, o'z-o'ziga baho berish usullariga bo'linadi.

Tarbiyaning tamoyillari va qoidalari

Har bir ishning o'ziga xos, ma'lum qonun-qoidalari bo'lganidek, inson tarbiyasining ham o'ziga xos bir qator muhim tamoyillari, qonun-qoidalari mavjud, ularga amal qilish tarbiya ishining samarali bo'lishini ta'minlaydi:

Tarbiya jarayonining tamoyillari quyidagilar:

1. Tarbiyaning bir maqsadga qaratilganligi;
2. Tarbiyaning hayot, mehnat bilan O'zbekistonimizning mustaqilligi, gullab-yashnashi yo'lida qilinayotgan fidoyi ishlar bilan bog'lanishi;
3. Shaxsni jamoada, jamoa orqali tarbiyalash;
4. Tarbiyada shaxsni xurmat qilish va unga talabchanlik;
5. Tarbiyaviy ishlarning izchilligi, muntazamligi hamda birligi;
6. Tarbiyada shaxsning yoshi va o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish kabilardir.

Yuqoridagi tamoyillar va qonun va qoidalarga amal qilib, yangi ijodiy uslublarni qullab, rivojlantirib tarbiyaviy jarayonni tashkil etish maqsadga erishishning eng samarali yo'lidir.

Muxokama uchun savollar:

Xozirgi vaqtda tarbiyaning mohiyati nimada. (aqliy xujum)

Demokritning tarbiyaga qo'shgan xissasi.

Savol yakuni: Axloqiy va estetik tarbiya.

«Axloq», «xulq» va «atvor» so'zlari arabcha so'z bo'lib ular o'zbek tilida ham o'z ma'nosida qo'llaniladi. Ayrim odatlarda «axloq-kishilarning har bir jamiyatga xos xulq me'yorlari majmui» desa, boshqalar esa «axloq-ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, hamma sohalarda kishilarning xatti-harakatlarini tartibga solish funksiyasini bajaradi» deyishadi.

Axloq me'yorlari xulq atvorning regulyatori sifatida odat me'yorlariga zid xatti-harakat axloqsizlik harakati deb qaraladi. Shunisi ham borki, xuquq majburiy bo'lsa axloq ixtiyoriydir.

Axloqiy tarbiya odamlarni nomusli vijdonli, adolatli, vatanparvar, mehnatsevar bo'lishga o'rgatish bilan profilaktika ishlarini ham olib boradi. Axloqiy tarbiyada yaxshi xulqni takomillashtirish uchun ko'rashiladi. Xalq ta'limi tizimida o'qitish tarbiyalanuvchilarning axloqiy mukammallashish bilan bog'liq bo'ladi. Ularda ong bilan xulq birligi tarbiyalanadi. Shaxsning jamoat va vatanga, mehnatga, kishilarga, o'z xulqiga munosabatlarni quyidagilarda o'z aksini topgan:

- a) jamiyatga, vatanga muhabbat va sadoqatni tarbiyalash;
- b) mehnatga axloqiy munosabatni tarbiyalash;

v) atrofdagi kishilarga axloqiy munosabat, yuqori muomala madaniyatiga ega bo'lgan shaxsni shakllantirish;

g) shaxsning o'ziga, o'z xulqiga, axloqiy munosabatni tarbiyalash.

Dars va darsdan tashqari tarbiyaviy ishlar jarayonini Alpomish, To'maris, Shiroq kabi xalq qaxramonlari; A.Temur, Ulug'bek, Bobur singari davlat arboblari va sarkardalarimiz, Ibn Sino, Beruniy kabi olimu fozillarimiz qarashlariga tez-tez murojaat qilishimiz, yoshlarni Vatanga muhabbat ruxida tarbiyalash ishning asosini tashkil qiladi. Shu bilan birgalikda tarbiya borasidagi jaxon standartlariga ham e'tiborni qaratmoq lozim. Estetik tarbiya ancha keng ma'noga ega bo'lib shaxsni tabiat va jamiyatdan go'zalliklarni ideal nuqtai nazardan idrok etishga o'rgatadi.

Tarbiya turlarining hammasi bir-birlari bilan o'zaro uzviy bog'liq, lekin shunga qaramasdan o'z mazmunidan kelib chiqqan xolda, ular o'z spesifikasiga ham egadir. Endi biz quyidagi: aqliy tarbiya, axloqiy tarbiya, iqtisodiy tarbiya, ekologik tarbiya, xuquqiy tarbiya, estetik tarbiya, jismoniy tarbiya, mehnat tarbiyasi kabi tarbiya turlarining har biriga aloxida-aloxida to'xtalib utamiz.

Aqliy tarbiya. Bozor iqtisodiyoti sharoitida kelib chiqayotgan yangidan-yangi muammolarni ilmiy asosda hal qila oladigan shaxsni tarbiyalash bosh masala hisoblanadi. Buning uchun esa aqliy qobiliyatlarni rivojlantirish, aqliy mehnat qilish madaniyatiga o'rgatish zarur. Aqliy tarbiyani shakllantirishda faqat tushuncha va faktlardan foydalanishning o'zi yetarli emas, buning uchun fikrlash, isbotlash, xulosa chiqarish, umumlashtirish, sistemalashtirish, taqqoslash, asosiy ma'lumotni ajratib olish kabi jarayonlarni ham faol qullash lozim bo'ladi. Bularning hammasi dars vaqtida amalga oshirib borishi aqliy mehnatni to'g'ri tashkil qilish malakasini shakllantirish kerak. Aqliy mehnatni to'g'ri tashkil qilish, talabalarga mustaqil bilim olishda eng muhim element bo'lib xisoblanadi. Aqliy tarbiya o'quvchilarda aqliy mehnatni to'g'ri tashkil etish, o'z-o'zini boshqarish, o'z-o'zini nazorat qilish, malakasini xosil bo'lishiga ko'maklashadi. Aqliy tarbiya talabalarda didaktikani jamlab olish xususiyati, xotirasini mustaxkamlash, fikrlash operasiyalarini rasional o'tkazish kabi malakalarni o'stiradi.

Aqliy tarbiyasi yetuk, o'tkir zehqli, zukko va zakovatli insonlarni xalqimiz donishmand kishilar deb ataydilar. Donishmandlik - bu donolik. Donolik - bu insonning eng buyuk va oliyjanob fazilatidir. Donolik shunday bir noyob ne'matdirki, u har kimga ham nasib etavermaydi. Shuning uchun bo'lsa kerak, xalq donoligida «Aql toji oltindan, oltin har kimda ham bo'lmas», - deyiladi.

Axloqiy tarbiya. Axloq so'zi lotincha «moros», ya'ni moral, mantiq so'zidan kelib chiqib, u hech qayerda qat'iy yozib qo'yilmagan ijtimoiy qonunlardir. Inson kundalik hayotida undan (axloq normalaridan) norma sifatida foydalanadi. Axloqiy tarbiya normalari har bir jamiyatning xuquqiy normalariga asos bo'ladi. Axloqiy tarbiyada kishi axloqiy bilimlarni o'zlashtiribgina qolmay, har qanday vaziyatlarda o'zini ana shu normalarga munosib tuta oladigan kishilar axloqiy tarbiyalangan xisoblanadi. Axloqiy tarbiyalangan kishida barqaror ma'naviy motivlar shakllangan bo'ladi. Bu motivlar esa o'sha kishini jamiyatda munosib xulq-atvorga rag'batlantiradi. Yosh avlodni jamiyatga, mehnatga, o'ziga munosabatni ochib beruvchi ma'naviy fazilatlarga muvofiq ravishda tarbiyalash - tarbiyalanuvchi shaxsni, axloqiy tarbiyaning pedagogik va psixologik asoslarini chuqur bilishni talab

qiladigan murakkab jarayondir. Axloqiy bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirib olishgina o'quvchilarga atrofdagi kishilar xatti-harakatidagi qaysi jixatlar yaxshi-yu, qaysilari yomon ekanligini anglab olishga yordam beradi. Axloqiy tushunchalarning turli yosh davrlarida shakllanish darajasi turlichadir. Jumladan: 1. Axloqiy onglilik. 2. Axloqiy qadriyatlar. 3. Axloqiy xis-tuyg'ular.

Ekologik tarbiya. Ekologiya so'zi «tom» yoki «uy» degan ma'noni anglatib, nemis olimi Ernest Gekkel tomonidan birinchi bor fanga kiritilgan. Ekologiya fani hozirgi bozor munosabatlari davrida ko'pgina tarmoqlarga ega: o'simliklar ekologiyasi, zoоекologiya, tuproq ekologiyasi, inson ekologiyasi va boshqalar. Ekologiya fani tanlab olingan bir yoki bir necha obyektning yashash sharoitini yoki normalarini o'rganadi va yashashning optimal darajasini aniqlashga yordam beradi. Bu yo'nalishdagi ishlar bizga ekologik bilimlarni yetkazadi, ammo bu bilan insoniyat cheklanib qolmaydi. Davr talabiga ko'ra, yana boshqa yo'nalishda ham ish olib borishni talab etmoqda. U ham bo'lsa ekologik tarbiya masalasidir.

Ekologik tarbiya albatta ekologik bilim asosida shakllanadi, lekin u o'ziga xos xususiyatlarga ham ega. Ekologik tarbiya insonda tabiatga nisbatan to'g'ri, oqilona munosabatni shakllantirish masalasi ustida ish olib boradi va o'z oldiga talabalarda ekologik madaniyatni shakllantirishdek maqsadni qo'yadi. Ekologik tarbiyaning mazmuniga ekologik onglilik, ekologik xis-tuyg'ular (tabiatga, insonlarga, hayotga nisbatan munosabatlar) kiradi. Shunday qilib, ekologik tarbiya inson hayotida, jamiyatda, vatanda muhim ahamiyat kasb qiladi.

Ekologik tarbiyaning shakllanishiga ekologik bilimlarni egallash bilan bir qatorda ekologik munosabatlarni ham shakllantirib borish zarur bo'ladi. Ekologik munosabatlarga: 1. Hayotga munosabat. 2. Yaxlitlik xissini tarbiyalash. 3. Javobgarlik xissini tarbiyalash. 4. Tabiat go'zalliklarini xis etish kabi komponentlarni kiritish mumkin.

Xuquqiy tarbiya. Xuquqiy tarbiya - bu shaxsga nisbatan xuquqiy ongini, xuquqiy munosabatlarni, qonunga itoatkor xulq-atvor ko'nikmalari va odatlarini shakllantiruvchi uyushgan, aniq maqsadni ko'zlagan holda ifodalanishidir. Xuquqiy tarbiyani bolaning kichik yoshidan boshlab amalga oshira boshlash, xuquqiy axborotlarning birinchi darajali tus olishiga erishish, shaxsning umumiy dunyoqarashi va ijtimoiy yo'naltirilganligining tarkibiy qismi tarzida xuquqiy qarashlariga asoslanishi zarurdir.

O'sib kelayotgan yosh avlod xuquqiy tarbiyasining xususiyatlari yangi jamiyatning o'z xarakteri, turmush tarziga asoslanadi. Ularning hammasi prinsipial jixatdan yangi, yanada murakkab muammolarni xal etish zarurligini ifoda etadi. Avvalo, xuquqiy tarbiya yangi yosh avlodni kamol toptirishning samarali vositasi sanaladi.

Yuqorida qayd qilingan muloxazalar xuquqiy tarbiyaning yaxlit tizimi quyidagilardan iboratligini ifodalaydi:

Birinchiidan, xuquqiy tarbiya subyektlariga: davlat idoralari, jamoat tashkil otlari, mehnat jamoalari, mansabdor shaxslar va boshqalar kiradi.

Ikkinchiidan, xuquqiy tarbiya obyektlariga: mansabdor shaxslar, fuqarolar, ichki ishlar idoralari xodimlari kiradi.

Uchinchidan, xuquqiy tarbiya mazmuniga: xuquqiy ta'lim, xuquqiy targ'ibot va tashviqotlar kiradi.

To'rtinchidan, xuquqiy tarbiya shakllariga: ma'ruzalar, seminarlar, suhbatlar, viktorinalar kiradi.

Beshinchidan, xuquqiy tarbiya usullariga: ishontirish, rag'batlantirish, majburlash kiradi.

Oltinchidan, xuquqiy tarbiya vositalariga: matbuot, radio, televideniye, adabiyot va san'at asarlari, ko'rgazmali tashviqot hamda targ'ibot vositalari kiradi.

Mustaqillik sharoitida xuquqiy madaniyat bilan xuquqiy tarbiyaning bog'liqligi yanada ortadi.

Estetik tarbiya. Hayotda tabiat - go'zallikning manbaidir. U estetik tuyg'ularni, bolalarning ko'zatuvcchanligini va tasavvo'rin i rivojlantirish uchun juda boy material beradi. Bundan tashqari, san'at ham estetik tarbiya vositasi hisoblanadi. San'at orqali estetik tarbiyalash pedagogikada badiiy tarbiya deb ataladi. U quyidagi usullardan foydalangan holda olib boriladi:

1. Badiiy asarlarni namoyish qilish va ijro etish.
2. Badiiy asarlarni tahlil qilish va baholash.
3. San'atsho'noslik bilimlaridan xabardor qilish, talabalar san'atning har xil turlarini ifoda vositalari, tarixi va nazariyasini xarakterlovchi muayyan ma'lumotlar jamg'armasiga ega bo'lishi zarur.
4. Talabalar ijodiy va ijrochilik faoliyatini tashkil etish, talabalar badiiy faoliyatining xilma-xil shakllarida mashqlar o'tkazib, ijodiy qobiliyatlarini, voqe'lik predmetlarini va xodisalarini san'at vositalari yordamida mustaqil tasvirlash ko'nikmalari va malakalarini rivojlantiradi.

Jismoniy tarbiya. Jismoniy tarbiya shaxsni har tomonlama rivojlantirish tizimidagi o'z vazifasini bajarish bilan birga, u quyidagi asosiy vazifalarni xal qilishga qaratilgan: salomatlikni mustaxkamlash, inson oranizmini chiniqtirish va talabalarning jismoniy rivojlanishiga yordam berish; harakat ko'nikmalarini va malakalarini shakllantirish hamda takomillashtirish; o'g'il bolalarni armiya safariga tayyorlash; fizkultura va sportning mohiyati hamda ijtimoiy roli haqidagi ma'lumotlardan xabardor qilish. Talabalarning sog'ligini himoya etish va boshqarish jismoniy tarbiyaga ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi mustaqilligini qo'lga kiritgandan buyon davlat darajasida ahamiyat bermokda. Jismoniy tarbiya va sport ishlariga xukumatimiz tomonidan katta g'amxo'rlik qilmoqda. Buning dalili sifatida Toshkent shahri va barcha viloyatlar, Qoraqalpog'iston Respublikasi va tumanlarda bunyod etilayotgan sport inshootlari, sport komplekslarini keltirish mumkin.

Mehnat tarbiyasining o'ziga xos xususiyatlari

Mehnat tarbiyasi yosh avlodni tarbiyalashda markaziy o'rin lardan birini egallaydi. Rivojlanishning asosiy vazifalaridan biri mehnat tarbiyasi va ta'lim samaradorligini umumiy ta'lim o'quv muassasasi talabalarini kasb tanlash, mustaqil hayotga amaliy va texnika inqilobi va xozirgi zamon ishlab chiqarish sharoiti talabalarning mehnat tarbiyasi va ta'limi ana shu talablar darajasiga ko'proq muvofiq bo'lishini talab qilayotir. Nega deganda tarbiyalanuvchilar o'quv yurtini tamomlagandan keyin ishlab chiqarishning butun tizimini bemalol bilishlari va unda ro'y berayotgan o'zgarishlarni tezda payqab olishlari kerak.

«Umumiy va kasb-hunar ta'limini islox qilishning asosiy yo'nalishlari»da ta'kidlanadiki, mehnat tarbiyasini shaxsni shakllantirishning eng muhim omili va xalq xo'jaligining mehnat resurslariga talabini qondirish vositasi deb bilish kerak.

Mehnat faoliyati jarayonida inson tabiatini o'zgartiribgina qolmay u bilan birga o'zi ham o'zgaradi. Mehnat faoliyati shaxsning axloqiy fazilatlarini shakllantirishga uning tabiat va jamiyatga qarashli tizimiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Mehnat inson aqliy qobiliyati jarayonini o'z ijodiy faolligini namoyon qilib ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi va takomillashtiradi. Mehnat tufayli insonning ma'naviy munosabatlari shakllanadi. Jismoniy jihatdan kamol topib o'z mehnat ko'nikmalari va malakalarini rivojlantira boradi.

Ammo har qanday mehnat ham shaxsni har tomonlama tarbiyalash va kamol toptirish omili bo'lavermaydi. Ekspulatasiya va zo'ravonlikdan xoli bo'lgan mehnatgina insonga xal qiluvchi va tarbiyalovchi ta'sir ko'rsatadi. Agar inson majburan mehnat qilsa bu jarayon ma'naviy rivojlanishga xalaqit beradigan va ma'naviy mamnuniyat keltirmaydigan mehnatga aylanadi.

O'quv yurtlarida mehnat tarbiyasini rivojlantirish yo'llarini ijodiy ishlab chiqishda shaxs mehnatini tashkil etish usulikasiga jiddiy e'tibor berish kerak. Mehnatdan maqsadga muvofiq foydalanilsagina u tarbiyalanuvchilar ma'naviy kamolotini omili bo'lib qolishi mumkin. Buning uchun mehnat shaxsni qiziqtirishi, jismoniy mehnatgagina emas, balki aqliy mehnat bo'lishi lozim. Shaxs mehnat natijasini tushunishi kerak. Shaxs faqat o'quv muassasasidagina emas, undan tashqarida ham mehnat qilishi kerak. Mehnat tarbiyalanuvchilar uchun ularning qurbi yetadigan ijodiy faoliyat bo'lishi lozim. Mehnat tarbiyasini bir qator yetakchi vazifalarini ajratib ko'rsatish mumkin:

umumfoydasi uchun mehnat qilish zarurligi;

talabalarda jamoa mehnat faoliyatida ishtirok etish uchun zarur bo'lgan barqaror ma'naviy va irodaviy xislatlarni tarbiyalash;

talabalarni umumiy bilim va politexnik bilimlar tizimi bilan hozirgi zamon ishlab chiqarishda qatnashish uchun zarur bo'lgan maxsus mehnat ko'nikmalari va malakalari bilan qurollantirish;

talabalarga bo'lajak kasbni ongli tanlashda yordam berish;

mehnat madaniyati asoslarini tarbiyalash, tarbiyalanuvchilarning iqtisodiy tarbiyasi.

Mehnat tarbiyasining vositalari quyidagilar:

Ijtimoiy foydali mehnat.

Oilaviy mehnat.

Mehnat faxriylari va turli mehnat vakillari bilan uchrashuv.

Mehnat ikki xil bo'ladi:

Aqliy mehnat.

Jismoniy mehnat.

Aqliy mehnat - shaxs uchun eng og'ir mehnatdir. Bu mehnat aqliy zo'r berishni talab qiladi, uzoq vaqt davom etadi va qunt bilan shug'ullanishni talab qiladi. Bu mehnatning murakkabligi yana shundaki, bundagi natijalarning namoyon bo'lishi qiyinroq bo'ladi, bu natijalarni shaxs deyarli tushunmaydi.

Aqliy mehnati jarayonida tarbiyalanuvchilar turli darajada murakkablikka ega bo'lgan va Mustaqillikni turli darajada talab qiladigan bir qator aqliy, hamda amaliy

xarakterlarni egallaydilar. Bu esa ularda bilimga qiziqishini, aqliy faoliyatning samarali turlarini shakllantiradi.

Aqliy mehnati tarbiyalanuvchilarning qurbi yetadigan darajada bo'lishi kerak. Tarbiyalanuvchilarning qurbi yetmaydigan mehnat inson organizmiga ziyon yetkazadi. O'qishdan ko'nglini sovutishi mumkin. Shu sababli pedagog har bir tarbiyalanuvchining yosh xususiyatini va ta'lim olishga individual tayyorligini aniqlash, shaxsning e'tibori va tafakkuridagi xususiyatlarini bilishi, mehnat va dam olish rejimiga rioya qilishi muximdir. O'quv mehnatning bosh vazifasi-shaxsni o'qishga o'rgatishdan, uni O'quv mehnati usulikasi va texnikasini qurollantirishdan, O'zi bilim oladigan bo'lish imkoniyatini berishdan iborat. O'quv mehnati jarayonida ta'sir qiladigan ko'nikma va malakalar tarbiyalanuvchilarning ijtimoiy foydali unumli mehnatda qatnashishga tayyorgarligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Tarbiyalanuvchini bo'lajak mehnat faoliyatiga tayyorlash uchun yaxshi poydevor bo'ladi. Pedagogning o'quv muassasasi tarbiyalanuvchilarida darsliklar, kompyuter texnikasi bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirishda mehnat tarbiyasiga doir ishi ayniqsa muhim ahamiyatga ega. O'quv mehnati jarayonida aqliy mehnat madaniyati xosil qilinadi. O'rtoqlik, xayrixoxlik, intizomlilik, uyushqoqlik singari fazilatlar tarbiyalanadi. Binobarin, Bularning bari mehnat tarbiyasini eng samarali hal qilish uchun xizmat qiladi

3. savol dars maqsadi: Talabalarga shaxs haqida tushuncha berish.

Aniqlashtirilgan o'quv maqsadlari:

- 1.Shaxs rivojlanishiga tashqi omillarning ta'sir ko'rsatishi.
- 2.Individ-shaxs –individduallik haqida tushuncha berish.

1-Savol bayoni: Shaxsning rivojlanish jarayoni

Har qanday jarayon o'z natijasiga erishishga qaratilgan qonuniy va izchil harakatlar jamidan iborat bo'ladi. Tarbiya jarayonining eng asosiy natijasi har tomonlama kamol topgan shaxsni shakllantirishdan iboratdir. Bu jarayon ikki tomonlama bo'lib uyushtirishni va rahbarlikni ham, tarbiyalanuvchi shaxsning o'zi aktivlik ko'rsatishni ham talab etadi. Chunki u tarbiyaning umumiy maqsadlarini amalga oshirish dasturini ishlab chiqadi, tarbiya formalari, usullari va usullarini asosli tarzda tanlab oladi va tadbiq etadi.

Sharqda ham azaldan farzand tarbiyasiga katta e'tibor bilan qarab kelingan. Ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy yozganidek «Tarbiya bizlar uchun yo hayot - yo mamot, yo najot, yo xalokat, yo saodat, yo falokat masalasidir».

Yurtga, vatanga muhabbat, insonparvarlik tuyg'ulari xalqimizning qon-qoniga singib ketgan azaliy xususiyatdir. Ana shu noyob insoniy fazilatlarni asrab, avaylash va yanada takomillashtirish, farzandlarimizni ozod va demokratik O'zbekistonning munosib o'g'il - qizlari qilib tarbiyalash masalasi ma'naviyat sohasidagi ishlarimizning asosiy yo'nalishini tashkil etmog'i kerak.

Ma'naviyat tarbiyaning eng ta'sirchan quroli ekan, undan oqilona foydalanish, tarbiyalanuvchilarni vatanparvarlik, rostgo'ylik, xalqsevarlikka o'rgatish kerak bo'ladi. Aslida olganda axloq ma'naviyatning o'zagi. Inson axloqi shunchaki salom-

alik xush muomaladagina iborat emas. Axloq bu insof va adolat tuyg'usi, imon, halollik deganidir.

Qadimda ajdodlarimiz komil inson haqida butun bir axloqiy talablar majmuasini zamonaviy tilda aytsak, Sharqona axloq kodeksini ishlab chiqqanlar.

Sharq tarbiyasida islom dinining roli muhimdir. «Islom dini-bu ota-bobolarimiz dini, u biz uchun ham imon, ham axloq, ham diyonat, ham ma'rifat ekanligini unutmaylik. U quruq aqidalar yig'indisi emas. Ana shu ma'rifatli kishilarimiz jon-jon deb qabul qiladigan va yaxshi o'g'itlarga amal qiladilar. Mexr-oqibatli, nomusli, oriyatli bo'lishiga izzat-extirom tushunchalariga rioya etishga harakat qiladilar». Islom dini har qanday davrda ham insonlarni poklikka undagan, yaxshi xislatlarni ko'paytirib yomon xislatlardan xalos etishga chorlagan.

Pedagogika tarbiyalanuvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish uchun zarur bo'lgan eng samarali shart-sharoitlarini o'rganadi va aniqlaydi. Bu masalani xal qilish uchun avvalo «shaxs» degan umumiy tushunchaning ma'nosini va shaxsning rivojlanish qonuniyatlari, rivojlanishning ko'rsatkichlarini shaxsning shakllanishida ayrim muhim omillar rolini bilish, individning rivojlanish jarayoni bosqichlarini aniqlash, shaxsni shakllantirishda ta'lim-tarbiyaning shaxs aktivligi rolini o'rganish kerak bo'ladi.

Birinchi galda rivojlanish tushunchasining ma'nosini ochib berish lozim. Bu masalaga filosofik jixatdan baho berish bilan asoslanadi. Filosofiya rivojlanishini tabiat, jamiyat va tafakkurning xususiyati deb quyidagin yuqoriga tomon bo'lgan harakat deb, yangining tug'ilishi va eskining yo'q bo'lishi yoki tubdan o'zgarishi deb xisoblaydi.

Shuning uchun pedagogikada shaxsning rivojlanish jarayoniga inson shaxsini takomillashtirishning murakkab va ziddiyatli yo'li deb qaraladi.

Murakkab bo'lgan tushunchani taxlil qilinganda turli olimlar turli xususiyatlarni asosiy tomonlar deb ko'rsatib kelganlar. Aql, xissiyot va irodani shaxsning uch asosiy tomoni deb ajratib ko'rsatish eng dastlabki o'rin ishlardan edi. Keyinchalik pedagog olimlar shaxsni o'rganishga boshqacha yondasha boshladilar. Shaxs doim bir butun, murakkab xodisa bo'lib unda insonning biologik xususiyatlari ham, ijtimoiy xususiyatlari ham gavdalanadi. Bir shaxsda uning hamma tomonlari, xususiyatlari ham sifatlari bir-biri bilan bog'langan bo'ladi. Bu bog'lanishlar nihoyatda xilma-xil bo'lib, turli kishilarda turlicha sodir bo'ladi. Ba'zan ular bir-biriga zid va o'zgaruvchandir. Shuning uchun ham kishining har bir sifati, masalan irodasi, xotirasi yoki xarakter xususiyati uning qanday tilak va orzular bilan yoki boshqa sabablar bilan kirishganiga qarab mutlaqo har xil ahamiyat va qimmat kasb etadi. Xayol boyligi kishining ijodiy faoliyati uchun zarur bo'lgan qimmatli xususiyatdir ammo, odam xayolida o'ylab turgan narsalarini amaliy faoliyatida ro'yobga chiqarmasa, bu xayol boyligi salbiy xususiyat bo'lib qoladi. Musiqaga qobiliyati bo'lgan kishi uni yaxshiroq o'rganish uchun intilmasa va mehnat qilmasa, uning qobiliyati o'smaydi.

Turmushda kishi o'zidagi ba'zi zaif tomonlarni, odatlarni kuchliroq sifatlari bilan qoplashga harakat qiladi. Biror narsani uncha tez tushunib ololmaydigan odam astoydil harakat qilib va zo'r berib uni tushunib oladi va mehnatini to'g'ri tashkil etadi. Har bir kishi juda ko'p odamlar bilan xilma-xil munosabatlarga kirishganda o'zining turli xususiyatlarini namoyon qiladi.

Shaxsning eng barqaror va ahamiyatli xislatlari uning boshqa odamlarga, mehnatga, Vatanga bo'lgan turli munosabatlarida ifodalanadi. Bu xislatlar kishidagi ayrim psixik jarayonlarning kechish xarakterini ham ko'p jihatdan belgilab beradi.

Pedagogika fani shaxsni biologik va ijtimoiy xususiyatlari o'zaro chambarchas bog'liq bo'lgan bir butun narsa deb hisoblaydi. Kishining yoshi, sog'ligi, kasalligi, uning faoliyatidagina emas, balki turmush tarziga ham ta'sir qiladi. Lekin shaxsning butun qiyofasini belgilab beradigan unga o'z jismoniy kamchiliklarini xarakteridagi salbiy xususiyatlarni yo'qotish kuch bag'ishlaydigan sabablar, qiziqishlar, maqsadlar, ya'ni ijodiy hayot natijalari xal qiluvchi rol o'ynaydi.

Muxokama uchun savollar:

Muhit nima? (aqliy xujum)

Tashqi muhitning shaxsga ta'siri nimalarda namoyon bo'ladi.(munozara)

Savol yakuni: Faoliyat - shaxs shakllanishining asosiy omili sifatida

Shaxs tushunchasi ijtimoiy foydali faoliyatda qatnashishga extiyoj sezishini va aktiv ishtirok etishini har bir kishining boshqa odamlar bilan munosabatda bo'lishi extiyojini, bu munosabatning mazmuni va formalarini, shaxs bilan uning atrofidagi kishilar o'rtasidagi munosabatlar tizimini, uning tabiatga tevarak atrofdagi dunyoga munosabatini shaxsning asosiy xususiyatlari deb ajratish mumkin. Shaxsning ko'p sohali va har tomonlama faoliyatida turli xil odamlar bilan aloqada shaxsning hamma qiziqishlari namoyon bo'ladi, uning odamlarga umumiy ishga, o'z malakasiga o'ziga bo'lgan munosabatlari shakllanadi. Biroq shaxs ijtimoiy turmush maxsuli bo'lish bilan birga tirik organizm hamdir. Organizmning hayoti biologik qonunlarga buysunadi. Birinchi galda nerv sistemasining xossalari mavjudga keltiradigan temperament xususiyatlari tufayli insonning butun xulq-atvori aloxida xarakterga ega bo'ladi. Shaxsning tarkib topishi va xulq-atvorida ijtimoiy va biologik jihatlar munosabati nixoyatda murakkab bo'lib, kishi tarakkiyotining turli davrlarida uning boshqa odamlar bilan bo'lgan aloqalarining turli vaziyat va ko'rinishlarida har xil keskinlikda namoyon bo'ladi.

Shaxsga avvalo uning ijtimoiy qiyofasiga, kishining o'z atrofidagi odamlar hayoti bilan bog'liq holda ifodalanadigan qiyofasiga qarab baho beriladi, kishi tevarak atrofidagi odamlar bilan xilma-xil munosabatlarga ba'zan o'ziga bog'liq bo'lmagan munosabatlarga kirishib o'zining moxiyatini namoyon qiladi. Shaxsning barcha xislatlari atrofdagi kishilar bilan munosabatida shakllanadi. Shaxs odamlar orasidan tashqarida yashay olmaydi va shakllanmaydi.

Xozirgi davrda shaxsni ma'naviy jihatdan barkamol qilib tarbiyalash davlat siyosatining bosh mezonini xisoblanadi. Shaxs rivojlanishiga to'g'ri yondashish uchun shaxsning tabiatini, tuzilishini uning xulq-atvorini va unga ta'sir ko'rsatish vositalarini bilish zarur.

Tug'ilgan inson shaxs bo'lib shakllanishi lozim. Bu jarayon bir qancha omillar ta'sirida sodir bo'ladi va muayyan qonunlarga buysunadi. Odatda shaxs shakllanishi uchun uchta asosiy omillar tan olinadi. Bular irsiyat, atrof-muhit va tarbiyadir. Ushbu omillarning hech biri vaziyat va sharoitlarga bog'liq bo'lmagan xolatda mustaqil ravishda shaxs shakllanishiga ta'sir eta olmaydi. Bundan tashqari ba'zi omillar faolroq, muntazamroq ta'sir ko'rsatadi va kishilarning ongli irodasiga bo'ysunadi

boshqalari esa boshqarilishi qiyin bo'lgan omillardir. Ba'zi omillarning ta'siri stixiyali ravishda sodir bo'ladi va shaxs tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi ayrim kishilarning irodasiga, tashqi lotsizlik qobiliyatlarida va boshqalarda bog'liq bo'lmaydi.

Tarbiyaga shaxsni uning xis-tuyg'ularini xarakterini, jismoniy rivojini, xulq-atvorini muayyan yo'nalishda shakllantirish maqsadida kishilar bir-biriga ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy xodisa deb qarash lozim. Pedagogika sohasining yetuk olimlari ijtimoiy omilning xal qiluvchi ahamiyatiga ega ekanligini ximoya qiladilar, shaxs yaxshi yoki yomon bo'lib tug'ilmaydi. Balki, tarbiyaning ta'siri ostida yaxshi yoki yomon bo'lib o'sadi deb isbotlaydilar. Xo'sh shaxs tarbiyasi uchun ta'sir etuvchi omillar qaysilaridan iborat? Bu asosan uchta omilni tashkil etadi. Biologik omil, atrof - muhit va tarbiyadagi omillardan iboratdir.

Biologik omil. Bu omilning ta'sirini avvalo shuning uchun e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydiki, shaxs tirik organizmdir, uning hayoti biologiyaning umumiy qonunlariga ham, yoshlar anatomiyasi va fiziologiyasining maxsus qonunlariga ham bo'ysunadi. Hayotning muayyan davrlarida shaxsning ayrim organlari va butun bir organlar sistemasining tuzilishida va funksiyalarida o'zgarishlar yuz beradi. Shaxsning sog'liq xolati va bu xolat ko'p yoki oz muddat bouzilib turishi biologik omilga taalluqli. Shaxs hayotida nerv faoliyatining individual va tipologik xususiyatlari, yosh va jinsiy jixatdan bo'lgan tafovutlar katta rol o'ynaydi, ular oldida irsiy emas, balki tug'ma xususiyat va tafovutlardir. Organizmning biologik yetilishi qonunlarga asoslanadi. Bu qonun muhitning ba'zi bir tarbiyaviy ta'sirlariga turli darajada buysunga n holda amal qilishi kerak. Lekin shaxs organizmining biologik hayoti uning psixik rivojlanishini bevosita belgilab bermaydi va shu bilan birga, unga nisbatan mutlaqo betaraf va befarq xodisa bo'lib ham qolmaydi. Biologiyaning asosiy tushunchasi bo'lgan irsiyatning roli olimlar tomonidan jiddiy muxokama qilinib kelinmoqda. Ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatmokdaki, ota-ona organizmining uzoq muddat bir xil sharoitda yashash natijasida mustahkam o'rnashib qolgan xossalari irsiyat yo'li bilan o'tadi.

Muhit. Biologiya fani muhitni organizm yashaydigan joy deb, muhitning ta'siri esa organizm bilan bog'liq muhit o'rtasidagi assimiliyasiya va dissimiliyasiya yoki moddalar almashish qonuni asosida amalga oshadi, deb tushuntiradi. Bu qonunga binoan organizm yashab turgan muhit bir butun narsadir. Tabiiy muhit yorug'lik, issiqlik, ovqat, xavo kabi komponentlari shaxsning organizm sifatida rivojlanishi uchun katta ahamiyatga ega. Ammo shaxsning shaxs sifatida shakllanishi uchun bu mutlaqo yetarli emas. Shaxsning yashab turgan muhitida odamlar, birinchi navbatda tarbiyalanuvchiga yaqin kishilar, ya'ni oz sonli oila a'zolarigina emas, balki unga uzoqroq bo'lgan kishilar uning qo'ni-qo'shnilari, mahallasi, tarbiyalanuvchilar bog'chasidagi o'rtoqlari, so'ngra esa u birga o'qiydigan o'ynaydigan, birga ishlaydigan, turli aloqada bo'ladigan o'rtoqlari xal qiluvchi rol o'ynaydi.

Xozirda tarbiyalanuvchilar ommaviy axborot vositalari orqali o'zlariga notanish avlod-ajdodlarning jonli obrazlariga duch keladilar. Bu obrazlar yosh avlodning fikr va xislariga uning voqea-xodisalariga beradigan baholariga va intilishlariga ta'sir ko'rsatadi. Bunday ta'sir ijobiy yoki salbiy o'tadigan birdan-bir yo'l shaxsning tevarak - atrofidagi odamlar bilan munosabatda bo'lishidir, shaxs munosabatda

bo'lgan kishilar uning muhitidir. Shaxs bilan jamiyat o'rtasidagi o'ziga xos modda almashish tipi bo'lgan aloqa orqaligina shaxs o'tmish - avlodlarining qimmatli tajribasini o'zlashtira olishi eng yaxshi katta kishilardan namuna ola bilishi mumkin. Faqat munosabatda tarbiyalanuvchilarning tarbiyachilari-kattalarga emas, balki tarbiyalanuvchilarning o'zlari ham faol qatnashadigan mana shu aloqadagina, faqat ana shu ikki yoqlama jarayondagina shaxs xilma-xil bilim oladi juda ko'p malakalarni va ish usullarini egallaydi, o'zining sezgi organlari orqali idrok qilgan narsalarini anglab olishga tashqi dunyodagi voqea va xodisalarga turli xil xis-tuyg'ular fikr va tasavvurlar bilan javob berishga o'rganadi.

Odamlar bilan munosabatda u nima yaxshiyu nima yomonligini nimani qilish va qilmaslikni bilib oladi, u muayyan maqsad ko'zlab aqlga muvofiq tutishni hamda insonlarga va ularning fe'l-atvorlariga tanqidiy baho berishni o'rganadi. Odamlar bilan bo'lgan munosabatlarida shaxs yaxshi fazilatlar bilan boshqa shaxslar o'rtasida ajralib tura boshlaydi, o'zi yashab turgan jamiyatda qabul etilgan axloq me'yorlarini boshqalarga va o'ziga nisbatan qullab, ularni o'z ishida mezon qilib ola boshlaydi. Demak, birinchidan, muhit shaxsni rivojlantiruvchi omil sifatida tarixan o'zgaruvchi ijtimoiy xodisadir, Chunki muhit, xatto shaxs dunyoga kelgan dastlabki kunlardan oq uning hayoti utadigan eng tor muhit ham, ya'ni shaxsning oilasi ham jamiyatning bir uyasi, xujayrasidir. Tarixiy taraqqiyotning har bir davrda yangi kishini tarbiyalashning maqsadlari va vositalari o'zgaradi, axloq me'yorlari, madaniyat boyliklari, katta yoshdagi odamlarning did va qiziqishlari, fikr yuritish usullari o'zgaradi.

Ikkinchidan, tarbiyalanuvchi o'z aktivligi tufayli, moddiy, tabiiy va ayniqsa ijtimoiy muhit bilan o'zaro aloqaga kiradi. Faqat ana shu sharoitdagina muhit o'sib kelayotgan shaxsni rivojlantiruvchi omil bo'lib qoladi. Inson tarbiyasida muhit muximmi yoki tarbiya degan savolni qo'yish mantiqan to'g'ri bo'lmaydi. Bu narsa g'ayriqonuniydir. Ammo muhit shaxsga ma'lum darajada tarbiyalovchi ta'sir ko'rsatgan taqdirdagina rivojlantiruvchi omil bo'la oladi. Bu ta'sir stixiyali, tartibsiz ko'rinishda bo'lishi mumkin, Bunday holda shaxsning rivojlanishi ham ma'yyan maqsadga qaratilmagan bo'ladi, natijada shaxsda jamiyat uchun ham, shaxsning o'zi uchun ham zararli bo'lgan shaxsiy fazilatlar vujudga keladi.

Tarbiyalanuvchining o'z atrofidagi moddiy va ijtimoiy muhit bilan aloqada bo'lishi, uni rivojlantiruvchi asosiy sabab ekanini tushunish munozarali bir masalani, shaxsning psixik taraqqiyotida eng muhim narsa biologik omilmi yoki ijtimoiy omilmi degan masalani hal qilish imkoniyatini beradi. Shaxs hayotda va kattalar bilan munosabatda o'z individualligini tashkil etgan jismoniy va psixik sifatlarining butun majmui bilan harakat qiladi. Shunday qilib biologik va ijtimoiy omilni biri-biriga qarama-qarshi qo'ymaydi.

Pedagogikada tarbiyalanuvchining rivojlanishini uning faoliyati va shu faoliyat tufayli yuz beradigan, shaxsning tevarak-atrofdagi voqealikka bo'lgan munosabatlarida, bilish jarayonlari va xarakter xususiyatlarini rivojida xosil bo'ladigan sifat o'zgarishlardan iborat murakkab jarayon deb xisoblaydi. Faoliyatsiz rivojlanish bo'lmaydi. Shaxsdagi rivojlanish moxiyati avvalo shundan iboratki, uning faoliyati o'zgarib va takomillashib boradi, faoliyat turlari (o'yin, o'qish, mehnat va boshqalar) ko'payadi, har xil faoliyat turlarining o'zaro nisbati, ularning natijalari

o'zgaradi va shu o'zgarishlar jarayonida shaxsning rivojlanishi yuqoriroq darajaga ko'tariladi. Shunday qilib, bilish prosesslarida ham tarbiyalanuvchining dunyoga bo'lgan munosabatida ham, uning turli faoliyatida ham murakkab sifat o'zgarishlari sodir bo'ladiki, bu shaxs rivojlanishining mohiyatini tashkil etadi.

Faoliyatning har xil turlarida shaxsning individual xususiyatlari shakllanadi. Bu xususiyatlar faoliyatning maqsadlarida, faoliyatga undagan sabablarda kishi o'z oldiga qo'ygan maqsadni amalga oshirish uchun foydalanadigan yo'l, usul va vositalarni va uning o'z ishiga, o'z faoliyatiga, o'zi va boshqalarning yutuq va muvaffaqiyatsizliklariga qanday qarashida namoyon bo'ladi.

Kishi o'z oldiga qo'ygan maqsadga erishishda foydalanadigan vositalarga qarab ham shaxsga baho berishi mumkin. Bunda odam o'zidagi bilimini, o'zi yaxshi bilib olgan ish usullari, malaka va ko'nikmalarni qo'llaydi, qobiliyatlar ham shaxsning imkoniyatlaridandir. Kishining imkoniyatlari aksariyat xollarda o'zi o'ylaganidan ko'ra, ancha ko'p yoki oz bo'ladi. Talabchanlik darajasi ochiq ifodalangan sabab vaziyatning murakkabligi va masalani xal qilish yo'lini topish zarurligi unda bo'lgan yashirin imkoniyatlarini oshirib ko'rsatadi.

Shaxsning o'zi yutuq va kamchiliklariga munosabati, beradigan bahosi bu boradagi ruxiy kechinmalari ham uning onglilik darajasini ko'rsatadi. O'z yutuqlariga takabburlik yoki kamtarlik bilan baho berish, muvaffaqiyatsizlikka uchraganda umidsizlanish yoki masalani hal etish yo'lini topishi uchun yana ham ko'prok sabr, matonat bilan harakat qilish bu turli xil ruxiy kechinmalarning hammasi kishining o'ziga va boshqalarga bo'lgan talabchanligini, o'ziga-o'zi baho berishini va bu bahoning qanchalik asosli ekanini har xil tarzda yaqqol namoyon etadi.

Shunday qilib, shaxsning eng muhim xususiyati uning tevarak-atrofidagi dunyoga bo'lgan munosabatlari tizimidir. Kishi qancha ko'p bilsa har - xil odamlar bilan aloqada bo'lib turli xil ishlarda bo'lsa, shaxs sifatida unda o'z mamlakatining fuqarosi, yangi jamiyatning faol quruvchisiga xos eng yaxshi xislatlar shuncha yorqinroq ifodalangan bo'ladi.

Shaxs shakllanishi uchun zarur bo'lgan omillardan yana biri bu tarbiyadir. Tarbiya bu aniq maqsadga yo'naltirilgan, muayyan vazifalar belgilangan, shuningdek, shaxsga ta'sir o'tkazishning aniq yo'l, vositalari ko'rsatilgan va maqsadga muvofiq tashkil etilgan jarayondir. Tarbiyaning asosiy vazifasi yosh avlodni xalqning hayotini yaxshilashga, Vatanining gullab-yashnashiga sarflashni biladigan, istaydigan a'zolari qilib tayyorlashdir.

Tarbiya shaxsning rivojlanishini ta'minlashi uchun shaxsdagi rivojlanish mohiyatini tushunish, uning bilish va aloqa boshlash faoliyatining o'zgarish sabablarini aniqlashi zarur. Tarbiyachi shaxsni rivojlantiruvchi eng muhim omilni ham bilishi, stixiyali ta'sir ko'rsatayotgan faktorlarni bartaraf etishi, shaxsda dunyoqarashni shakllantirish, uning o'sishi va rivojlanishining muayyan yosh bosqichlariga oid tarbiya qonunlarini aniqlashi kerak. Tarbiyaning shaxsni rivojlantirishdagi roli to'g'risida turli xil nuqtai nazarlar bo'lganligi pedagogika fanining taraqqiyoti tarixidan ma'lumdir. Pedagogika tarbiya omiliga aktiv rol ajratadi va shaxsning jismoniy, aqliy, axloqiy va estetik rivojlanishiga to'g'ri tashkil etilgan tarbiyagina yordam beradi. Shu bilan birga tarbiyaga ikki yoqlama jarayon deb qaraladi, unda faqat katta yoshdagilar emas, balki kattalar tajribasini o'zlashtiruvchi shaxslar ham aktiv rol o'ynaydilar.

Tarbiyaviy ishda talabaning kuchi va qobiliyatlarini xisobga olmaslik kabi jiddiy kamchilik ham uchrab turadi. Har bir shaxsning o'z extiyoj va qiziqishlari bor. U aqlli tarbiyachining izidan borishi yoki belgilangan yo'nalishda aktiv harakat qilishi, ba'zan esa tarbiyachiga e'tiroz bildirishi, kattalar bilan turli xil aloqada bo'lishi yoki boshqalarga qushilmay, passiv holda yurishi mumkin. Tarbiyalanuvchi o'z rivojlanishining obyekti va subyekti sifatida harakat qilganda bu jarayon eng muvaffaqiyatli boradi. Shu bilan birga shaxsning aktivligi, tashabbuskorligi, mustaqilligi ancha oshadi va uning o'zini o'zi tarbiyalashida namoyon bo'ladi.

Pedagogika fanining asoschisi Ya.A. Komenskiy: «Har bir xo'narmand buyumni yasashga yaroqli materialning xossalarini o'rgangani singari, o'z oldiga insonni barkamol qilib tarbiyalash vazifasi turgan pedagog ham shogirdining qanday xislatlarga ega ekanligini bilishi kerak»⁵ - degan edi. Albatta, pedagog qaysi fandan dars bersa o'sha fanni talabalarning shu fanni to'g'ri o'zlashtirishlariga yordam beradigan uslublarni yaxshi bilishlari lozim. Ammo talabaning extiyohlari, qobiliyatlari qiziqishlari va ularning chin kungildan xoxlab chidam va matonat bilan o'qishga tayyormi-yuqmi ekanligini xisobga olinmasa, o'qish qoniqarli natija bermaydi, pedagogning mehnati og'ir kechadi. Shaxsning fikrlash qobiliyati va xarakter xususiyatlarini nazarda tutgan holda olib borilgan ta'lim talabalarni bilim olishga rag'batlantiradi, o'qishning muvaffaqiyatini ta'minlaydi, pedagog va talabalar faoliyatini zavqli ijodiy ishga aylantiradi.

Shaxs rivojlanishida yosh va individual xususiyatlar

Tarbiyalanuvchilar kattalarga ko'ra o'zgacharoq fikr yuritishlari, xis qilishlari va yurish-turishlari hammaga ma'lum. Tarbiyalanuvchidagi usish va rivojlanishning yosh bosqichlari masalasi yuzaki qarashda oddiy masala bo'lib ko'rinadi. Ma'lum bo'lishicha, bu jarayon bir tekisda bormay, sakrashlar bilan notekis holda borar ekan, har qaysi yosh davrining o'ziga xos rivojlanish xususiyatlari bor. Anatomiya, fiziologiya va psixologiya fanlari sohasida tananing ayrim organlarining rivojlanish qonuniyatlarini ham bu organlar butun sistemasining faoliyatini ham ochib beruvchi g'oyat ko'p faktik material tuplaydi. Tadqiqotchilar tananing ayrim organlari va qismlari ko'pincha bir-biridan o'zib ketib, o'zaro kelisha olmay usishi va rivojlanishini ko'rsatdi. Bu hol shaxsning yoshini davrlarga bo'lishda alohida qiyinchiliklar tug'diradi.

Tarbiyachi albatta tarbiyalanuvchini aqlli va odobli qilib tarbiyalashi uchun bor kuch va imkoniyatni ishga soladi. Tarbiya jarayoni haqidagi tasavvurda tarbiyaning inson shaxsini shakllantirishda katta imkoniyatlar va buyuk roli borligini tasdiqlovchi to'g'ri fikr bayon etilgan. Ammo bu tasavvur aniq emas. U tarbiyaviy ta'sir ko'rsatiladigan obyektning o'ziga xos xususiyatini, ya'ni uning rivojlanayotgan, jonli mavjudod ekanligi e'tiborga olinmaydi. Shaxs doimo tarbiya jarayonning faol ishtirokchisidir. U pedagogik ta'sirlarni yaxshi qabul qilishi mumkin, biroq ularga qarshilik ko'rsatishi, ularni qabul qilmasligi ham mumkin. Shaxs tarbiyachining maslaxati, iltimosi va topshirig'ini bajarishni xoxlaydi. Tarbiyalanuvchi pedagogning

⁵ N.Xujaev va boshqalar "Pedagogika asoslari" 2003 yil. 42 bet.

uyga bergan darsini tayyorlashga moyil bo'lishi kerak. Ularning faoliyati asosan beixtiyor faoliyatdir yoki tabiiy yoki ijtimoiy muhit ta'siriga berilgan javobdir.

O'smirlik davrida insonning faoliyatiga ko'p darajada ichki sabablar tufayli sodir bo'ladi.

Shunday qilib shaxs rivojlanishidagi uning intellektual qobiliyatlari va ijtimoiy ongi ushida muayyan bosqichda shaxs o'zi uchun tashqi bo'lgan maqsadlarnigina emas, balki o'z shaxsiy tarbiyasining maqsadini ham anglay boshlaydi. U o'ziga obyekt deb qarashga o'tadi. Shaxsning ichki sabablari shaxsning o'z nuqsonlarini yuqotish va eng yaxshi insoniy fazilatlarni xosil qilish vazifasini o'z oldiga qo'yishining asosidir. Shaxsning o'z bilim va malakasini oshirishi, o'zini-o'zi tarbiyalashi uning obyektiv maqsadni o'z faoliyatining subyektiv zarur motivi deb anglashi va qabul qilishdan boshlanadi. Shaxs o'z xulq-atvori yoki faoliyatini subyektiv ravishda muayyan maqsadga qaratishi ifodasini ongli suratda ishga soladi, ertangi kunning rejasini tuzish masalasini qo'yadi. Bu maqsadning amalga oshirilishida obyektiv va subyektiv qiyinchiliklar yuz berishi muqarardir.

Tarbiya san'ati shaxsda o'zini-o'zi takomillashtirishga intilishini mumkin qadar ertaroq uyg'otish va unga o'z oldiga qo'ygan maqsadlarni amalga oshirish yo'lini ko'rsatib, yordam berishdan iboratdir. Bu ishda pedagoglar, ota-onalar hamma vaqt va hamma joyda kuchli va yaxshi bo'lishni istaydigan shaxsning o'ziga tayanishlari kerak.

Tarbiyalanuvchilarning o'sish bosqichlari asosan uch bosqichda rivojlanib boradi.

O'quv muassasasida tizimli ravishda o'qishga borganidan keyin hayot tarzi butun lay o'zgarib boradi. Endilikda u qiziqarli bulmagan ammo kerakli narsalarni bilib oladi. O'qish o'quv muassasasigacha davrda egallashgan xali ilmiy bulmagan hayotiy tushunchalarga qator o'zgartirishlar kiritadi.

O'spirinlik yoshining eng xarakterli belgisi-tarbiyalanuvchining katta odamga aylanishi ya'ni balog'atga yetishidir. O'spirin xuddi shaxsga uxshab barcha taassurotlarni jon jaxdi bilan o'zlashtiradi, jismoniy va ma'naviy jixatdan voyaga yetadi, buysinishini idrok qiladi, undan o'zi uchun kuch va jasorat oladi, lekin o'z kuch qudratining chegarasini o'zi xali bilmaydi. O'spirin nisbatan ko'prok darajada kattalar hayotining ishtirokchisi hisoblanadi, oiladagi ancha ma'suliyatli vazifalar uning zimmasida bo'ladi. Tevarak-atrofidagilar ham o'spiringa nisbatan boshqacha munosabatda bo'la boshlaydilar. Lekin uning ma'naviy va jismoniy kuchlarini kattalarga tenglashish uchun, o'zining porloq rejalarini amalga oshirish uchun xali yetarli darajada aniq emas. Uspirinlik yoshining ichki ziddiyatlari ana shulardan iborat. O'zining jismoniy taraqqiyotini anglash o'spirinda xususiy qadr-qimmatini ta'kid etish istagini, mustaqillik sari intilishni keltirib chiqaradi. O'spirin biron bir darajada o'zini ko'rsatishini xoxlaydi. Bularning hammasi uning faolligini kuchaytiradi, ijodiy tashabbuskorligini rivojlantiradi, uni ijtimoiy hayotga olib kiradi, ma'suliyat va burch tuyg'usini oshiradi. Aytib utilgan xususiyatlar o'quv muassasasi talabasining ijtimoiy pozitsiyasini shakllantirish uchun o'spirinlik yoshini ayniqsa maqbul qilib qo'yadi. Ushbu davrda ayrim yomon illatlar ham shaxsda borligi yaqqol ko'zga tashlanishi mumkin.

Yoshlik davri-bu shaxs balog'atga yetishi va shakllanishining yakunlovchi bosqichdir. Bu eng avvalo mustaqillikning rivojlanishida namoyon bo'ladi. Hali

o'spirinlik yoshidayoq shaxsda o'zini qaror toptirishga munosabati bilan o'zining va uning xususiyatlariga katta qiziqish uyg'onadi. Yosh yigit va qiz xuddi o'spirin kabi o'zining nimaga qodirligi bilishini istaydi. Lekin endilikda u erishgan natijada hayotiy timsol haqidagi umumlashgan tasavvur bilan taqqoslangan holda o'z faoliyatini boshlaydi. Yigit va qizlar tafakko'ringing falsafiy yo'nalishi ularni o'zicha taxlil qilishga, o'zicha ko'zatishga va o'zicha belgilashga olib keladi.

Mavzu bo'yicha yakunlar: Ushbu matnda tarbiya jarayonining mohiyati, uning asosiy konuniyatlari, tarbiya jarayonining tamoyillari va usullari, shaxs tushunchasi, shaxsning rivojlanish jarayoni, shaxs rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar, shaxs shakllanishida faoliyatining roli va yosh hamda individual xususiyatlarning ahamiyati, pedagogik jarayonda tarbiyalanuvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishning asosiy usul va vositalari, ma'naviy axloqiy, estetik mehnat va jismoniy tarbiyani tushuntirishlar haqida so'z boradi.

Nazorat uchun savollar

3. Tarbiya jarayoni nima?
4. Tarbiya jarayoninig murakkabligi nimada?
5. Tarbiya tamoyillari.
6. Tarbiya usullari turlarini sanab bering?
7. Shaxs tushunchasiga ta'rif bering?
8. Muhit nima?
9. Tashqi muhitning shaxsga ta'siri nimalarda namoyon bo'ladi?
10. Tarbiya orqali insonni to'liq o'zgartirish mumkinmi?
11. Tafakkur, idrok, ilmiy dunyoqarash deganda nimani tushunasiz?
12. Milliy qadriyatlarning ahamiyati axloqiy tarbiyada qay darajada namoyon bo'ladi?
13. Vatanparvarlik nima?
14. Estetik, jismoniy, mehnat, iqtisodiy, ekologik tarbiyaviy vazifalar nima?

Mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar:

Tarbiya turlari bo'yicha bir tarbiyaviy ish dasturi ya'ni ssenariyasini ishlab chiqish va uni amalda qo'llash bo'yicha taqdimot tayyorlash va uni amaliy mashg'ulotda muhokama uchun taqdim etish. Bu guruhiiy loyihaviy ish bo'lib, guruhdagi talabalar 4-5 kishidan iborat kichik guruhlarga bo'linib, ular biror bir tarbiya turini tanlab, ushbu yo'nalish xususiyatlaridan kelib chiqib, bir tarbiyaviy ish dasturi ya'ni ssenariyasini o'qituvchi bilan maslahatlashgan holda tayyorlashlari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. «Pedagogika tarixi». K. Xoshimov va boshqalar taxriri ostida O'zbekiston Respublikasi «Fan» nashriyoti. Toshkent -2001 yil.
2. N.Xo'jayev va boshqalar "Pedagogika asoslari" 2003 yil.
3. N.Xo'jayev va boshqalar "Ta'lim nazariyasi" 2003 yil.
4. O.Musurmonova, Z.Baubekova. «O'zbek xalq pedagogikasi». A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. Toshkent-2000 yil.
5. Ye.N. Pronina, V.V.Lukashevich. "Psixologiya i pedagogika". Uchebnik dlya studentov VO'Zov. Izdatelstvo «Elit», Moskva 2004.

6. Pedagogika professionalnogo obrazovaniya. Pod. red. V.A.Slastenina. Moskva «Akademiya».
7. Psixologiya i pedagogika. Pod.red. A.A.Radugina. Moskva 2003.
8. «Pedagogika» V.A.Slastenin, I.F.Isayev, A.I.Mixenko, Ye.N.Shiyanov. Moskva. «Shkolnaya pressa». 2004
9. Abduraxmonov R. “Talabalarni axloqiy tarbiyalashda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning urni” Bitiruv malakaviy ishi. 2005 yil. 67-bet.
10. Ergashev. R. «Talabalarda umummehnat ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik asoslari” Bitiruv malakaviy ishi. 2005 yil
11. Mirjalilova Yu. “ Milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida talaba shaxsini axloqiy jixatdan tarbiyalash” Bitiruv malakaviy ishi. 2004 yil.
12. www.talant.spb.ru/wald.html
13. www.school.edu.ru.
14. [www.inter – pedagogika.ru](http://www.inter-pedagogika.ru).

5-Mavzu: Didaktika fani va uning vazifalari.

Asosiy savollar:

1. Didaktika haqida tushuncha.
2. Ta'lim jarayoni va uning xususiyatlari, bilish faoliyatining bosqichlari.

Aniqlashtirilgan o'quv maqsadlari .

Talaba bu mavzuni to'la o'zlashtirgandan so'ng:

- Didaktika so'zining lug'aviy ma'nosini aytib beradi;
- Didaktika fani va uning ahamiyatini tushintiradi;
- Ta'lim jarayonini izoxlaydi;
- Ta'lim jarayoni xususiyatlarini sanaydi;
- Bilish jarayoniga baho beradi;
- Bilish jarayoni bosqichlarini taxlil qiladi;

Tayanch so'z va iboralar,

Didaktika, ta'lim jarayoni, ta'lim jarayonining xususiyatlari, ko'nikma, malaka, bilish faoliyati, bilish bosqichlari.

1. Didaktika haqida tushuncha.

Didaktika ta'lim jarayonining umumiy qonuniyatlarini urganuvchi fandır. Didaktika grekcha so'z bo'lib, «Didayko»-o'qitish, «Didaskol»-o'rgatuvchi degan so'zlardan kelib chiqqan.

«Didaktika»ning so'zma-so'z tarjimasi ta'lim nazariyasini anglatadi. Ta'lim nazariyasi ta'lim jarayonining tushunchasi va moxiyatini, ta'lim qoidalarini, uslublari hamda tashkiliy formalarini o'z ichiga oladi.

Demak, didaktika pedagogikaning «nimaga o'qitish», «nimani o'qitish» va «qanday o'qitish» kabi savollarga javob izlaydi. Umumiy didaktika o'z navbatida, ayrim o'quv fanlariga oid usullar bilan mustahkam bog'lanadi. Shu usullar ma'lumotiga tayanib, o'qitishning umumiy qoidalarini ochib beradi va ayni vaqtda har bir o'quv fanini o'qitish usullari uchun umumiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Bu dunyoda ne-ne daxolar yashab o'tmagan - Saboqlarga boy utmishimizda Al-Xorazmiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Alisher Navoiy kabi buyuk

alloma bobokalonlarimiz tibbiyot, mantiq, musiqa, adabiyot, geografiya, riyoziyot kabi ilmlarni o'qitish vositasida avlodlarni tarbiyalash g'oyasini olg'a surdilar.

O'zbekistonda didaktik ta'limning tashkil topishi va rivojlanishi Abdulla Avloniy, Hamza Xakimzoda Niyoziy, Muhammadrasul Rasuliy, Piri Niyoziy, O. Sharofitdinov kabi pedagog olimlarning nomlari bilan bog'liq.

Pedagoglar bir qancha avlodlarning mehnati bilan qo'lga kiritilgan, pedagogika fani erishgan barcha qimmatli yutuqlar, zamon sinovidan o'tgan jamiki ilg'or qarashlarni avaylab asrashi va o'sha merosdan faol ravishda foydalanishlari kerak. Bilish jarayoni kabi ta'lim jarayonida ham o'quvchi bilmaslikdan bilishga, noto'g'ri va noaniq bilishdan tobora to'liqroq va aniqroq, chuqurroq bilishgacha bo'lgan yo'lni bosib o'tadi. Bu jarayonda xissiy idrok etish ham, abstrakt tafakkur ham, amalda sinab kurish ham bo'ladi.

Bilish ikki pallaga-nazariya va amaliyotga bo'linadi.⁶ Nazariya yangi bilimni, yangicha bilishni ifodalovchi tizimli fikrdir. Nazariya har-xil shakllarda ifodalanadi: aksioma, teorema, qonun, formula, grafik raqam va boshqa nazariyada g'oya shakllanadi.

Amaliyot bilimlarning xaqiqiyligini ko'rsatuvchi mezondir. Ilmiy bilishning vazifasi xodisalarning mohiyatini, ularning rivojlanish qonunlarini ochishdangina emas, balki biron-bir qonunning qay tariqa namoyon bo'lish sabablarini ham ko'rsatib berishdan iborat.

Bilish sezishdan boshlanadi. Sezish tevarak atrofdagi voqyelik, narsa xodisalarni sezgi organlarimizga ta'sir etuvchi ayrim sifatlarining ongimizda aks etishidir. Bunda har bir organ, har bir analizator, I. P. Pavlov ta'kidlab aytganidek, narsalarning ayrim sifatlarini idrok qiladi: biz sovuq, iliqlik, shuur, oq-qora, achchiq – chuchuk va xokazolarni ko'rish, eshitish, xid bilish, ta'm-maza bilish, teri, musqo'l harakat va organik sezgi organlarininig faoliyati orqali bilib olamiz. Sezgililar - odam haqidagi barcha bilimlarning manbaidir.

<i>M.S. Nazariya va amaliyotni bir - biridan farq qiluvchi xususiyatlarini tushuntiring.</i>
--

2. Ta'lim jarayoni va uning xususiyatlari, bilish faoliyatining bosqichlari.

Ta'lim - insoniyat tajribasining ma'lum tomonlarini, ya'ni o'quvchilar ijtimoiy taraqqiyotining xozirgi talabalariga muvofiq darajada bilim va tarbiyaga ega bo'lishlarini ta'minlaydigan faoliyatdir.

Ta'lim jarayonining mazmunini bilim, ko'nikma va malakalar tashkil qiladi.

Demak, o'quvchilar o'qish orqali bilim bilan qurollanadilar.

Ko'nikma - mashq qilish natijasida beriladigan harakatlar yig'indisidir. Iqtidor va ko'nikma mashq qilish va takrorlash orqali malakaga aylanadi.

Bilim asosida ko'nikma, malaka xosil bo'ladi. Bilim bahsda kerak bo'lsa, ko'nikma mehnatda. Dunyoni o'zlashtirishda zarur.

O'qitish jarayoni ikki faoliyat-o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini o'z ichiga oladi. O'qituvchining faoliyati o'quv materiallarini bayon qilishdan, o'quvchilarda fanga qiziqishni tarkib toptirishdan, o'quvchilarning mustaqil mashg'ulotlariga

⁶ N.Xujayev va boshqalar "Pedagogika asoslari" 2003 yil. 45 bet.

rahbarlik qilishdan, ularning bilim, ko'nikmalarini tekshirish, o'quv ishlariga moyilligini uyg'otish, rag'batlantirish, bilim darajalarini xolis baholashdan iboratdir.

O'qituvchining faoliyati ta'lim jarayonining tashqi tomonini tashkil qiladi, Chunki u o'qitadi, ta'lim beradi. O'quvchi faoliyati ichki jarayonini tashkil etadi, Chunki u o'qituvchi bergan bilimni o'qib, tushinib oladi.

O'qitish jarayonining ikkinchi tomoni o'quvchining faoliyati bo'lib, u o'quv fani materiallarini o'zlashtirishdan iborat. O'qitish bilishdan farqli ularoq muallim raxbarligida amalga oshiriladi. Ta'limning asosiy maqsadi, vazifasi yosh avlodni ilmiy bilimlar, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishdan iboratdir. Ilmiy bilimlarni egallash - muayyan fanlar o'rtasidagi bog'lanishlarni idrok qilish, ularni izoxlay bilish, mustaqil ravishda umumlashtirish, xulosalar chiqarish demakdir. Bular asosida o'quvchilarda ko'zatuvchanchalik, tafakkur, xotira kabi bilish qobiliyatlari o'sib boradi, ularda e'tiqod tarbiyalanadi.

Bilimlarni o'zlashtirish voqe'likdagi narsa - xodisalarni sezish va idrok qilishdan boshlanadi. Bilimlarni o'zlashtirishda bu bosqichlarning ahamiyati nixoyatda kattadir.

Idrok-borliqni odam ongida aks etishidir (biz daraxtni, xayvon va boshqalarni idrok qilamiz).

Idrok o'quvchilarning bilimlari, amaliy tajribasi darajasiga qarab muayyan maqsadni ko'zlovchi jarayon bo'lmog'i kerak. O'qituvchi idrokni yoki bevosita ko'zatishni yo'lga qo'yayotganida ko'zatish manbalarini sinchiklab tanlaydi.

O'quvchilarning bilish faoliyatidagi ikkinchi bosqich -bilimlarni tushunish va umumlashtirishdir. Tushunchalarning xosil bo'lish jarayonida induksiya va deduksiya kabi fikrlash masalalari katta o'rin tutadi. Induksiya - xususiy xollardan umumiy qoidaga boradigan, deduksiya esa - umumiydan xususiylga boradigan fikr yuritish yo'lidir.

O'quvchilarning bilish faoliyatidagi uchinchi bosqich - bilimlarni mustaxkamlash va qo'llashdir.

Mustahkamlashning mohiyati yangi materialni idrok qilish vaqtida xosil bo'lgan muvaqqat bog'lanishlarni puxtalashdir. Mazkur jaryonda bush va beqaror bog'lanishlar mustahkamlanib boradi.

Bilim, ko'nikma va malakalarni muvaffaqiyatli egallab olish vositalaridan biri - avval o'zlashtirib olingan bilimlarni amalda qo'llashdir.

M.S. Bilish faoliyati bosqichlarini taxlil qiling.
--

Mustaqil ta'limga oid topshiriqlar.

1. Ma'ruza matnini o'qib, belgilangan o'quv maqsadlariga erishganlik darajangizni aniqlang.
2. Didaktika, ta'lim tayanch so'zlaridan biriga kubik strategiyasini qo'llang.

6 - ma'ruza. Ta'lim tamoyillari va usullari.

Asosiy savollar:

1. Ta'lim tamoyillari va usullari haqida tushuncha;
2. O'qitishning og'zaki va ko'rgazmali usullari.
3. O'qitishning reproduktiv va muammoli-izlanish usullari. O'qitishning induktiv va deduktiv usullari.

Aniqlashtirilgan o'quv maqsadlari. Talaba bu mavzuni to'la o'zlashtirgandan so'ng:

Ta'lim tamoyillari va usullarini sanaydi;
Og'zaki va ko'rgazmali usullar mohiyatini tushuntiradi;
Reproduktiv va muammoli izlanish usullari ahamiyatini anglaydi;
Induktiv va deduktiv usullarni taqqoslaydi;
Klaster strategiyasini qo'llaydi.

Tayanch so'z va iboralar.

Ta'lim tamoyillari, usullari, og'zaki usul, ko'rgazmali usul, reproduktiv va muammoli izlanish usuli, induktiv usul, deduktiv usul, o'qitishda nazorat, o'z - o'zini nazorat qilish usuli.

1. Ta'lim tamoyillari va usullari haqida tushuncha

Ta'lim tamoyillari pedagogning faoliyatini va talabalar tomonidan ilmiy bilimlarning o'zlashtirilishi tegishli ko'nikma va malakalar xosil qilishning asosiy qonun va yo'l yo'riqlarini o'z ichiga oladi. Shu bilan bir vaqtda ta'lim tamoyillari har ikkala faoliyatning ya'ni pedagog va talaba tomonidan o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish imkoniyatini beradigan bir qancha talablarni ham umimlashtirib beradi. Shunga ko'ra ta'lim qoidalari o'qitishning eng muhim masalalarini nazariy va amaliy jihatdan to'g'ri hal qilishning asosiy negizi hisoblanadi.

Ta'lim tamoyillari deb umuminsoniy tarbiyaning maqsad va vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan o'qish va o'qitish jarayonlarining yo'nalishi talabalar tomonidan ilmiy bilimlarning o'zlashtirilishi, bilim va malaka xosil qilishning asosiy qonun va qoidalarining yig'indisiga aytiladi.

Keyingi yillarda ta'lim qoidalarini o'rganish ularni tahlil qilish va mukammallashtirish ustida ish olib borilmokda. Ta'lim qoidalarini sistemalashtirish masalasi ham doimo faol masala bo'lib kelgan.

Bugungi kunda pedagogika fani quyidagi **ta'lim tamoyillarini** ajratib ko'rsatmoqda:

1. *Ta'limning ilmiy bo'lishi;*
2. *Ta'lim va tarbiyaning birligi;*
3. *Ta'limning tizimli va izchil bo'lishi;*
4. *Ta'limda nazariyaning amaliyot bilan bog'liq bo'lishini ta'minlash;*
5. *Ta'limda onglik, faollik va mustaqillikka erishish;*

6. *Ta'lim jarayonining ko'rsatmali va ko'rgazmali bo'lishi;*
7. *Bilimlarni puxta va tizimli o'zlashtirib olish;*
8. *Ta'lim jarayonida shaxsiy xususiyatlarni hisobga olish;*
9. *Ta'limda talabalarning yosh xususiyatlarini hisobga olish.*

Ta'lim tamoyillarini guruhlariga ajratish va ularga tavsif berish ishi butunlay yakunlangan deya olmaymiz. Chunki yuqorida aytib o'tganimizdek bu tamoyillar davr talablari va ehtiyojlaridan kelib chiquvchi ta'lim xususiyatlariga qarab o'zgarishi mumkin. Bundan tashqari pedagogika va xususan didaktikaning fan sifatida mukammallashib borishi yangi bilimlarning xosil bo'lishi ham ushbu tamoyillarni guruhlanishiga o'z ta'sirin ko'rsatadi.⁷

O'qitish usullari ta'lim jarayonida pedagog va o'quvchi faoliyatining qanday bo'lishini, o'qitish jarayonini qanday qilib tashkil etish va olib borish kerakligini belgilab beradi, ya'ni o'qituvchi tomonidan o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish hamda o'quvchilar tomonidan o'sha nazarda tutilgan ilmiy bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish faoliyatida qo'llaniladigan yo'llarni o'z ichiga oladi.

Xalq pedagogikasi durdonalarini tuplash, ulardan unumli foydalanishning usullarini yaratish borasida pedagogika fani ilg'or va peshqadam o'qituvchilarning ish tajribalariga, oliy ilmgoxlarning pedagog olimlariga tayanib ish ko'radi.

Ta'lim tizimida o'quvchilarga bilim berishning eng qulay imkoniyatlariga asoslangan holda o'qitish usullarini quyidagi turlarga bo'lamiz.

1. *O'qitishning og'zaki usullari.*
2. *O'qitishning ko'rgazmali usullari.*
3. *O'qitishning amaliy usullari.*
4. *O'qitishning muammoli - izlanish va reproduktiv usuli.*
5. *O'qitishning induktiv va deduktiv usuli.*
6. *Mustaqil ish usullari.*
7. *O'quvchilarning o'quv faoliyatlarini rag'batlantirish va asoslash usuli.*
8. *O'qitishda nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish usuli.*
9. *Kitob bilan ishlash usuli.*
10. *Interaktiv usullar.*

2. O'qitishning og'zaki va ko'rgazmali usullari.

O'qitishning og'zaki usullari uch turga: o'qituvchining xikoyasi, Suhbat va o'qituvchining ma'ruzasiga ajratiladi.

O'quv materiallarini og'zaki bayon qilish usuli, uning xikoya qilish, tushuntirish va maktab ma'ruzasi kabi turlari quyidagi bir qator didaktik qoida va talablarga asosan qo'llaniladi.

1. Bayon qilinayotgan materiallar g'oyaviy jihatdan mazmunli, ilmiy hamda nazariyani amaliyot bilan bog'lashga qaratilgan bo'lishi kerak.

2. Bayon qilinayotgan materiallarning tarbiyaviy ahamiyatini to'g'ri belgilash orqali o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish vositalarini aniqlash va amalga oshirish lozim.

3. Bayon qilishda o'qituvchining nutqi yagona manba hisoblanadi, uning ravon, tushunarli bo'lishi xal qiluvchi omildir. Shuning uchun ham muallim o'quv materialini xis-tuyg'uli ifoda qilib berishi ham nihoyatda katta ahamiyatga egadir.

4. Bayon qilish jarayonida o'qituvchi tomonidan ishlatilgan ta'riflar, qoida va qonunlar kitob matnidan farq qilgan xollarda o'qituvchi ko'rsatgan ta'riflar yozib olinishi kerak.

O'qitishning ko'rgazmali usullari ikki turda bo'ladi:

1. Aslicha ko'rsatilishi mumkin bo'lgan buyum va narsalar: o'simliklar va ularning tarkibi, xayvonlar, ma'danlar, kolleksiyalar, asbob va mashinalar, modellar va xokazo.

2. Tasviriy ko'rgazmali materiallar. Tasviriy-ko'rgazmali materiallar ham mazmuni va tuzilish shakliga qarab ikki turga bo'linadi:

a) buyum, narsa, xodisa va voqealarning tasvirini ifodalovchi materiallar-rasm, surat fotosurat, diafilm, kinofilmlar va xokazo;

b) buyum, narsa, xodisa va voqealarning biror shartli belgisi orqali ifodalangan simvolik va sxematik tasviriy materiallar - jug'rofiya va tarix kartalari, chizmalar, jadvallar va diagrammalar.

Tasviriy-ko'rgazmali materiallarning har ikkala turi - illyustrasiya materiallari deb ham yuritiladi.

Ekskursiya usuli ta'lim va tarbiya ishlarining Shunday turidirki, bu usul bilan o'rganilayotgan narsa va xodisalarni tabiiy sharoitda (zavod, fabrika, kolxoz-sovхозlar, tabiatni ko'zatishga) yoki maxsus muassasalarga (mo'zey va ko'rgazmalarga) tashkiliy ravishda boriladi.

O'qitishning amaliy usuli o'quvchilarning o'zlashtirgan ko'nikma va malakalarini mustaxkamlash, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda mashq qildirishda;

1. Mashq uchun berilgan topshiriqning maqsadi o'quvchilarga aniq tushuntirilgan bo'lishi;

2. Mashq ustida guruh o'quvchilar jamoasi va har qaysi o'quvchining shaxsiy intilishi, qiziqishini hisobga olish;

3. Topshiriq butun guruh o'quvchilarining aktiv faoliyatini ta'minlaydigan bo'lishi va mashqni, albatta, belgilangan vaqt ichida bajarish talab qilinishi kerak.

Mashq qildirish usulida o'quvchilarning yozma, ijodiy mashqlari aloxida o'rin egallaydi.

Laboratoriya mashq ishlari mashg'ulotning xarakteriga qarab turlicha tashkil qilinadi:

1. O'quvchilar bilan yoppasiga olib boriladigan mashg'ulotlar.

2. Guruh o'quvchilarining har qaysisi bilan aloxida-aloxida olib boriladigan tajriba mashg'ulotlari.

Yoppasiga olib boriladigan tajribalar, fizika, ximiya, biologiya fanlari bo'yicha O'tkaziladi. Bunday tajribalar odatda, yangi mavzudan oldin o'tkazilib, yangi mavzuga tajriba asosida kirish xizmatini utaydi.

Amaliy mashg'ulotlar maktab jonli burchagi va tajriba yer uchastkasida olib boriladi. Maktab tajriba yer uchastkasida olib boriladigan ishlar o'quvchilar brigadalari orqali amalga oshiriladi. Unda o'quvchilar ekin maydonlarini xaydash, ug'itlash, sug'orish, umuman ekinlarni parvarish qilish kabi ishlarni olib boradilar.

3. O'qitishning reproduktiv va muammoli-izlanish usullari. O'qitishning induktiv va deduktiv usullari.

O'qitishning reproduktiv va muammoli-izlanish usullari.⁸ Reproductiv usullar birinchi navbatda, o'quvchilarning o'quv materialini mustahkamroq eslab qolishlarini ta'minlash, bilishga doir faoliyatni bevosita boshqarish, kamchiliklarni tez aniqlash uchun amaliy ko'nikma va malakalarni tarkib toptirish maqsadida qo'llaniladi.

Muammoli vaziyat yaratish usullari deganda o'quv materialini o'quvchilar ongida ilmiy izlanishiga o'xshash bilish vazifalari va muammolari paydo bo'ladigan qilib o'rganish tushuniladi. Ishning mohiyati o'qituvchi bu vazifalarga muammolik xarakterini qanchalik bera olishidadir. Vazifa quyidagi talablarni qondira oladigan bo'lsagina shu masalaning tub mohiyati bilish muammosiga aylanishi mumkin:

1. O'quvchilar uchun bilish qiyinchiligiga ega, ya'ni urganilayotgan muammo ustida fikr yuritish.
2. O'quvchilarda bilishga qiziqish uyg'otish.
3. Taxlil jarayonida o'quvchilarning avvalgi tajribasi va bilimiga suyanish.

Ta'lim jarayonida muammoli vaziyatni vujudga keltirish, undan foydalanish usullarini yaratish, ta'lim tizimining har bir bosqichida urganiladigan fanlarga xosdir. O'qitishning induktiv va deduktiv usullari darslarga tayyorlanish jarayonida o'qitishning induktiv, deduktiv kabi usullarini tanlash zaruriyati ham tug'iladi.

Induktiv usullar texnik qurilmalarini o'rganishda va amaliy topshiriqlarni bajarishda keng qo'llaniladi.

Deduktiv uslub o'quv materialini tezroq utishiga yordam beradi, tafakkurni bir muncha faolroq rivojlantiradi.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarni rag'batlantirish va tanbeh berish usullari.

O'quv faoliyatini rag'batlantirish deb kishining aktiv faoliyatiga bo'lgan tashqi mayliga aytiladi. Shuning uchun ham rag'batlantirish-o'qituvchi faoliyatining omili hisoblanadi. O'qishga qiziqishni rag'batlantirish turlaridan biri-o'qishda ma'lum qiyinchilik sezayotgan o'quvchilarga muvaffaqiyatli vaziyatlarni yaratishdir.

O'qishga doir tanbehlar: dars paytidagi og'zaki tanbeh berishlar, bahosini pasaytirib qo'yish, ish daftariga yozishlar xatolarini ko'rsatish va boshqa usullar orqali qo'llaniladi.

Koyish hamda jazolashning boshqa turlarini qo'llash o'qitish usulida istisno xol, Chunki bu usul eng oxirgi ilojsiz chora hisoblanadi.

O'qitishda nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish usullari.

Og'zaki nazorat-yakka va guruhiiy surash yo'li bilan amalga oshiriladi. Aloxida surashda o'qituvchi ma'lum vaqt davrida o'quvchilar tushuncha, qonun, nazariya hamda dalillarni qay darajada egallaganliklarini aniqlaydi. Aloxida so'rashda

⁸ И.П.Подласый.Книга1. М: «Владос» 2001.292стр.

ma'lum masalalarini, operasialarni xal qilish ko'nikmasi, texnik vositalardan foydalana bilishlari tekshiriladi.

Yozma nazorat ishlarini o'tkazishda, baholarning to'liq obyektivligini ta'minlash bilan birga bo'sh o'zlashtiruvchilarni ilg'orlar safiga tortish, topshiriqni uddalashlariga ishonch xosil qilish maqsadida ularga masalalarning javoblarini, qushimcha rasmlar va xokazolarni berish kerak.

Nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish uslublarini o'zaro moxirona biriktirish barcha o'quv fanlari bo'yicha ta'lim samaradorligini oshirishga yordam beradi.

M.S. An'anaviy usullar va noan'anaviy usullarning bir - biridan farqli tomonlarini sanang.

Mustaqil ta'limga oid topshiriqlar

Ma'ruza matnini o'qib chiqing, belgilangan o'quv maqsadlariga erishganlik darajangizni aniqlang.

Insert va klaster usulini qo'llang.

7 - ma'ruza. Ta'limning mazmuni.

Asosiy savollar:

1. Ta'lim mazmuni va o'quv rejalari.
2. O'quv dasturlari va darsliklar.

Aniqlashtirilgan o'quv maqsadlari. Talaba bu mavzuni to'la o'zlashtirgandan so'ng:

Ta'lim mazmunini aytib beradi;

O'quv rejalari va dasturlari moxiyatini tushuntiradi;

Darsliklar va ularning ahamiyatini izohlaydi;

O'quv dasturi qoidalarini sanaydi; taxlil qiladi;

Klaster usulini qo'llaydi.

Tayanch so'z va iboralar.

O'quv rejasi, o'quv dasturi, ta'lim mazmuni, darslik, darslik yaratuvchilariga qo'yiladigan talablar, o'quv dasturi qoidalar.

1. Ta'lim mazmuni va o'quv rejalari.

Ta'limning mazmuni uning maqsadidan kelib chiqadi. Ta'limning mazmuni deganda, o'quvchilarning o'qish jarayonida egallab olishi lozim bo'lgan hamda tizimga solingan bilim, malaka va ko'nikmalarning aniq belgilangan doirasi tushuniladi.

Ta'limning mazmuni bir qator extiyojlarni hisobga olish bilan belgilanadi:

A) ijtimoiy ishlab chiqarishning eng zarur extiyojlari, ijtimoiy tuzumning xususiyatlari;

B) davlatning xalq ta'limi va muayyan turdagi o'quv yurti oldiga qo'yadigan maqsad hamda vazifalari;

V) o'qitish qoidalaridan kelib chiqadigan va o'quvchilarning imkoniyatlarini (yosh imkoniyatlari va boshqalar) e'tiborga oluvchi didaktik talablar.

Maktablarda beriladigan ta'limning mazmuni tarixiy hamda guruhiiy xususiyatga egadir.

Pedagogika tarixida umuta'lim maktablarida o'qitiladigan o'quv fanlarini tanlash va ularning mazmunini belgilashda ikki yo'nalishdagi qoidaga amal qilingan:

1) ko'pchilik nazariyotchilar «shakl ma'lumoti» tarafdorlari - maktabda o'qitiladigan fanlar yoshlarni fan asoslari bilan qurollantirish, ilmiy bilimlar tizimini egallashlari uchun xizmat qilmay, balki yoshlarning qobiliyatlarini, tasavvur va xotiralarini o'stirishga xizmat qilmog'i kerak, deb qaraydilar. «Formal ma'lumot» tarafdorlari maktab o'quv fanlarini yoshlarning fikr qilish qobiliyati va aqlini o'stirish uchun xizmat qiladigan fanlar-tillar, lotin hamda yo'non tillari, matematika kabi fanlardan iborat bo'lishini ilgari suradilar.

2) XVIII-asrning oxiri va XX-asrning boshlariga kelib, «formal ma'lumot» qoidalari asosidagi maktablar taraqqiy etib borayotgan kapitalizm tuzumi talablariga javob bera olmay qoldi. Shunga ko'ra maktab ta'limi tizimida yangi bir oqim - «Moddiy ma'lumot» nazariyasi paydo bo'ldi. Bu nazariya tarafdorlari maktab ta'limi tizimida kishi hayoti uchun zarur bo'lgan, turmushda foyda keltiradigan ma'lumotlar berilishi kerak, degan g'oyani ilgari surdilar. Ular o'quvchilar qobiliyatini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan aloxida fanlarni o'qitish shart emas, balki «foydali bilimlarni» o'qitish jarayonida bola qobiliyati rivojlanib boraveradi, deb karadilar.

Xozirgi zamon maktablarida ta'limning mazmuni umuminsoniy fazilatlariga ega bo'lgan iymonli, e'tiqodli yoshlarni tarbiyalab yetishtirishdan iboratdir.

Ta'lim mazmuni o'quv rejasi, dasturi va darsliklarda ifodalangan.

O'quv rejasi - davlat xujjatidir. O'quv rejasi-barcha umumta'lim maktablarida so'zsiz amal qilinishi lozim bo'lgan davlat xujjatidir. Unda guruhlar bo'yicha urganilishi lozim bo'lgan o'quv fanlari va o'sha fanlar uchun ajratilgan o'quv soatlari ko'rsatilgan bo'ladi.

O'quv rejasi deb, o'qitiladigan fanlar, o'qitish uchun ajratilgan soatlar va o'quv yilining tuzilishini belgilab beruvchi davlat xujjatiga aytiladi.

O'quv rejasini tuzish da quyidagi omillarga asoslanadi:

1.O'quv rejasi o'quv - tarbiya ishining maqsad va vazifalariga asoslanadi. Maqsad - ilmiy bilimlar berish, olgan bilimlarini hayotda qo'llay olishga o'rgatishdir.⁹

2. O'quv rejasiga kiritilgan fanlarning xajmi qaysi guruhda o'qitilishi, ajratilgan soati, bolalarning yosh va bilim saviyasiga karab beriladi. Fanning xajmi, og'ir-yengilligi, didaktik ahamiyati ham e'tiborga olinadi. O'quv rejasiga kiritilgan fanlar, birinchi navbatda, umouminsoniy tarbiyaning maqsad va vazifalarini amalga oshirishga karatilgandir. Unda ta'limning ilmiyligi, g'oyaviylik hamda O'zbekistonning kelajagiga munosib barkamol insonni tarbiyalab, voyaga yetkazish nazarda tutiladi.

M.S. Ta'lim mazmunini nimalar belgilaydi?

⁹ Н.Хўжаев ва бошқалар “Таълим назарияси” 2003 йил. 56 бет.

2. O'quv dasturlari va darsliklar.

Har bir o'quv fani uchun o'quv dasturi to'zilatadi. O'quv dasturi o'quv rejasi asosida ishlab chiqiladi. O'quv dasturi har bir o'quv fanining o'qitish uchun ajratilgan bilim xajmi, tizimi va g'oyaviy-siyosiy yo'nalishini aniqlab beradigan davlat xujjatidir.

O'quv dasturi quyidagi bir qator qoidalarga amal qilgan holda to'zilatadi.

1. Dasturning qat'iyligi. O'quv dasturlari jamiyatimiz taraqqiyotining har bir bosqichida fan, texnika, ishlab chiqarish hamda ijtimoiy munosabatlar sohasida erishilgan darajani aks ettirishi lozim. Bu, ular har yili kurib chiqilishi kerak, degan gap emas, aksincha, hamma o'quv fanlariga oid dasturlarning bir necha yillar mobaynida kat'iy bo'lishiga erishmoq darkor. Dasturning qat'iyligi qat'iy dasturlar ishlab chiqish uchun katta ahamiyatga egaki, bu darsliklar uzoq yashashi va o'quv jarayonida uzoq foydalanishi kerak.

2. O'quv dasturida ilmiylik qoidasi.

Dasturga borliqni aniq, xaqqoniy aks ettirgan, ilmiy jihatdan tekshirilgan ishonchli materiallar kiritiladi.

Ilmiy bilimlarning tobora rivojlanib borishi va uni ishlab chiqarishda tadbiiq etilishiga doir ma'lumotlar maktab o'quv fanlarga ham o'zgarishlar kiritishga olib kelganidek, o'quv dasturidagi ayrim eskirgan masalalar o'quv fanlaridan chiqarib tashlanadi.

3. O'quv materiallari mazmunini to'g'ri tanlash. Fan materiallarini tanlashda unda isbotlar, misollar, mantiqiy umumlashma va xulosalarning to'g'ri uyg'o'nlashuviga aloxida e'tibor beriladi. Aniq misollar bo'lmasa urganilayotgan xodisalarni nazariy jihatdan tushunish mumkin emas.

4. Nazariyaning amaliyot bilan birligi qoidasi. O'quv dasturida nazariyaning amaliyot bilan birligi qoidasi, birinchi navbatda, eng avvalo, ilmiy bilimlarning turmushda, ishlab chiqarish amaliyotida tutgan urni ko'rsatib beriladi. Ilmiy bilim ko'nikma va malakalarning o'zaro mustaxkam bog'liq bo'lishi hamda ta'lim jarayonidagi nazariy ma'lumotlarning amalda qo'llanib borish jarayonida o'z aksini topadi.

5. O'quv dasturlarida tarixiylik qoidasi. O'quv dasturlari tarixiylik qoidasiga asoslangan holda to'zilatadi. Bunda o'quv fanlarining xarakteri nazarda tutiladi. Masalan, tarix fanini o'qitishda tarixiy voqealar izchillik va xronologik tarzda bayon etilsa, matematika, informatika, fizika va boshqa qator fanlarni o'qitishda fan olamidagi ma'lum bir ilmiy xodisa, qoida va qonunlarning paydo bo'lishi, uning kelajak istiqboliga oid ma'lumotlar berib utiladi.

6. Dastur ikki usul bilan: ketma-ket (muntazam) va konsentrik (markazlashgan) tarzda joylashtirilishi mumkin.

Ketma-ket joylashtirilganda o'quv materialining har bir keyingi qismi avvalgi qismining davomi bo'ladi, har bir qismdagi materialning mazmuni uning mazkur oliy guruh o'quvchilariga tushunarli bo'lishini hisobga olgan holda tula yoritiladi.

Darslik o'quv jarayonining zarur qismidir. Ko'p vaqtlardan beri u o'qitishning eng muhim vositasi hisoblanadi.

Darslik-o'quvchilarning ikkinchi «muallimi». Chunki u, avvalo, o'quvchi uchun zarur qo'llanmadir.

Har bir o'quv fanining mazmuni darslikda batafsil yoritiladi. Darslik tegishli fanga oid ilmiy bilim asoslarini dasturga va didaktika talablariga muvofiq ravishda bayon qiluvchi kitobdir.

Darsliklar bilan bir qatorda, ayrim o'quv fanlari yuzasidan o'quv qo'llanmalari ham to'ziladi.

Maktab isloxoti va xalq ta'limini qayta kurish darslik yaratuvchilari oldiga bir qator talablar quyadi.

Har qaysi o'quv fani uchun yaratiladigan darslikda ilmiy bilimlar tizimi va uning xajmi dastur talablariga hamda shu guruh o'quvchilarining yosh xususiyatlariga mos keladigan bo'lishi kerak.

Darslikda bayon qilingan ilmiy bilimlarning nazariy asoslari va g'oyaviy yo'nalishi tizimli va izchil bo'lishi, darslikda keltirilgan dalillarning ishonchli bo'lishi, ular to'g'ri taxlil, aniq ta'rif etilishi, tegishli xulosalar chiqarilishi hamda shu orqali o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash, eng yaxshi insoniy fazilatlar tarkib topishini ta'kidlashi lozim.

Nazariy bilimlar ishlab chiqarish amaliyoti bilan bog'langan bo'lishi kerak.

Darslikda bayon qilinayotgan materialning xarakteriga bog'liq holda tegishli qoida va ta'riflar berilishi, dalillar keltirilishi hamda darslik yaxshi bezatilgan bo'lishi, ba'zi materiallar rasm, sxema, diagramma va boshqa illyustrasiyalar bilan boyitilishi talab etiladi.

Darslik o'quvchilar tushunishi oson bo'lgan jonli tilda yozilishi, ayni zamonda fikrlar aniq va qisqa bo'lishi kerak.

Darslikning tashqi ko'rinishi, bezagi o'sha guruh o'quvchilarining estetik didlariga mos keladigan bo'lmog'i lozim.

M.S. O'quv dasturi va uning ahamiyatini tushuntiring.

Mustaqil ta'limga oid topshiriqlar.

Belgilangan o'quv maqsadlariga erishganlik darajangizni aniqlang, yuqoriroq ball olmoqchi bo'lsangiz, ma'ruza matniga murojaat qiling.

O'quv dasturi tayanch so'ziga klaster strategiyasini qo'llang.

8-Mavzu. Xorijiy mamlakatlar pedagogikasi.

Asosiy savollar:

1. AQSh da ta'lim tizimining tuzilishi va o'ziga xos xususiyatlari.
2. Yaponiyada ta'lim tizimi va xususiyatlari.
3. Fransiyada ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlari.
4. Germaniyada ta'lim tizimining rivojlanishi.

Tayanch so'z va iboralar.

Ta'lim, tarbiya, universitet, boshlangich ta'lim, guruhlar, pedagog, oila, kasb –xo'nar ta'limi, rivojlantirish.

1. AQSh da ta'lim tizimining tuzilishi va o'ziga xos xususiyatlari.

Barcha xorij mamlakatlarida ham ta'lim tizimi o'z davlati va mamlakatining ta'lim standartlari va xukumat tomonidan ta'xis etilgan qonunda belgilanganidek amalga oshiriladi.

Amerikada 3 yoshgacha bo'lgan bolalar tarbiyasi bilan onalar shug'ullanadi, lekin ularga hech qanday imtiyozlar berilmagan. 3 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun xususiy yoki davlat bog'chalaridan foydalanishi mumkin. Enaga yollash bir xaftada 200\$ ga to'shadi. Bog'chalarda yagona bir dastur mavjud emas. Kerakli hamma jixozlar va kunlik ovqatni ota –onalarining o'zi olib keladi. 5 yoshdan esa «Kinder gaden» deb ataluvchi tayyorlov muassasalarida ta'lim boshlanadi. Boshlang'ich maktab 6 yoshdan to 13-15 yoshgacha bo'lgan bolalarni qamrab oladi. Bu boshlang'ich maktablarda umumiy savodxonlik va kasbga yo'naltirish vazifalari hal etiladi. Guruhdan guruhga utish boshlang'ich ta'lim turli shtatlarda turlicha belgilangan.(4,5,6,8 yil). Maktablarda turli xil to'garaklar, uchrashuvlar va sayoxatlar uyushtiriladi, ammo ularning hammasiga xaq tulash lozim. O'rta maktablar kuyi va yuqori bosqichlardan iborat. 9-guruhni bitirgan talabalar tanlov asosida qabul qilinadi. O'rta maktablarda 4- yilda kasbkor asoslari o'qitiladi: 1-qishloq xo'jaligi kasblari ta'limi, 2-biznes ta'limi, 3- savdo va sanoat ta'limi, 4-qurilish ta'limi.

Oliy ta'lim 4 asosiy bosqichda amalga oshiriladi: 1-kichik mutaxassislik –bu 2 yillik kollejlarda amalga oshiriladi, 2-bakalavr, 4-yillik kollejlarda, 4-yillik kollej yoki dorilfo'no'nni tugatgach, 3-bosqichni davom ettirish mumkin - bu 1-2 yillik magistr maktabi, 4-bosqich – aspirantura, doktorantura, kompyuter va xakozolarni qullash yaxshi yo'lga qo'yilgan. Maktablar kanikul vaqtida ishlab turadi. To'garaklar, qayta tayyorlash ishlari olib boradi.¹⁰

Oliy ta'limda ikki yo'nalish mavjud: 1 - ta'limni individuallashtirish, 2 - talabaning mustaqil ishlashini amalga oshirish. O'qituvchi yo'naltiruvchi rol o'ynaydi. Asosiy maqsad talaba aqlini mashq qildirish, mantiqiy fikrlashga o'rgatishdir. 1998 yilda Xukumat tomonidan qabul qilingan «2000 yilda Amerika ta'limi strategiyasi» dasturi e'lon qilindi. Unda axolini 90 foizini oliy ma'lumotli bo'lishi, asosiy fanlar, bo'limlarning chuqur bo'lishi ko'zda tutilgan.

Oliy o'quv yurtlarida ilmiy izlanishlar olib borish bo'yicha AQSh jaxon mamlakatlari orasida yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Bu mamlakatda ilmiy izlanishlar uchun mablag'ning 48 foizini davlat tomonidan, 50 foizini firma, konsernlardan o'ndiriladi, oliy o'quv yurtlarining mablag'lari 2 foizni tashkil qiladi. Ishlab chiqarish korxonalari dorilfo'no'nlar bilan shartnoma asosida hamkorlik qiladi. Dorilfo'no'n o'qituvchilarining 70 foizini turli firmalarda ishlab chiqarish korxonalarining ilmiy laboratoriya bilan birgalikda maslaxatchi, tadqiqotchi bo'lib ishlaydi.

O'qituvchi kadrlarni tayyorlash 4-5 yilga mo'ljallangan dastur asosida amalga oshiriladi, so'ngra 4-6 oy amaliyot utiladi.

Ta'limni xaddan ziyod demokratlashuvi talabalar bilimining puxtaligini tekshirish va nazorat qilishda qiyinchiliklar tug'diradi. Shu sababli boy moddiy baza va tajribaga ega bo'lgan davlatda butunlay savodsiz bo'lgan bolalar ham topiladi.

2. Yaponiyada ta'lim tizimi va xususiyatlari.

Yaponiya ta'limining shakllanishi 1867-1868 yillarda boshlangan. Yaponiya o'z oldiga ikki vazifani: 1 - boyish, 2 – g'arb texnologiyalarini Yaponiya ishlab chiqarishiga kiritish masalasini quydi va bu ishni amalga oshirish uchun birinchi galda ta'lim tizimini tubdan o'zgartirish kerakligini angladi.

1872 yili «Ta'lim haqida» Qonun qabul qilindi. Bunda yapon ta'limi G'arb ta'limi bilan uyg'o'nlashtirilgan .1893 yilda kasb ta'limi yo'nalishidagi birinchi kollej paydo bo'lgan. 1908 yilda Yaponiya boshlang'ich ta'limni majburiy 6-yillik qilib belgiladi.

1946 yili qabul qilingan konstitutsiya fuqorolarning ta'lim sohasidagi xuquq va burchlarini belgilab berdi. Unda barcha bolalar bepul umumiy ta'lim olishi shart ekanligi qayd etilgan. Xozirgi zamon yapon ta'lim tizimining tarkibi quyidagicha: bog'chalar, boshlang'ich maktab, kichik o'rta maktab, yuqori o'rta maktab, oliy ta'lim tizimlariga kiruvchi oliy o'quv yurtlari. Bolalar yoshlariga qarab 3,2,1,yillik ta'lim kurslariga jalb qilinadi. Yaponiyada maktabgacha ta'lim muassasalarining 59,9 foizi xususiy, 40,8 foizi davlatnikidir.

Maktabgacha ta'limga Yaponiyada katta e'tibor beriladi, Chunki psixologlarning ta'kidlashicha 7 yoshgacha inson bilimlarni 70 foizini, qolgan 30 foizini butun qolgan umri davomida o'zlashtirar ekan. Maktabgacha tarbiya odatda oiladan boshlanadi. Yapon ayollari uchun onalik har doimgidek birinchi o'rinda turadi. Ko'pkina yaponkalarining aytishlaricha, bola tarbiyasi-ularning hayotlarining maqsadidir.

Yapon tarbiyachilarini, bolalarni kichik guruh (xan)¹¹ larga bo'lib o'qitishlari maktabgacha tarbiyaning asosiy xususiyatlaridan biri bo'lib xisoblanadi. Bu guruhlar o'zlarining stollariga,bolalarning o'zlari tanlagan shaxsiy nomlariga, (bu bolalarda qarorlar qabul qilishda, o'zgalar fikrini xurmat qilish, guruh a'zolarini barchasini tashabbuskor bo'lishga) o'rgatadi. Bunday usul kichik maktablarda ham, o'rta maktablarda ham davom etadi. Bu guruhlar o'rtacha har 5 oyda shakllanib turadi. Yapon bolalariga guruhni boshqarish juda yoqadi . Shuning uchun har kuni bolalarning o'zlari (toban) boshqaruvchi tanlaydilar. Har bir bola bu vazifani bajarib ko'radi.

Boshlang'ich maktabda o'qituvchilar bolalarni tanqidga, ya'ni o'z xulqlarini yomon tomonlarini, maktabdagi kamchiliklarni tanqid qilishni o'rgatadilar. Bundan ko'rinib turibdiki, o'qituvchi faqat ta'lim berish bilan cheklanib qolmay, bolaning har tamonlama rivojlanishiga ta'sir etadi. Shuning uchun ham Yaponiyada o'qituvchi kasbiga kata e'tibor beriladi. Yaponiya-rivojlangan davlatlar ichida o'qituvchining maoshi davlat raxbarlari maoshidan ham yuqori bo'lgan yagona davlatdir.

Majburiy ta'lim. Ta'limning bu pog'onasi 6 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan bolalarni o'z ichiga oladi. 6 yillik boshlang'ich ta'lim va 3 yillik o'rta maktab 9 yillik majburiy ta'limni tashkil etadi va u bepuldir. Muxtoj oilalarning bolalari bepul nonushta, o'quv qurollari, tibbiy xizmat bilan ta'minlanadi. Zarur bo'lgan xollarda

H.Mahkamov. "Yaponiya yoshlari" T:2001. 34bet.

ularning oilalariga moddiy yordam ko'rsatiladi. Shu bilan birga Yaponiyada xususiy maktablar ham mavjud.

Yuqori o'rta maktab 10,11,12-guruhlarini o'z ichiga oladi, Bunday maktablarning kunduzgi, sirtqi, kechki bulimlari mavjud. O'quvchilarning 95 foizi kunduzgi maktablarda o'qiydi.

Yaponiyada o'quv yili -240, AQSHda - 180 kun. Yozgi kanikul iyun oyining oxirida boshlanib, avgustda tugaydi. Darslar kuniga 7 soatdan utiladi.

Universitetlarga yuqori va o'rta maktabni yoki 12 yillik oddiy maktabni bitirgan o'quvchilar qabul qilinadi. U yerda 460 ta universitet bo'lib, 95 tasi davlat tasarrufida, 34 tasi munisipial, 31 tasi xususiydir. 1-toifadagi universitetlarda har bir o'qituvchiga 3 nafar, 2-toifali universitetlarda esa 20 tadan talaba to'g'ri keladi. Universitetlarga qabul qilish ikki bosqichga bulinadi: 1-bosqichi turar joyda o'tkaziladi, buning uchun eski yapon tili, matematika, fizika, kimyo, jamiyatsho'noslik, tarix bo'yicha test sinovlaridan utiladi.

Yaponiyada oliy ta'lim majburiy xisoblanadi va u kasb ta'limi bilan uzviy bog'liqdir. Oliy ta'lim tizimi quyidagi turlarni o'z ichiga oladi:

Tuliq sikldagi universitetlar (4 yil).

Tezlashtirilgan universitetlar sikli (2 yil).

Kasb ta'lim kollejlari .

Texnika institutlari.

3. Fransiya ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlari.

Fransiya jahondagi iqtisodiy rivojlangan mamlaktlar ichida yetakchi o'rinni egallaydi. Uning ta'lim tizimlari ham qadimiy va boy tarixga ega. Bu mamlakatda «Ta'lim haqidagi» Qonun dastlab 1955 yilda qabul qilinib, 1975 yilda unga bir qator o'zgarishlar kiritilgan. Fransiya davlatining xozirgi davrida amal qilayotgan «Ta'lim haqidagi» Qonuni 1989 yil 10 iyulda qabul qilingan bo'lib, uning o'zgartirishlariga ta'lim strategiyasida ro'y bergan o'zgarishlar, mamlakatning ichki , tashqi siyosatidagi islohatlar, yuzaga kelgan iqtisodiy sharoitlar, chet el pedagogikasidagi ilg'or tajribalarning mamlakat ta'lim tizimiga kirib kelishi, o'quv fanlarining uyg'o'nlashuvi va boshqalar sabab bo'ldi

Fransiya ta'limining asosiy maqsadi shaxsni har tomonlama kamol topishini ta'minlash, uni mustahkam faoliyatga tayyorlash, bozor munosabatlari sharoitida o'quvchilarni tadbirkorlikka, ishbilarmonlikka, omilkorlikka o'rgatish shunga yarasha kasb-korga ega qilishdan iborat.Bu yerda davlat maktablari, xususiy maktablar, oraliq maktablar mavjud.O'qitiladigan fanlar ichida franso'z tili va adabiyoti, o'qish va yozuv alohida ahamiyatga molik. Ular uchun dars vaqtining 30 foizi ajratiladi. O'rtacha xaftalik soatlar 26 soatdan iborat, darsning davomiyligi esa 60 daqiqa. O'quv yili 5 chorakka bo'linadi. Fransiya maktablarida boshlang'ich guruhlarda o'qish ertalabki va tushdan keyingi qismlarga bo'linadi.Ertalab o'quvchilar ona tilidan,tushdan keyin esa matematika va boshqa fanlardan saboq oladilar.

Fransiya ta'limida bolalarning gudaklik chog'idanoq maktabda o'qitish uchun tayyor holda olib kelish g'oyat muhim masaladir. Bu bosqichda tarbiyalanuvchilar quyidagigicha tabaqalashtirilgan:

- kichik guruh 2-4 yosh,
- o'rta guruh 4-5 yosh,
- katta guruh 5-6 yosh.

5-6 yoshlilar maktabga tayyorlov guruhi bo'lib, ularga Fransiyada shu yoshdagi bolalarning 100 foizini qamrab olingan. Bolalarni maktabga tayyorlash uchun alohida dastur va darsliklar mavjud.

Fransiyada boshlang'ich ta'lim maktablariga 6 yoshdan 11 yoshgacha bo'lgan bolalar jalb qilinadi. Boshlang'ich maktab bepul va majburiy. Uning vazifasi o'qish, yozish, hisoblash malakasini berishdir. O'quv mashg'ulotlari ertalab soat 9 dan 12 gacha hamda soat 14 dan 16 gacha 5 soat davom etadi. Maktabda ovqatlanish pullik, lekin arzonlashtirilgan narxlarda. Boshlang'ich guruhlarda o'qish uch bosqichda amalga oshiriladi:

Tayyorlov bosqichi.

Elementar kurs (bu bosqich ikki yil davom etadi).

Chuqurlashtirilgan bosqich.

Dasturlarda o'quv fanlarining barchasiga uch bosqich bo'yicha aniq, alohida – alohida talablar qo'yilgan.

1990 yildagi xukumat qaroriga muvofiq bolalar bilimi va qobiliyatiga qarab ,dars jadvalini tabaqalashtirilgan holda tuzish xuquqi berildi. O'quvchilar 11 yoshda boshlang'ich maktabni tugallab, o'rta maktabga o'tadi. O'rta ta'lim esa kollejlarda va liseylarda amalga oshiriladi. O'rta ta'lim ikki bosqichda amalga oshiriladi. O'rta ta'lim ikki bosqichda beriladi. Birinchi bosqich (11 yoshdan 15 yoshgacha) 4 yil bo'lib, eng kichik guruh 6-guruh, 5,4-o'rta guruh hisoblanadi.

Oliy ta'lim universitetlarda uch davrda amalga oshiriladi. Birinchi davr umumiy bo'lib, o'qish muddati ikki yil. Ikkinchi davrda o'qish bir yil davom etadi. Talablar uni magistr darajasi bilan yakunlaydi. Uchinchi davrda o'qish bir- ikki yil bo'lib, Bunda:

- biron bir fanni chuqurlashtirib urganganligi haqida diplom (bir yil);
- davlat doktorlik dissertatsiyasi-biron bir sohani mukammal o'rganib, dissertasiya yozish kabi xujjatlar olish mumkin.

Fransiyada oliy ma'lumot va ixtisoslik beruvchi oliy texnologik institutlar mingdan ortiq. Uchinchi davrda doktorlik dissertatsiyasi (ikki yil) tayyorlanadi. Ular odatda sanoat, maishiy xizmat ko'rsatish, informatika mutaxassisliklariga ixtisoslashgan. O'qish muddati ikki yil bo'lib, sakkiz xaftalik ishlab chiqarish amaliyotini ham ko'zda tutadi.

Sirtqi ta'lim shaxobchalari juda keng bo'lib, u 500 turdagi o'rta, oliy, professional ma'lumot berishni tavsiya etadi. Fransiyada maktab rahbarligi lavozimiga erishmoq uchun ta'limga rahbarlik qilishdan saboq beruvchi maxsus markazlarda o'qiydilar. Bunday markazlar ular rahbarlik qilish, maktab iqtisodiyotini boshqarish, ta'limdagi yuridik masalalar, qonunchilik, ota onalar bilan ishlash, madaniy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish, jamoada yaxshi ruxiy muhitni barpo etish kabi jihatlarni o'rganadilar. O'qishni yakunlagach suhbatdan, test imtixonlaridan utadilar. Direktor dars

bermaydi. Uning ish faoliyati ikki yil davomida diqqat bilan ko'zatib boriladi. Shu ikki yil davomida maktab direktori iste'dodli tashkilotchi, yetuk rahbar sifatida faoliyat ko'rsata olmasa, u bu lavozimdan olib tashlanadi. Maktab o'qituvchilariga qo'yilgan talab Fransiyada uta yuqori. Ayniqsa, boshlang'ich maktablarda o'qituvchi o'z kasbini ustasi, ajoyib notiq, san'atkor, musiqachi, sportchi, tashkilotchi, namuna li xulqatvor egasi bulmog'i lozim.

O'qituvchilar o'z nazariy – uslubiy malakalarini oshirishga katta ahamiyat beradilar. Malaka oshirish kurslaridan utish uchun aniq muddat belgilab qo'yilmagan. O'qituvchilar o'z ixtiyori bilan test markazlarida imtixon topshiradi. Shu imtixonlar davrida o'qituvchi faoliyatida ayrim nuqsonlar sezilib, malaka oshirishga extiyoj aniqlansa, o'z vaqti va mablag'lari xisobiga malaka oshiradilar.

2000 yilda Fransiya maktablaridagi axvol sinchiklab o'rganilib, o'quvchilarning ko'pchligi darslarga kirmay, boshqa ishlar bilan mashg'ul ekanligi aniqlanib, bu kamchlikni tuzatish uchun choralar kurilmoqda. Chunki aynan darsga kirmay yurgan bolalar o'rtasida giyoxvandlik va xuquqlarni bo'zish kabi xolatlar ko'p uchraydi. Umuman, Fransiyada ta'lim tizimini rivojlantirish uchun katta mablag'lar ajratiladi.

4. Germaniyada ta'lim tizimini rivojlanishi.

Maktabgacha ta'lim tizimi Germaniya ta'lim tizimida ham muxim bosqich xisoblanadi. Uning 100 yildan ortiq tarixi bor. Bolalar bog'chalari ta'limning kuyi bosqichi xisoblansa-da, lekin u davlat ta'lim tizimi tarkibiga kirmaydi. Bog'chalarni mablag' bilan ta'minlash turli jamoat tashkilotlari, xayriya birlashmalari korxonalar, xususiy shaxslar, diniy muassasalar zimmasidadir. Ota-onalar farzandlari bolalar bog'chalarida tarbiyalanganliklari uchun bog'chaga ancha pul tulaydilar. 3 yoshdan 6 yoshgacha bolalarning 80% i bog'chalarga qatnamaydi. Germaniyada odatda bolalar bog'chada tushgacha tarbiyalanadilar. Kunning ikkinchi yarmida esa uyda, oilada bo'ladi. Germaniyada kuni o'zaytirilgan bog'chalar ham mavjud.

Majburiy ta'lim 6 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan bolalarga tegishli, ya'ni bu jarayon 12 yil davom etadi. Bundan o'quvchilar 9 yillik (ba'zi joylarda 10 yillik) maktabda tula kunlik o'qishni bitiradi, keyin xo'nar- texnika bilim yurtida tuliq bo'lmagan xaftalik o'qishda o'qiydi. O'qish davlat maktablarida tekin. Maktab o'quvchilariga o'quv qullanmasi, asosan darsliklar tekin bo'ladi. Xususiy maktablar ozroq.

O'qish 6 yoshdan boshlanib 4 yil davom etadi (faqat Berlinda 6 yil). Boshlang'ich maktabdan so'ng o'quvchilar yo'nalish bosqichidagi maktabga utadilar. Bu yerda 5-6 guruh bosqichidagi yo'nalish maktablarida maxsus dastur asosida o'qiydilar. Keyin navbatdagi maktab turiga kuchadilar: Bular asosiy .maxsus maktab, aniq bilim yurtlaridir. Deyarli 30% bola asosiy maktabga o'tadi. 9 yillik yoki 10 yillik o'qish tugatilgandan keyin kasbiy tayyorgarlik boshlanadi . Maxsus maktablarda nuqsonga ega bo'lgan bolalar o'qiydi. Aniq bilim yurtlari asosiy maktab va yuqori bosqich maktabi o'rtasida turadi. Qoidaga ko'ra bu yerda o'qish 6 yil davom etadi .5-10 – guruhgacha va tula o'rta ma'lumot berish bilan tugallanadi. 11-13 guruhlar oliy o'quv yurtlariga tayyorlash vazifasini ham bajaradi. Germaniya ta'lim tizimida hunar

ta'limi muhim ahamiyatga ega, Chunki yuqori malakali ishchilarga bo'lgan talab kuchlidir. Tuliqsiz o'rta maktabni bitiruvchilarning (9-10 guruhlar) 79% i, tuliq o'rta maktabni bitiruvchilarning esa 20%i xo'nar ta'limi tizimida bilim olishni davom ettiradi. Aksariyat xollarda o'qish muddati 3-3,5 yilni tashkil etadi. O'qish 3 bosqichdan iborat bo'lib, 1 yil asosiy hunar ta'limi beriladi. Bunga o'qitilayotgan kasbga taalluqli maxsus fanlardan nazariy asoslar berilib, yirik korxonalarda amaliy mashg'ulotlar o'tkaziladi, 2 yil davomida maxsus hunar ta'limi beriladi. O'quvchining birinchi yildan ikkinchi yilga utishi uchun sinov imtixonlari o'tkazilib, o'qishni davom ettiruvchi yoshlar tanlab olinadi. Uchinchi yil imtixonlar maxsus komissiya tomonidan qabul qilinadi. Komissiya a'zolari korxonalarining yetakchi muttahaslari, federal yerlardagi sanoat palatasi, xo'narmandchilik palatasi vakillaridan iborat. Hunar maktablarining diplomlari oliy o'quv yurtlarga kirish uchun xuquq bermaydi. Buning uchun bir yillik tayyorlov kurslarini tugatish talab etiladi. O'qishga qabul qilish imtixonsiz, maktab ta'limi to'g'risidagi xujjatga asosan amalga oshiriladi. Oliy maktab o'zini-o'zi boshqarish xuquqiga ega. Oliy o'quv yurtini shtatdagi rektor yoki bir necha yilga saylangan prezident boshqaradi. O'zini – o'zi boshqarishda vazifalari aniq taqsimlab berilgan bir necha guruhlarining bosqichma–bosqich ishtiroki tamoyiliga amal qilinadi. Uning tarkibiga o'qituvchilar, o'quvchilar ilmiy xodimlar va boshqa xodimlar kiradi. Talabalar o'qishi erkin tashkil etilgan. Ko'p sonli o'quv bosqichlari bilan birga o'quv rejalari taklif etiladi. O'qishga xaq tulanmaydi. Agar talaba yoki ularning ota- onalari oziq –ovqat harajatlarini kutara olmasa, o'qish uchun moliyaviy yordam ko'rsatish to'g'risidagi federal qonunga ko'ra, ular moliyaviy yordam oladilar.

Germaniyada xalq universitetlari mavjud bo'lib, ular partiya va dindan tashqari muassasa. Ularning ko'pchiligi kechki bo'lib, faqat 1989 yilda universitetda 400000 kishilik kurslar tashkil etilgan va bu kurslarda 5,5 mln. tinglovchi malaka oshirdi. Davlat malaka oshirganlarni rag'batlantirib turadi. Yarim yil davomida malaka oshirgan ishchilarning 75 % i ish bilan taminlanadi. Cherkovlar ham fuqarolar bilim darajalarini oshirishda faol ishtirok etadi.

Oliy o'quv yurtlarida tadqiqot bilan shug'ullanish qadimiy an'analaridan biridir. Utgan asr boshlarida Vil'gelm Fon Gumbold Pruss universitetlarini islox qildi, o'shandan beri «tadqiqot va o'qitish birligi» ularning hayotiy tamoyillariga aylanib qolgan. Germaniya ta'limi o'ziga xos yo'nalishda va juda murakkab tizimga ega. Shu bilan bir qatorda hozirda Germaniya ta'lim tizimini islox etish yo'lida yangi izlanishlar olib borilmoqda.

Mavzu yuzasidan qisqa xulosa.

Ushbu mavzuda rivojlangan davlatlardagi o'quv jarayoni xususan Germaniya, AQSH, Fransiya va Yaponiyadagi ta'lim tizimidagi ma'lumotlar aniq tavsiflab berilgan. Rivojlangan bu davlatlardagi o'quv sistemasidagi o'ziga xos yutuqlar va kamchiliklar aniq ko'rsatib berilgan. Yaponiya ta'lim sistemasining o'ziga xos tomonlari, o'qituvchi shaxsiga quyiladigan talablari va ularga yaratib berilayotgan imtiyozlar haqida fikr yuritilgan.

Nazorat uchun savollar.

AQSHdagi ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlari haqida gapiring.

AQSHda oliy ta'lim tizimi necha bosqichdan iborat?

Yaponiya ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlarini aytib uting.

O'qituvchilarga Yaponiyada qanday imtiyozlar yaratilgan?

Yaponiya maktablarida guruhlariga bo'lib o'qitish jarayoni qanday natija bermoqda?

Fransiyada boshlang'ich ta'lim maktablariga bolalar necha yoshdan jalb etiladi?

Fransiyada oliy ta'lim universitetlarida necha davrda amalga oshiriladi?

Germaniya ta'lim tizimi haqida nimalar bilasiz?

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ta'lim to'g'risida"gi Qonun., Toshkent-1997 yil
2. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi Toshkent-1997 yil
3. R.Mavlonova, O.Turayeva, K.Xolikberdiyev "Pedagogika" Toshkent 2001 yil.
4. A.Avloniy «Turkiy guliston yoxud axloq», Toshkent «O'qituvchi» 1992 yil
5. Musurmonova O., Baubekova Z. "O'zbek xalq pedagogikasi" T., 2000 yil.
6. Gaybullayev N. va boshqalar. Pedagogika. T., 2000.
7. Volkov G.N., Baubekova Z.D. Etnopedagogika. T., 2000.
8. Musurmonova O., Baubekova Z.D. O'zbek xalq pedagogikasi. T., 2000.
9. Ziyomammedov B., Abdullayeva Sh. «Pedagogika». T., 2000.
10. Podlasiy I.P. Pedagogika v 2-x chastyax. M., Vldos, 2001.
11. Hasanboyev J., Usmonboyeva M. "Pedagogika nazariyasi". T., 2000.
12. O'zbek xalq pedagogikasi antologiyasi. T., «O'qituvchi» K.Xoshimov taxriri ostida, 2001.
13. A. Jumanazarov. "O'zbek xalq topishmoqlarining o'ziga xos xususiyatlari" nomzodlik dissertatsiyasi. T. 2000 y.
14. O. Bo'riboyev « Ilmiy tarbiyani amalga oshirishda o'zbek xalq pedagogikasini o'rni» BMI 2005.

www.ppf.uni.udm.ru

www.talant.spb.ru/wald.html

www.school.edu.ru.

www.inter-pedagogika.ru.

www.ppsy.ru.

www.wings.ru

www.ppf.uni.udm.ru

www.search.re.uz - O'zbekistonning axborotlarni izlab topish tizimi.

www.ictcoo.ncil.gov.uz-Kompyuterlashtirishni rivojlantirish bo'yicha Vazirlar Maxkamasi muvoffiklashtiruvchi Kengashining sayti.

www.ecsoman.edu.ru - Rossiya Federasiya oliy o'quv yurtlarida ukitilayotgan fanlar bo'yicha o'quv-uslubiy komplekslar.

9-Mavzu. Iqtisodiy ta'lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish.

Asosiy savollar:

- 1 Pedagogik texnologiya haqida tushuncha.
- 2 Pedagogik texnologiyaning o'ziga xos xususiyatlari.
- 3 Iqtisodiy fanlarni o'qitishda qo'llanilayotgan yangi pedagogik texnologiyalar
- 4 Iqtisodiy fanlarni o'qitishda interfaol ta'lim usullaridan foydalanish

1. Pedagogik texnologiya haqida tushuncha.

Hozirgi vaqtda O'zbekistonda jahon ta'lim maydoniga kirishga yo'naltirilgan yangi ta'lim tizimi qaror topdi. Bu jarayon bilan bir vaqtda pedagogik o'quv-tarbiya jarayonining nazariyasi va amaliyotida sezilarli o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Ta'limdagi yondashuvlar tarkibi o'zgarmoqda.

Ta'lim tarkibi yangi prosessual mahoratlar, axborotlar bilan ishlash qobiliyatining rivojlanishi, ilmiy muammo va bozor amaliyotining ijodiy yechimining ta'lim dasturlarini individuallashtirishga qaratilishi bilan boyitilmoqda.

Axborotning an'anaviy usullari-og'zaki va yozma nutq, telefon va global masshtabli telekommunikasiyalarni ishlatish bilan almashtirilmoqda.

Pedagogik jarayonning muhim tarkibi bo'lib talaba bilan pedagogning shaxsga yo'naltirilgan o'zaro munosabatlari hisoblanadi. Ijtimoiy bilimga teng bo'lgan pedagogik texnologiyalarning tashkil topishda fanning roli ortib bormoqda.

Pedagogik ta'lim texnologiyalarning psixologik-pedagogik nuqtai nazardan takomillashuvining asosiy yo'nalishlari quyidagilar bilan ifodalanadi:

- 1) Yodlashdan eslab qolish funksiyasiga o'tish, ya'ni o'zlashtirilganini ishlatish imkonini beruvchi aqliy rivojlanish jarayoniga o'tish.
- 2) Bilimning assosiativ statistik modelidan aqliy harakatning dinamik tarkibiy tizimlariga o'tish.
- 3) O'rtacha talabaga yo'naltirilganlikdan o'qitishning differensiallangan va individuallashtirilgan dasturlariga o'tish.
- 4) Talabaning tashqi motivasiyasidan ichki ma'naviy irodali tartibga solinishga o'tish.

Ta'limda zamonaviy didaktika va ta'lim tarkiblarining samaradorligini oshirish, yangi g'oya va texnologiyalarning ilmiy ishlab chiqilishi va amaliy asoslanishi ishlatilmoqda. Bunda har xil pedagogik tizim bilan o'qitish texnologiyalari o'rtasida bog'liqlik, amaliyotda davlat ta'lim tizimining yangi shakllari (qo'shimcha va alternativ) ning aprobasiyasi, hozirgi zamon sharoitida o'tmishning pedagogik tizimlarini qo'llash muhim hisoblanadi. Bunday sharoitda pedagog, boshqaruvchi keng ko'lamli zamonaviy innovasion texnologiyalar, g'oyalar, o'quv muassasalar, yo'nalishlarda ma'lum bo'lgan narsalarni qayta ochishga vaqtini sarflash kerak emas. Bugungi kunda savodli mutaxassis bo'lish uchun ta'lim texnologiyalarning hammasini o'rganish lozim.

Hozirgi vaqtda pedagogik lug'atda pedagogik texnologiya tushunchasi mustahkam o'rnashgan. Adabiyotlarda o'nlab ta'riflarni uchratish mumkin. Keling ularning ba'zilarini qarab o'taylik.

Pedagogik texnologiya- bu o'quv jarayonining loyihalashtirilishi, tashkil etilishi, o'tkazilish bo'yicha barcha tafsilotlari bilan o'ylab chiqilgan jamoa pedagogik faoliyatining modeli hisoblanadi. U talaba va pedagoglarga qulay sharoitlar yaratishi shart. (Monaxov).

Pedagogik texnologiya-pedagogik maqsadlarga erishish uchun qo'llaniladigan shaxsiy, intellektual, uslubiy vositalarning amal qilish tartibidir. (Klarin)

Bu sohada taniqli mutaxassis N. Saidahmedov ta'kidlashicha, ma'lum vaqt davomida *pedagogik texnologiya* - o'quv jarayonini texnik vositalari yordamida amalga oshirish deb qarab kelingan edi. 70-yillardan boshlab esa pedagogik adabiyotlarda bu tushunchaning mohiyati ancha keng talqin etila boshlanadi.

Rus olimi N.F.Talizina *pedagogik texnologiyani* "Belgilangan o'quv maksadga erishishning oqilona usullarini aniqlashdan iborat" deb tushuntiriladi.

I.Ya.Lernerning fikricha *pedagogik texnologiya* -o'quvchilar harakatlarida aks etgan ukitish natijalari orqali ishonchli anglab olinadigan va aniqlanadigan maqsadni ifodalashni taqozo etadi.

Ko'rinib turibdiki, pedagogik texnologiya belgilangan boshlang'ich maqsad va mazmun asosida o'quv jarayonini loyixalash sifatida tashkil etilgan. Bu bir jixatdan to'g'ri bo'lsa, chuqurroq taxlil etilsa, bir yoqlamalik aniqlanadi yoki bunday yondashuvda o'quvchi shaxs e'tibordan chetda qolmoqda. Bu xolatni yoki kamchilikni akademik V.P.Bespalko aniqladi va *pedagogik texnologiya* bu o'qituvchi maxoratiga bog'liq bo'lmagan holda pedagogik muvofaqiyatini kafolatlay oladigan o'quvchi shaxsni shakllantirish jarayonining loyixasidir deb ta'riflaydi. Bu ta'rif asosida quyidagi ilmiy tamoyillarni ko'rsatish mumkin: ¹²

Pedagogik texnologiya o'quvchi- talabalarda ma'lum ijtimoiy tajriba elementlarini shakllantirish uchun loyihalanadi;

Demak, pedagogik texnologiya aniqlashtirilgan maqsadlar asosida loyihalashtirilgan, muayyan ketma ketlikda, tartibda amalga oshiriladigan, ta'lim tarbiya samaradorligini oshirishga va yakuniy natijaga erishishni kafolatlaydigan pedagogik muolajalarni amalga oshirish jarayonidir

Bu o'rinda shuni ta'kidlash joizki, pedagogik texnologiya tushunchasi bilan metod, metodika tushunchalari bir birdan farqlanadi. Pedagogik texnologiya - ta'limda yakuniy natijani kafolatlaydigan samarali ta'lim tarbiya muolajalarini amalga oshirish, pedagog va o'rganuvchilar o'zaro muloqotini o'ziga xos tashkil etish jarayoni bo'lsa, metod, jumladan interfaol ta'lim uslublari ham ta'lim tarbiyani amalga oshirish yo'llari, vositalari, usullari yig'indisidir. Pedagogik texnologiya jaryonida bunday usullardan bir nechtasi qo'llanilishi mumkin.

Pedagogik texnologiyaning o'ziga xos xususiyatlari.

Pedagogik texnologiya paydo bo'lguncha qadar ta'lim tizimi doirasida ta'lim jarayonini yetarli samarali loyihalash qoidasi ishlab chiqilmadi. Pedagogik texnologiyani o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, unda o'quv maqsadlariga kafolatli erishishda o'quv jarayoni loyihalashtiriladi va amalga oshiriladi. Texnologik

¹² N.Sayidahmedov. Yangi pedagogik texnologiyalar. – T.: «Moliya», 2003.


yondashuv, eng avvalo, yuzalikda emas, balki rejalashtirilgan natijasi olish imkonini beruvchi konstruktiv, ko'rsatmali sxemada o'z ifodasini topadi.

Maqsadga yo'naltirilganlik, jarayon natijalarini tashhisli tekshirish, ta'limni alohida o'rgatuvchi qismlarga bo'lib tashlash o'quv jarayonining qirralarini bugungi kunda ta'limni qayta ishlab chiqish sikli g'oyasiga birlashtirish imkonini beradi. U asosan o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- ta'limda umumiy maqsadning qo'yilishi;
- tuzilgan umumiy maqsaddan aniq maqsadga o'tish;
- pedagoglarning bilim darajalarini dastlabki baholash;
- bajariladigan o'quv ishlarni majmuasi;
- natijani baholash.

Bundan ko'rinadiki, o'quv jarayoni «modulli» ko'rinishga kelib, turli mazmun bilan to'ldirilgan, umumiy tizimga mos holda ishlab chiqariladigan bloklar qismlardan iborat.

(Sxemaga qarang)



O'quv jarayoni pedagogik texnologiya asosida tashkil etishning rejalashtirishda pedagogdan yuksak malaka talab etadi, materiallar tayyor bo'lgach, pedagog asosan tashkiliy va konsultativ vazifalarni bajaradi. Umumiy ko'rinishda pedagogik texnologiya tarkibiga quyidagilar kiradi:

- fanning identifikatsiyalashgan o'quv maqsadlarini ishlab chiqish;
- o'quv maqsadli shajarasi;
- o'quv maqsadlarini nazorat topshiriqlariga aylantirish;
- maqsadga erishish usullari;
- erishilgan o'quv maqsadlarini baholash.

Pedagogik texnologiyani tushunishning asosiy yo'li aniq belgilangan maqsadlarga qaratilganlik, talaba bilan muntazam o'zaro aloqani o'rnatishdir. O'zaro aloqa pedagogik texnologiya asosini tashkil qilib, o'quv jarayonini to'la qamrab olishi kerak.

Pedagog odatda, o'z oldiga talabalar o'quv materialining mazmunini tushunib, o'zlashtirib olishsin, ma'lum bilimlarni egallab amaliyotda qo'llashga o'rgansin degan maqsadni qo'yadi.

Pedagogik maqsadlarga erishganlik yoki erishmaganligini bilishning aniq vositalari bo'lgandagina pedagog o'zining mehnati samarali ekanligiga va tanlangan uslublari maqsadga muvofiqligiga yoki samarasiz ekanligiga ishonch hosil qilishi mumkin. Odatda, jamiyatdan buyurtmani umumiy ko'rinishda oladi. Fan bo'yicha berilgan o'quv dasturlarida berilgan maqsadlar ham juda oz ko'rinishda bo'ladi.

Bundan chiqish uchun maqsadlarni aniqlashtirish borasida ma'lum bir tizimni tuzish mumkin.

Pedagogik texnologiyada o'quv maqsadlarini qo'yilishi o'zining ma'lum xususiyatlariga ega. Bu shundan iboratki, ta'lim maqsadlari talabalar harakatida ifodalanadigan aniq ko'rinadigan va o'lchanadigan natijalar orqali belgilanadi.

Ta'lim mazmuni odatga ko'ra, asosan tematik yo'nalishga ega va unda o'qitishning aniq maqsadlarini ko'rish qiyin. O'qitish vazifalarini taqqoslanadigan maqsadlarini yengillashtirish uchun, o'zlashtirgan talabalarni malakasini ifodalovchi fe'llardan foydalanish mumkin bo'ladi, tushuntiradi, chiqaradi, ishlatadi, namoyish qiladi, ajratiladi, topadi va hokazo. Fe'llarni umumiy yoki xususiy ko'rinishda ham ifodalash mumkin: o'rganish, aniqlash, tanishish, tushunish, belgilash, ajratish, to'plash, tuzish va hokazo. Shunday qilib, maqsadlarni aniqroq, tayinli qo'yishning asosiy yo'li-ma'lum natija bilan yakunlanadigan harakatlarni ifodalaydigan fe'llardan foydalanishdir.

Taqqoslanadigan ta'lim maqsadlarini (vazifalarini) shakllantirish quyidagi tizim bo'yicha bosqichma-bosqich amalga oshirilishi kerak. Muayyan o'quv mashg'ulotining umumiy maqsadi o'qitishning xususiy maqsadi taqqoslanadigan o'qitish maqsadi.

Iqtisodiy fanlarni o'qitishda qo'llanilayotgan yangi pedagogik texnologiyalar

Hozirgi kunda iqtisodiy fanlarni o'qitishda ko'plab yangi pedagogik texnologiyalar qollanilmoqda. Ular haqida qisqacha to'xtalib o'tmoqchimiz.

«Tarmoqlar» usuli (Klaster)

Bu usulning ma'nosi – fikrlarning tarmoqlanishi. «Klaster» texnologiyasi – pedagogik strategiya bo'lib, u o'quvchi- talabalarni biron bir mavzuni chuqur o'rganishlariga yordam beradi. U o'quvchi-talabalarni mavzuga taalluqli tushuncha yoki aniq fikrni erkin va ochiq ravishda ketma-ketlik bilan uzviy bog'langan holda tarmoqlashlariga o'rgatadi. Bu usul biron mavzuni chuqur o'rganishdan avval o'quvchi-talabalarning fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirish uchun xizmat qiladi. Shuningdek, o'tilgan mavzuni mustahkamlash, umumlashtirish hamda o'quvchi-talabalarni shu mavzu bo'yicha tasavvurlarini chizma shaklida ifodalashga undaydi.

«Bumerang» texnologiyasi

Bu texnologiya bir mashg'ulot davomida o'quv materialini chuqur va yaxlit holatda o'rganish, ijodiy tushunib yetish, erkin egallashga yo'naltirilgan. U turli mazmun va xarakterga (muammoli, munozarali, turli mazmunli) ega bo'lgan mavzularni o'rganishga yaroqli bo'lib, o'z ichiga og'zaki va yozma ish shakllarini qamrab oladi. Har bir mashg'ulot davomida talabalarning turli topshiriqlarni bajarishi, navbat bilan o'qituvchi yoki talaba, iqtisodchi yoki tadbirkor rolda bo'lishi, kerakli ballni to'plashiga imkoniyat yaratadi.

«Bumerang» texnologiyasi tanqidiy fikrlash, mantiqni shakllantirishga imkoniyat yaratadi hamda g'oya va fikrlarni yozma va og'zaki shakllarda bayon qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Mazkur usul tarbiyaviy xarakterdagi qator vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi, ya'ni; bo'lajak iqtisodchilarda jamoa bilan ishlash mahorati, muomalalik, xushfe'llik, o'zgalar fikriga hurmat, rahbarlik sifatlarini shakllantirish, ishga ijodiy yondashish, o'z faoliyatini samarali bo'lishiga qiziqish, o'zini holis baholash kabilar.

«Veyer» texnologiyasi

Bu texnologiya murakkab, ko'p tarmoqli pedagogik texnologiya, mumkin qadar muammo xarakteridagi mavzularni o'rganishga qaratilgan. Texnologiyaning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha axborot beriladi va ularning har biri alohida muhokama etiladi. «Veyer» texnologiyasi tanqidiy, tahliliy, aniq va mantiqiy fikrlarni rivojlantirishga hamda o'z g'oyalari va fikrlarini yozma va og'zaki shaklda bayon etish hamda himoya qilishga imkoniyat yaratadi.

«Iqtisodchi» texnologiyasi

Bu usul interaktiv texnologiya bo'lib, talabalarda fikriy bog'liqlik, mantiq, xotiraning rivojlanishiga imkoniyat yaratadi, qandaydir muammoni hal qilishda o'z fikrini ochiq va erkin ifodalash mahoratini shakllantiradi. Iqtisodiy iboralarni pedagogik terminlar bilan to'ldirishda yordam beradi.

«Iqtisodchi-rahbar» texnologiyasi

Bu usul talabalarni ijodiy, mustaqil, obrazli fikrlashga o'rgatadi. Ish rejasini tuzish, tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Masalan, «O'zini-o'zi boshqarish», «Rahbarning tashkiliy qobiliyatlari», «Zamonaviy tadbirkor shaxsi», «Zamonaviy iqtisodchining shaxsi» deb nomlanuvchi mavzularning yakunida «Iqtisodchi-rahbar» degan yangi usuldan foydalaniladi. Har bir talabaga varaqlar tarqatiladi, ularda «Men firma direktori», «Men fermer», «Men bankir», «Men tadbirkor», «Men oddiy ishchi» kabi savollar yozilgan. Har bir guruh talabasi o'ziga tushgan faoliyatni ta'riflab, mazmunini ochib beradi.

«Skarabey» texnologiyasi

«Skarabey» interaktiv texnologiya bo'lib, u talabalarda fikriy bog'liqlik, mantiq va xotiraning rivojlanishiga imkoniyat yaratadi. Talabalarda muammoni hal qilishda o'z fikrini ochiq va erkin ifodalash mahoratini shakllantiradi. Mazkur texnologiya mustaqil ravishda bilimning sifati va saviyasini holis baholash, o'rganilayotgan mavzu haqidagi tushuncha va tasavvurlarini aniqlash imkonini beradi hamda turli g'oyalarni ifodalash va ular orasidagi bog'liqliklarni aniqlashga imkon yaratadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bugungi kunda ta'limda zamonaviy didaktika va ta'lim tarkiblarining samaradorligini oshirish imkoniyatlari, yangi g'oya va texnologiyalarning ilmiy ishlab chiqilishi va amaliy asoslanishi qo'llanilmoqda. Zamonaviy texnologik mutaxassis bo'lish uchun ta'lim texnologiyalarining barchasini, shu jumladan pedagogik komponentlarini chuqur o'rganib, tahlil qilish lozim.

Iqtisodiy fanlarni o'qitishda interfaol ta'lim usullaridan foydalanish

Iqtisodiy fanlarni o'qitishda quyidagi interfaol ta'lim usullaridan foydalanish mumkin.

1. Aqlni ishlatishga yo'naltirilgan harakat (aqliy xujum);
2. Guruhlarda baxs, munozara;
3. Kichik guruhlarda ish olib borish;
4. Rolli o'yinlar;

1.Aqliy xujum - g'oyalarni generasiya (ishlab chiqish) qilish metodidir. «Aqliy xujum» metodi biror muammoni yechishda talabalar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to'plab, ular orqali ma'lum bir yechimga kelinadigan eng samarali metoddir. Aqliy xujum metodining yozma va og'zaki shakllari mavjud. Og'zaki shaklida o'qituvchi tomonidan berilgan savolga talabalarning har biri o'z fikrini og'zaki bildiradi. Talabalar o'z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar. Yozma shaklida esa berilgan savolga talabalar o'z javoblarini qog'oz kartochkalarga qisqa va barchaga ko'rinarli tarzda yozadilar. Javoblar doskaga (magnitlar yordamida) yoki «pinbord» doskasiga (ignalar yordamida) mahkamlanadi. «Aqliy xujum» metodining yozma shaklida javoblarni ma'lum belgilar bo'yicha guruhlab chiqish imkoniyati mavjuddir. Ushbu metod to'g'ri va ijobiy qo'llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga o'rgatadi.

Aqliy xujum metodidan foydalanilganda talabalarning barchasini jalb etish imkoniyati bo'ladi, shu jumladan talabalarda muloqot qilish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi. Talabalar o'z fikrini faqat og'zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko'nikmasi rivojlanadi. Bildirilgan fikrlar baholanmasligi talabalarda turli g'oyalar shakllanishiga olib keladi. Bu metod talabalarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

Vazifasi. “Aqliy xujum” qiyin vaziyatlardan qutulish choralarini topishga, muammoni ko'rish chegarasini kengaytirishga, fikrlash bir xilliligini yo'qotishga va keng doirada tafakkurlashga imkon beradi. Eng asosiysi, muammoni yechish jarayonida kurashish muhitidan ijodiy hamkorlik kayfiyatiga o'tiladi va guruh yanada jipslashadi.

Obyekti. Qo'llanish maqsadiga ko'ra bu metod universal hisoblanib tadqiqotchilikda (yangi muammoni yechishga imkon yaratadi), o'qitish jarayonida (o'quv materiallarini tezkor o'zlashtirishga qaratiladi), rivojlantirishda (o'z-o'zini bir muncha samarali boshqarish asosida faol fikrlashni shakllantiradi) asqotadi.

Qo'llanish usuli. “Aqliy xujum” ishtirokchilari oldiga qo'yilgan muammo bo'yicha xar qanday muloxaza va takliflarni bildirishlari mumkin. Aytilgan fikrlar yozib borildi va ularning mualliflari o'z fikrlarini qaytadan xotirasida tiklash imkoniyatiga ega bo'ldi. Metod samarasi fikrlar xilma-xilligi bilan tavsiflandi va xujum davomida ular tanqid qilinmaydi, qaytadan ifodalanmaydi. Aqliy xujum

tugagach, muhimlik jixatiga ko'ra eng yaxshi takliflar generasialanadi va muammoni yechish uchun zarurlari tanlanadi.

«Aqliy xujum» metodi o'qituvchi tomonidan qo'yilgan maqsadga qarab amalga oshiriladi:

1. Talabalarning boshlang'ich bilimlarini aniqlash maqsad qilib qo'yilganda, bu metod darsning mavzuga kirish qismida amalga oshiriladi.
2. Mavzuni takrorlash yoki bir mavzuni keyingi mavzu bilan bog'lash maqsad qilib qo'yilganda - yangi mavzuga o'tish qismida amalga oshiriladi.
3. O'tilgan mavzuni mustahkamlash maqsad qilib qo'yilganda - mavzudan so'ng, darsning mustahkamlash qismida amalga oshiriladi.


«Aqliy xujum» metodining afzallik tomonlari:

- natijalar baholanmasligi talabalarni turli fikr-g'oyalarning shakllanishiga olib keladi;
- talabalarning barchasi ishtirok etadi;
- fikr-g'oyalar vizuallashtirilib boriladi;
- talabalarning boshlang'ich bilimlarini tekshirib ko'rish imkoniyati mavjud;
- talabalarda mavzuga qiziqish uyg'otish mumkin.

«Aqliy xujum» metodining kamchilik tomonlari:

- o'qituvchi tomonidan savolni to'g'ri qo'ya olmaslik;
- o'qituvchidan yuqori darajada eshitish qobiliyatining talab etilishi.

«Aqliy xujum» metodining tarkibiy tuzilmasi



«Aqliy xujum» metodining bosqichlari:

1. Talabalarga savol tashlanadi va ularga shu savol bo'yicha o'z javoblarini (fikir, mulohaza) bildirishlarini so'raladi;
2. Talabalar savol bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini bildirishadi;
3. Talabalarning fikr-g'oyalari (magnitafonga, videotasmaga, rangli qog'ozlarga yoki doskaga) to'planadi;
4. Fikr-g'oyalar ma'lum belgilar bo'yicha guruhlanadi;
5. Yuqorida qo'yilgan savolga aniq va to'g'ri javob tanlab olinadi.

«Aqliy xujum» metodini qo'llashdagi asosiy qoidalar:

- a) Bildirilgan fikr-g'oyalar muhokama qilinmaydi va baholanmaydi.
- b) Bildirilgan har qanday fikr-g'oyalar, ular hatto to'g'ri bo'lmasa ham inobatga olinadi.
- v) Bildirilgan fikr-g'oyalarni to'ldirish va yanada kengaytirish mumkin

II. Guruhlarda baxs, munozarani o'tkazish metodlari.

- Munozara olib boruvchi - boshlovchi (o'qituvchi) mavzuni oldindan tanlaydi va ishtirokchilarni taklif etadi.

- Boshlovchi dastlab ishtirokchilarga "aqliy hujum" topshirig'ini beradi va uning qoidalarini tushuntiradi:

- "hujum"dan maqsad - muammo yechimiga oid variantlarni mumkin qadar ko'proq taklif etish;

- o'z aql-idrokingizni markazlashtirishga harakat qiling va diqqatni muammo yechimiga qaratgan holda fikrlar bildiring. Bildirilgan g'oyalar umumiy fikrga zid bo'lsada, hech biri rad etilmaydi;

- boshqa ishtirokchilar g'oyalarini ham rivojlantiring;

- taklif etilganlarni baholashga urunmang, bu ish bilan siz keyinroq shug'ullanasiz.

- Boshlovchi o'ziga yordamchi saylaydi va u yuzaga kelgan barcha g'oyalarni yozib boradi. Muhokama vaqtida so'zga chiquvchilar tartibi o'rnatiladi, munozaraga barcha ishtirokchilar jalb etiladi va ularga o'z fikrlarini ifodalash uchun imkoniyatlar beriladi. Agar biror bir kishi tomonidan "aqliy hujum"ni o'tkazish qoidalari buzilsa, boshlovchi zudlik bilan muhokamaga aralashadi. Birinchi bosqich yangi g'oyalar paydo bo'lguncha davom etaveradi.

- Boshlovchi ishtirokchilarning tanqidiy tafakkuri "charxlanishi" uchun qisqacha tanaffus e'lon qiladi. Keyin ikkinchi bosqich boshlanadi. "Aqliy hujum" ishtirokchilari guruhlanadi va birinchi bosqichda bildirgan g'oyalarini mustahkamlaydilar. G'oyalar guruh bo'yicha birlashtirilib, mualliflar ularni tahlil qilishga kirishdilar va natijada o'rta qo'yilgan muammoning yechimiga tegishli bo'lgan fikrlargina ajratib olinadi.

Boshlovchi munozaraga yakun yasaydi.

Agar guruhda u yoki bu mavzu bo'yicha tortishuvlar vujudga kelsa bu metod yordamida muammoning yechimini topish mumkin. Undan ko'pincha darsning kirish qismida foydalanishadi va o'tilayotgan mavzuni o'rganishga turli xil yondashuvlar mavjudligi namoyish etiladi. Bu bir tomondan. Ikkinchidan, o'quvchilarga o'z fikrini

bayon qilishga, muloqot ko'nikmalarini qaytadan tuzatishga imkoniyatlar mavjud bo'ladi. Uchinchidan, dars so'ngida o'qituvchi tomonidan mavzuni o'zlashtirish darajasini baholash aniq amalga oshiriladi.

“ Fikrga munosabatingiz bo'yicha o'z o'ringizni toping” mashqi.

1. O'quv xonasining qarama-qarshi burchaklariga uchta qog'oz osiladi. Ularning biriga “HA”, boshqasiga “YO'Q” degan so'zlar, uchinchisiga

“ ? ” belgisi yozilishi kerak. Plakatlarda ba'zi bir mavzuga oid savollar bo'yicha bildirilgan qarama-qarshi fikrlar ham yozilish mumkin. Masalan: “anjir gullaydi va meva tugadi”, yoki “anjir gullamasdan meva tugadi”.

2. Darsni tashkil etish qoidalari muhokama qilinadi.

3. Qaralayotgan muammo yuzasidan o'z fikrlariga mos keladigan yozuv yoniga borish zarurligi talabalarga taklif etiladi.

4. Bo'lingan talabalardan o'z qarashlarini asoslash so'raladi. Bu paytda bir guruhdan ikkinchi guruhga o'tish ruxsat etiladi va shu tariqa guruh talabalarining hammasi jalb etiladi.

5. Muammo bo'yicha fikrlar bildirilgach, talabalar ichida munozara davomida o'z nuqtai nazarini o'zgartirganlar va boshqa guruhga o'tuvchilar bo'lishi mumkin. Bunday hollarda ular o'z o'rnini o'zgartirish sabablarini asoslashi kerak bo'ladi.

6. Ishtirokchilardan opponentlari ichida muammo yuzasidan eng ishonchli fikr aytgan talabalarni aniqlash so'raladi.

III. Kichik guruhlarda ishlash metodi

Kichik guruhlarda ishlash talabalarining darsda faolligini ta'minlaydi, har biri uchun munozarada qatnashish huquqini beradi, bir-biridan auditoriyada o'rganishga imkoni tug'iladi, boshqalar fikrini qadrlashga o'rgatadi.

Qo'llanish usuli.

1. Faoliyatni tanlash. Mavzuga oid muammo Shunday tanlanadiki, natijada talabalar uni o'rganish (bajarish) uchun ijodiy faoliyat ko'rsatishlari zarur bo'ladi va vazifalar belgilab olinadi.

2. Zaruriy asos yaratish. Talabalar kichik guruh ishida qatnashishlari uchun tanlangan faoliyat bo'yicha ba'zi bilim, ko'nikma va malakalarni oldindan egallagan bo'lishlari kerak.

3. Guruhni shakllantirish. Odatda xar bir guruhda 3-5 talaba bo'ladi (ehtimol, kam yoki ko'p bo'lishi mumkin). Agar guruhda ishlash u yoki bu yozma xujjat tayyorlashni talab etsa, yaxshisi 2-3 kishili guruh tuzilgani ma'qul. Guruh o'lchovi masalaning muhimligi, auditoriyadagi talabalar soni, talabalarining bir-biri bilan konstruktiv holatda o'zaro harakatiga bog'liq holda o'zgaradi. Eng yaxshisi, “getrogen” guruh tashkil etishidir (jinsi, o'zlashtirish darajasi va boshqa belgilar asosida). Guruhda ishlash talabalar o'rtasida vazifalarni aniq taqsimlashga tayanadi (misol uchun, bir talaba munozarani boshqaradi, ikkinchisi yozib boradi, uchinchisi spiker (sardor) rolini o'taydi va hokazo). Auditoriyani guruhlarga ajratish, xoxish bo'yicha yoki hisob bo'yicha amalga oshiriladi.

4. Aniq yo'l-yo'riqlar ko'rsatish. Talabalarga faoliyatni bajarish bo'yicha aniq va xajm jixatdan ko'p bo'lmagan tushuntirish beriladi. O'qituvchi guruhlarining

ishlash tezligi turlicha bo'lishini inobatga olgan holda vaqt chegarasini aytadi. Guruhlar kerakli materiallar va axborotlar bilan ta'minlanadi. Talabalar guruhda ishini boshlashlari uchun vazifalarini aniq tushunib yetganligi tekshirib ko'riladi.

5. Qo'llab quvvatlash va yo'naltirish. O'qituvchi zarurat tug'lsa guruhlar yoniga navbatma-navbat kelib to'g'ri yo'nalishda ishlayotganligini qayd etadi yoki ularga yordam beradi, guruhlariga ta'zviq o'tkazilmaydi.

6. Muhokama qilish va baholash. Guruhlarda ish yakunlangach, ular natijalari bo'yicha axborot beradilar. Buning uchun xar bir guruh o'z sardorini belgilaydi. Zarurat tug'lsa, faoliyat natijalari bo'yicha bildirilgan fikrlar o'qituvchi tomonidan yozilib boriladi. Muhimi, guruhning yechimining asoslanishini aniqlashtirib olishdi. Agar vaqt yetarlicha bo'lsa, u yoki bu fikrni argumentlashda guruhlar bir-biriga savol ham berishlari mumkin. Kichik guruhlarda ishlash natijalari o'qituvchi tomonidan baholanadi. Bunda faoliyatni to'g'ri va aniq bajarish, vaqt sarfi asosiy mezon hisoblanadi.

Ushbu metod qo'llanilganda talaba kichik guruhlarda ishlab, darsda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rolida bo'lishga, bir-biridan o'rganishga va turli nuqtai nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo'ladi.

Kichik guruhlarda ishlash metodi qo'llanilganda o'qituvchi boshqa noan'anaviy metodlarga qaraganda vaqtning tejash imkoniyatiga ega bo'ladi. Chunki o'qituvchi bir vaqtning o'zida barcha talabalarni mavzuga jalb eta oladi va baholay oladi.

Kichik guruhlarda ishlash» metodining afzalligi:

- o'qitish mazmunini yaxshi o'zlashtirishga olib keladi;
- muloqotga kirishish ko'nikmasining takomillashishiga olib keladi;
- vaqtning tejash imkoniyati mavjud;
- barcha talabalar jalb etiladi;
- o'z-o'zini va guruhlararo baholash imkoniyati mavjud bo'ladi.

«Kichik guruhlarda ishlash» metodining kamchiliklari:

- kuchsiz talabalar bo'lganligi sababli kuchli talabalarning ham past baho olish ehtimoli bor;
- barcha talabalarni nazorat qilish imkoniyati past bo'ladi;
- guruhlararo o'zaro salbiy raqobatlar paydo bo'lib qolishi mumkin.
- guruh ichida o'zaro nizo paydo bo'lishi mumkin.

«Kichik guruhlarda ishlash» metodini qo'llash bosqichlari:

1. Faoliyat yo'nalishi aniqlanadi. Muammodan bir-biriga bog'liq bo'lgan masalalar belgilanadi.
2. Kichik guruhlar belgilanadi. Talabalar guruhlariga 3-5 kishidan bo' - linishlari mumkin.
3. Kichik guruhlar topshiriqni bajarishga kirishadilar.
4. O'qituvchi tomonidan aniq ko'rsatmalar beriladi va o'qituvchi tomonidan yo'naltirib turiladi.
5. Kichik guruhlar taqdimot qiladilar.

6. Bajarilgan topshiriqlar muhokama va tahlil qilinadi.
7. Kichik guruhlar baholanadi.

IY.Rolli va ish o'yinlari metodlari

Mehnat va o'qish bilan bir qatorda o'yin ham inson faoliyatining eng asosiy turlaridan biridir. O'yinning strukturasi o'z ichiga quyidagi bosqichlarni oladi:

- maqsadlarni qo'yish.
- rejalashtirish.
- amalga oshirish (maqsadni).
- natijani tahlil qilish.

O'yinli faoliyatning motivasiyasi eng ixtiyoriyligi, tanlash imkoniyati va musobaqa elementlarining borligi, ehtiyojlarni qondirish, o'zini anglash va o'zini safarbar qilish bilan ta'minlanadi

Rolli o'yin –bu auditoriya oldida uynaladigan kichik saxna asari. Muxim darajada bu improvizasiyadir (tayorgarliksiz ijod etish). Saxna ko'rinishining mazmunini va asosiy fikrlarni belgilab, trener ya'ni seminarni olib boruvchi, unda ishtrok etishga rozi bo'lgan qatnashchilarga vaqt berishi kerak, bu vaqt ichida qatnashchilar gapiradigan matnlarni (aloxida yoki birgalikda) uyulab oladilar. Shundan keyin trener saxna o'yinini boshlash mumkin. Bu xikoya ko'rinishida (xikoyani aytuvchi va asosiy personajlar bilan) yoki biron-bir vaziyatda (u yerda asosiy personajlar uzaro harakat qilishadi, trener va boshqa ishtrokchilar yordamida dialog, suhbat o'ylashlari mumkin) amalga oshirish mumkin. Rolli o'yin qisqa, uzoq davom etmaydigan bo'lsa yaxshi natijalar beradi va keyingi muxokamaga ham vaqt qoladi. Qatnashuvchilar izohlab yoki savollarga javob berishlari mumkin. Ba'zan qatnashchilar, agarda u ishga yordam bersa, fikrlar bildirishni, savollar berishni, xattoki o'yinga kirishishlari uchun imkoniyat bo'lishi zarur.

O'quvchilarning uzlari munozarani olib borish yoki kichik guruhlarda muammolarni xal qilish maqsadida birgalikda ishlab yetakchi rolini xam uynashlari mumkin. Rollarning bunday almashuvi ularga yo'l boshchilik malakalarini egallashga yordam beradi.

Hech kim o'qish doirasidan uchirilmaydi va hamma uz xoxishiga qarab rahbarlik rolini uynash mumkin. O'qitishning Bunday usuli ko'p qatnashchilarga odatiy emas, lekin u ko'proq xamkorlikka yo'naltirilgan va o'qitishning demokratik jarayonining zarur elementi hisoblanadi.

Trener o'quvchilarga o'z fikrlarini tushintirib berishlariga yordam berish maqsadida ularni munozaraga jalb qiladi. Ularning fikrlarini boshqalarniki bilan taqqoslaydi. Munozara davomida trenerdan qatnashchilarga ularni egallagan mavqelaridagi ziddiyatlarni topish va xal qilishda yordam berish talab qilinadi.

O'qish jarayonini qiziqarli va oson tushunadigan bo'lishi uchun qator mashqlar, munozara va o'yinlar bilan ta'minlangan. Bundan tashqari, o'qishning borishida o'rganilayotgan materiallarga tanqidiy munosabatni rivojlantirishga yordam beruvchi analitik savollar va topshiriqlar bor.

O'yin strukturasiga quyidagi jarayonlar kiradi:

- o'yinchilar o'zlariga olgan rollar,
- bu rollarni amalga oshirish vositalari sifatidagi o'yinli omillar,
- predmetlarning o'yinli qo'llanilishi, ya'ni, haqiqiy narsalarni o'yinli shartlari bilan almashtirish,
- O'yinchilar orasidagi real munosabatlar,
- Syujet (mazmun) - o'yinda ko'rsatilayotgan haqiqiy ahvol.

Ko'pchilik o'yinlar uchun quyidagi xususiyatlar xos:

- Faqatgina talabani xohishi bilan amalga oshiriladigan erkin rivojlanuvchi faoliyat. Talaba faqat natijadan emas, balki, o'sha jarayondan zavq oladi.
- Bu faoliyatning ijodiy, ko'proq improvizatsion, faol xarakterligi.
- Faoliyatning ruhiy jihatdan yuqoriligi, raqobat, musobaqalashish (ruhiy zo'riqish).
- Bevosita va bilvosita qoidalarining mavjudligi - ularning o'yinning mazmunini aks ettiradi, uning mantiqiy va vaqt bo'yicha ketma-ketligini aniqlab beradi.

O'yinlar quyidagi funksiyalarni bajaradi:

1. Ijtimoiylashtirish funksiyasi. O'yin talabani ijtimoiy munosabatlar tizimiga qo'shilish uchun kuchli vositadir.
2. Millatlararo kommunikatsiya funksiyasi. O'yin talabaga umuminsoniy qadriyatlar, boshqa millatlarning madaniyatini o'zlashtirish imkonini beradi. Chunki o'yinlar milliy va shu bilan bir vaqtda internasional va millatlararo.
3. O'yinda talabani o'zini namoyon qilish funksiyasi, ya'ni o'yin inson amaliyotining paligoni sifatida.
4. Kommunikativlik funksiyasi.
5. Diagnostik funksiyasi.

O'yin pedagogga talabalarga turli xil qobiliyatlarni (aqliy, ruhiy va ijodiy va h.k.) aniqlashga yordam beradi.

6. O'yinning terapevtik funksiyasi. U talabaniing hulqida, muammosida va o'qishda paydo bo'ladigan turli xildagi qiyinchiliklarni yengish vositasi sifatida foydalanishda namoyon bo'ladi.
7. Tuzatish (korreksiya) funksiyasi. Talabaniing shaxsiy strukturasini ko'rsatkichlari ijobiy o'zgarishlar qo'shimchalari kiritish.
8. Kungilochar funksiyasi.

Iqtisodiy fanlarni o'qitish jarayonida ishbilarmonlik o'yinlarining turli modifikatsiyalaridan foydalaniladi:

- Immitatsion o'yinlar - mashg'ulotlarda birorta tashkilot, korxona yoki bo'limlarning faoliyatlari immitatsiya qilinadi.
- Operatsion o'yinlar - u aniq maxsus amallarni bajarishni mashq qilishga yordam beradi. Bu turdagi o'yinlar haqiqiy holatni immitatsiya qilingan sharoitlarda olib boriladi.

- Rollarni bajarish o'yini - bunday o'yinlarda o'zini tutish taktikasi, birorta shaxsning vazifa va majburiyatlarini bajarish o'quvlari shakllanadi.

Psixodrama va sosiodrama - bu xuddi teatrga o'xshaydi, faqatgina ijtimoiy psixologik, Bunda vaziyatni his qilish, boshqa insonlarni baholash o'quvlari shakllanadi.

Mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar:

Iqtisodiy fanlarni o'qitishda yuqorida ko'rib o'tilgan interfaol uslub yoki pedagogik texnologiyani amalda qo'llash bo'yicha taqdimot tayyorlash va shu mavzu bo'yicha amaliy mashg'ulotda amalda namoyish etish. Bu guruhliy loyihaviy ish bo'lib, guruhdagi talabalar 4-5 kishidan iborat kichik guruhlariga bo'linib, ular biror iqtisodiy fan yo'nalishini va ushbu fan bo'yicha mavzuni, mavzu, mashg'ulot xususiyatlaridan kelib chiqib, interfaol uslub yoki yangi pedagogik texnologiya tanlashlari va uni qo'llash bo'yicha o'quv didaktik material va ishlanmalarni o'qituvchi bilan maslahatlashgan holda tayyorlashlari lozim. O'qituvchilar, interfaol usullar va pedtexnologiyalar kichik guruhlarda bo'lishini ta'minlashga intilishlari zarur

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. Yuksak malakali mutaxassislar taraqqiyot omili. – T.: «O'zbekiston», 1995.
2. Bepalko V.P. Osnovi teorii pedagogicheskix sistem. – Voronej, 1977.
3. Ziyomuhammadov., Abdullayeva Sh. Ilg'or pedagogik texnologiya: Nazariya va amaliyot «Ma'naviyat asoslari» darsi asosida ishlangan uslubiyo qo'llanma. - T.: «Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti», 2001.
4. Iskandarov E.A., Godfri Ye., Nazarov P. Uzluksiz ta'lim bo'yicha xorij tajribasi. Samarqand, 2004
5. Ishmuhamedov R.J. Innovasion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. – T.: TDPU, 2004.
6. Klarin V.M. Pedagogicheskaya texnologiya v uchebnom prosesse. – M.: «Znaniye», 1989.
7. Larner I.Ya. Vnimanie o texnologii obucheniya. – M.: «Pedagogika», 1990.
8. Musurmonova O., Baubekova Z.D. O'zbek xalq pedagogikasi. T., 2000.
9. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. - Qarshi.: «Nasaf», 2000.
10. Og'ayev S. Yangi pedagogik tenologiya-hayotiy ehtiyoj. – Xalq ta'limi jurnali, 2001, №3, 69-71 betlar.
11. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – T.: «Moliya», 2003.
12. Farberman B.L. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. – T.: «Fan», 2000.

Pedagogika kursi bo'yicha amaliy mashg'ulotlar

1–mavzu: Pedagogika fanining predmeti va vazifalari. Pedagogikaning ilmiy tadqiqot usullari.

Reja:

1. Pedagogika so'zini eshitganingizda fikringizga qanday so'zlar, iboralar keladi. (Aqliy xujum) 5daqqa
2. Shaxsning shakllanishida ta'lim va tarbiyaning ahamiyati haqida fikrlar munozarasi (3x4 pedagogik texnologiyasi asosida) -25 daqiqa
3. "Pedagogika" faniga aloqador termin va tushunchalar . ("Klaster" pedagogik texnologiya asosida) . 25 daqiqa
4. Pedagogikaning ilmiy tadqiqot usullari. (Kichik guruhlarda ishlash metodi yordamida). 25 daqiqa

Mashg'ulot uchun zaruriy uslubiy tavsiyalar va o'quv didaktik tarqatma materiallar

1. Pedagogika so'zini eshitganingizda fikringizga qanday so'zlar, iboralar keladi. Bunda biz aqliy xujum usulini qo'llaymiz. Aqliy xujum - g'oyalarni generatsiya (ishlab chiqish) qilish usulidir. «Aqliy xujum» usuli biror muammoni yechishda talabalar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to'plab, ular orqali ma'lum bir yechimga kelinadigan eng samarali usuldir. Aqliy xujum usulining yozma va og'zaki shakllari mavjud. "Aqliy xujum" ishtirokchilari oldiga qo'yilgan muammo bo'yicha xar qanday muloxaza va takliflarni bildirishlari mumkin. Aytilgan fikrlar yozib boriladi va ularning mualliflari o'z fikrlarini qaytadan xotirasida tiklash imkoniyatiga ega bo'ladi. Usul samarasi fikrlar xilma-xilligi bilan tavsiflandi va xujum davomida ular tanqid qilinmaydi, qaytadan ifodalanmaydi. Aqliy xujum tugagach, muhimlik jihatiga ko'ra eng yaxshi takliflar generatsiyalanadi va muammoni yechish uchun zarurlari tanlanadi.

2. Shaxsning shakllanishida talim va tarbiyaning ahamiyati haqida fikrlar munozarasi (3x4 pedagogik texnologiya asosida). Bu texnologiyani tashkil etish uchun guruh 4ta kichik guruhlariga bo'linadi. Har bir guruh uchun bir varaq qog'oz olinib, uning yuqori qismiga «Individ – shaxs –individuallik» so'zlariga tushuncha berish va o'rtasidagi farqi haqida 3 tadan guruh fikrini yozishini hamda, bu fikrlar yozilgan qog'ozni (soat strelkasi yo'nalishi bo'yicha) keyingi guruhlariga uzatish taklif etiladi. Keyingi guruh esa yana bu haqda uchta fikr bilan to'ldirishi va keyingi guruhga uzatishi lozim. Shu tarzda davom etib, har bir qog'ozda 12 tadan fikrlar mujassam bo'lgach, guruhlar bu fikrlarni tahlil etib, guruhning bir umumlashtirilgan fikrini bildirishlari talab etiladi.

3. "Klaster" pedagogik texnologiyani o'tkazish uchun guruh kichik guruhlariga bo'linib, "Pedagogika" faniga aloqador termin va tushunchalar kiritiladi. O'qituvchi boshlab beradi. Masalan ushbu tarzda:

Pedagogika aloqador fanlar bilan	Pedagogika nimanı urganadi?	Pedagogikaning asosiy tushunchalari
Psixologiya Iqtisodiyot Falsafa Sosiologiya Tarix Etika Estetika	Inson shaxsini Pedagog faoliyatini Jamoalarni Xulq atvorni Uzaro munosabatni Ta'lim metodlarini Ta'lim texnologiyalarini	Ta'lim Tarbiya Bilim Ma'lumot Pedagog O'quvchi Komil inson

Pedagogika fanining sohalari bo'yicha klaster tuzish barcha talabalarga taklif etiladi.

4. Pedagogikaning ilmiy tadqiqot o'rganish usullari. Kichik guruhlarda ishlash uchun guruh 6 ta kichik guruhga bo'linadi va ularga quyidagi tarqatma materiallar berilib, ushbu masalalar bo'yicha taqdimotlar tayyorlash topshiriladi. Barcha guruhlar uchun tarqatma material.

Pedagogikaning asosiy usullari

ASOSIY USULLAR	Asosiy usullarning variantlari
Pedagogik kuzatish usuli.	Tashqi (obyektiv kuzatish) Ichki (subyektiv, o'z-o'zini kuzatish) Erkin kuzatuv Standartlashtirilgan Guruh ichida kuzatish Guruh tashqarisida kuzatish
Suhbat usuli	Og'zaki so'rov Yozma so'rov Erkin so'rov (suhbat) Standartlashtirilgan so'rov Sosiometrik so'rov
Surovnoma test usuli.	Test – so'rov Test - topshiriq Proyektiv test
Eksperiment, tajriba, sinov usuli.	Tabiiy. Laboratoriya. Shakllantiruvchi
Statistik ma'lumotlarni kuzatish usuli.	Raqamlar, mablag'lar
Matematika – kibernetika usuli.	Matematik modellashtirish Mantiqiy modellashtirish Texnik modellashtirish Kibernetik modellashtirish

Jadvalda keltirilgan usullar yordamida tadqiqotchi yoki qiziqgan shaxs u yoki bu usullar to'g'risida birlamchi ma'lumotlar to'playdi, to'plangan ma'lumot yana tahlil qilinadi va maxsus tarzda ishlatilishi mumkin.

1 – guruh uchun tarqatma material.

Pedagogik kuzatish — odatda tabiiy kuzatish orqali talabalarning fanlarni o'zlashtirishlari, ularning xulq-atvori va muomalalaridagi o'zgarishlarni hisobga olish va tegishli ta'limiy-tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish yo'llarini belgilash uchun qo'llaniladi. Bu metod tadqiqotchining pedagogik tajribaning muayyan bir tomoni va hodisalarini biror maqsadni ko'zda tutib idrok etish tashkil etadi. Bunda kuzatishlar tezligi va soni, ko'zlash obyekti, vaqti, pedagogik vaziyatlarni ko'zlash uchun ajratiladigan xarakteristika va hokazolar hisobga olinadi.

Qayd qilish usuliga qarab ko'zlash turlarga bo'linadi. Bevosita va bilvosita qayd qilish usuli tadqiqotchiga real pedagogik jarayon kuzatuvchilarning xatti-harakatlari va hokozolarni yozib qo'yish imkonini beradi. Qayd qilish usuli biror-bir hodisaning oqibatlari haqidagi faktik materialni boshqa shaxslar orqali yoki qandaydir asbobni qo'llash vositasida olishga imkon beradi. Ilmiy-texnika taraqqiyoti asrida kuzatishning vizual usullari xilma-xil texnika vositalari (kinofotos'yomka, videozapis, televideniye va h.z.)ni qo'llash bilan tobora ko'p qullanilmoqda.

2 – guruh uchun tarqatma material.

Suhbat usuli — so'rashning bir turi bo'lgani holda, tadqiqotchining jiddiy tayyorgarlik ko'rishini talab etadi, Chunki u tekshirayotgan shaxs bilan bevosita aloqada bo'lish vaqtida og'zaki suhbat tarzida, suhbatdoshining javoblarini yozmasdan erkin muomala formasida qo'llaniladi.

Suhbat usulida — pedagog va talabalar jamoasi bilan ota-onalar va keng jamoatchilik bilan, yakka va guruhli tartibda ish olib borilganda qo'llaniladi. Suhbat usulidan farq qilib, intervyu olish usuli savollarni oldindan belgilangan ishchilikda intervyu yo'li bilan bayon qilinishi nazarda tutadi. Bunda javoblar magnit tasmasiga yoki kassetalarga yozib olinadi. Hozirgi kunda ommaviy so'rash nazariyasi va praktikasida intervyu tashkil etishning ko'p usullari mavjud:

guruhlar bilan;

intensiv;

sinash va h.k.

3 – guruh uchun tarqatma material.

Test, so'rovnoma - bu so'rovnoma, ya'ni anketa usuli qo'llanganda yaratilgan ilmiy farazning yangiligini bilish, aniqlash, talabalarning yakka yoki guruhli fikrlarini, qarashlarini, qanday kasblarga qiziqishlarini, kelajak orzu-istaklarini bilish va tegishli xulosalar chiqarish, tavsiyalar berish maqsadida o'tkaziladi. Test savollaridan ko'zlangan maqsad oz vaqt ichida talabalarning bilimlarini yoppasiga baholashdir.

Mutaxassislarining bilimini va saviyasini aniqlash uslublaridan biri - bu test yordamidagi sinovdir.

Test yordamida sinov talaba yoki mutaxassisning bilimi, ilmi, ma'naviyati hamda yoshlarning qaysi yo'nalish va mutaxassislikka layoqati, iqtidorini zudlik

bilan aniqlash yoki baholashga imkon beradi. Test yordamida bilimni baholashning pedagogika nuqtai nazaridan ba'zi bir yutuqlari va kamchiliklarda keltirilgan va baholash jarayonini EHM yordamida avtomatlashtirish mumkinligi ta'kidlangan. Test savollari va masalalarining jozibadorligi sabab, uning qisqa va lundaligi, to'g'ri javobni umumiy javoblar ichida borligi va ularning talabalarga ko'rsatma bo'lib xizmat qilishi, uning topishmoqli o'yinga o'xshashligi va javobni topishda xotira, intuisiya va topqirliklar qo'l keladi. Test savollarini chop etish talabalarning mustaqil ishlashini yanada faollashtiradi.

Test sinovini oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlariga kirish imtihonlarida qo'llash quyidagi qator natijalar berdi.

Imtihon oluvchi bilan imtihon topshiruvchi orasidagi subyektiv sabablar va psixologik tusiqlar yo'qoladi. Barcha abituriyentlarga beriladigan imtixon sharoitlari, vaqti, variantlarning murakkablik darajasi, baholash kriteriylari deyarli bir xil bo'lishiga ershiladi.

Test natijalarini EHM yordamida avtomatlashtirilgan holda ishlab chiqish amalga oshirildi, talabalarning qaysi fandan va uning qaysi bo'limidan bilimlarining past yoki yuqoriligini baholash va uning respublikamiz regionlari, xatto ayrim maktab-liseylar bo'yicha tahlil qilish imkoniyati yaratildi.

Iqtidorli yoshlarni tanlash, olimpiadalar o'tkazish jarayonlarini sezilarli darajada yaxshilashga olib keldi.

Oliy o'quv yurtiga kiruvchilar uchun test sinovi atigi 3 ta fandan bo'lib, albatta bu yetarli emas. Ular bir necha fandan va bir necha bosqichdan iborat bo'lishi kerak. Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlariga kiruvchi yoshlarning nutqi, til bo'yicha savodligini nazorat qiluvchi yoshlarning faqat testlarni mexanik ravishda yodlash va tilga, boshqa fanlarga e'tiborsizligiga barham berilishi mumkin.

Test sinovlar usuli - bu yozma javoblarning ommaviy ravishda yig'ib olish usulidir. Test sinovlarini (anketalarini) ishlab chiqish murakkab ilmiy jarayon. pirovard natijada tadqiqot natijalarining ishonchliligi anketalar mazmuniga berilayotgan savollar shaqdiga, to'ldirilgan anketalar soniga bog'liq bo'ladi. Odatda test savollarining ma'lumotlarini kompyuterda matematik statistika usullari bilan ishlashga imkon beradigan qilib tuziladi.

4 – guruh uchun tarqatma material.

Eksperiment usuli. Pedagogika fanining asosiy usullaridan biri bulib, ma'lum ilmiy va pedagogik taxminlarni tajriba asosida tekshirib kurish uchun o'tkaziladi. Pedagogik eksperiment tadqiqotchining urganilayotgan faoliyat yoki sinash vaziyatiga faol aralashuvi mumkinligini nazarda tutadi. Tadqiqotchi psixologik fakt aniq namoyon bo'lishiga, uning eksperimentchi xoxlagan yo'nalish bo'yicha uzgartirilishiga, har jixatdan tadqiq qilish uchun bir necha marta takrorlanishiga imkon beradigan shart sharoit yaratadi.

Eksperiment usulining uchta turi mavjud: Laboratoriya, tabiiy va shakllantiruvchi (pedagogik) eksperiment. Shulardan keyingi ikkitasi o'qituvchilar tomonidan keng qullanilishi mumkin. Laboratoriya eksperimenti so'n'iy sharoitda, maxsus asbob-uskunalar yordamida o'tkazilsa, tabiiy eksperiment o'quvchilar uchun tabiiy bo'lgan o'yin, o'qish, mehnat vaziyatlarida o'tkaziladi va o'quvchilar uzlarining ustida sinash o'tkazilayotganligini bilishmaydi.

Uzoq muddatga esda qoldirish samaradorligi talabalarga beriladigan ko'rsatmaga bog'liqligini tadqiq qilish tabiiy eksperimentga misol bo'la oladi.

Talabalardan bir guruhiga 15 tadan iborat tasodifiy so'zlar yoki sonlar qatori yodlash uchun taqdim qilinadi. Talabalarga ushbu material ertaga suralishi tug'risida ko'rsatma beriladi. Boshqa bir guruhda shu so'zlar yoki sonlar qatorini yodlash suraladi. Lekin bu talabalar guruhiga material qanday yodlanganligini bir xaftadan keyin tekshirilish tug'risida ko'rsatma beriladi. Xaqiqatda esa har ikkala guruh talabalaridan esda olib qolingani material ikki xaftadan keyin suraladi.

Tajriba natijalari solishtirib tabiiy eksperiment orqali talabalarga eslab qolish uchun beriladigan ko'rsatma mazmunining ahamiyati xaqida xulosaga kelinadi.

Shakllantiruvchi (pedagogik) eksperiment ma'lum bir shaxs xususiyatini shakllantirishga yoki uzgartirishga yo'nalgan bo'ladi. Bunday eksperimentga A. I. Lipkina tomonidan qullanilgan usulni misol sifatida keltirish mumkin. Ba'zan talabaning yaxshi uzlashtirmasligining sababi, talaba o'zini o'qishga nisbattan qobiliyatini past baxolash mumkin. Bunday talabalar «Men bari bir yaxshi o'qiy olmayman» deb yaxshi o'qishga harakat qilmaydi. Ularning uzlashtirish darajasini yaxshilash uchun o'zlariga bergan baxosini uzgartirish lozim. Shu maqsadda, ya'ni o'z-o'ziga bergan baxosining darajasini oshirish uchun o'qituvchi quyidagigicha pedagogik tadbir qullashi lozim. O'qituvchi bunday talabadan kuyi guruhdan bir nechta «qoloq» uzlashtirishi past talabalarga «O'qituvchilik» qilishni iltimos qiladi.

O'qituvchi kuyi guruhlariga utiladigan materialni talaba bilishini, takrorlasa yanada yaxshi tushunib olishi mumkinligini uqtirib, har bir darsdan oldin uzlashtirishda qiynalayotgan talabalarga qanday dars berish tug'risida kerakli ko'rsatmalar berib boradi. Har bir darsdan keyin o'quvchining muvaffaqiyat va yutuqlarini ko'rsatib maqtaydi xamda minatdorchilik bildirib boradi.

Uzlashtirishda qiynalayotgan kuyi guruh talabalar bilan muntazam mashgulotlar jarayonida «O'qituvchi» rolini bajarayotgan talaba asta-sekin oldingi o'quv materialini uzlashtirish bilan birga, o'zining yangi o'quv materiallarini uzlashtira olish qobiliyatiga ishonch shakllana boradi. Natijada o'qish qobiliyatiga nisbattan o'z-o'ziga bergan baxosining darajasi orta boradi.

Eksperiment usulining avzalligi shundaki bu uslub orqali nafaqat psixologik faktlarni tushuntirish, balki sabablarini, mexanizm va qonuniyatlarini tajriba asosida aniqlash, mavjud taxminlarning tug'ri yoki notug'riligini tasdiqlash, yangi ta'lim tarbiya shakllarining, uslublarining samaradorligini sinab kurish mumkin.

5– guruh uchun tarqatma material.

Statistika ma'lumotlarini tahlil qilish usuli - xalq ta'limi sohasidagi, jumladan, ajratilgan mablag'larning doimiy o'sib borishi, darslik va o'quv qo'llanmalari, ko'rgazmali qurollar, o'qituvchi kadrlar tayyorlash, xo'jalik shartnomalari va ulardan to'shayotgan mablag'lar statistika usuli orqali aniqlanadi.

Masalan: ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash samaradorligi haqida to'xtaladigan bo'lsak, M.Ulug'bek nomidagi O'zMUda aspiranturaga universitetni muvaffaqiyatli tamomlagan, ilmiy-tadqiqot ishlariga qiziquvchan tadqiqotchilar, izlanuvchan mavzulari aniq bo'lgan, nomzodlik imtihonlarini topshirganlar qabul qilinadi. Bundan tashqari, boshqa muassasalarda va oliy o'quv yurtlarida ishlaydigan,

kafedra va dekanatlar bilan bevosita aloqada bo'lgan "Xalq so'zi" gazetasida chiqqan e'lon bo'yicha konkursda qatnashish niyatida bo'lganlardan ham arizalar to'shadi.

6– guruh uchun tarqatma material.

Sosiologik tadqiqot usuli — bu uslub orqali yoshlarning kasb-hunarga bo'lgan munosabatlarini aniqlash, talabalar orasidagi do'stlik munosabatlarini, yutuq va kamchiliklarni, yoshlar orasidagi munosabatlarni, dinga, xususan tasavvufga bo'lgan qiziqishlarini aniqlash mumkin. Sosiologik tadqiqotlarda kishilarning ma'naviy sifatlar darajasi, bilim olishga ishtiyoqi, adabiyotlar bilan ta'minlanganlik darajasi, o'quv taqsimoti, professor-o'qituvchilarning o'qitish darajasi, o'quv qo'llanmalarining sifati, kompyuter bilan mashg'ulot o'tkazish turlarini o'rganish oliygohda qo'llanilayotgan testlar talabalar nazarida, ilmiy va kasbiy mahoratini oshirishdagi mashg'ulotlar turi, stipendiyalar miqdori, stipendiyalar talabalarning harajatini qanchalik qoplaydi, haq to'lanadigan ishlarda talabalar qatnashdimi, ota-onalarining moddiy yordami, ularning ma'lumoti, ish joyi, talabalarning ko'p shug'ullanadigan jamoat joyi, yashash joyi, ilmiy dunyoqarashining shakllanishida ta'sir etuvchi omillar, mutaxassis bo'lib yetishida hal qiluvchi omillar, talabalarning ongliklik darajasi jarayoni, komil inson bo'lish uchun kerakli bo'lgan ma'naviy sifatlar, komillikka erishish uchun tezroq qurilish kerak bo'lgan salbiy sifatlar, "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" va ta'lim haqidagi Qonunning mohiyati va mazmuni haqidagi talabalarning fikrlari, "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida" kitobiga munosabati, o'zlashtirganlik darajasi haqidagi savollar anketaga kiritiladi. Savol-javoblarning barchasi kompyuterda qayta ishlanadi va xulosalar chiqariladi.

2– mavzu: Pedagogikaning asosiy tushunchalari.

Reja:

1. Ta'lim, tarbiya, ma'lumot, insonning kamoloti so'zlarini eshitganingizda fikringizga qanday suzlar iboralar keladi (Aqliy xujum). 10 daqiqa
2. Insonning rivojlanishi va tarbiyaviy munosabatlar haqidagi fikrlar munozarasi (3x4 pedagogik texnologiya asosida) 25 daqiqa
3. Pedagogikada asosiy tushunchalar va ularga ta'rif berish (Kichik guruhlarda ishlash usuli orqali) 40 daqiqa
4. Darsga yakun yasash 5 daqiqa

Mashg'ulot uchun zaruriy uslubiy tavsiyalar va o'quv didaktik tarqatma materiallar

1. Ta'lim, tarbiya, ma'lumot, insonning kamoloti so'zlarini eshitganingizda fikringizga qanday so'zlar iboralar keladi (Aqliy xujum)
2. Insonning rivojlanishi va tarbiyaviy munosabatlar haqidagi fikrlar munozarasi. 3x4 pedagogik texnologiyani tashkil etish uchun guruh 4ta kichik guruhlariga bo'linadi. Har bir guruh uchun bir varaq qog'oz olinib, uning yuqori qismiga insoniy rivojlanish va tarbiyaviy munosabatlar o'rtasidagi farqi haqida 3 tadan guruh fikrini yozishini hamda, bu fikrlar yozilgan qog'ozni (soat strelkasi yo'nalishi bo'yicha) keyingi guruhlariga uzatish taklif etiladi. Keyingi guruh esa yana bu haqda uchta fikr bilan to'ldirishi va keyingi guruhga uzatishi lozim. Shu tarzda davom etib, har bir qog'ozda 12 tadan fikrlar mujassam bo'lgach, guruhlar bu fikrlarni tahlil etib, guruhning bir umumlashtirilgan fikrini bildirishlari talab etiladi.

3. Pedagogikaning asosiy tushunchalari. Kichik guruhlarda ishlash uchun guruh 3 ta kichik guruhga bo'linadi va ularga quyidagi tarqatma materiallar berilib, Ushbu masalalar bo'yicha taqdimotlar tayyorlash topshiriladi. Takdimot tayyorlash uchun 20 daqiqa va har bir guruh taqdimoti uchun 5 daqiqadan taqdimotlar muhokamasi uchun 5 daqiqa ajratiladi.

1– guruh uchun tarqatma material.

Tarbiya - insonlar rivojlanishida asosiy rol o'ynaydigan jarayon bo'lib, bir avlodning ijtimoiy tajribasini keyingi avlodlar tomonidan o'zlashtirishlarini va ularning ijtimoiy hayotga qo'shilishlarini ta'minlab beruvchi zaruriy faoliyatdir.

Tarbiya-inson tarbiyalanganligining me'zoni sifatida shaxsiy xislatlarning shakllantirish bilan bog'liq holda tarixan shakllanib kelgan pedagogik tushuncha. Uning yordamida insonning rivojlanishiga tashqi muhitni ta'sirini fan va amaliyot isbotlab beradi. Inson butun umri davomida hayotda kimnidir tajribasiga tayanadi hamda unga asosan o'zining ko'nikma va ma'lakalarini shakllantirib boradi. U faqat o'tmish me'rosxo'ri sifatida ijtimoiy hayotga qo'shib boradi va kelajak uchun tayyorlanadi.

Rivojlanib borayotgan avlodni katta yoshdagilar tajribasini egallab borish jarayoni tarbiyaviy jarayon bo'lib, u insonlar rivojlanishini boshqarish hamda ularni shaxsiy xislatlarini shakllanishiga zarur sharoitlar yaratib beradi. Ayrim xollarda tarbiya bilan rivojlanish o'rtasida o'zaro bog'liqlik yo'q deb tuyuladi, aslida ular o'rtasida bog'liqlik juda murakkab va ahamiyatlidir. Inson shaxsi tarbiya jarayonida rivojlanib boradi, rivojlanish darajasi uning tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi ya'ni o'zgartiradi, shakllantiradi. Yaxshi tashkil etilgan tarbiya shaxsning rivojlanish darajasini tezlashtiradi va yana qayta tarbiyaga ta'sir ko'rsatadi. Shu tarzda insonning butun hayoti davomida bu ta'sir va aks ta'sirlar o'zaro bir-birini tuldirib, ta'minlab boradi.

«Tarbiya» atamasidan ko'pgina pedagogik atamalar kelib chiqqan; tarbiyachi, tarbiyalanuvchi, tarbiyalangan, tarbiyalanganlik, tarbiyaviy va xokazo. Bularning barchasini manbasi va ma'nosi bitta. Tarbiyachi-inson, avlodlar tajribasini egallashlari uchun majburiy yoki zaruriy ta'minotchi. Tarbiyalanuvchi-tajribalarni egallaydigan va o'rganadigan shaxs.

Tarbiyalangan (tarbiya kurgan) - tajribalarni yaxshi egallagan va unumli foydalanuvchi. Tarbiyalanganlik - shaxsning sifat ko'rsatgichi, tajribalarni yaxshi o'zlashtirganligi, tarbiyaviy-rivojlantirish maqsadida yo'naltirilganlik. Masalan, tarbiyaviy aloqalar, tarbiyaviy jarayon, tarbiyaviy tizim, tarbiyaviy ishlar va tadbirlar.

Hayotda «tarbiya» juda keng qo'llaniladi. Tajriba o'rgatish, tarbiyalash ommaviy axborot vositalar yordamida, san'at orqali, boshqaruv organlari tizimi va tashkilotlarda siyosiy, manaviyat va ma'rifat ishlarini tashkil etish orqali amalga oshirilishi mumkin. Bularni amalga oshirishda ma'lumot muhim ahamiyat kasb etadi.

2– guruh uchun tarqatma material.

Ma'lumot - ma'lum maqsadga yo'naltirilgan, inson shaxsining rivojlanishini ta'minlovchi, maxsus tashkil etilgan tizim bo'lib, o'qitish jarayoni va uning natijasi hisoblanadi.

Maxsus tashkil etilgan ma'lumot beruvchi tizim - bu ta'lim-tarbiya muassasasi, qayta tayyorlash va malaka oshirish tashkiloti, o'quv-material baza, moliya (finans), kadrlar, ilmiy-usuliy ta'minot. Ularda ma'lum maqsadlarga ko'ra tajribalar o'rgatish va o'rganish maxsus dasturlarga asosan tegishli ma'lumoti, kasb tayyorgarligi bor va yuksak axloqiy fazilatlariga ega bo'lgan shaxslar tomonidan amalga oshiriladi.

Ma'lumot aniq bir yoshdagi shaxslarda bilim, iqtidor va ko'nikmalarning o'zlashtirilganligini, bilish qobiliyati o'sganligini va ular asosida ilmiy dunyoqarash, shaxsiy sifatlar shakllanganligini, ularning ijobiy kuchlari va qobiliyatlarining qay darajada rivojlanganligini anglatadi. Qachonki inson ma'lumoti to'g'risida gapirilganda uning ma'lumotlilik tushiniladi. Ma'lumotlilik - shaxsiy sifat ko'rsatkichi, ya'ni, shaxsning rivojlanish darajasi, uning tajribasi, ko'nikma va malakalarni qay darajada o'zlashtirganligi va ulardan foydalanish hamda ular yordamida yangi bilim-ko'nikmalarni egallab, to'ldirib borish qobiliyatlari tushuniladi.


«Ma'lumot» to'g'risida gapirar ekanmiz ma'lumotli bo'lish uchun «Tarbiya» o'zi yetarli emas, Bunda ma'lum bir jarayonlar mavjud bo'lib, bu jarayonlarni tashkil etish negizida «Ta'lim» tushunchasi mavjud.

3– guruh uchun tarqatma material.

Ta'lim - tajribalar almashinish jarayoni bo'lib, rejali ravishda amalga oshiriladigan «pedagog-talaba-pedagog» muloqoti, uning natijasida ma'lumot, tarbiya va rivojlanish amalga oshadi.

«Ta'lim», «Tarbiya» va «Ma'lumot» tushunchalari bir-birini to'ldirishi hamda birinchi-ikkinchisi, ikkinchisini-uchinchisi ta'minlovchisi. Bular natijasida inson shaxsining rivojlanishi ta'minlanar ekan, buni biz hayotda mevali daraxtga qiyoslaymiz (2-rasm). Mevali daraxt urug'dan tuproqda unib

chiqadi, unga o'z vaqtida suv berib, ishlov berib parvarish qilinsa rivojlanib daraxt bo'ladi va meva beradi.



2-rasm. Rivojlanish (pedagogik tushunchalar tizimi).

Mevali daraxtni rivojlanishida urug', tuproq, daraxt alohida vazifalarni bajarsada birontasi bo'lmasa qolganlarini tasavvur qilib bo'lmaydi ya'ni, rivojlanish bo'lmaydi. Urug'ni yerga ekish, unga suv berish, tagini yumshatish, mevalarini terib olish, undan yana urug' olish qisqa so'z bilan aytganda uni shakllantirish ishlarini bog'bon (dexqon) bajaradi. Bog'bonning bu faoliyatlarini inson shaxsini shakllantirishdagi (rivojlantirishdagi) pedagogni faoliyatiga qiyoslash mumkin, ya'ni pedagog yosh avlodga ta'lim berish bilan birga tarbiyalaydi, ma'lumot beradi, rivojlantiradi hamda uni kelajakdagi fan va texnika sohasidagi yutuqlarini o'rganadi va buni yana yosh avlodlarga o'rgatadi.

3-mavzu: O'zbek xalq pedagogikasi tarixidan. Sharq mutafakkirlari va milliy tarbiya

Reja:

1. Milliy tarbiya so'zini eshitganingizda fikringizga qanday so'zlar, iboralar keladi. (Aqliy xujum) 5 daqiqa
2. Sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiyaga qushgan hissasi («Charxpalak» pedagogik texnologiyasi asosida) 30 daqiqa
3. Pedagogika tarixidan. Qadimgi Yo'nonistondagi ta'lim-tarbiya. («Qarorlar shajarasi» pedagogik texnologiya asosida) 40 daqiqa
4. Zardushtiylar va islom dinidagi ta'lim-tarbiya (Aqliy xujum) 5 daqiqa

Mashg'ulot uchun zaruriy uslubiy tavsiyalar va o'quv didaktik tarqatma materiallar

1. Milliy tarbiya so'zini eshitganingizda fikringizga qanday so'zlar, iboralar keladi. Bunda biz aqliy xujum usulini qo'llaymiz. Aqliy xujum - g'oyalarni generatsiya (ishlab chiqish) qilish usulidir. «Aqliy xujum» usuli biror muammoni yechishda talabalar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to'plab, ular orqali ma'lum bir yechimga kelinadigan eng samarali usuldir. Aqliy xujum usulining yozma va og'zaki shakllari mavjud. «Aqliy xujum» ishtirokchilari oldiga qo'yilgan muammo bo'yicha xar qanday muloxaza va takliflarni bildirishlari mumkin. Aytilgan fikrlar yozib boriladi va ularning mualliflari o'z fikrlarini qaytadan xotirasida tiklash imkoniyatiga ega bo'ladi. Usul samarasi fikrlar xilma-xilligi bilan tavsiflandi va xujum davomida ular tanqid qilinmaydi, qaytadan ifodalanmaydi. Aqliy xujum tugagach, muhimlik jihatiga ko'ra eng yaxshi takliflar generatsiyalanadi va muammoni yechish uchun zarurlari tanlanadi.

2. G'arb va Sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiyaga qushgan hissasi, bu haqida olingan ma'lumotlarni mustahkamlash va ushbu masala bo'yicha talabalar o'zlashtirishi saviyasini aniqlash uchun «Charxpalak» pedagogik texnologiyasini qullash mumkin. Guruh 3 kichik guruhga bulinadi va har bitta guruhga tarqatma material beriladi. Tarqatma materialda jadval ko'rsatilgan bulib, u yerda bush kataklarga mutafakkirlarning nomlarini, sanalarni va ularning pedagogik g'oyalarini tuldirishlari kerak. Bu texnologiyada talabalar tezkorlik bilan tuldirib berishlari kerak. Qaysi guruh tez va to'g'ri tuldirib bersa, o'sha guruh g'olib deb hisoblanadi.

«Charxpalak» pedagogik texnologiyasini qo'llash uchun didaktik tarqatma material

Nomlari	Sanalar	G'oyalari
	460-370 do n.e	
Suqrot, Afloto'n, Arastu		
		Notiqlik san'ati
	1592-1670	
Al-Xorazmiy		
		Fozil odamlar sharhi
Beruniy		

		“Ta’limda yengildan og’irga borish orqali bilim berish”
I.G.Pestolossi		
	1771-1858	
		“Tarbiya muassalarida kelib chiqqan umumiy pedagogika”
	1824-1870	
Ibn-Sino		
	1869-1939	

Suqrot (er.avv.469—699) ning fikricha tarbiyadan kutilgan maqsad, buyumlar tabiatini o’rganish bo’lmay, balki kishining bilim olishdan maqsadi axloqni kamol topedagogik texnologiyairish bo’lmog’i lozim edi. U yaratgan axloqiy etika maktabi kishi axloqi bir necha fazilatlaridan — jasurlik, donolik, mo’tadillik, adolatparvarlik va boshqalardan tashkil topgan.

Afloto’n (er.avv. 424—347) Suqrotning shogirdi bo’lib, obyektiv idealizm nazariyasining asoschisi edi. Tarbiya, — deydi Afloto’n, — davlat tomonidan tashkil etilmog’i va hukmron guruhlarining, ya’ni faylasuf va jangchilarning manfaatlarini ko’zlamog’i lozim. Afloto’n o’zining ta’lim-tarbiya tizimida Sparta va Afina tizimining ba’zi belgilarini birlashtirishga intildi.

Arastu (er.avv. 384—322) ta’lim-tarbiya nazariyasini yaratish va uni rivojlantirishga katta hissa qo’shgan alloma olim. U Afloto’nning shogirdi bo’lib, o’z navbatida, makedoniyalik Iskandar Zulqarnaynning ustози bo’lgan. Uning fikricha, olamda uch xil jon bor: o’simlikdan tarkib topgan jon, u oziqlanishda va urchib ko’payishda namoyen bo’ladi; hayvondan tarkib topgan jon, o’simlik xossalaridan tashqari sezgilarda va istaklarda namoyon bo’ladi; aqlning ifodasi bo’lgan jon o’simlik va hayvonot xossalaridan tashqari, tafakkur yoki bilish xislatlariga ham egadir. Arastuning fikricha, jonning mana shu uch xiliga muvofiq uch xil tarbiya — jismoniy tarbiya, axloqiy tarbiya va aqliy tarbiya bo’lishi kerak. Arastu o’z pedagogik qarashlarida iroda va faoliyatni asos qilib olgan holda, aqliy tarbiya sohasida ko’nikma hosil qilishga katta ahamiyat bergan. Arastuning qayd etishicha, har qanday istak va faoliyatda kamchilik, ortiqchalik va o’rtachilik bo’ladi. Hamma narsada o’rtachilik foydalidir. Hamma narsada ortiqchalik kamchilik kabi ziyondir.

Demokrit (er. Avv.460—370) tarbiyani tabiatga muvofiqlashtirish masalasini birinchi bo’lib ilgari suradi. «Tabiat bilan tarbiya bir-biriga o’xshaydi» deb yozadi u. Demokrit «ta’lim mehnat asosida go’zal narsalarni hosil qiladi», deb tarbiya ishida mehnatning roli juda katta ekanligini ta’kidlaydi.

Iogan Genrix Pestolossi (1746—1827) 1774 yilda Neygofda «Kambag’allar muassasasi»ni ochib, yetim va boqimsiz bolalardan 50 ga yaqinini shu muassasada o’zi o’qita boshlaydi. Pestolossi hamma odamlar ta’lim olish huquqiga ega bo’lishi lozim, deb maktablar jamiyatni ijtimoiy jihatdan o’zg’artirishning muhim vositalaridan biri bo’lishi kerakligini ta’kidlaydi. Pestolossining fikricha, mehnat odamni tarbiyalash va o’stirishning eng muhim vositasi, mehnat odamning jismoniy

kuchinigina emas, aqlini ham o'stiradi, unda axloqni ham tarkib topedagogik texnologiyairadi. Elementar ta'lim nazariyasi Pestolossining pedagogik tizimining o'zagidir, bu nazariyaga ko'ra tarbiyalash eng oddiy elementlardan boshlanib, asta-sekin murakkabroq darajaga ko'tarilib borishi lozim. Bolalarda yozuv malakasini hosil qilish uchun Pestolossi dastlab harf elementlarini, to'g'ri va egri chiziqlarni mashq qilishni tavsiya etgan.

Robert Ouen (1771—1858) o'zining 1813 yilda nashrdan chiqqan «Jamiyatga yangicha qarash yoki insonda xarakterni tarkib topedagogik texnologiyai-rish to'g'risidagi tajriba» degan asarida odamning xakteri, uni o'rab turgan ijtimoiy muhit sharoiti bilan tarkib topadi, deb ta'kidlaydi. Uningcha, odamlarning illatlari va xatti-harakatlari, ular yashab turgan ijtimoiy muhit vaziyatiga bog'liqdir. Odam, — deydi Ouen, — o'z xarakterini hech qachon o'zi yaratgan emas va uni yaratishi mumkin ham emas. Uning fikricha, agar biz muhit sharoitini va tarbiyani o'zgartirsak, har qanday xarakter-ni tarkib topedagogik texnologiyairishimiz mumkin. Robert Ouen bolalarga bir yoshdan boshlab ijtimoiy tarbiya berish g'oyasini olg'a surib, uni asoslab berdi va amalda sinab ko'rdi. U jahonda birinchi bo'lib ishchilar bolalari uchun maktabgacha tarbiya muassasasi barpo etdi. Uning ta'lim muassasasida aqliy va jismoniy tarbiya berilib, bolalar jamoa ruhida tarbiyalanar edilar.

Konstantin Dmitriyevich Ushinskiy (1824—1870). Uning pedagogika sohasidagi asosiy nazariy asari «Kishi tarbiya predmeti sifatida» degan pedagogik antropologiyadan tajribasi bo'lib, u ikki jildidan iborat bo'lgan. Ushinskiy rus pedagogika-sining o'ziga xosligini, milliy xususiyatlarini himoya qildi, shuningdek, tarbiya xalqchil bo'lishi lozim, deb hisobladi, bola-larni mehnat orqali tarbiyalashga katta e'tibor berdi. Ta'limning mazmuni, tamoyillari, shakl va usullarini ishlab chiqish-da ham ko'p ishlar qildi. U ta'limning ko'rgazmaliligi, ongli va uzviy olib borish masalalarini ishlab chiqdi, o'qitishning shakl va usullarining rang-barang'liligiga erishishni talab etdi.

Xorazmiy bilim olishda talabaning shaxsiy kuzatishlariga hamda olgan bilimlaridan amalda foydalanishiga katta e'tibor bergan. Xorazmiy bilishni sezgidan mantiqiy tasavvur orqali farq qilish haqida fikr bildiradi. Uning fikricha, «sezgi» orqali bilish — qisman bilish bo'lsa, «mantiqiy» bilish esa haqiqiy bilishning muhim tomonini namoyon etadi, deb bilish nazariyasiga salmokli hissa qo'shadi. U birinchilardan bo'lib, kuzatish-sinov usuliga asos soldi.

Ahmad Farg'oniy jahon fani va madaniyatiga ulkan hissa qo'shgan qomusiy allomalardan biri. U Bag'doddagi «Baytul hikma»da mudarrislik qilib, tabiiy sohada riyoziyot, falakiyot, geografiya, hikma va boshqa qator fanlarda ta'lim-tarbiyaga oid ilmiy kashfiyotlar qilgan.

Forobiy ta'lim-tarbiyaga bag'ishlagan asarlarida inson takomilida ta'lim-tarbiyaning muhimligi, unda nimalarga e'tibor berish zarurligi, ta'lim-tarbiya usul va uslublari haqida fikr yuritadi. «Fozil odamlar shahri», «Baxt-saodatga erishuv to'g'risida», «Ag'ut ma'nolari to'g'risida», «Ixso-al-ulum», «Ilmlarning kelib chiqishi» kabi maorifiy asarlarida olimning ijtimoiy-tarbiyaviy qarashlari o'z ifodasini topgan.

Forobiy o'z asarlarida ta'limni tarbiya bilan uzviy birlikda olib borish haqida gapirgan bo'lsa ham, ammo insonni kamolga yetkazishda har birining o'z o'rnini va xususiyatini bor ekanligini alohida ta'kidlaydi.

Forobiy ta'lim-tarbiyaning asosiy vazifasi jamiyat talablariga javob bera oladigan va shu jamiyat uchun xizmat qiladigan yetuk insonni yetishtirishdan iborat, deb biladi.

Beruniyning bilimlarni egallash yo'llari haqidagi fikrlari hozirgi davr uchun ham dolzarbdir. O'quvchiga bilim berishda: ularni zeriktirmaslik; bir xil narsani yoki fanni o'rgatavermaslik; uzviylik; izchillik; yangi mavzularni qiziqarli, asosan, ko'rgazmali bayon etish va hokazolarga e'tibor berish kerakligi uqtiriladi. Olim bilim oluvchilarga qalbni yomon illatlardan, inson o'zi sezishi mumkin bo'lmagan holatlardan, qotib qolgan urf-odatlardan, hirsdan, behuda raqobatdan, ochko'zlikdan, shon-shuhratdan saqlanish zarurligini aytadi. Beruniy inson kamolotida uch narsa muhimligini ta'kidlaydi. Bu — hozirgi zamon pedagogikasi ham e'tirof qiluvchi irsiyat, muhit va tarbiyadir.

Ibn Sino insonlarni kamolotga erishishning birinchi mezonini sanalgan bilim egallashga da'vat etadi. Bilimsiz kishilar johil bo'ladi, ular haqiqatni bila olmaydilar, ular yetuk bo'lmagan kishilar, deydi. Ibn Sino bilim olishda bolalarni maktabda o'qitish zarur deb bilib, ta'limda quyidagi talablarga rioya etish zarurligini ta'kidlaydi: bolaga bilim berishda birdaniga kitobga band qilib qo'ymaslik; ta'limda yengildan og'irga borish orqali bilim berish; olib boriladigan mashqlar bolalar yoshiga mos bo'lishi; o'qitishda jamoa bo'lib o'qitishga e'tibor berish; bilim berishda bolalarning mayli, qiziqishi va qobiliyatini hisobga olish; O'qitishni jismoniy mashqlar bilan olib borish. Talabalarga bilim berish o'qituvchining mas'uliyatli burchidir, deb Ibn Sino o'qituvchining qanday bo'lishi kerakligini ham ko'rsatib beradi.

3. *Pedagogika tarixidan. Qadimgi Yo'nonistondagi ta'lim-tarbiya.* Qarorlar shajarasi pedagogik texnologiyasi asosida O'tkaziladi. Buning uchun guruh 4 ta kichik guruhga bulinadi va har bitta guruhga tarqatma material beriladi. Talabalar o'sha davrdagi ta'lim tarbiyaning yutug'ini va kamchiliklarini yozib ifodalab berishlari kerak. Boshqa guruhlar uzini fikrlarini bildiradilar va baholaydilar.

1-guruh uchun tarqatma material.

Qadimgi Yo'nonistonda ta'lim-tarbiya. Eramiz boshlanishidan oldin Urta Osiyoning janubiy chekkasiga yaqin bo'lgan joyda O'rta Dengiz bilan Hindistonni birlashtiruvchi karvon yo'li bo'lgan. So'ngra O'rta Osiyo orqali Xitoydan O'rta dengizga tomon «Buyuk Ipak yo'li» ochilgan. Natijada O'rta Osiyo xalqaro savdo-sotiq markazi bo'lib, madaniyati ravnaq topgan. O'rta Osiyodagi madaniyat «Buyuk Ipak yo'li» orqali G'arb mamlakatlari madaniyatining rivojiga ta'sir ko'rsata boshlagan. Ayniqsa, Yo'nonistonning geografik o'rnini va tabiiy sharoitining qulayligi tufayli, undagi madaniyat va ma'rifat boshqa qadimiy mamlakatlarga nisbatan yaxshi rivojlana boshlagan.

Yo'noniston o'ncha katta bo'lmagan bir qancha quldorlik davlatlaridan iborat mamlakat edi. Uning eng katta davlatlaridan Lakoniya (poytaxti Sparta) va Atika (poytaxti Afina) ayniqsa madaniyat markazi bo'lgan. Bu shaharlarning har qaysisida tarbiyaning boshqa mamlakatlardan farqli alohida tizimi vujudga kelgan va bu tarbiya

tizimlari shaharlar nomi bilan yuritilib, «Sparta» va «Afina» usulidagi tarbiya deb yuritiladigan bo'lgan.

Yo'nonistonda madaniyat va maktabning tez rivojlanishi ta'lim-tarbiya nazariyasining paydo bo'lishiga imkon yaratdi. Pedagogika nazariyasiga faylasuflardan Suqrot, Afloto'n, Arastu va Demokritlar asos soldilar.

Qadimgi Yo'nonistondagi tarbiyaviy ishlar shunisi bilan o'ziga xos ediki, unda bolani jismoniy tomondan chiniqtirish bilan bir qatorda ma'naviy tomondan barkamol bo'lishiga ham katta e'tibor berilgan. Bolalarni musiqa, ashula va diniy raqslar tushishga o'rga-tilib, mashg'ulotlarning mazmuni jangovar harbiy tusda Bulardi.

Qadimgi zamondagi ta'lim-tarbiyani o'rganar ekanmiz, undan quyidagi xulosalarni chiqarsa bo'ladi:

Birinchidan, muayyan mamlakat aholisining ta'lim-tarbiya masalalari xususiy ish bo'lmay, davlat tasarrufidagi muassasalarning faoliyati bo'lishi kerak.

Ikkinchidan, ta'lim-tarbiyani bohqichma-bosqich oddiydan murakkab tomon olib borish maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, ta'lim-tarbiya jarayoni davlatning mutasaddi ki-shilari tomonidan tahlil qilinib, tasdiqlangan dastur va reja asosida amalga oshirilishi lozim.

To'rtinchidan, ta'lim-tarbiyani, asosan, o'ncha katta bo'lmagan o'quvchi, ar guruhi orqali amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.

Beshinchidan, qizlar ta'limini o'g'il bolalar bilan bir qatorda olib borilgani ma'qul.

Oltinchidan, ta'lim-tarbiyani mehnat jarayeni bilan qo'shib olib borishlik yaxshi samara beradi.

Yettinchidan, yoshlar tarbiyasida jismoniy mashqlarga katta e'tibor berilishi kerak.

Sakkizinchidan, jismoniy va aqliy tarbiya bilan bir qatorda nafasat tarbiyasini amalga oshirish lozim.

To'qqizinchidan, ta'lim-tarbiyada doimo me'yor saqlab borili-shi zarur, ortiqcha bilim kam bilim berilgandan ham katta ziyon yetkazadi.

2-guruh uchun tarqatma material

Afina davlatining
ta'lim-tarbiyasi

Sparta davlatining
ta'lim-tarbiyasi

Yutug'i:	Kamchiligi:	Yutug'i:	Kamchiligi:
Ta'lim-tarbiyani bosqichma-bosqich oddiydan murakkab tomon olib borilgan, Jismoniy va aqliy tarbiya bilan bir qatorda nafasat tarbiyasi olib borilgan. Ta'lim-tarbiya davlat tasarrufidagi	Kambag'al odamlar bolalarini o'qitilmagan, savodsiz bo'lgan.	Yoshlar tarbiyasida jismoniy mashqlarga katta e'tibor berilgan, ta'lim-tarbiyani mehnat jarayoni bilan qo'shib olib borishlik yaxshi samara	Bilimga katta e'tibor berilmagan, Yoshlar erkin fikrlashga ega bo'lmaganlar. Ko'pchilik boshlang'ich ta'limga ega bo'lgan.

muassasalarga yuklatilgan.		bergan.	
Xulosa: Yosh avlodni jismoniy tomondan chiniqtirish bilan bir qatorda ma'naviy tomondan barkamol bo'lishga ham katta e'tibor berilgan		Xulosa: Asosan harbiy mashqlarga katta e'tibor berilgan, yoshlar mustaqil fikrga ega bo'lmagan.	

2-guruh uchun tarqatma material.

Temuriylar davridagi ta'lim-tarbiya		Jadidlar davridagi ta'lim-tarbiya	
Yutug'i:	Kamchiligi:	Yutug'i:	Kamchiligi:
Amir Temur va Temuriylar siyosatida, mamalakatdagi ma'naviy birlik, islom doirasidagi mafkuraviy erkinlik, madaniy yuksalish, ilm-fan, adabiyot, san'atning tez rivoj topishiga olib keldi. Aniq fanlar rivojida katta yutuqlar qo'lga kiritildi.	Diniy taasuf va fanatizm kuchli bo'lganligi sabab ayrim aniq fanlar rivojlanmagan.	Ovrupocha dunyoviy ilmlarni ona tilida o'qitishga moslashtirgan, yangi usuldagi o'quv muassasa larni tashkil etishgan, feodal davri maorif tizimini isloh qilishgan. Yoshlarni savodli qilish niyatida o'quv muassasi, maorif sohalarida juda katta targ'ibot ishlarini olib bordilar.	Jadidlar o'sha davrda ko'pchilikni tashkil qilmaganlar, dushmanlari ko'p bo'lgan
Xulosa: Bu davrda madaniyatning yutuqlari xalqimizning keyingi madaniy rivojlanishiga katta zamin yaratdi.		Xulosa: Jadidlar uchun ilm va ma'rifat yagona qurol bo'lib, ular shu qurol yordami bilan o'lkada ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyot uchun ko'rashmoqchi	

3-guruh uchun tarqatma material.

XIX asr oxiri - XX asrning boshlarida Turkistonda chor mustamlakachiligining ko'chayishi natijasida Markaziy Osiyoning ko'p joylarida jadidchilik harakati ko'chayib ketdi. Bu harakat mavjud jamiyatning ijtimoiy - madaniy asoslarini qayta kurishga qaratilgani sababli eski to'zum, eski turmush, eski o'quv muassasasi, tarafdorlarining kuchli qarshiligiga duch keldi. Shu tarzda jadidchilik harakati yuzaga keldi va bu harakat o'zbek tuprog'ining barcha go'shalariga tarqala boshladi.

Jadidchilik jamiyatni to'ntarish yo'li bilan emas, isloxotlar yo'li bilan rivojlantirishni o'zining asosiy vazifasi deb belgiladi. U o'zining bu vazifasini ado etishda, faqat bir guruhga - proletariatgagina tayanmadi. Umuman, jadidchilik insoniyatni guruhlarga bo'lib tashlash tarafdori emas edi.

Jadidlar 1906 yildayoq "Taraqqiy" deb nomlangan gazeta nashr ettirib, o'z g'oyalarini tarqata boshladilar, oradan ko'p utmay, «Xurshid», «Shuxrat» singari yangi gazetalar dunyo yuzini ko'rdi. Markaziy Osiyoning turli shaharlarida jadid maktablari ochilib, ularda diniy ilmlar bilan birgalikda dunyoviy bilimlar ham keng targ'ib qilindi.

Agar lunda qilib aytsak, jadidlarning harakat dasturi quyidagi masalalarni hal qilishga qaratilgan edi:

1. Diniy taassuf va fanatizmga qarshi - ko'rash.

2. Diniy aqidalarga asoslangan o'rta asr o'quv muassasalari urniga Ovrupocha dunyoviy ilmlarni ona tilida o'qitishga moslangan yangi usuldagi o'quv muassasalarni tashkil etish, feodal davri maorif tizimini isloh qilish;

3. Jadidchilik g'oyalarini keng xalq ommasiga yetkazish niyatida yangi o'zbek adabiy tilini ishlab chiqarish, matbuot xurligi uchun, xalq ommasiga tushunarli adabiyot va teatrni yaratish;

4. Xotin - qizlarni paranjidan chiqarish va jadid o'quv muassasalariga qatnashishlarini ta'minlash;

5. Mahalliy boylar va savdogarlarning siyosiy va iqtisodiy jihatdan rus burjuaziyasi bilan bir xuquqda bo'lishi, mahalliy amaldorlarning chor xukmdorlari tomonidan siquvga olishga qarshi ko'rash;

Asosiy talablari ana shundan iborat bo'lgan jadidlar uchun ilm va marifat yagona qurol bo'lib, ular shu qurol yordami bilan o'lkada ijtimoiy - iqtisodiy va madaniy taraqqiyot uchun ko'rashmoqchi bo'ldilar.

O'zlarini ko'zlagan maqsadlarini amalga oshirish uchun yoshlarni savodli qilish niyatida o'quv muassasasi, maorif sohalarida juda katta targ'ibot ishlarini olib bordilar. Tashkil etilgan yangi usul o'quv muassasalarida quyidagilarga etibor qaratilgan edi:

1. Guruhda tarbiyalanuvchilar soni uttiztadan oshmasligi;

2. Tarbiyalanuvchilar faqat yoz va qish boshlarida o'quv muassasasiga qabul qilinishi;

3. Har bir muallimda ko'pi bilan 3-4 guruh bo'lishi;

4. 7-9 yoshlardagi tarbiyalanuvchi 7-8 soat o'zluksiz uqiy olmasligini xisobga olib, faqat 5 soatlik o'qishni joriy etish;

5. Juma va bayram kunlari dam olinishi;

6. Yozning issiq kunlarida ta'til berilishi;

7. Har bir darsdan so'ng 10 dakikali tanaffus berish;

8. Talabalarni har olti oyda imtixon qilish, yil oxirida guruhdan - guruhga o'tkazish, o'zlashtirmaganlarni guruhga koldirish;

Shu bilan birga, yangi usul o'quv muassasalarida diniy bilan birgalikda xandasa (matematika), jug'rofiya (geografiya) tarix, tibbiyot kabi fanlarni o'qitish va fanlarni o'qitish uchun darsliklar yaratildi.

Turkistonda shu borada A. Avloniy, M.Bexbudiy, A.Fitrat, Munavvar kori Abdurashidov, X.X. Niyoziy kabi o'nlab ziyolilar juda katta ishlar olib borganlar.

2. Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitratlarning marifiy - pedagogik qarashlari.

Taniqli o'zbek pedagogi va olimi Abdulla Avloniy jadidlarning yetuk vakillaridan biri bo'lib hisoblanadi.

U yoshligidanoq ilm olishga, o'qishga, she'rlar yozishga mashq qilishga intildi. U o'zining dastlabki she'rlarida va "Xijron" degan maqollasida xalqni yangi usul o'quv muassasalarida o'qib - o'rganishga targ'ib qiladi.

4. Zardushtiylar va islom dinidagi ta'lim-tarbiya. Aqliy hujum pedagogik texnologiya asosida. Aytilgan fikrlar yozib boriladi va ularning mualliflari o'z fikrlarini qaytadan xotirasida tiklash imkoniyatiga ega bo'ladi. Usul samarasi fikrlar xilma-xilligi bilan tavsiflandi va xujum davomida ular tanqid qilinmaydi, qaytadan ifodalanmaydi. Aqliy xujum tugagach, muhimlik jihatiga ko'ra eng yaxshi takliflar generasialanadi va muammoni yechish uchun zarurlari tanlanadi.

4- mavzu: Tarbiya va uning turlari.

Reja:

1. Tarbiya jarayoni deganda nimani tushunasiz? (Aqliy xujum) - 5 daqiqa

2. Tarbiya turlari ("Charxpalak" pedagogik texnologiyasi asosida) 15daqiqa

3. Tarbiya jarayonining murakkabligi ("Veyer" texnologiyasi asosida ishlash usuli) 15 daqiqa

4. Mustaqil loyihaviy ish sifatida tarbiya turlari bo'yicha tuzilgan tarbiyaviy ish dasturlari muhokamasi 40 daqiqa

5. Darsga yakun yasash 5daqiqa

Mashg'ulot uchun zaruriy uslubiy tavsiyalar va o'quv didaktik tarqatma materiallar

1. Tarbiya jarayoni so'zlarini eshitganingizda fikringizga qanday so'zlar, iboralar keladi. Bunda biz aqliy xujum usulini qo'llaymiz. Aqliy xujum - g'oyalarni generasiya (ishlab chiqish) qilish usulidir. «Aqliy xujum» usuli biror muammoni yechishda talabalar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to'plab, ular orqali ma'lum bir yechimga kelinadigan eng samarali usuldir. Aqliy xujum usulining yozma va og'zaki shakllari mavjud. "Aqliy xujum" ishtirokchilari oldiga qo'yilgan muammo bo'yicha xar qanday muloxaza va takliflarni bildirishlari mumkin.

Aytilgan fikrlar yozib boriladi va ularning mualliflari o'z fikrlarini qaytadan xotirasida tiklash imkoniyatiga ega bo'ladi. Usul samarasi fikrlar xilma-xilligi bilan tavsiflandi va xujum davomida ular tanqid qilinmaydi, qaytadan ifodalanmaydi. Aqliy xujum tugagach, muhimlik jihatiga ko'ra eng yaxshi takliflar generasialanadi va muammoni yechish uchun zarurlari tanlanadi.

2. Tarbiya turlari "Charxpalak" pedagogik texnologiya asosida. Bu texnologiyada guruh 4ta kichik guruhchalarga bo'linadi va har bitta guruhga tarqatma material beriladi.

Tarqatma materialda jadval ko'rsatilgan bo'lib uning o'ng tomonga guruh a'zolari belgilash uchun tanlagan belgi qo'yilishi va guruh muhokama qilib, jadvalning chap qismidagi 2 ustunda ifodalangan tayanch so'z va iboralar beriladi va guruh a'zolari bu so'zlarni qaysi turlarga mos kelishiga qarab ajratib berish taklif etiladi. Bu belgilar qo'yilgan qog'ozni (soat strelkasi yo'nalishi bo'yicha) keyingi guruhlariga uzatish talab etiladi. Keyingi guruh esa yana guruh fikri bo'yicha tegishli belgilar bilan to'ldirishi va keyingi guruhga uzatishi lozim. Shu tarzda davom etib, guruhlar fikrlari belgilangan qog'ozlar charxpalak singari guruhlar orasida aylanib bo'lgach, natijalar muhokamasi tashkil etiladi.

"Charxpalak» pedagogik texnologiyasi uchun didaktik tarqatma material

	Tarbiya turlarining ko'rinishlari	Tarbiya turlari:			
		Ahlo-qiy tarbiya	Aqliy tarbiya	Estetik tarbiya	Huquqi y tarbiya
1	ahloq odob				
2	fikrlash				
3	isbotlash				
4	o'simliklar ekologiyasi				
5	xulosa chiqarish				
6	huquqiy targ'ibot				
7	umumlashtirish				
8	sistemashtirish				
9	qonun ustivorligi				
10	taqqoslash				
11	san'atsho'noslik				
12	ma'naviy fazilat				
13	badiiy tarbiya				

3.Tarbiya jarayonining murakkabligi nimada? "Veyer" pedagogik texnologiyasi asosida katta guruh 3ta kichik guruhchalarga ajratiladi va har bir guruh ikkinchi guruhga 2 ta savol bilan murojaat qiladi. Bu texnologiya asosida murakkab, ko'p tarmoqli, mumkin qadar muammo xarakteridagi mavzularni o'rganishga qaratilgan.

Talabalar umumiy mavzu bo'yicha 4-6 ta savol tayyorlashi mumkin:

1. Tashqi muhitning talaba-yoshlarga ta'siri nimalarda namoyon bo'ladi?
2. Tarbiya orqali insonni to'liq o'zgartirish mumkinmi?
3. Yosh xususiyatlar deganda nimani tushunasiz?
4. Tafakkur, idrok, ilmiy dunyoqarash deganda nimani tushunasiz?
5. Tarbiya jarayonining murakkabligi nimada

4. Tarbiya turlari bo'yicha tuzilgan tarbiyaviy ish dasturi ya'ni senariyasini ishlab chiqish va uni amalda qo'llash bo'yicha taqdimotlar muhokamasi. Bu mustaqil guruhliy loyihaviy ishlar muhokamasi bo'lib, guruhdagi talabalar 4-5 kishidan iborat kichik guruhlarga bo'linib, o'zlari tayyorlab kelgan tarbiyaviy ish dasturi ya'ni senariyasini taqdimot etadilar va taqdimotlar muhokamasi uyushtiriladi.

5-Amaliy mashg'ulot mavzusi: Shaxsning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar.

Reja:

1. Shaxsni rivojlanishiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi? (Aqliy xujum) 5daqqa
2. Komil inson ("Tassavur" pedagogik texnologiyasi asosida) 30 daqiqa
3. Shaxsni rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar ("Guruhlarda bahs munozara uslubidan foydalanish asosida) 20 daqiqa
4. Shaxsni rivojlanishida ijtimoiy muhit qanday ta'sir ko'rsatadi? ("Klaster"pedagogitexnologiyasiasosida)-20daqqa
5. Nimani bilar edik. Nimalarni bilishni hohlaymiz. Nimalarni bilib oldik -10 daqiqa

Talabalarga savollarni berishdan oldin ularga turli xil rangdagi lentalar tarqatiladi. Ularga Bugungi darsdan nimani kutayotganliklari haqidagi fikrlarini yozish talab qilinadi. Doskaga vatman yopishtrilib, har bitta talaba lentachaga yozgan fikri vertikal xolatda vatmanga yopishtiriladi. Fikrlarini oxiriga talabalar ismlarini ham yozib qo'yadilar. Keyin ularni ikki guruhga bo'lib olinadi. Birinchi guruhga qizil bayroqcha, ikkinchi guruhlar sariq bayroqcha berib guruhlar hosil qilinadi. Bu dars o'tish uslubi noan'anaviy uslub bo'lib, talabalarni erkin fikrlashga, jamoa fikrini eshitish, qabul qilish, o'zaro kelishish kabi xislatlarini shakllantiradi.

Mashg'ulot uchun zaruriy uslubiy tavsiyalar va o'quv didaktik tarqatma materiallar

1. Shaxsni rivojlanishiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi? Aqliy xujum metodi asosida. Bu uslub talabalarning o'quv jarayonida faol ishtirok etishlari, turli

g'oyalarni bayon qilish chog'ida boshqalarni ham qizg'in fikrlashga yo'llashlari, ilhom bilan ishlashlariga imkon beradi.


Bu uslubdan maqsad mumkin qadar katta miqdordagi g'oyalarni yig'ish, talabalarni ayni bir xil fikrlash inersiyasidan holi qilish, ijodiy vazifalarni yechish jarayonida dastlab, paydo bo'lgan fikrlarni yengishga o'rgatishdir.

Bu uslubdan foydalanilganda, shu qisqa vaqt ichida qaysi talaba ko'proq fikr bildirgani aniqlanadi va rag'batlantiriladi.

2. Komil inson "Tassavur" pedagogik texnologiya asosida o'tkaziladi va guruh kichik guruhchalarga bo'linadi va har biriga bittadan vatman, marker beriladi.

Talabalarga "Komil inson» tushunchasini vatman qog'ozga rasmlar chizish orqali izohlashlari talab qilinadi. Bunda talabalardan rassomlik mahorati talab qilinmaydi. Balki fikr doirasi kengligi talab qilinishi tushuntiriladi. Har bir guruh komil insonni qay darajada tushinishlarini rasmlar orqali vatmanda namoyon qiladilar. Chizib bo'lingan rasmlarni har bir guruhdagi ikkitadan talaba chiqib izox beradilar. Bu izohlarga qarshi guruhlar o'zlarini ijobiy yoki salbiy fikrlarini bildirib munozara o'tkazadilar. Bu uslub talabalarni o'ylagan fikrlarini erkin qog'ozga tushirish, erkin fikrlash, ko'rish malakasini oshirish, zehnni rivojlantirishga, eng passiv talabalarni ham faollashtirishga yordam beradi.

KOMIL INSON:



3. Guruhlar tarkibi saqlangan holda talabalarga pedagogika fanida muhim hisoblangan yuqoridagi tushunchalarning mohiyatini tushunib olishga oid vazifa taklif etiladi.

Shaxsni shakllanishida ta'sir etuvchi irsiy omillar	Shaxsni shakllanishida ta'sir etuvchi ijtimoiy omillar
.....	

Mazkur vazifani talabalar guruh a'zolari bilan maslaxatlashib, jadvalni to'ldirishlari va guruh lideri tomonidan og'zaki izohlashlari talab etiladi.

O'zaro savol-javoblarda hamda o'qituvchi tomonidan bu ikki tushunchani uzaro bog'liq va farqli tomonlari so'rab, va o'z - o'zidan dars mavzusini rejaga kiritilgan tarbiya, muhit, oila, munosabat, e'tiqod, faoliyat, shakllanish, rivojlanish kabi tushunchalarga kelinadi va ularni tahlili qayd etiladi.

Tarbiya, muhit, oila, munosabat, e'tiqod, faoliyat, shakllanish, rivojlanish, qobiliyat tushunchalarini mohiyatini talabalarga ochish taklif etiladi. Shundan so'ng Klaster tuzush taklif etiladi, Chunki talabalarga mazkur tushunchalarni tanlash shakllangan bo'ladi.

4. Shaxsni rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar ("Guruhlarda bahs munozara uslubidan foydalanish asosida)

O'quv honasining burchaklariga uchta qog'oz osiladi. Ularning biriga "Shu fikrga qo'shilaman", boshqasiga "Bu fikrga qo'shilmayman", uchinchisiga "Ikqilanyapman" degan so'zlar yozilishi kerak.

2. Darsni tashkil etish qoidalari muhokama qilinadi.

3. Talabalarga "Shaxs rivojlanishiga ko'proq uning irsiyati ta'sir ko'rsatadi" degan fikr bor, shu fikrga o'z munosabatlarini devorga osilgan yozuvlarga mos joylarga turish orqali ifodalashi taklif etiladi.

4. Guruhlarga bo'lingan o'quvchilardan o'z qarashlarini asoslash so'raladi. Bu paytda bir guruhdan ikkinchi guruhga o'tish ruxsat etiladi va shu tariqa guruh o'quvchilarining hammasi jalb etildi.

5. Muammo bo'yicha fikrlar bildirilgach, o'quvchilar ichida munozara davomida o'z nuqtai nazarini o'zgartirganlar va boshqa guruhga o'tuvchilar bo'lishi mumkin. Bunday hollarda ular o'z o'rnini o'zgartirish sabablarini asoslashi kerak bo'ladi.

6. Ishtirokchilardan opponentlari ichida muammo yuzasidan eng ishonchli fikr aytgan o'quvchilarni aniqlash so'raladi.

5. Darsning keyingi bosqichida quyidagi jadvalni to'ldirish kerak bo'ladi.

Nimani bilar edik	Nimalarni bilishni hohlaymiz	Nimalarni bilib oldik

Yuqoridagi jadvalni to'ldirib kelish uyga topshiriq qilib beriladi.

Mashg'ulotdan kutiladigan ijobiy natija:

Mashg'ulot davomida barcha talabalarni faollashtirish, o'tilgan mavzuni mustahkamlash, har bir talabaga o'z fikrini erkin ifoda etishini ta'minlash va shunga erishish. Mazkur texnologiyani qo'llash orqali mashg'ulotning maqsadi va mazmuniga talabalarning o'zlari tezroq yetib keladilar va kelgusi faoliyatlarida nimalarga e'tibor berish lozimligini uzlari anglaydilar, bir-birlariga va uzlariga nisbatan tanqidiy fikrlay oladilar, xulosani ham o'zlari chiqarishga urganadilar

Dars oxirida talabalarni har biriga rangli yo'lduzchalar tarqatiladi. Bu yo'lduzchalarni rangli tamoniga «Bugungi darsdan olgan taasurotingiz» savoliga javob yozishlari so'raladi. Ular yozgan fikrlarni ya'ni yo'lduzchalarni dars boshida rangli lentachaga yozilgan fikr ustiga yopishtiriladi. Vatmanda turli hil lentalar va ularni boshida turli hil fikrli yo'lduzchalar paydo bo'ladi. Bu chiroyli mo'shak ko'rinishida bo'ladi. Demak, bu dars chiroyli mo'shaklar asosida yakunlanadi.

6- mavzu: Ta'lim usullari

Reja:

1. Ta'lim usullari so'zini eshitganingizda fikringizga qanday so'zlar, iboralar keladi. (Aqliy xujum) - 5 daqiqa
2. Ta'lim samaradorligini ta'minlashda turli usullarning ahamiyati haqidagi fikrlar munozara si (3x4 pedagogik texnologiya asosida) - 25 daqiqa
3. Ta'lim usullarini taqqoslash «Qarorlar shajarasi» pedagogik texnologiyasi asosida 25 daqiqa
4. «Kompliment» o'yini Talabalar dars yakunida juftlikda uz xamkorlariga ulardagi mavjud ijobiy sifatlarni ta'kidlab, «kompliment» aytishadi - 5 daqiqa

Mashg'ulot uchun zaruriy uslubiy tavsiyalar va o'quv didaktik tarqatma materiallar

1. Ta'lim usullari so'zini eshitganingizda fikringizga qanday so'zlar iboralar keladi. (Aqliy xujum)
2. Ta'lim samaradorligini ta'minlashda turli usullarning ahamiyati haqidagi fikrlar munozara sini «3x4» pedagogik texnologiya asosida tashkil etish uchun guruh 4 ta kichik guruhlariga bo'linadi. Har bir guruh uchun bir varaq qog'oz olinib, Ta'lim samaradorligini ta'minlashda turli usullarning ahamiyati haqidagi 3 tadan guruh fikrini yozishini hamda, bu fikrlar yozilgan qog'ozni (soat strelkasi yo'nalishi bo'yicha) keyingi guruhlariga uzatish taklif etiladi. Keyingi guruh esa yana bu haqda uchta fikr bilan to'ldirishi va keyingi guruhga uzatishi lozim. Shu tarzda davom etib, har bir qog'ozda 12 tadan fikrlar mujassam bo'lgach, guruhlar bu fikrlarni tahlil etib, guruhning bir umumlashtirilgan fikrini bildirishlari talab etiladi.
3. «Qarorlar shajarasi» pedagogik texnologiyasi asosida ta'lim usullarini taqqoslash uchun doskada yoki katta vatmanda «Qarorlar shajarasi» sxemasi ko'rsatiladi. Guruh 3 ta kichik guruhga bo'linadi va shu sxemadagi muammoni o'qib, uning g'oya degan joyga har bitta guruh o'zining g'oyasini yozadi va butun guruhga qaysi umumiy muammoni muhokama qilishi so'raladi, ko'pchilik fikri umumlashtirilib xulosa chiqariladi.

“Qarorlar shajarasi” pedagogik texnologiyasini qullash uchun tarqatma material:

Har bir guruhga oldindan tayyorlangan quyidagi didaktik tarqatma material beriladi. Uning yuqori qismida umumiy muammo qo'yilgan bo'lib, har bir guruh 5 daqiqa ichida o'zining fikrini ya'ni muammoni afzalligini va kamchiligini yozib qaror chiqarishi kerak.

Ta'lim usullari			
An'anaviy ta'lim usullari		Noan'anaviy ta'lim usullari	
Afzalligi	Kamchiligi	Afzalligi	Kamchiligi
XULOSA:			

Har bir variant qarori muhokama qilinadi va eng yaxshi variant javobi baholanadi.

4. «Kompliment» o'yini Talabalar dars yakunida juftlikda o'z xamkorlariga ulardagi mavjud ijobiy sifatlarni ta'kidlab, «kompliment» aytishadi

7- mavzu: Ta'limning mazmuni

Reja:

1. Ta'lim so'zini eshitganingizda fikringizga qanday so'zlar, iboralar keladi. (Aqliy xujum) – 5 daqiqa
2. Didaktika. Ta'lim tamoyillari. («Klaster» pedagogik texnologiya asosida)- 25 daqiqa
3. Mavzularga oid testlar 30 daqiqa
4. Nimani bilar edik. Nimalarni bilishni hohlaymiz. Nimalarni bilib oldik pedagogik texnologiya asosida 15 daqiqa
5. Darsga yakun yasash 5 daqiqa

Mashg'ulot uchun zaruriy uslubiy tavsiyalar va o'quv didaktik tarqatma materiallar

1. Ta'lim so'zini eshitganingizda fikringizga qanday so'zlar, iboralar keladi. Aqliy xujum metodi asosida.

2. Didaktika. Ta'lim tamoyillari. «Klaster» pedagogik texnologiya asosida. Buning uchun doska uchta qismga bo'lib qo'yiladi:

Didaktika	Ta'lim shakllari	Ta'lim tamoyillari

Auditoriyada shu tarzda guruh a'zolarini xam uch guruhga bo'lamiz. Talabalarga aniq maqsad tushuntirilib, birinchi guruh birinchi usto'nni to'ldirishi, ikkinchi guruh ikkinchi usto'nni, uchinchi guruh uchinchi usto'nni to'ldirishni vazifasi beriladi. Chunki talabalar didaktika, ta'lim shakllari, ta'lim tamoyillari tushunchalarini uzlashtirish bilan ta'lim nazariyasini asosiy tushunchalarini bilishlari va ularga izoh bera olishlari kerak bo'ladi.

Guruhlar tarkibi saqlangan holda talabalarga pedagogika, ta'lim nazariyasi va amaliyotida muhim hisoblangan yuqoridagi tushunchalarning mohiyatini tushunib olishga oid vazifa taklif etiladi.

Ta'lim tamoyillari	Ta'lim metodlari
.....	
.....	

Mazkur vazifani talabalar guruh a'zolari bilan maslaxatlashib, jadvalni tuldirlashlari va guruh lideri tomonidan og'zaki izohlashlari talab etiladi.

O'zaro savol-javoblarda hamda o'qituvchi tomonidan bu ikki tushunchani o'zaro bog'liq va farqli tomonlari so'rab, va o'z - o'zidan dars mavzusini rejaga kiritilgan ta'lim, didaktika, ta'lim shakllari, ta'lim uslublari, metodlari, dars turlari kabi tushunchalarga kelinad. Ta'lim, didaktika, ta'lim shakllari, ta'lim uslublari, metodlari, dars turlari tushunchalarini mohiyatini talabalarga ochish taklif etiladi. Shundan so'ng Klaster tuzish taklif etiladi, Chunki talabalarga mazkur tushunchalarni tanlash shakllangan bo'ladi.

4. Darsning keyingi bosqichida ya'ni yakunida quyidagi jadvalni to'ldirish kerak bo'ladi.

Nimani bilar edik	Nimalarni bilishni hohlaymiz	Nimalarni bilib oldik

Yuqoridagi jadvalni to'ldirib kelish uyga topshiriq qilib beriladi.

Mashg'ulotdan kutiladigan ijobiy natija:

Mashg'ulot davomida barcha talabalarni faollashtirish, o'tilgan mavzuni mustahkamlash, har bir talabaga o'z fikrini erkin ifoda etishini ta'minlash va shunga erishish. Mazkur texnologiyani qo'llash orqali mashg'ulotning maqsadi va mazmuniga talabalarning uzlari tezroq yetib keladilar va kelgusi faoliyatlarida nimalarga e'tibor berish lozimligini o'zlari anglaydilar, bir-birlariga va o'zlariga

nisbatan tanqidiy fikrlay oladilar, xulosani ham o'zlari chiqarishga urganadilar va eng asosiysi bir-birlarini baholay ham oladilar.

3. Har bir talabaga tarqatma material beriladi. O'tilgan mavzularga oid testlar talabalar o'tilgan mavzular bo'yicha 30 daqiqa ichida testlar savollariga javob topishlari kerak.

Shaxsning har tomonlama rivojlanishida ta'limning 3 asosiy pedagogik maqsadini ko'rsating.

*A) dunyoqarash, rivojlanish, tarbiyalash;

V) estetik, bilish, bilim berish,

S) bilish o'rganish, kasb - hunar;

D) amaliy, ilmiy;

Ye) rivojlantiruvchi, amaliy.

Insonda ijtimoiy hayot ta'siri asosida shakllanadigan sifatlar quyidagi qaysi tushunchalar bilan belgilanadi.

*A) shaxs

V) muloqat

S) ta'lim

D) psixika

Ye) individ

Bilimning asosiy tomonlarini atab ko'rsating.

*A) nazariy, amaliy

V) faktologik, bilish

S) mantiqiy, shakllantiruvchi

D) tabiyalovchi, stimulirovat qiluvchi

Ye) dunyoqarashni ilmiy shakllantiruvchi

Ta'lim jarayoning asosiy tuzilish qismlari (elementlari)

*A) o'qitish, o'qish, ta'lim mazmuni

V) o'qish, nazorat, bilimni egallash

S) bilish, bilganini aytib berish

D) tahlil, sintez, boshqaruv

Ye) o'zlashtirish

Davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash quyidagi kompetensiyalariga kiradi:

*A) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasiga.

V) Xalq ta'lim vazirligiga.

S) Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligiga.

D) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti.

Ye) Har-bir soha bo'yicha vazirlikka.

Ilmiy bilimlar tuzimiga ega bo'lish ma'lum ko'nikma va shaxsning ahloqiy jihatdan shakllanganligini ko'rsatadi, Bular.....

*A) bir qator ilmiy bilimlarga ega bo'lishi.

- V) ma'lum ko'nikma va malakalarning xosligi
- S) insonda ijod va qobiliyatning rivojlanishi
- D) insonda intellektning rivojlanishi.
- Ye) insonning faolligi

Pedagog va o'quvchining muloqoti, o'zaro muloqotning orqasida bilim, ko'nikma va malakalar shakllanish jarayoni Shunday ataladi:

- *A) ta'lim
- V) tarbiya
- S) bilim
- D) o'qish
- Ye) muloqat

9. Ta'lim to'g'risidagi islohatning O'zbekiston Respublikasida asosiy maqsadi, bu:

- *A) insonning har tomonlama rivojlanish va kamol topishi
- V) hayot ekologiyasini yaxshilash
- S) ilm fan va madaniyatni yanada rivojlantirish
- D) dunyoviy aloqalarni bir-biri bilan bog'lash
- Ye) ta'limni boshqarishni mukammallashtirish

“Ta'lim to'g'risidagi qonun” O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi IX sessiyasida qachon qabul qilingan?

- *A) 1997 yil
- V) 1998 yil
- S) 1992 yil
- D) 1991 yil
- Ye) 1994 yil

O'zbekiston Respublikasida ta'lim bosqichlari nimadan iborat

- *A) bakalavr magistratura
- V) bakalavr umumiy amaliyot
- S) bakalavriyat, stajyor, internatura
- D) stajyor, magistratura
- Ye) magistratura, klinik ardiratura, stajyor

I. A. Karimov tavsifi bo'yicha pedagogning asosiy maqsadi nimadan iborat.

- *A) har bir talabaning Mustaqil fikrlashini rivojlantirish.
- V) bilim berish
- S) bilim va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish
- D) o'z mahoratini oshirish
- Ye) vijdonan elga xizmat qilish

Pedagogika - bu.....

- *A) insonni tarbiyalash to'g'risidagi fan
- V) insonni har tomonlama o'rganadigan fan

- S) o'rgatish vositalari to'g'risidagi fan
- D) ta'limni rivojlantirish to'g'risidagi fan.
- Ye) insonni rivojlantirish to'g'risidagi fan

Pedagogika fani o'rganadigan manba....

- *A) talabalarning ma'naviy intellektual rivojlanishi
- V) tarbiyalash jarayonini tashkil qilish
- S) ta'lim jarayoni va uning bosqichlari
- D) mutaxassis tayyorlash jarayoni
- Ye) o'rgatish nazariyasi

Pedagogikak fani o'rgatadi...

- *A) yosh avlodni tarbiyalash va o'rgatish (o'kitish)
- V) o'rgatish usullari va shakllari
- S) tarbiyaning qonun va qoidalari
- D) insonlarning o'zaro mo'nsabati
- Ye) pedagog va talabaning o'zaro munosabati

Pedagogikani asosiy mezon bo'lib,

- *A) tarbiya, o'qitish, ilm berish
- V) tarbiya, irsiy, muhim
- S) tarbiya, muloqat, bilim
- D) bilim, ko'nikma
- Ye) milliy tarbiya

Tarbiya – bu jarayon:

- *A) shaxsni har tomonlama taraqqiyoti
- V) mutaxassis bo'lib yetishish
- S) mutaxassislik sifatini oshirish taraqqiyoti
- D) muloqat ilmini o'rganish
- Ye) ta'lim tizimini o'rganish

O'qitish jarayonini asosiy vazifasiga kiradi:

- *A) o'qitish, tekshirish, uyishtirish
- V) o'qitish, tarbiyalash, moslashtirish
- S) o'rgatish, tekshirish, uyushtirish
- D) odamiylik, o'rgatish, hamjihatlik
- Ye) ta'lim, tekshiruvchi, o'xshatish

O'qitish jarayonini asosiy elementlari bo'lib

- *A) ilmiy ma'nosi, ilm berish, o'qitish
- V) ilmni egallash va o'zlashtirish
- S) ilmni qabul qilish va o'zlashtirishni tekshirish
- D) o'qitish va o'qishni o'zlashtirish
- Ye) eslash, fikrlash, xulosa qilish

20.O'qitish jarayoni bosqichlari qayerda to'g'ri ko'rsatilgan

- *A) qabul qilish, fikrlash, tushunish, xulosa qilish, mustaxkamlash, qo'llash

- V) o'quv jarayonini rejalashtirish, uni amalga oshirish va tekshirish
- S) o'quv masalalarini to'g'ri yo'lga qo'yish, o'quvchilarni ilm olishdagi harakati
- D) to'g'ri yondashish, fikrlash, topshirish
- Ye) dasturni amalga oshirish, so'rash, tekshirish

21. Didaktika nima – bu....

- *A) o'qitish nazariyasi va ilm berish
- V) pedagogik ishlar tajribasi
- S) bilish qobiliyatini boshqarish
- D) o'qitish ishlarini uyushtirish
- Ye) (o'z-o'zini o'qitish jarayoni)

22. Inson taraqqiyotidagi asosiy omillarga kiradi...

- *A) irsiyat, muhit, tarbiya
- V) qobiliyat, ehtiyoj, bilim
- S) faollik, shaxs, motivasiya
- D) muhit, xususiyat, muloqat
- Ye) moddiy sharoit, o'qitish

23. Ma'ruzaning asosiy didaktik maksadi nima?

- *A) o'zlashtirish uchun asosiy mo'ljalning shakllanishi
- V) mavzu bo'yicha ma'lumotlarni berish
- S) malaka va ko'nikmaning shakllanishi
- D) idrok qilish motivasiyasini yaratish
- Ye) mustaqil fikrlashni rivojlantirish

24. Muhim ma'naviy madaniyatimizni o'rganish manbalarini va qadimiy tarbiya tizimini ko'rsatish

- *A) Avesto
- V) Qur'on
- S) Qobusnoma
- D) Ahloqiy tarbiya haqidagi kitob
- Ye) Avloniy

25. O'zbek xalq pedagogikasida birinchi manba tushunchasiga nima kiradi?

- *A) Fanlar miqdori (materiallari)
- V) jamiyat va shaxs
- S) bolalarga bo'lgan muhabbat
- D) umuminsoniy qadriyatlar
- Ye) milliy qadriyatlar

26. O'qitishning ko'rgazmalili usuli o'qitishning qaysi turiga kiradi?

- *A) namoyish qilish, rasmlar
- V) mashq qilish, kuzatish
- S) illyustrasiya mashqlari
- D) mashqlar, tushuntirish
- Ye) ko'rgazmalilik tamoyili

27. Amaliy mashg'ulotlarning asosiy didaktik maqsadi nima?

*A) bilimni chuqurlashtirish, ko'nikma va malakalarni ishlab chiqish

V) o'z-o'zini o'qitish malakasi

S) ilmiy bilimlarni qabul qilish

D) iqtisodiy tajribani o'zlashtirish

Ye) mustaqil ta'limni rivojlantirish

28. O'quv jarayonida nazorat vazifasi nima?

*A) tarbiyalash, nazorat qilish, o'qitish

V) nazorat qilish, tashxislash, o'qitish

S) nazorat qilish, chaqiruvchi o'qitish

D) nazorat qilish, tarbiyaviy motivasiya vazifasi

Ye) nazorat qilish, baholash

29. Yoshlarni ma'naviy, ahloqiy tarbiyalashning amalga oshirilish asosi quyidagicha:

*A) umuminsoniy va milliy qadriyatlar

V) Xuquqiy ongni shakllanishi

S) madaniy murojaat etish

D) etika va estetika asoslarini bilish

Ye) nutq madaniyatini shakllantirish

30. Xuquqiy davlat fuqarosini ko'rsating

*A) Qonun va xurriyat, vatanparvarlik, fuqarolik faolligi

V) qonunga xurmat, mehnat madaniyati

S) vatanga muxabbat, faol faoliyat

D) vatan ximoyasiga tayyorligi, imkoniyat darajasidagi mehnat

Ye) Qonunni bilish va konunga amal qilish

4. Darsning keyingi bosqichida ya'ni yakunida quyidagi jadvalni to'ldirish kerak bo'ladi.

Nimani bilar edik	Nimalarni bilishni hohlaymiz	Nimalarni bilib oldik

Yuqoridagi jadvalni to'ldirib kelish uyga topshiriq qilib beriladi.

Mashg'ulotdan kutiladigan ijobiy natija:

Mashg'ulot davomida barcha talabalarni faollashtirish, o'tilgan mavzuni mustahkamlash, har bir talabaga o'z fikrini erkin ifoda etishini ta'minlash va shunga erishish. Mazkur texnologiyani qo'llash orqali mashg'ulotning maqsadi va mazmuniga talabalarning o'zlari tezroq yetib keladilar va kelgusi faoliyatlarida nimalarga e'tibor berish lozimligini o'zlari anglaydilar, bir-birlariga va o'zlariga nisbatan tanqidiy fikrlay oladilar, xulosani xam uzlari chiqarishga urganadilar va eng asosiysi bir-birlarini baholay xam oladilar.

8- mavzu: Xorijiy mamlakatlar pedagogikasi

Reja:

1. Xorijiy mamlakatlar pedagogikasi degan so'zni eshitganigizda qanday fikringizga qanday suzlar, iboralar keladi. (Aqliy xujum) – -10 daqiqa
2. Xorijiy mamlakatlardagi ta'lim tizimi haqidagi fikrlar munozarasi (3x4 pedagogik texnologiya asosida) - 25 daqiqa
3. Xorijiy mamlakatlarda masofada (distansion) ta'lim, loyihaviy o'qitish texnologiyalari (Kichik guruhlarda ishlash uslubi asosida) -35 daqiqa
4. Nimalarni bilardik. Nimalarni bilishni hohlaymiz. Nimalarni bilib oldik pedagogik texnologiya asosida 15daqiqa
5. Darsga yakun yasash 5 daqiqa

Mashg'ulot uchun zaruriy uslubiy tavsiyalar va o'quv didaktik tarqatma materiallar

1 Xorijiy mamlakatlar pedagogikasi degan so'zni eshitganigizda qanday fikringizga qanday so'zlar, iboralar keladi.

2. Xorijiy mamlakatlardagi ta'lim tizimi haqidagi fikrlar munozarasi (3x4 pedagogik texnologiya asosida)

3. Xorijiy mamlakatlarda masofada (distansion) ta'lim Kichik guruhlarda ishlash. Ishtirok etuvchilarni 4 ta kichik guruhga birlashtiring, ularga quyidagi topshiriqlar berilgan tarqatma materiallar va kartochkalarni tarqating.

1-guruh uchun topshiriq: Tarqatma material bilan tanishish va AQSHdagi masofada o'qitish tizimini muhokama qilish va qisqacha taqdimotga tayyorlanish.

2-guruh uchun topshiriq: tarqatma material bilan tanishish va Rossiyadagi masofada o'qitishning ijobiy tomonlarini muhokama etish hamda qisqacha taqdimotga tayyorlanish.

3-guruh uchun topshiriq: tarqatma material bilan tanishish va Kanadada distansion ta'lim rivojlanishining ijobiy tomonlarini muhokama etish hamda qisqacha taqdimotga tayyorlanish.

4 guruh. uchun topshiriq: tarqatma material bilan tanishish va loyihaviy o'qitish texnologiyalarining o'ziga xos ijobiy tomonlarini muhokama etish hamda qisqacha taqdimotga tayyorlanish.

1-guruh uchun tarqatma material

AQShda distansion ta'lim tizimi.

AQShda distansion ta'lim tizimi an'anaviy bo'lgan sirtqi ta'lim tizimiga o'xshab ketadi. Keyingi yillarda yangi informasion texnologiyaning keng sur'atlarda rivojlanishi bilan AQShda distansion ta'lim umumdavlat tusini kasb etdi. AQShda masofada o'qitish texnologiyasi boshqa mamlakatlarda nisbatan birmuncha erta amaliyotga joriy etila boshlandi.

60-yillarda AQSHda televideniye asoslangan texnologiyadan keng foydalanildi. Korporasiyalar, tashqi lozlarning hodimlari tomonidan taqdim etilgan ko'plab televizion o'quv kurslari ishlab chiqildi. Bu dasturlarni tez orada ko'p mamlakatlarga yo'ldosh orqali televizion kurslarni uzatish imkoniyati paydo bo'ldi. 1984 yilda bu dasturlar Milliy texnologik universiteti (National Technological University) yaratilishiga olib keldi. Keyinchalik u 40dan oshiq universitet injener maktablarining majmuasiga aylandi (Yu.Sagdullayev, 1998).

Universitet talabalari oldindan rejalashtirilgan jadval bo'yicha jonli efirda ma'ruza tinglashlari yoki bu ma'ruzani videokassetaga yozib olingan nusxasini tinglashlari mumkin bo'ldi. Shuningdek, talabalar lektorga telefon orqali yoki elektron pochta orqali savollar berish imkoniyatiga ega bo'lishdi.

Talabalarning o'quv materialini o'zlashtirishlarini nazorat qilish jadval asosida tayanch universitetda yoki konsultasiya po'ntida o'tkaziladi. Shuningdek, Bunday uchrashuvlar paytida talaba mustaqil ish uchun navbatdagi topshiriqni oladi. Magistrlik darajasini olish uchun har bir talaba (dissertasiyaga tayyorlanmasdan) kamida 10 ta kursni tinglashi kerak bo'ladi. (Master of Engineering). Talaba dissertasiya himoyasi bilan esa (Master of Science) kamida 8 ta kursni tinglashi shart.

Milliy Texnologik universitet tajribasi o'rganilgan va u xalqaro elektron universitet modeli sifatida tavsiya etilgan.

AQSHda distansion ta'lim dasturlari bo'yicha hozirda 1, 5 mln.dan oshiq talaba tahsil olmoqda. Ular 1989 yildan boshlab ommaviy axborot tizimi (Public Broadcasting System, PBS-TV) orqali o'quv kurslarida qatnashib kelishmoqda. Katta yoshlilarni o'qitish dasturi (PBS Audit Learning Service). 1990 yildan boshlab 1500ta kollejlar va mahaliy stansiyalar bilan hamkorlikda ishlab kelmoqda. Dastur boshqaruv, biznes, fanning turli sohalaridagi kurslarni taklif etadi. To'rtta maorifni yorituvchi kanal orqali uzatiladigan o'quv kurslari butun mamlakatga yetib boradi, yo'ldosh orqali esa ular boshqa mamlakatlarga ham uzatiladi.

AQSH harbiy kuchlari ham Bunday maorifni yorituvchi kurslarning imkoniyatlaridan boshqa mamlakatlardagi o'zining harbiy xizmatchilariga, bilim berishda foydalanadi. Turli xil texnologiyalardan foydalangan holda 4000 dan oshiq harbiy xizmatchilar o'z kurslarni o'rganishdi, ularning 70% dan oshig'i esa to'lig'icha kursni o'zlashtirib oldi. Amerika ochiq universiteti Nyu York texnologiya maktabining dasturi esa mana bir necha yildirki amaldagi kema moryaklariga kurslarning o'qilishini nazorat qilib kelmoqda.

Pensilvaniya Davlat universiteti o'z bo'linmalarida talabalarni masofada o'qitib kelayotganiga 1 asrdan ziyod vaqt bo'ldi. Universitetda Bunday o'qitish metodi bilan qator kurslarni o'rganish, guvohnoma va oliy ma'lumot to'g'risida diplom ham olish mumkin. Ko'pgina kurslar (talabalarning o'z o'qituvchilari bilan muloqotga kirishuvi uchun) e-mail aloqalaridan, foydalanishni ko'zda tutadi. Shuningdek, kompyuter anjumani deb nom olgan va o'qituvchi bilan talabalar o'rtasidagi interaktiv aloqani ifodalovchi kurslar ham mavjud. Ayrim kurslarni Internet dan foydalangan holda o'rganish mumkin.

Hozirgi paytda universitetda an'anaviy mustaqil ta'limni talaba o'z o'qituvchisi bilan o'qitish markazida, turli vaqtda, har bir semestrda yuzma-yuz uchrashishi

lozim bo'lgan formal sinfda o'qitishni birga qo'shib olib boruvchi "Ochiq ta'lim" texnologiyasi takomillashmoqda.

Ochiq ta'limda turli joylarda bo'lgan bir nechta auditoriyalar real bir vaqtda bir sinf xonasiga Picturel Tel - eng yangi interaktiv televideniya texnologiyasi yordamida birlashtiriladi va nihoyat, teleanjumanda, universitet tinglovchilari qator kurs dasturlarini o'rgatish bilan birga, o'quv mashg'ulotlarini bajarish bo'yicha muloqotga kirishish, bir-biri bilan maslahatlashish kabi imkoniyatlarga ham ega bo'ladilar.

An'anaviy pochta, yo'ldoshli aloqa, interaktiv televideniye, telefon, faks, kompyuter va internetdan foydalangan holda Pensilvaniya Davlat universiteti katta miqdordagi talabalarni birlashtiradi va ularga uzoq masofadan turib sifatli, yangi ta'lim dasturlari bo'yicha bilim olish imkoniyatini yaratadi.

Universitet talabalari dunyoning turli joylarida yashashlariga qaramasdan, masofada o'qitish metodi ularni deyarli bir guruhda ta'lim olishlariga imkon yaratadi. Distansion ta'limdan foydalanish tarixi juda uzo'ndir. Qachonlardir u an'anaviy pochta dars jarayonida qo'llashni o'z ichiga olgan bo'lsa, keyinroq radio, televideniye, audio va video kassetalari bu metod uchun juda qo'l keldi. Hozirda esa audiovideo va kompyuter teleanjumani kabi kommunikasiyaning zamonaviy vositalari keng qo'llanilmoqda.

Pensilvaniya Davlat universitetida distansion ta'lim tizimidan foydalanish tajribasini tahlil etish natijasida, biz tomonimizdan quyidagi texnologiyalar aniqlandi:

a) ta'limning mustaqilligi; b) ochiq ta'lim; v) kontaktli dasturlar; g) teleanjumanlar (Distance Education, 1997) "Ta'limning mustaqilligi"ni tanlangan holda talaba oliy ma'lumot haqida diplom olish, bilimlarini kasbiy lavozim darajasida oshirib borish yoki shaxsan o'zi uchun bilimlarni egallash. Bu o'rinda talaba, bilimlarni olish uchun chegaralanmagan miqdordagi vaqtga ega bo'ladi.

"Ochiq ta'lim" - mustaqil ta'limni va universitet sinf xonasida o'qitishni uyg'o'nlashtiradi. Bunday ta'lim ideal ravishda shaxsiy qayta tayyorlash uchun va kasbiy malakalar imkoniyatini oshirib borish uchundir. Ayrim uyushmalar yoki tashqi lotlar shaxs uchun qo'llanadigan kurs mavzularini oldindan kelishib olishini, Bunday kurslarda instruktoring ishtirok etishini, ularda universitet ekspertlarining joylashishini ham kelishib olishi mumkin. Kurslar 12 haftadan 26 haftagacha davom etadi. Kurs mustaqil ishlardan, sinf xonasida instruktor bilan mashg'ulot o'tkazishdan yoki interaktiv texnologiya yordamida mashg'ulot o'tkazishdan tashkil topadi. Sinf xonasida ishlash paytida talaba ma'lum bir mavzuni o'zlashtirishga to'plangan talabalar guruhining bir qismiga aylanadi. Bu esa unga kurs materialini to'liq o'zlashtirishiga imkon beradi.

Pensilvaniya Davlat universitetida qo'llanadigan yana bir texnologiya "Kontaktli dasturlardir". "Kontaktli dasturlar orqali olinadigan bilim universitet tizimiga kirmagan holdagi tashqi lotlar uchun tuzilgan. O'z ekspert guruhi bilan universitet turli xil institut - assosiasiyalar, agentliklar, uyushmalar, ittifoqlar, biznes tashqi lotlari va boshqalar uchun ta'limiy dasturlarni yetkazib beradi va ular ishini boshqaradi.

Ta'lim berish yo'ldoshli aloqa, interaktiv video, audio va kompyuter anjumani, audio va video kasetalaridan foydalanish asosida tuzilgan huddi Shunday texnologiyani Toshkent shahridagi oliy o'quv yurtlari ham amaliyotga joriy etishga o'rin ishmoqda. Bu yerda ham Internet, WWW-texnologiyasi, video va audio anjumanlaridan foydalanish yo'lga qo'yilgan. Shuningdek, distansion ta'limdan foydalangan makroiqtisodiyot va mikroiqqtisodiyot bo'yicha o'quv kurslarini tashkil etish ham ko'zda tutilmoqda.

"Teleanjumanlar" tajribali ekspertlar (o'z ishining ustalari) tomonidan sinf va anjuman xonalari orqali uzoq masofalarga bilimlarni yetkazishini ta'minlaydi.

Uzoq masofadan turib boshqaruvchi tajribali instruktor yo'ldosh orqali o'nchalik katta bo'lmagan talabalar guruhiga o'quv kursini berib borishi ko'zda tutiladi. Talabalar Bunda mashqlarni bajarishadi, turli xil masalalar birgalikda muhokama etiladi.

O'quv kurslari doimiy ravishda takomillashib boradi, marketing tadqiqotlari o'tkaziladi, broshyura va reklamalar chiqariladi. Barcha talabalar ro'yxatdan o'tkaziladi va ularga Pensilvaniya Davlat universitet distansion ta'lim ofisida o'qishni tugatganliklari haqida tegishli hujjatlar beriladi.

AQShning ayrim oliy o'quv yurtlarida distansion ta'lim tizimiga o'tish talabalarga o'tkaziladigan mashg'ulotlarning shaklini o'zgartirish bilan boshlandi. Talabalar predmet bo'yicha xatto eng ko'zga ko'ringan mutaxassislarning ma'ruzalarini ham qabul qilishmay qo'yishdi. Studio-classes (sinf-studiyalar)ni yaratishga kelishib olindi. Qator oliy o'quv yurtlari (jumladan, Nyu-York shtatidagi Rensselaer politexnik instituti) auditoriyalarga kompyuterlarni joylashtirib, studiyali o'qish jarayoniga katta qismdagi kurslarni olib kirishdi. Endilikda ko'pgina mashg'ulotlar talaba va kompyuterning o'zaro muloqoti shaklida o'tkazilmoqda. Ular qisqa ko'rinish kasb etmoqda va tajribalarga, amaliy vazifalar yechimiga egadir.

AQShning ko'pgina universitetlarida (masalan, Ouburna universitetida) video va televizion anjumanlarni o'z ichiga olgan dasturlardan foydalanilmoqda. Bu esa talabalarga yo'ldosh orqali o'quv tarmoqlariga ko'shilishlarini (maslan, Stenford instruktaj televizion tarmog'iga) va tegishli universitetlaridagi bo'linmalarning ma'ruzalarida ishtirok etishlarini va hatto ikki tomonlama tasvirdagi video orqali savollar berishlarini ta'minlaydi. Internet orqali o'qitish esa talabaga uning uchun istalgan qulay bir paytda ma'ruzaga qatnashish imkonini beradi, Chunki, ma'ruzalar universitet hududiga kirib kelgandan bir-ikki soat o'tgach barcha talabalar uchun ularning saytlaridan foydalanish imkoniyati tug'iladi. talabalar o'qituvchilarning Web-saytidagi ma'ruza va topshiriqlarni ko'zdan kechiradilar, o'zlarining savol va izohlarini e'lonlarning elektron doskasiga kiritadilar. Ko'pchilik kurslarning asosini tashkil etuvchi guruhli proyektlar (loyihalar) hamkorlikda elektron pochta orqali va on-line anjumanlarida amalga oshiriladi. Fizika fakultetida «Internet»dan foydalanishiga yangicha yondashish yuz berdi. Bunda Web Assign tizimida (tarmoqli topshiriqlar tizimida) professorlar talabalarga grafika, videolavhalar, Java tilidagi lavhalardan iborat uy vazifalarini yuborishadi. Talabalar taklif etilgan bir qancha algoritmlaridan birini tanlashadi. Elektron pochta bo'yicha ular tomonidan

jo'natiladigan javoblar avtomatik tarzda tekshiriladi va izohlar berilib, yuboruvchi talabaga qaytariladi.

Shuningdek, bu yerda talabalar va o'qituvchilarni bir-biriga yagona kompyuter tarmog'ida bog'lovchi yangi dasturdan ham samarali foydalanilmoqda. O'qituvchilar va talabalar Bunda huddi interaktiv ish muhitdagidek ishlashadi. Topshiriqni olgan talaba o'z javobini jo'natadi. Bir vaqtning o'zida u to'g'ri javoblar foizini ifodalovchi grafikga ega bo'ladi. O'qituvchilar va talabalar Bunday dasturning afzallik tomoni deb zudlik bilan aloqaga kirishish va yuqori darajali javobgarlikni bilishmoqda (I.Abarinova, 1999).

2-guruh uchun tarqatma material.

Rossiyada distansion ta'limning rivojlanish yo'llari

1995 yilda Rossiya oliy o'quv yurtlari davlat qumitasi federal darajada distansion ta'lim tizimini yaratish va rivojlantirish yo'riqnomasini ishlab chiqdi. 1996 yilda Rossiya distansion ta'lim yagona federal tizimini yaratish haqida qaror qabul qilindi. Bu qarorga muvofiq har bir fuqaro to'liq ta'lim olish bo'yicha konstitusion huquqqa ega bo'ldi. Yo'riqnoma va mazkur qaror ta'lim sohasi tomonidan (jahon ta'lim tizimida Rossiya federasiyasining teng xuquqli integrasiyasiga muvofiq keluvchi) siyosiy islohotlarni mustahkamlash yo'lida qo'yilgan dastlabki qadamlar bo'ldi. Distansion ta'lim tizimining tarmoqli yoki mintaqaviy maqomini belgilab bergan qator o'quv muassalarini birlashtiruvchi Rossiya distansion ta'lim universiteti (RUDO) yaratildi.

2000 yilda 1 trln. rublga yaqin pulning investisiya qilinishi bilan distansion ta'limning yagona federal tizimi 3 mingga yaqin o'quvchilarni o'zi moliyaviy jihatdan ta'minlash imkoniyatiga ega bo'ldi.

Hozirgi vaqtda distansion ta'limni amalda joriy qilish bo'yicha Rossiya Federasiyasi oliy o'quv yurtlarida jadallashtirilgan tayyorgarlik ishlari boshlab yuborildi. Mazkur ishda yetakchi oliy o'quv yurti sifatida Moskva iqtisodiyot va statistika instituti belgilandi. Dastlabki o'qishlar distansion ta'lim texnologiyasi elementlaridan foydalanish asosida o'tkaziladi. O'quv materiallari pechatlangan shaklda tayyorlaniladi, ularni talabalarga berishning asosiy vositasi rolini E-mail o'taydi. 1996 yilning sentyabriga kelib 4 mingdan oshiq o'quvchilarni o'zida mujassamlashtirgan oliy o'quv yurtlari va o'rta maktab bazalarida distansion ta'lim bo'yicha Rossiya universitetining 70 ta filiali ochilgandi.

RF oliy o'quv yurtlari davlat qumitasining 17.06.1996 yilgi N 1062 buyrug'iga asosan "RF oliy o'quv yurtlari davlat qo'mitasi tasarrufidagi oliygohlarning distansion ta'lim tizimini informasion analitik tarzda ta'minlash markazi - UION" o'z ishini boshladi. Shuningdek, yana iqtisod va boshqaruv sohasida distansion ta'lim bo'yicha ilmiy-uslubiy kengash ham yaratildi.

Moskva Aloqa va informatika texnik universiteti tomonidan tarmoqlarga distansion ta'limni bosqichma-bosqich joriy etib borish rejali ishlab chiqildi va u aloqa sohasida mintaqaviy hamdo'stlik (RSS) tashqi lotiga tavsiya etildi. Bu reja quyidagilardan tarkib topgan:

- aloqa va informatika bo'yicha yagona siyosatni ta'minlash maqsadida 1998 yilda aloqa va informatika sohasi bo'yicha distansion ta'lim assosiasiyasini yaratish;

- tarmoqda distansion ta'limni uslubiy jihatdan ta'minlash strukturasini, distansion ta'lim bo'yicha o'quv rejalarini ishlab chiqish, o'qituvchilar tarkibini tayyorlash (1998 y);

- predmetlar bo'yicha uslubiy ta'minotni va o'quv rejalarini ishlab chiqish (2000 yilgacha);

- tarmoqda distansion ta'lim strukturasini va undan foydalanish tajribasini baholash (1999 y). Distansion ta'lim ishtirokchilari uchun o'quv binolarini jihozlash (1999 y);

- distansion ta'lim tizimi bo'yicha tarmoqda o'qituvchilarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini joriy qilish (2000 y);

- aholiga maorif xizmatlarini ko'rsatish uchun distansion ta'limni joriy etish;

- distansion ta'lim tizimining olamshumul ahamiyat kasb etishi.

Jahon amaliyotida bir nechta o'quv muassasasining hamkorligi asosida qurilgan distansion ta'lim modeli keng qo'llanilmoqda. Bu esa o'quv dasturlari sifatini ta'minlashga, uslubiy va didaktik materiallarning bahosini pasaytirishga imkon yaratadi va turli mamlakatlarning bir ixtisoslikka yo'naltirilgan oliy o'quv yurtlari o'quv jarayonini integrasiyalashtiradi.

Elektron aloqa vositalaridan foydalanish nuqtai nazaridan masofada o'qitishning an'anaviy texnologiyasi o'quv informasiyalaridan telefon suhbatlari, audiokonferensiyalar yoki elektron pochta bo'yicha xabarlar jo'natish shaklida umumiy foydalanish aloqa tarmog'i bazasida quriladi. Hozirgi davrda Rossiya telefon tarmog'i kanallar sifatini, elektron pochta ta'minlashga o'zlashtiradi, u yana distansion o'qitish metodida qo'llaniladigan qo'shimcha grafiklarni o'zida saqlab turishda ham yetarlicha imkoniyatga ega emas.

Shu boisdan Rossiyada hozirgi davr uchun distansion ta'lim tizimining texnik vositasi sifatida monitor vazifasini televizor, axborotlarni to'plagich vazifasini maishiy magnitofon bajaradigan arzon "uy" kompyuterlariga muvofiq keluvchi ikki tomonlama yo'ldoshli kanallar (V-SAT)dan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

3-guruh uchun tarqatma material.

Kanadada distansion ta'lim

Geografik jihatdan minglab kilometrlarga cho'zilib ketgan Kanada uchun kommunikasiya vositalariga bo'lgan talablar o'ta kuchlidir. Ayniqsa odamlar va tovarlarni mamlakat hududida u yoq bu yoqqa qo'chirish, ularga axborotlar berish masalasi juda muhimdir. Shu sababli hozirgi paytda elektron kommunikasiya infrastrukturasining o'sishi va rivojlanishi Kanadada kuzatilmoqda, Bunday vositalar o'qitishning barcha bosqichlarida va kasbiy tayrgarlik jarayonida keng qo'yilmoqda.

Bunday infrastrukturaning paydo bo'lishiga mamlakatning ko'pgina sektorlari va rayonlari, shaxsan, maorif sohasidagi sheriklar, shuningdek davlat va shaxsiy sektorlarda olib borilgan ijtimoiy ishlar ham o'z hissasini qo'shdi. Kanadada o'qishga bo'lgan imkoniyatlar, imtiyoz sifatida emas, balki asoslangan huquq sifatida qoladi. O'qishga bo'lgan Bunday yondashuv har bir talabaning qiziqishlariga muvofiq keladi. Biroq, doimiy ravishda bu huquqni saqlab qolish zarurati tug'iladi, va shu sababli talabalardan o'qitishda qo'llaniladigan kommunikasiya vositalaridan samarali foydalana bilish talab etiladi.

Keyingi o'n yilliklarda Kanadada distansion ta'limga bo'lgan qiziqish yuksalib ketdi. Buning oqibatida distansion ta'lim dasturlari bo'yicha o'qitishga va distansion ta'lim kurslarida qo'llaniladigan kommunikasiya sohasining kengayishiga keng imkoniyatlar yaratildi, bu esa Kanadada oliy ta'lim tizimining rivojlanishiga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi.

Kanadada distansion ta'lim dasturlari kollej va universitet talabalariga, shuningdek, yana biznes va sanoat sohasidagi ta'lim dasturlari bilan ishlovchi kishilarga mo'ljallangan. Amalda, distansion ta'lim dasturlari yoki to'liq akademik kurslar 40dan oshiq universitetlarda, shuningdek, ko'p Kanada kollejlari va boshqa ijtimoiy ta'minlanuvchi muassasalarda olib borilishi ko'zda tutilgan. Bu dasturlarni taklif etayotgan o'qitish kurslari turli xil aloqa vositalaridan foydalanmoqda, bir vaqtning o'zida ko'pchilik dasturlarda o'qigan talabalar maxsus sertifikat (guvohnoma) olishsa, shuningdek bitiruvchilarga Bunday sertifikatlar bermaydigan ko'p sonli kurslar ham mavjud. Keyingi o'n yillarda kommunikasiya va informasion texnologiya sohasida yuz bergan katta o'zgarishlar Kanadada distansion ta'lim bo'yicha o'qitishga ham o'z ijobiy ta'sirini o'tkazdi. Shuningdek, masofada o'qitish dasturlariga bo'lgan talablar ham yuksaldi, Chunki endilikda Kanadada distansion ta'lim nafaqat sanoatda, balki yana ham hodimlarni, ham mijozlarni tayyorlash maqsadida savdo va kasbiy tashqi lotlarda ham keng qo'llanila boshlandi. Bundan tashqari, talabalarning masofada o'qitishning yangi texnologiyalaridan foydalanishga bo'lgan qiziqishlari ham tobora kuchayib bormoqda.

Kanada universitetlari o'z-o'zini kommunikasion vositalar uchun moliyaviy ta'minlashni hisobga olgan holda boshqa mamlakat talabalarini distansion ta'lim kurslarida ishtirok etishini chegaralamaydi. "Masofada o'qitish"ning afzalligi, shu jumladan, mahaliy universitetlar va kollejlarda o'tilmaydigan o'quv kurslarining tashkil etilishi, xalqaro hamkorlik va o'qitishning ishlash bilan birga qo'shib olib borilishi talabalarni butun lay o'ziga jalb etmoqda. Shuningdek, Kanada yana BMTga a'zo mamlakatlar ichida ko'p madaniyatligi bilan ham ajralib turadi va Kanadagi o'qitish kurslari butun jahon ta'lim dasturlarining bir qismi hisoblanadi.

Distansion ta'lim Kanadada yangi asrda ham yanada rivojlanadi va u "an'anaviy" ta'lim tizimi va maorifning ijtimoiy institutlarini integrasiyalashuviga ham o'z ulushini qo'shadi. Distansion ta'lim o'qituvchilar va talabalar uchun, ularni qayerda bo'lishlaridan qat'iy nazar, odatiy holga aylanadi.

4 guruh uchun tarqatma material

Xorijiy mamlakatlarda loyihaviy ta'lim texnologiyasi

Xorijiy mamlakatlarda, ayniqsa, Finlandiya, Germaniyada loyihaviy ta'lim texnologiyasi keng qo'llanadi.

Loyiha (lotincha: proiectum – oldinga tashlab yuborilgan narsa) o'rganishga xizmat qilishi, nazariya bilan amaliyotni bog'lashi, korxonada uchraydigan biror ish jarayoniga taaluqli bo'lishi, o'quvchilar tomonidan iloji boricha mustaqil rejalashtira olininadigan va o'quvchilar tomonidan cheklangan bir doirada mustaqil ravishda tashqi llashtirishni va amalga oshira oladigan bo'lishi lozim. Bunda o'quvchilar o'zlarining kasbiy ravishda muammoni yechish va xamkorlik usullarini va strategiyalarini ishlab chiqarish imkoniyatlarga ega.

Ta'lim doirasida loyiha misol uchun biror instrument yoki uskuna yoki uning bir qismi bo'lishi mumkin. Avtomexanik bo'lmoqchi bo'lgan o'quvchilar uchun loyiha misoliga biror motorni tuzatish yoki santexniklar uchun biror narsani o'rnatish bo'lishi mumkin. Loyiha bu doim bir topshiriq bo'lib, uning natijasi «oddiy» bir mahsulot bo'ladi. Lekin „loyiha“ deganda har doim jismoniy bir «mahsulot» tushunilmaydi, Chunki ko'plab Shunday faoliyat turlari borki, ularga Bunday ta'rif to'g'ri kelmaydi.

Masalan elektriklar uchun biror buzuvq elektr zanjirni tuzatish ham loyiha bo'lishi mumkin. Ofis-menedjerlik sohasida esa barcha ishlarni loyihaga aylantirish mumkin, agar bu ishlar yaxlit xarakterga ega bo'lsa va o'lchaniladigan natijaga olib kelsa, masalan, buxgalteriya uchun mo'ljallangan kompyuter dasturini o'rnatish va hokazo.

O'quvchilar odatda vazifalarni o'zaro taqsimlab loyiha guruhi sifatida butun lay mustaqil ravishda rejalashtirishdan boshlab to amalga oshirish va xulosa chiqarishgacha birgalikda ishlashadi. Topshiriq berilgan vaqtdan boshlab to uning yechilishigacha amaliyot o'qituvchisi o'quvchilarni mustaqil ravishda o'rganishga jalb etib turishi lozim. Amaliyot o'qituvchisi o'rganish jarayonini nazorat qiladi va sistematik ravishda boshqaradi; u faqat juda kerak bo'lgan holda jarayonga aralashishi mumkin xolos.


Loyiha usulining asosiy maqsadi shuki, bir tomondan topshiriqni bajarish uchun kerakli barcha bilimlar va ko'nikmalar jarayon davomida o'rganilishidir. Boshqa tomondan esa, topshiriqni yechish usuli doim tanlangan poydevor kvalifikatsiyalarni birdan rivojlantirishga mo'ljallangan bo'lishidir.

Loyiha ishini tayyorlashda, yo'naltiruvchi tekst usuli kabi, amaliyot o'qituvchisi quyidagi vazifalarni bajarishi lozim:


Amaliyot o'qituvchisi

- loyiha ishi uchun biror qo'llash misolini belgilashi,
- loyiha topshiriqlarini ishlab chiqarishi,
- loyiha ishini o'quv jadvaliga kiritishi,
- loyiha qanday o'tishini o'ylab chiqishi va topshiriqni o'quvchilarning imkoniyatlariga moslashtirib, ular topshiriqni bajara olishlarini ta'minlashi,
- o'quvchilarni loyiha ishi bilan tanishtirishi va ularni ishiga aralashmasdan kuzatib turishi lozim.

Loyiha usulini amalga oshirilishi yo'naltiruvchi tekst usuli kabi mukammal harakatlanish modeliga asoslanadi:



1. Ma'lumot yig'ish



kvalifikatsiyalar)

Bu davr (faza) uchun amaliyot o'qituvchisi avval bir-necha material va xujjatlarni tayyorlashi lozim:


- loyiha (chizmalar, elektroshemalar)
- loyihaga tegishli topshiriqlar ta'rifi
- ma'lumot yig'ishga oid yo'naltiruvchi savollar
- o'quv maqsadlar haqida ma'lumotlar (shu jumladan tanlangan poydevor

Loyiha o'quvchilarga chizmalar yoki elektroshemalar shaklida berib qo'yiladi. Qo'shimcha sifatida topshiriq ta'rifi ham beriladi.

So'ng amaliyot o'qituvchisi o'quvchilarni yo'naltiruvchi savollardan foydalanib topshiriq ta'rifini tahlil qilishga jalb etadi. O'quvchilar mustaqil ravishda darslik, jadvallari kitoblar, shaxsiy yozuvlari, tarqatma materiallar asosida ma'lumot yig'ishadi. Bundan tashqari ular boshqa texnik savollar, qo'llanishi mumkin bo'lgan ish tartib bosqichlari, ish pog'onalari, instrumentlar va kerakli ish materiallarga oid hujjatlardan foydalanishlari mumkin.

Amaliyot o'qituvchisi o'quvchilarga texnik chizmalarni foydalanishga berishidan maqsad, ular shu chizmalar asosida muhim qismlarni chizib olishadi va o'z ish hujjatlariga ko'chirib olishadi.

So'ng o'quvchilar ham o'z navbatida loyiha ishlash tartibining ta'rifini tuzishlari lozim. Shu ravishda ular loyiha kechishi va sifati uchun muhim bo'lgan asosiy o'zaro aloqalarni, alohida ish pog'onalarini, qaysi pog'onada va qaysi vaqtda oraliq nazorat o'tkazilishini va hokazolarni aniqlashadi.



2. Rejalashtirish

So'ng o'quvchilar mustaqil ravishda ish rejasini to'ldirishadi. Ish rejasi ularga formulayar sifatida berilishi mumkin. Bu rejada ish bosqichlari ularning texnologik ketma-ketligida, material, instrumentlar, yordamchi vositalar va hokazo rejalashtirilishi lozim.

Bu yerda ham o'quvchilar shaxsiy yozuvlaridan, masalan nazariy darsda qilingan yozuvlaridan foydalanishadi.


O'quvchilar o'zlari ham Shunday reja loyihasini ishlab chiqarishlari mumkin. Bu narsa ta'limning ilgariroq bosqichida amalga oshirilishi mumkin, lekin aslida keragi yo'q. Negaki ish rejasi – bu berilgan topshiriqni bajarish uchun kerakli bosqichlar ketma-ketligining ta'rifidir. Lekin ish rejasi biror ish jarayonining bir qismi bo'lishi ham mumkin. Ish rejasida texnologik bosqichlar va ular uchun ajratilgan vaqt, kerakli instrumentlar va uskunalar hamda mehnat xavfsizligiga oid chora-tadbirlar haqida ma'lumotlar ham ko'rsatilishi ham mumkin.

Ish rejasi bilan bir vaqtning o'zida bir-necha har xil kichik guruhlarda «qisman loyiha»lar ustida ishlaydigan o'quvchilar orasida vazifalar taqsimlanishini va sifat nazorati rejalashtirish mumkin.

3. Qaror qabul qilish

O'quvchilar amaliyot o'qituvchisi bilan birgalikda rejalashtirish davrida (fazasida) yuzaga kelgan natijalarni muhokama qilishadi. Amaliyot o'qituvchisi bu diskussiyani moderatorlik yo'lida va «pinvand» doskasini ishlatib o'tkazishi mumkin. Bunday ravishda har xil yechimlar bir biri bilan taqqoslanadi va eng yaxshi variant tanlab olinadi.

Bu ish paytida kichik guruhlar a'zolari ham aniq belgilanadi. Ularning vazifasi butun loyihaning qisman topshiriqlarini hal qilish bo'ladi.



4. Amalga oshirish

O'quvchilar ish topshirig'ini ish rejasi asosida mustaqil ravishda bajarishadi. Ular yakka tartibda yoki kichik guruhlarda ishlashlari mumkin.

Amaliyot o'qituvchisi jarayonni nazorat qilib turadi, poydevor kvalifikatsiyalar rivojlanishini tahlil

qiladi va nazorat natijalarini maxsus «Nazorat protokoli»ga yozib qo'yadi.

Bu protokolda o'quvchilarni baholash kriteriylari bo'lishi lozim. Bu mezonlar tegishli poydevor kvalifikatsiyalarni xisoblab aniqlashni ko'rsatadi. Poydevor kvalifikatsiyalar deganda, bu misol uchun muloqot qobiliyatlari, xamkorlik, ma'suliyatga ongli munosabat va mustaqillik kabi qobiliyatlar bo'lishi mumkin.

Poydevor kvalifikatsiyalar rivojlanishi bir-necha pog'onalarda ko'rsatilgan bo'lishi mumkin. Bu pog'onalar o'quvchilar bu kvalifikatsiyalarga qay darajada erishganlarini ko'rsatadi.

Odatda poydevor kvalifikatsiyalar rivojlanish darajasining 4 pog'onasi farqlanadi:

Reproduksiya pog'onasi

O'quvchi yangi mazmun larni o'rganib oladi, masalan taqlid qilish orqali va o'rgangan narsasini amaliyot o'qituvchisi boshchiligida bevosita qo'llay oladi.

Reorganizasiya pog'onasi

O'quvchi endi asosiy ko'nikma va bilimlarni o'zlashtirib oldi va muayyan topshiriqlarga nisbatan – xattoki uzoqroq vaqt o'tganidan keyin ham - qo'llay oladi.

Mavjud bilimlarni boshqa vaziyatda qo'llash pog'onasi

O'quvchi o'rganib olgan bilimlarini, kerak bo'lsa, biroz o'zgartirib ishlatadi va ularni o'zgargan va yangi vaziyatlarda qo'llay oladi.


Muammoni hal qilish pog'onasi

O'quvchi Shunday topshiriqlarni bajaradiki, bu topshiriqlarda u eski va yangi bilimlarini bir biriga qo'shib ishlatadi. U sabab va oqibat orasidagi o'zaro aloqalarini aniqlay oladi, sistematik ravishda rivojlantira oladi, baholashni hamda tanlashni biladi va yangi va ijodiy yechimlarni topa oladi.

Bu 4 pog'ona poydevor kvalifikatsiyalarni rejalashtirish paytidayoq inobatga olinadi. Amaliyot o'qituvchisi o'zining «Nazorat varog'i»ga Shunday indiqatorlarni, ya'ni nishonalarni kiritishi mumkinki, ular unga biror pog'ona erishilganligini ko'rsatib turishadi.

5. Tekshirish

O'quvchilar o'z ish natijalarini o'zlari tekshirishadi (masalan ish natijalarini sifat kriteriylari asosida baholash va baholarni maxsus «Kontrol varog'i» yoki «Baholash varog'i»da qayd etishadi).



O'quvchilar bir birining natijalarini tekshirishga ham jalb etiladi. (Boshqalarni baholash).

Instruktor natijalarni maxsus «Xulosalar varog'i»da qayd etadi va

o'zining «Nazorat protokoli» asosida hulosalar chiqaradi.

6. Xulosa chiqarish

O'quvchi va amaliyot o'qituvchisi ish jarayonini va natijalarini birgalikda yakuniy suhbat davomida tahlil qilishadi (asl ko'rsatgichlarni norma ko'rsatgichlari bilan taqqoslash; norma ko'rsatgichlariga erisha olmaganlik sabablarini aniqlash. Keyingi safar nimalar yaxshiroq qilinishi lozim?).

Buning uchun Amaliyot o'qituvchisi «Nazorat protokoli» hamda «Xulosalar protokoli»dan foydalanadi.

9- mavzu: Iqtisodiy ta'lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish.

Reja:

1. Ta'lim piramidasi muhokamasi. Litsey va kollejlarda iqtisodiy ta'lim yo'nalishida bir dars loyahasini ishlab chiqish. (Kichik guruhlarda ishlash usuli asosida) 20 daqiqa
2. Mustaqil loyihaviy ish sifatida iqtisodiy fanlarni o'qitishda interfaol uslub yoki pedagogik texnologiyalarni amalda qo'llash bo'yicha tayyorlangan taqdimotlar va ular muhokamasi 50 daqiqa


3. Iqtisodiy fanlarni o'qitish samaradorligini oshirish yo'llari haqidagi fikrlar munozarasi (3x4 pedagogik texnologiya asosida) 10 daqiqa

Mashg'ulot uchun zaruriy uslubiy tavsiyalar va o'quv didaktik tarqatma materiallar

1. Ta'lim piramidasi muhokamasi. Lisey va kollejlarda iqtisodiy ta'lim yo'nalishida bir dars loyahasini ishlab chiqish. Kichik guruhlarda ishlash uchun guruh 2 ta kichik guruhga bo'linadi va ularga quyidagi tarqatma materiallar berilib, ushbu masalalar bo'yicha taqdimotlar tayyorlash topshiriladi. Takdimot tayyorlash uchun 10 daqiqa va har bir guruh taqdimoti uchun 3 daqiqadan ajratiladi.

1– guruh uchun tarqatma material.

Ta'lim piramidasi



1. Ma'ruza - 5%.
2. O'qish - 10%.
3. Videosul, namoyish - 20%.
4. Tajribani namoyish qilish - 30%.
5. Bahs-munozara muhokama- 40%.

6. Amaliy mashqlar - 50%.
7. Roli,ish o'yinlari, kichik guruhlarda ishlash, loyihalash - 75%.
8. Taqdimotlar tayyorlash va amalga oshirish, o'zlashtirganlarini boshqalarga o'rgatish - 90%.

2– guruh uchun tarqatma material.

Litsey va kollejlarda iqtisodiy ta'lim yo'nalishida bir dars loyihasi na'munasi:

№	Dars mazmuni, qismlari	Ajratiladigan taxminiy vaqt
1	Darsning tashkiliy qismi	5 daqiqa
2	Aqliy xujum	5 daqiqa
3	Kichik ma'ruza (yangi mavzu bayoni)	20 daqiqa
4	Interfaol uslublar va pedagogik texnologiya orqali mustahkamlash	30 daqiqa
5	Interfaol uslublar va pedagogik texnologiya orqali mustahkamlash, teskari aloqa o'rnatish, baholash	15 daqiqa
6	Darsga yakun yasash	5 daqiqa

2. Mustaqil loyihaviy ish sifatida iqtisodiy fanlarni o'qitishda interfaol uslub yoki pedagogik texnologiyalarni amalda qo'llash bo'yicha tayyorlangan taqdimotlar va ular muhokamasi

Iqtisodiy fanlarni o'qitishda ma'ruza darsida ko'rib o'tilgan interfaol uslub yoki pedagogik texnologiyani amalda qo'llash bo'yicha taqdimot tayyorlash va shu mavzu bo'yicha amaliy mashg'ulotda amalda namoyish etish ushbu mavzudagi ma'ruza mashg'ulotidan keyin mutaql ish sifatida topshiriladi. Bu mustaqil guruhliy loyihaviy ishlar muhokamasi bo'lib, guruhdagi talabalar 4-5 kishidan iborat kichik guruhlariga bo'linib, o'zlari tayyorlab kelgan biror iqtisodiy fan yo'nalishi va ushbu fan bo'yicha mavzusi xususiyatlaridan kelib chiqib, interfaol uslub yoki yangi pedagogik texnologiyani qo'llash bo'yicha taqdimot namoyish etadilar va taqdimotlar muhokamasi uyushtiriladi.

3. Iqtisodiy fanlarni o'qitish samaradorligini oshirish yo'llari haqidagi fikrlar munozara si 3x4 pedagogik texnologiya asosida tashkil etish uchun guruh 4ta kichik guruhlariga bo'linadi. Har bir guruh uchun bir varaq qog'oz olinib, uning yuqori qismiga iqtisodiy fanlarni o'qitish samaradorligini oshirish yo'llari haqidagi 3 tadan guruh fikrini yozishini hamda, bu fikrlar yozilgan qog'ozni (soat strelkasi yo'nalishi bo'yicha) keyingi guruhlariga uzatish taklif etiladi. Keyingi guruh esa yana bu haqda uchta fikr bilan to'ldirishi va keyingi guruhga uzatishi lozim. Shu tarzda davom etib, har bir qog'ozda 12 tadan fikrlar mujassam bo'lgach, guruhlar bu fikrlarni tahlil etib, guruhning bir umumlashirilgan fikrini bildirishlari talab etiladi.

“Pedagogika» fanini o’rganish bo’yicha test namuna lari.

1. «Didaktika» so’zi qanday ma’noni bildiradi?

- A. “Didaktika” so’zi yo’noncha “Didasko” so’zidan kelib chiqqan bo’lib, «o’rgataman» degan ma’noni bildiradi.
- V. “Didaktika” so’zi grekcha “Didasko” so’zidan kelib, «tarbiyalayman» degan ma’noni bildiradi.
- S. “Didaktika” so’zi grekcha “Didasko” so’zidan kelib chiqqan bo’lib, «o’qitish, o’rgatish» degan ma’noni bildiradi.
- D. “Didaktika” so’zi grekcha “Didasko” so’zidan olingan bo’lib, «shakllantirish» degan ma’noni bildiradi.

2. Ta’limning mazmuni qanday manbalarda aks ettiriladi?

- A. Ta’limning mazmuni o’quv materiallarida aks ettiriladi.
- V. Barcha javob to’g’ri.
- S. Ta’limning mazmuni: o’quv rejalarida, dasturlarda va darsliklarda aks ettiriladi.
- D. Ta’limning mazmuni darsliklarda aks ettiriladi.

3. Oliy ta’lim necha bosqichdan iborat?

- A. 2
- V. 5
- S. 3
- D. 7

4. Oliy ma’lumot haqida davlat hujjati nima?

- A. Bitiruvchilarga beriladigan rasmiy hujjat
- V. Ta’lim standartlarini bajarganlik to’g’risida hujjat
- S. Olingan akademik darajaga muvofiq ishlash huquqini beruvchi hujjat
- D. Barcha javoblar to’g’ri

5. O’quv fan dasturi deganda nimani tushunasiz?

- A. Ta’lim mazmuni uning talabalar tomonidan o’zlashtirilishining eng maqbul usullari, axborot manbalari ko’rsatilgan me’yoriy hujjat
- V. Bakalavr yoki magistr o’zlashtirishi lozim bo’lgan mavzular ro’yxati
- S. Faqat nazariy bilimlar mavzulari ro’yxati
- D. Faqat amaliy bilimlar, laboratoriya ishlari mavzulari ro’yxati

6. Umumiy o’rta ta’lim bosqichlarini ayting?

- A. Boshlang’ich ta’lim (1-4 sinflar), umumiy o’rta ta’lim (1-9 sinflar)
- V. Boshlang’ich ta’lim (1-4 sinflar) tayanch o’quv muassasasi.
- S. Boshlang’ich ta’lim (1-4 sinflar) o’quv muassasasi -litsey.
- D. Boshlang’ich ta’lim (1-4 sinflar) o’quv muassasasi- gimnaziya.

7. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturini ro'yobga chiqarishning birinchi bosqichi qaysi yillarga mo'ljallangan?

- A. 1997-2000 yillar
- V. 1996-2000 yillar
- S. 1997-2001 yillar
- D. 1998-2001 yillar

8. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturini ro'yobga chiqarishning ikkinchi bosqichi qaysi yillarga mo'ljallangan?

- A. 2001-2005 yillar
- V. 2000-2005 yillar
- S. 1999-2004 yillar
- D. 2001-2006 yillar

9. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturini ro'yobga chiqarishning uchinchi bosqichi qaysi yillarga mo'ljallangan?

- A. 2005 va undan keyingi yillar
- V. 2004 va undan keyingi yillar
- S. 2005-2010 yillar
- D. 2006 va undan keyingi yillar

10. Uzluksiz ta'limning faoliyat ko'rsatish prinsiplari nimalardan iborat?

- A. Ta'limning ustivorligi, demokratlashuvi, insonparvarlashuvi, ijtimoiylashuvi, milliy yo'naltirilganligi, uning tarbiya bilan uzviy bog'liqligi.
- V. Uzluksiz ta'limning ijtimoiylashuvi, uning tarbiya bilan uzviy bog'liqligi.
- S. Ta'limning tarbiya bilan uzviy bog'liqligi, milliy yo'naltirilganligi.
- D. Uzluksiz ta'limning demokratlashuvi, ustivorligi va milliy yo'naltirilganligi.

11. O'quv muassasasigacha ta'lim bu-

- A. Shaxs 6-7 yoshga yetgo'ncha davlat va nodavlat o'quv muassasasigacha tarbiya muassasalarida hamda oilalarda amalga oshiriladi
- V. Shaxs 6-7 yoshga yetgo'ncha, davlat muassasalarida hamda oilalarda amalga oshiriladi
- S. Shaxs 7 yoshga yetgo'ncha oilalarda hamda shaxslar bog'chalarida va shaxslar uylarida amal oshiriladi
- D. Shaxs 6-7 yoshga yetgo'ncha davlat o'quv muassasasigacha tarbiya muassasalarida hamda oilalarda amalga oshiriladi

12. Umumiy o'rta ta'lim: bu

- A. Tayanch o'quv muassasasi va o'quv muassasasi-litsey.
- V. To'qqiz yillik majburiy ta'lim
- S. Tayanch o'quv muassasasi va o'quv muassasasi-gimnaziya.
- D. Boshlang'ich ta'lim va o'quv muassasasi-gimnaziya.

13. O'rta- maxsus, kasb-hunar ta'limi: bu...

- A. Umumiy o'rta ta'lim negizida o'qish muddati 3 yil bo'lgan majburiy ta'lim
- V. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda amalga oshiriladi.

S. Tayanch o'quv muassasasi ta'lim negizida va maxsus o'rta o'quv muassasalarda amalga oshiriladi

D. O'quv muassasasi-gimnaziya ta'lim negizida va maxsus o'rta o'quv muassasalarida amalga oshiriladi.

14. O'zbekiston Respublikasida nechta ta'lim tizimi mavjud?

A. 1

V. 2

S. 3

D. 4

15. «Ustoz» respublika jamg'armasi qachon tashkil etilgan?

A. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 30 dekabrda 576-qaroriga asosan

V. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 31 dekabrda Farmoniga asosan

S. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 11 martda 109-qaroriga asosan

D. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 13 mayda 203 - qaroriga asosan

16. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ning maqsadi nimadan iborat?

A. Shaxsni hayotga tayyorlash

V. Kadrlar tayyorlash tizimi muassasalarini yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlash.

S. Ta'lim sohasini tubdan isloh qilish.

D. Barcha javoblar to'g'ri

17. Uzlüksiz ta'lim tizimini afzalligi nimada?

A. Ta'lim tizimida uzilish yo'qligida

V. Takrorlanish yo'qligida

S. To'g'ri javob A va V

D. Barcha javoblar to'g'ri

18. Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari nimalardan iborat?

A. Shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan, ishlab chiqarish

V. Fan, ishlab chiqarish, uzluksiz ta'lim

S. Shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan,

D. Barcha javoblar to'g'ri

19. Bilim bilan bilishning farqi nimada?

A. Bilim-bu-jarayon, bilish shu jarayonning mahsuli

V. Bilim birlamchi, bilish ikkilamchi

S. Bilimning hosilasi bilish

D. Barcha javoblar to'g'ri

20. Oliy ta'lim qanday bosqichlardan iborat?

A. Bakalavriat va magistraturadan

V. Bakalavriat va magistratura va aspiranturadan

S. Bakalavriat va magistratura, aspirantura va ad'yunuturadan

D. To'g'ri javob yo'q.

21. Bakalavriat nima?

A. Magistraturaga kiruvchilarni tayyorlaydigan bosqich

V. Umumiy o'rta ta'lim negizida oliy ta'lim yo'nalishlaridan biri bo'yicha chuqur bilimlar beradigan oliy ta'lim

S. O'rta-maxsus. Kasb-hunar ta'limi negizida oliy ta'lim yo'nalishlaridan biri bo'yicha fundamental bilimlar beradigan, o'qish muddati to'rt yildan kam bo'lmagan tayanch oliy ta'lim.

D. Diplom va ko'krak nishonli oliy ma'lumot egasini tayyorlovchi ta'lim turi

22. Bakalavr, magistr nima?

A. Ilmiy daraja va o'nvonga ega kadrlar

V. Oliy ta'limning tegishli bosqichiga muvofiq dasturlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirgan shaxslarga beriladigan akademik darajalar

S. Ilmiy va pedagogik mahorati mukammal shaxslar

D. Mehnat bozoridagi eng qadrlı mutaxassislar

23. Sizningcha talaba o'zlashtirish bilan bog'liq og'ir vaziyatdan qanday chiqishi lozim?

A. Mukammal bilim evaziga

V. Tinimsiz mehnat evaziga

S. Hayotiy qiziqiy evaziga

D. Yuksak tarbiya evaziga.

24. Talabalar bilimini yakuniy baholashda yozma ishlar necha so'zdan iborat bo'lishi talab etiladi?

A. 1200 dan kam emas

V. 2000 dan kam emas

S. 2200 dan kam emas

D. 2500 dan kam emas

25. Pedagogik texnologiya so'z birikmasi nimani anglatadi?

A. O'quv predmeti bo'yicha metodik ishlanma

V. Maqsadga erishish usullari

S. O'quv jarayoni moduli

D. O'quv jarayonining me'yoriy standarti

26. O'zbekiston oliy o'quv muassasasi tizimida nechta oliy o'quv yurtlari faoliyat ko'rsatadi?

A. 58

V. 56

S. 54

D. 52

27. O'zbekiston oliy o'quv muassasasi tizimida nechta universitet faoliyat ko'rsatadi?

A. 16

V. 14

S. 12

D. 10

28. O'zbekiston oliy o'quv muassasasi tizimida nechta institut faoliyat ko'rsatadi?

A. 42

V. 40

S. 38

D. 36

29. Boshqarish madaniyati nima bilan belgilanadi?

A. Barcha javoblar to'g'ri

V. Rahbarning ma'naviy yetukligi, siyosiy madaniyati va malaka darajasi bilan

S. Rahbarning tashkilotchilik qobiliyati, halolligi va mehnatsevarligi bilan.

D. Rahbarning bilim saviyasi, xodimlarga bo'lgan munosabati va intizomi bilan

30. Boshqarishning iqtisodiy metodlari.....

A. Iqtisodiy manfaatlardan foydalanishga asoslanadi.

V. Buyruqlar, farmoyishlar va qo'llanmalar chiqarish

S. Kadrlarni to'g'ri tanlashga asoslanadi

D. Boshqarish apparatining muayyan tuzilmasini tuzishga asoslanadi.

31. Boshqarishning tashkiliy-ma'muriy metodlari...

A. Har bir boshqaruv bo'g'inining funksiyalarini belgilashga asoslanadi

V. Jamoa manfaatlaridan foydalanishga asoslanadi

S. Umum jamiyat manfaatlaridan foydalanishga asoslanadi

D. Shaxsiy manfaatlardan foydalanishga asoslanadi.

32. «Milliy mafkura» deganda nimani tushunasiz?

A. Odamlarning dunyoqarashi va mentalitetiga asoslangan, xalq kelajagini ko'zlagan va unga xizmat qiladigan g'oyalar majmui.

V. Yangi tashkil topgan ijtimoiy harakat.

S. O'zining maqsadiga ega biror siyosiy partiya

D. Zamonaviy taraqqiyot yo'li.

33. Yoshlarning intellektual kamoloti nimaga bog'liq?

A. Ma'naviy o'z-o'zini anglash, kelajakka ishonish, milliy mafkurani bilishga

V. Ota-onani e'zozlash, kattalarni hurmat qilishga.

S. Sport bilan shug'ullanish, musobaqalarga qatnashishga.

D. Erkin fikrlash, o'z fikrini himoya qilishga.

34. Shaxs xususiyatlarining shakllanishiga qanday omillar ta'sir qiladi?

A. Irsiy, psixofiziologik omillar va shaxsning bilim darajasi

V. qat'iyatlilik va prinsipiallik

S. Tashqi ta'sirlarga beriluvchanlik

D. qoidalarga bo'ysunmaslik

35. Shaxsning to'g'ri shakllanishi uchun qanday omillar zarur?

A. Mafkuraviy faoliyat, oila va o'quv muassasasi tarbiyasi, jamiyatdagi faoliyati

V. Oiladagi tarbiya, atrof-muhit ta'siri

S. Jamoa ishlaridagi ta'siri

D. Sport, san'at, mehnat faoliyati

36. «Ma'naviy barkamol inson» deganda qanday odamni tushunasiz?

A. Ma'naviy, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni chuqur egallagan va unga amal qilgan, o'z kasbining fidoiysi bo'lgan ziyoli shaxsni

V. Adabiyot, san'at, falsafa, huquqqa doir chuqur bilimga ega bo'lgan kishini

S. Diniy bilimlarni chuqur o'zlashtirgan shaxsni

D. O'z kasbini yaxshi egallagan, ma'naviy jihatdan yetuk shaxsni.

37. «Milliy ma'naviy qadriyatlar» deganda nimani tushunasiz?

A. Muayyan millatga tegishli bo'lgan barcha (axloqiy, diniy, badiiy, moddiy, siyosiy) ma'naviy merosni.

V. O'zbek millatiga tegishli barcha og'zaki va yozma badiiy, ilmiy, falsafiy ta'limotlarni.

S. Faqat bir millat tomonidan yaratilgan, avloddan-avlodga o'tib kelayotgan barcha moddiy merosni.

D. Axloq-odob, siyosat, falsafa sohasida yaratilgan milliy ma'naviy qadriyatlarni.

38. «Milliy ong» nima?

A. Faqat biror millatga xos bo'lgan milliy ruhiyat, kayfiyat, tuyg'ular, qarashlar, nazariyalar va g'oyalar majmuasi.

V. Muayyan millatning ilg'or kishilari tomonidan ishlab chiqilib, ushbu millat kishilari o'rtasida yoyilgan ijtimoiy-siyosiy qarashlar

S. Biror bir millatga tegishli bo'lgan ong.

D. millatning ravnaqi uchun xizmat qiladigan, uning mustaqilligini ta'minlovchi g'oyalar.

39. «Ilmiy boshqaruvning otasi» unvonini olgan mutafakkir....

A. A.Fayol

V. D.Makregor

S. G.Emmeron

D. P.Sofokl

40. Uzlüksiz ta'lim tizimi necha turdan iborat?

A. 7 ta

V. 6ta

S. 8 ta

D. 5ta

41. Talabaning fan bo'yicha o'zlashtirishini baholash turlari

A. Joriy baxolash, oraliq baxolash, yakuniy baxolash

V. Og'zaki va yozma bitiruv

S. Oraliq va yakuniy

D. Joriy va yakuniy

42.O'zbekistonda pedagogik tafakkur va ta'lim-tarbiya taraqqiyoti tarixini shartli ravishda necha davrga bo'lish mumkin?

A) 6 davrga;

V) 4 davrga;

S) 3 davrga;

D) 2 davrga;

43. Amir Temurning tug'ilgan yili, oyi, kuni qaysi bandda to'g'ri ko'rsatilgan?

A) 1236 yil 17 may

V) 1336 yil 9 aprel

S) 1336 yil 19 aprel

D) 1300 yil 29 aprel

44. «Amir Temur ordeni qachon ta'sis etilgan?

A) 1996 yil 26 aprelda;

V) 1992 yil 24 aprelda;

S) 1997 yil 10 mayda;

D) 1998 yil 21 dekabrda;

45. Alisher Navoiy 550 yilligi qaysi yili nishonlangan?

A) 1992 yilda;

V) 1993 yilda;

S) 1991 yilda;

D) 1994 yilda;

47. Alisher Navoiyning «Lison ut-tayr» dostoni necha baytdan iborat?

A) 100 ta baytdan;

V) 100 ming baytdan;

S) 10 ming baytdan;

D) 500 baytdan;

49. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti qachon va kim tomonidan ta'sis etilgan?

A) 1991 yil 12 aprelda adabiyotshunoslar tomonidan;

V) 1989 yil 13 sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov tomonidan;

S) 1996 yil 9 aprelda Vazirlar Mahkamasi tomonidan;

D) 1990 yil 20 sentyabrda O'zbekiston Fanlar Akademiyasi tomonidan;

50. «Jadid» so'zining ma'nosi:

A) «Jadid» so'zi arabcha so'z bo'lib, «yangi» degan ma'noni bildiradi;

V) «Jadid» so'zi lotincha so'z bo'lib, «yuksalish» degan ma'noni bildiradi;

S) «Jadid» so'zi grekcha so'z bo'lib, «yangilik» degan ma'noni bildiradi;

55. Birinchi marta jadidchilik qayerda paydo bo'ldi?

A) Toshkentda;

V) Rossiyada;

C) Qrimda.

56. Abdurauf Fitrat qachon va qayerda tavallud topgan?

A) 1886 yil Buxoro shahrida;

V) 1890 yil qo'qon shahrida;

S) 1902 yil Toshkent shahrida;

59. Abdulla Avloniy qachon va qayerda o'zining yangi usuldagi o'quv muassasasini ochdi?

A) 1907 yilda Toshkentning «Mirobod» mahallasida;

V) 1903 yilda Farg'onada «Tegirmonchi» mahallasida;

S) 1908 yilda Namanganda «Oqtepa» mahallasida;

60. Abdulla Avloniyning «Turkiy guliston yoxud ahloq» asari qachon yozilgan?

A) 1901 yilda;

V) 1900 yilda;

S) 1902.

61. Abdurauf Fitratning ijodiy va ijtimoiy faoliyatining ikkinchi davri qaysi yillarni o'z ichiga oladi?

A) 1918-1924 yillarni;

V) 1910-1921 yillarni;

S) 1925-1926 yillarni;

62. «Pedagogika» fanining asoschisi deb kimni tan olingan?

A. Ya.A. Komenskiy

V. Suxomlenskiy

S. Alisher Navoiy

D. Forobiy

63. Tarbiya jarayonining asosiy vazifasi nimalardan iborat?

A. Tarbiyaning asosiy vazifasi - yosh avlodni xalqning hayotini yaxshilashga, Vatanining gullab-yashnashiga sarflashni biladigan, istaydigan a'zolari qilib tayyorlashdir.

V. Tarbiyaning asosiy vazifasi - yoshlarni vatanparvar, mard, jasur, irodali shaxs qilib shakllantirishdan iborat.

S. Barcha javoblar to'g'ri

D. Tarbiyaning asosiy vazifasi - bilim va ko'nikmalarni egallashni tarbiyalash

64. Shaxsni shakllanishida ta'sir etuvchi asosiy omillar qaysilar?

A. Faoliyat, biologik omillar, ijtimoiy omillar

V. Muhit, jamoa tashqi lotlari

S. Irsiyat, oila

D. Barcha javoblar to'g'ri

65. «Tarbiya bizlar uchun yo hayot - yo mamot, yo najot -yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir».

Yuqoridagi fikrlar kimning fikrlari?

A. Alisher Navoiy

V. Amir Temur

S. Abdulla Avloniy

D. Abu ali ibn Sino

66. Tarbiya jarayonining tamoyillari qaysi bandeda to'g'ri ko'rsatilgan?

A. tarbiyaning bir maqsadga qaratilganligi;

V. tarbiyaning hayot, mehnat bilan O'zbekistonimizning mustaqilligi, gullab-yashnashi yo'lida qilinayotgan fidoyi ishlar bilan bog'lanishi;

S. shaxsni jamoada, jamoa orqali tarbiyalash;

D. Barcha javoblar to'g'ri

67. Tarbiya jarayonining umumiy usullari qaysilar.

A. Ijtimoiy ongni, axloqni shakllantirish usuli.

V. To'g'ri javob A,S,D.

S. Rag'batlantirish usuli.

D. O'z-o'zini tarbiyalash.

68. Pedagogik muhit deganda nimani tushunasiz?

A. Pedagogik muhit- pedagogik maqsadlarga muvofiq ravishda maxsus tuzilgan shaxslararo munosabatlar tizimidir.

V. Pedagogik muhit-dars jarayonidir

D. Pedagogik muhit -pedagog va talaba o'rtasidagi munosabatlar yig'indisi

S. Pedagogik muhit-shaxslararo munosabatlar tizimidir.

69. Pedagogik faoliyat tushunchasiga ta'rif bering?

A. Tarbiyachining ilmiy ishlar olib borishi

V. Tarbiya jarayonini tashkil etish

S. Pedagogik faoliyat - estetik, ahloqiy, siyosiy va iqtisodiy maqsadga muvofiq ravishda yosh avlodni hayotga tayyorlashning aqlan o'ylab ko'rilgan, katta yoshdagilarning ijtimoiy zarur bo'lgan mehnatining o'ziga xos turidir.

D. Bevosita pedagog va talabaning faoliyati.

70. Sharq pedagogikasi namoyondalari nomlari keltirilgan qatorni ko'rsating?

- A. Al-Xorazmiy, Abu Ali Ibn Sino, Forobiy
- V. Abu-Rayxon Beruniy, Ya.A.Komenskiy, Alisher Navoiy
- S. Abduraxmon Jomiy, Suxomlenskiy, Forobiy
- D. Barcha javoblar to'g'ri

71. Ma'lumot nima?

A. Ma'lumot - o'qitish jarayoni va uning natijasi hisoblanib talabada bilim, iqtidor va ko'nikmalarning o'zlashtirilganligini, bilim qobiliyati o'sganligi va ular asosida ilmiy dunyoqarash, shaxsiy sifatlar shakllanganligin, ularning ijobiy kuchlari va qobiliyatlarining qay darajada rivojlanligini anglatadi.

V. Ma'lumot - ma'lum maqsadga yo'naltirilgan, rejali ravishda amalga oshiriladigan pedagog-talaba-pedagog muloqati bo'lib, uning natijasida talabada ma'lumot, tarbiya va umumiy shakllanish, rivojlanish amalga oshadi.

S. Ma'lumot - Odamlarning ma'lumoti faqat ta'limninggina natijasi bo'lib qolmay, balki ota-ona va oila tarbiyasi o'z-o'zini tarbiyalash va ommaviy axborot vositalarining (kino, radio, zangori ekran va xakozo) ta'sirida amalga oshiriladi.

D. Barcha javoblar to'g'ri

72. Huquqiy tarbiya deganda nimani tushunasiz?

A. Huquqiy tarbiya - huquqiy madaniyatni, talabalarda qonunga buysunuvchanlik xatti-harakatini shakllantirish.

V. Huquqiy tarbiya - aqliy jihatdan shakllantirish

S. Huquqiy tarbiya - tabiatga bo'lgan munosabatni shakllantirish

D. Huquqiy tarbiya - tabiat, jamiyat qonunlariga bo'lgan munosabatni tarbiyalash

73. Ta'lim nima?

A. Ta'lim - o'quv jarayoni.

V. Ta'lim - ma'lum maqsadga yo'naltirilgan, rejali ravishda amalga oshiriladigan pedagog-talaba-pedagog muloqatidir

S. Ta'lim - o'quv faoliyati natijasi

D. Ta'lim - pedagog va talabaning o'zaro muloqoti

74. O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi qonuni qachon qabul qilingan?

A. 1999 yil 11 aprel

V. 1991 yil 29 avgust

S. 2000 yil 29 mart

D. 2001 yil 29 avgust

75. «Texnologiya» so'zining lug'aviy ma'nosi.

A. «Texne»-texnika, «logos»-ta'limot

V. Texnologiya - ishlab chiqarish usuli.

S. «Texne»-mahorat, san'at, «logos»-tushuncha, ta'limot.

D. Buyumni tayyorlash jarayoni.

76. Pedagogik texnologiya tushunchasi ta'lim tajribasida necha darajada qo'llaniladi?

- A. 1 darajada - psixologik darajada.
- V. 3 darajada- umumpedagogik darajada, qisman pedagogik darajada.
- S. 2 darajada - qonuniy darajada, noqonuniy darajada.
- D. Hech qanday darajada qo'llanilmaydi.

77. «Texnologiya» tushunchasining ta'rifi.

- A. Texnologiya - ishlab chiqarish jarayoni.
- V. Texnologiya - tayyor maxsulot olish usuli.
- S. Texnologiya - buyumni tayyorlash metodlari majmui.
- D. Texnologiya - tayyor mahsulot olish uchun ishlab chiqarish jarayonlarida qo'llaniladigan usul va metodlar majmui.

78. «Pedagogik texnologiya» tushunchasiga YUNESKO ning ta'rifini ko'rsating.

A. Pedagogik texnologiya - amaliyotga joriy etish mumkin bo'lgan ma'lum pedagogik tizimning loyihasidir.

V. Pedagogik texnologiya - ta'lim tarbiyadan ko'zlangan maqsadga erishish uchun qo'llaniladigan vositalar, usullar majmui.

S. Pedagogik texnologiya - oldindan belgilangan, loyihalashtirilgan o'quv-tarbiya jarayonini izchil amalga oshirishdir.

D. Pedagogik texnologiya - bu, ta'lim shakllarini qulaylashtirish maqsadida texnik vositalar, inson salohiyati, hamda ularni o'zaro ta'sirini inobatga olib, o'qitish va bilim o'zlashtirishning barcha jarayonlarini belgilash, yaratish va qo'llashning tizimli metodidir.

79. Texnologik xarita nima?

A. Jarayonni bosqichma-bosqich usulda ifodalash, Bunda maqbul vositalar ko'rsatiladi.

V. Pedagogik bilimlarni amaliyotda qo'llash.

S. O'tiladigan mavzularni rejalari.

D. Noan'anaviy darslarni rejalari.

80. «Fikrlar xujumi» usuli qanday usul?

A. Fikrlarni to'g'ri ifodalash.

V. Katta miqdordagi g'oyalarni yig'ish, talabalarni bir xil fikrlash inersiyasidan holi qilish, ijodiy vazifalarini yechish jarayonida dastlab paydo bo'lgan fikrlarni yechish

S. Yangi pedagogik texnologiyalarni o'qitish jarayonida fikrlar majmuasini yetkazib berish.

D. Barcha javoblar to'g'ri.

81. Ta'lim - tarbiyaga an'anaviy yondashuv bu--

A. Kadrlar tayyorlash va ta'lim tizimidagi o'quv-tarbiya ishlari sohasidagi muammolarni yechish.

V. O'quv-uslubiy adabiyotlar majmualarini, yangi pedagogik texnologiyalarni yaratish va amaliyotga joriy etish.

S. Pedagog ma'lum axborotni talabaga gapirib berishi, talaba esa bu bilimni xotirada saqlashi va bu bilimni uning xotirasidaligini imtihonda savol berib bilish.

D. A va V javoblar to'g'ri.

82. Texnologik jadval nima?

A. Texnologik jarayonning shartli tasviri, uning alohida funksional elementlariga bo'linishi va ular o'rtasidagi mantiqiy aloqalarning belgilanishi.

V. Jarayonni bosqichma-bosqich ifodalash.

S. Chegaralangan texnologiyani aniqlaydigan jadval.

D. Ta'lim-tarbiya jarayonida ko'p variantlilik.

83. «Klaster texnologiyasi» usuli bu-

A. Pedagogik texnologiyada bo'laklardan tuzilgan ijtimoiy birlik.

V. Yangi pedagogik texnologiyalarni yaratish va amaliyotga joriy etish.

S. Yangi pedagogik texnologiyalarni yaratish va hayotga tadbiq etish.

D. Bu fikrlarni tarmoqlanishi pedagogik strategiya bo'lib, u talabalarni biron-bir mavzuni chuqur o'rganishga yordam beradi. Talabalarni taalluqli tushuncha yoki aniq fikrni erkin va ochiq ravishda ketma-ketlik bilan uzviy bog'langan holda tarmoqlashlariga o'rgatiladi.

84. Pedagogik texnologiya usulining ilmiy metodik asoslari.

A. Ta'lim-tarbiya qonuniyatlari.

V. Bixevioristik ta'limot.

S. Ishlab chiqarish texnologiyasi.

D. Pedagogik tizim nazariyasi, tizimli, texnologik yondashuv.

85. «Texnologiya» tushunchasi fanga qaysi yilda kirib kelgan.

A. 1999 yilda.

V. 1872 yilda.

S. 2001 yilda.

D. 1890 yilda.

86. «Reyting» - so'zining ma'nosi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan.

A. «Reyting» - inglizcha so'z bo'lib, baholash, individual koeffitsient ma'nosini anglatadi.

V. «Reyting» - lotincha so'z bo'lib, bilim natijalari ma'nosini anglatadi.

S. «Reyting» - fransuzcha so'z bo'lib, bilimni baholang degan ma'nosini anglatadi.

D. V-javob to'g'ri.

87. Pedagogik texnologiyaning qonuniyatlari, tamoyillari.

A. Ta'lim-tarbiyaning birligi, yaxlitligi.

V. Ta'lim shakllarining optimallashtirish.

S. Talaba va talaba faoliyatining oqilona uyushtirish.

D. Hamma javob to'g'ri.

88. Virtual stend nima?

A. Virtual stend-bu o'quv muassasasilarida, kollejlarda, litseylarda joriy etilgan ko'rgazma qurollari.

V. Virtual stend-bu o'quv amaliy stendi yoki o'quv malaka ustaxonasi bo'lib, talabalarining nazariy bilimlarini mustahkamlashga kompyuter dastur va texnologiyalari orqali ma'lum yo'nalishda ko'nikmalarni hosil qilishga yordam beradi.

S. Virtual stend-bu talabaning shaxsiy o'quv anjomi.

D. Barcha javoblar to'g'ri.

89. Ta'lim-tarbiyaga tadqiqiy-ijodiy yondashuv bu-

A. Bu yondashuv ta'limning maqsadi, talabada biror muammoni yechish qobiliyatini o'stirish, yangi bilimni mustaqil o'zlashtirish, harakatning yangi usullarini topish, shaxsan tashabbus ko'rsatish.

- V. Talaba o'z ilmiy ishlarini, natijalarini hayotga tadbiq etilishiga erishish.
- S. Talabalar ijodiy ishlarini, natijalarini raxbarlariga topshirishi.
- D. Hamma javob to'g'ri.

90. Masofadan o'qitishning afzalliklari.

- A. O'qitishning ijodiy muhiti.
- V. Mustaqil ta'lim olishning imkoniyatlari.
- S. Ish joyidagi katta o'zgarishlar.
- D. Barcha javoblar to'g'ri.

91. «Bumerang texnologiyasi» - usuli

- A. Talabalar fikrini o'zgartirishga qaratilgan.
- V. Mashg'ulot davomida o'quv materialini chuqur va yaxlit holatda o'rganish, ijodiy tushunib yetish usuli.
- S. Biror mavzuni o'rganishdan avval talabalarni fikrlash faoliyatini jadallashtirish usuli.
- D. A va S javoblar to'g'ri.

92. Pedagogik innovasiya bu-

- A. Uzlaksiz ta'limni boshqarish.
- V. Sinf jihozlarini ta'mirlash.
- S. Darslarni tabiat qo'ynida o'tkazish.
- D. Ta'limga yangiliklarni kiritish.

93. Individual ta'lim bu-

- A. Guruhlarda o'tkaziladigan ta'lim.
- V. Yaxshi o'zlashtirgan talabalarni jamlab o'tkaziladigan ta'lim.
- S. Pedagog bir talaba bilan ishlab, ta'limni tashkil etish, boshqarishi, nazorat etishi.
- D. Barcha javoblar to'g'ri.

94. Faoliyat sohasini ekstensiv bosqichi bu-

- A. Kitoblarni paydo bo'lishi.
- V. Kompyuterlarni paydo bo'lishi.
- S. Internetni paydo bo'lishi.
- D. Mashinalarni paydo bo'lishi.

95.. Faoliyat sohasini intensiv bosqichi bu-

- A. Darsliklardan yakka tartibda foydalanish.
- V. Individual ta'lim tizimidan foydalanish.
- S. Kollektiv ta'lim tizimidan foydalanish.
- D. Kompyuterdan yakka tartibda foydalanish.

96. Masofaviy o'qitish usulidan foydalanishning kamchiligi.

- A. Vaqtning tejalganligi.
- V. Pedagog va talaba orasidagi nizolar kelib chiqishi sababini vujudga keltirishi.
- S. Pedagogni maoshi kamayishi.
- D. Pedagog va talaba o'rtasidagi bevosita muloqat va psixologik birlikni chegaralanganligi.

97. «Iqtisodchi texnologiyasi» usuli nima?

- A. Iqtisodiy bilimlarni esga tushirish va ularni takrorlash.
- V. Bu usul pedagogikadan olgan bilimlarni amaliyotda qo'llashni tashkil etadi.
- S. Bu usul interaktiv texnologiya bo'lib, talabalarda fikriy bog'liqlik, mantiq xotirani rivojlantirishga imkoniyat yaratadi.
- D. Barcha javoblar to'g'ri.

98. Noan'anaviy darslarni ahamiyati.

- A. Pedagogni bilish faoliyatini o'stiradi.
- V. Darslarni qiziqarli, samarali bo'lishini ta'minlaydi.
- S. Talabalarni shu fanga bo'lgan qiziqishlarini orttiradi.
- D. Barcha javoblar to'g'ri.

99. Qanday kasb egalari ahloqiy me'yorlarga qat'iy amal qilishi zarur?

- A. Pedagoglar, artistlar, san'atkorlar.
- V. Shifokorlar, savdogarlar, xakamlar.
- S. Raxbarlar, xunarmandlar, tadbirkorlar.
- D. Mehnat obyekti inson bo'lgan kasb egalari.

100 Yakuniy nazorat nima?

- A. Bu nazorat yillik mavzular o'tib bo'lgandan keyin o'tkaziladigan nazoratdir.
- V. Talabalarni kursdan-kursga o'tkazish uchun o'tkaziladigan sinov.
- S. Bu nazorat semestr uchun belgilangan mavzular to'liq o'qitilib bo'lgan, o'tilgan mavzular bo'yicha yozma, og'zaki, test shaklida o'tkaziladi.

A D A B I Y O T L A R

1. Karimov I.A. Yuksak malakali mutaxassislar taraqqiyot omili. – T.: «O'zbekiston», 1995.
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. – T.: «O'zbekiston», 1999.
3. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. – T.: «O'zbekiston», 1999.
4. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. – T.: «Sharq», 1999.
5. "Ta'lim to'g'risidagi" qonun. T. 1997.
6. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. T. 1997.
7. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: «Sharq» nashriyot-matbaa konserni, 1997.
8. Avliyoqulov N.X. «O'qitishning modul tizimi va pedagogik texnologiyasi amaliy asoslari» Buxoro, 2002 yil.
9. Azizxo'jayeva N.N. O'qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi. – T.: TDPU, 2000.
10. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.:TDPU, 2003.
11. Bepalko V.P. Slagayemye pedagogicheskoy texnologii. - M.: «Pedagogika», 1989.
12. Bepalko V.P. Osnovy teorii pedagogicheskix sistem. – Voronej, 1977.
13. Ziyomuhammadov., Abdullayeva Sh. Ilg'or pedagogik texnologiya: Nazariya va amaliyot «Ma'naviyat asoslari» darsi asosida ishlangan uslubiyo qo'llanma. - T.: «Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti», 2001.
14. Iskandarov E.A., Godfri Ye., Nazarov P. Uzluksiz ta'lim bo'yicha xorij tajribasi. Samarqand, 2004
15. Ishmuhamedov R.J. Innovasion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. – T.: TDPU, 2004.

16. Klarin V.M. Pedagogicheskaya texnologiya v uchebnom prosesse. – M.: «Znaniye», 1989.
17. Larner I.Ya. Vnimanie o texnologii obucheniya. – M.: «Pedagogika», 1990.
18. Musurmonova O., Baubekova Z.D. O'zbek xalq pedagogikasi. T., 2000.
19. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. - Qarshi.: «Nasaf», 2000.
20. Og'ayev S. Yangi pedagogik texnologiya-hayotiy ehtiyoj. – Xalq ta'limi jurnali, 2001, №3, 69-71 betlar.
21. Roziqov O., Og'ayev S., Mahmudov M., Adizov B. Ta'lim texnologiyasi. – T.: «O'qituvchi», 1999.
22. Savchenko I.P. Diagnostika razvitiya pedagogicheskogo tvorchestva uchitelya. – Pyatigorsk, 1992.
23. Sayidahmedov N.S. Pedagogik texnologiya: tahlil, ta'rif, mulohaza. – T.: Ma'rifat, 1998, 24 iyo'n.
24. Sayidahmedov N., Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiya mohiyati va zamonaviy loyihasi. – T.: RTM, 1999.
25. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – T.: «Moliya», 2003.
26. Slastenin V.A., Isayev I.F i dr. – M.: «Shkolnaya pressa», 2002.
27. Ta'limda yangi pedagogik texnologiyalar: muammolar, yechimlar: Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, O'zPFITI, 1999, 4-5 may.
28. Tojiyev., Salaxutdinov R., Barakayev M., Abdalova S. Ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalari. – T.: 2001.
29. Tolipova J.O., G'ofurov A.T. Biologiya ta'limi texnologiyalari. – T.: «O'qituvchi», 2002.
30. Farberman B.L. Progressivnyye pedagogicheskiye texnologii. – T.: 1999.
31. Farberman B.L. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. – T.: «Fan», 2000.
32. Farberman B.L., Musina R.T., Jumaboyeva F.A. Oliy o'quv yurtlarida o'qitishning zamonaviy usullari. – T.: 2002.
33. Yo'ldoshev J.G'. Yangi pedagogik texnologiya: yo'nalishlari, muammolari, yechimlari. – «Xalq ta'limi» jurnali, 1999, №4, 4-12 betlar.
34. O'zbek xalq pedagogikasi antologiyasi. T., «Pedagog» K.Hoshimov taxriri ostida, 1998y.
35. Xo'jayev N. va boshqalar “Pedagogika asoslari” 2003 yil.
36. Xo'jayev N. va boshqalar “Ta'lim nazariyasi” 2003 yil.
37. Xo'jayev N.X., Xodiyev B.Yu., Baubekova G.D., Tilabova N.T. Yangi pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma. – T.: «Fan», 2002.
38. qodirov B./. Ta'lim tizimidagi islohotlar: maqsad va yo'nalishlari. – T.: «O'zbekiston», 1999.
31. Psixologiya i pedagogika. Pod. red. A.A.Radugina. Moskva 2003.
www.ppf.uni.udm.ru
www.talant.spb.ru/wald.html
www.school.edu.ru
www.inter-pedagogika.ru
www.ppsy.ru
www.wwings.ru

MUNDARIJA

1-MAVZU. Pedagogika fanining predmeti va vazifalari. Pedagogikaning ilmiy tadqiqot usullari.	4
2-MAVZU. Pedagogikada asosiy tushunchalar.....	13
3-MAVZU. O'zbek xalq pedagogikasi tarixidan Sharq mutafakkirlari va milliy tarbiya.....	18
4-MAVZU. Tarbiya va uning turlari.	27
5-MAVZU. Didaktika fani va uning vazifalari.....	48
6-MAVZU. Ta'lim tamoyillari va usullari.....	51
7-MAVZU. Ta'limning mazmuni.....	55
8-MAVZU. Xorijiy mamlakatlar pedagogikasi.....	59
9-MAVZU. Iqtisodiy ta'lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish	67

Samarqand iqtisodiyot
va servis instituti
Institut bosmaxonasi,
Shoxrux ko'chasi, 60

Buyurtma № 77
Hajmi 8,75 b.t.
Adadi 100 nusxa